Nadejda Kevorkova

FALASTIN:

Agar o‘lishim lozim bo‘lsa…

Tarjimon: Hamid Sodiq

Agar o‘lishim lozim bo‘lsa,
Senga yashash lozimdir,
Qissamni hikoya qilish uchun,
Buyumlarimni sotishing uchun,
Bir parcha mato va
Bir qancha chilvir xaridi uchun.
Uni uzun dumli oq qilib yasat,
G‘azoning biror go‘shasidagi go‘dak,
Samoga boqib,
Na o‘z jasadi bilan,
Hatto o‘z o‘zi bilan, -
Hech kim bilan xayrlashmagan –
Otashda g‘oyib bo‘lgan,
Otasin kutayotgan chog‘ida
Varrakka nazar solsin,
Mening osmon varragimga,
Mening varragimga,
Sen yasagan o‘sha varrakka,
Samoga parvoz qilayotganda,
Oniy lahzada o‘ylasin,
Bu farishta ekanin,
Sevgini qaytarayotgan.
Agar o‘lishim muqarrar bo‘lsa,
Mayli, bu umid baxsh etsin,
Mayli, bu tarixga aylansin...

Bu she’r ingliz adabiyoti professori, shoir Refat Alarir tomonidan 2023-yil 1-noyabrda yozilgan bo‘lib, dunyoning 40 tiliga tarjima qilingan. Refat harbiy amaliyot boshlanishiga qaramay, G‘azo shimolidan chiqib ketishdan bosh tortdi va 2023-yilning 6-dekabr kuni yashash joyiga otilgan Isroil raketasi bilan o‘ldirildi. U bilan akasi, singlisi va to‘rtta jiyani halok bo‘ldi. Refat 44 yoshda edi.

SO‘ZBOSHI

Men 2013-yilda G‘azo, besh yildan so‘ng esa Quddus va G‘arbiy sohil falastinliklari to‘g‘risidagi kitobni yakuniga etkazayotganimda ziddiyat tezda hal bo‘ladigandek tuyulgan edi. Axir bu abadiy davom etishi mumkin emas-ku.

2023-yil. G‘azoda ham, G‘arbiy sohilda ham hech narsa tugagani yo‘q.

2023-yil 7-oktyabrda HAMAS chorasizlik bosimi ostida hujumga o‘tdi, bunga javoban G‘azo sektori shafqatsiz bombardimonga uchradi, minglab bolalar, keksalar, ayollar, jurnalistlar, shifokorlar va BMT xodimlari halok bo‘ldi. Ikki million odam o‘z uylaridan haydab chiqarildi va bir parcha hududda bombalar ostida sarson-sargardon bo‘lib yuribdi.

Falastinda birinchi intifada paytida ham, 2000-yil ikkinchisida ham, Isroil bosh vaziri Sharon[1] Al-Aqso masjidiga, uni bosib olish va’dasi bilan kelganidan so‘ng ham, shuningdek, 2006, 2008-2009, 2014, 2016-yillardagi, shu bilan birga har yili davomiy takrorlanadigan bombardimonlar paytida ham bunga o‘xshash voqealar kuzatilmagan edi.

Balki buni 1948-yil voqealari bilan taqqoslash mumkindir. Biroq Falastin keysida bitta qonuniyat bor: ular boshidan kechirayotgan dardlarining o‘xshashi yo‘q.

Bir kuni ko‘chada tanish falastinlikni uchratib qoldim - biz Moskvaning eng go‘zal ko‘chalaridan birida turardik. U o‘z xalqining hayoti qanday o‘tayotgani haqida, taqdirlar ortidan taqdirlarni hikoya qilib ko‘p va xo‘p so‘zladi.

Shunda men ushbu kitobni nashr etishga qaror qildim.

U G‘azo, Quddus va G‘arbiy sohildagi odamlar, falastinlik qochqinlar haqidagi reportajlar va qaydlardan iborat. Kitobdan o‘rin olgan reportajlarning ba’zilari rus yoki ingliz tillarida oldin nashr etilgan.

Men G‘arbiy sohil va G‘azoda bo‘ldim hamda butun dunyo bo‘ylab: Nyu-York, Vashington, Amman va Tehronda falastinliklar bilan uchrashdim, ko‘plab xalqaro

[1] Ariel Sharon – isroillik general va siyosatchi, 2001-yil martdan 2006-yil apreligacha Isroilning (o‘n birinchi) bosh vaziri lavozimida ishlagan.

namoyishlar, konferensiyalar, kvartetlar va yopiq eshiklar ortidagi mutlaqo foydasiz bo‘lgan uchrashuvlar hamda maslahat kengashlarida muxbir bo‘ldim.

Ishoning, Ozodlik flotiliyalari hech qayoqqa suzmayapti, birdamlik marshlari joyidan qimirlamayapti. Arab inqiloblari falastinliklarning ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Buning natijasida Falastin harakatlari Damashqdagi qarorgohlaridan mahrum bo‘ldi, Falastindagi fraksiyalar yarashuvi go‘yoki bir necha bor amalga oshganday ko‘rindi, ammo bularning barchasi borliqning virtual unsurlaridir.

Faqatgina falastinliklar taslim bo‘lmay, qarshilik ko‘rsatmoqda. Qo‘llaridan kelgancha.

Bu hayotim davomida G‘azo masalasida adolat o‘rnatilishiga guvoh bo‘laman degan - umid esa menda yo‘q.

Falastinliklarga yordam berishga urinayotgan barcha xalqaro tashkilotlarning harakatlari menga bema’ni tuyuladi.

Hamdardlik so‘zlarini aytgan siyosatchilar - yolg‘onchi. Falastin haqida lom-mim demaydiganlari esa undan ham ko‘ra yolg‘onchiroqdir.

Misrda inqilob, undan keyin esa aksilinqilob yuz berdi, Suriya urush domida qoldi, Falastin 2014-yilda BMT va YUNESKO tomonidan tan olindi, Falastin partiyalari atrofida katta siyosiy o‘yinlar avjlandi, Falastin xalqi esa avvalgiday o‘zining achchiq taqdiri bilan yolg‘iz qolmoqda va muqovamat *(qarshilik ko‘rsatishda)* da davom etmoqda. Ha to‘g‘ri, ba’zan G‘azoni esga olishadi, lekin achinish va g‘azabnok nutqlar to‘kib solishdan nariga o‘tishmaydi.

Bularning barchasi, ushbu xalqqa mansub har bir kishining kundalik iztiroblari, qurbonliklari va sabr-toqatlari oldida hech narsa emas.

Ishonchim komilki, falastinliklar iymon-e’tiqodi zaiflashayotgan har birimizga, asrimizning yovuzliklariga qanday qarshi turish va Yaratganning irodasiga tayanish aslida qanday bo‘lishi masalasida o‘rnak ko‘rsatmoqda. Musulmon bo‘lsin, pravoslav-nasroniy yoki katolik, yohud kommunist bo‘lsin - falastinliklar har bir umidsiz qalb so‘rovlariga javob bermoqdalar.

Bu kitob allaqachon rastalarda qolmagan, o‘sha oldin chop qilingan ikki kitobning qayta nashridir.

Bu kitob falastinlikning kundalik yugur-yuguri nimalardan iboratligi, non yopish, suv ichish, maktabga borish, shifokor bo‘lish, dori-darmon olish, tomni ta’mirlash uchun qanday tadbirlar qilishi kerakligi haqida.

Falastinlik insonning hayoti o‘zga dunyo insonlari hayotiga qaraganda butunlay boshqa tafsilotlardan iborat.

Katta dunyoda, maishiy hayotning arzimas ishi yoki tashvishi bo‘lib ko‘ringan narsalar Falastinda har bir falastinlikning favqulodda zulmga ulkan muqovamati bilangina amalga oshirilishi mumkin.

Falastin xalqi qanday vujudga kelgan

O‘rxon Jamol

Falastin xalqi Injilda tavsifi keltirilgan qandaydir mavhum filistiminlar emas. Unday bo‘lsa zamonaviy falastinliklar - kimlar, qayerdan paydo bo‘lishgan? Ikki yuz yil oldin hech qanday falastin xalqi yo‘q edi, balki arab tilida so‘zlashuvchi Usmonli imperiyasi provinsiyasining aholisi bor edi. Ushbu aholining ildizi qadimiy bo‘lib, ularning kelib chiqishi haqidagi munozaralar hozirgacha davom etmoqda, ammo ular ilk davrlarda o‘zlarini zamonaviy tushunchadagi xalq (*nasiya)* deb his qilishmagan.

Yevropalik yahudiylarning bu yerlarga ko‘chirib keltirilishi arafasida Falastin viloyatining aholisi 450 ming kishiga yaqin edi. 1880-yilda aholini ro‘yxatga olgan turklar ularning millatini emas, faqat konfessiyasini qayd etgan. Ularning 24 000 tasi yahudiy bo‘lib, aksariyati shaharliklar edi. Yahudiylar boshqa qo‘shnilari singari arab va turk tillarida so‘zlashar, aholining qolgan qismi musulmon va nasroniylardan iborat bo‘lgan.

Aynan yuqorida sanab o‘tilganlarning hammasi zamonaviy tushunchada Falastin xalqi bo‘lishlari lozim edi.

Aholi xursandchiligidan xalqqa (natsiyaga) aylanmaydi. XIX asr oxirida Sharqiy Yevropadan jo‘natilgan kelgindilar mahalliy dehqonlarni o‘z yerlaridan tom ma’noda siqib chiqara boshladilar. Kelgindi yahudiylar bilan mahalliy musulmonlar va nasroniylar o‘rtasidagi ziddiyat BMT Isroil davlatini e’lon qilgandan so‘ng emas, balki ancha oldin boshlangan edi. XIX asrning so‘nggi yigirma yili fellah dehqonlarining yot kelgindilarga qarshi kurashi bilan to‘lib-toshgan edi. 1886, 1889, 1891 va 1898-yillarda fellahlar ishlov berayotgan o‘z yerlaridan quvib chiqarilishiga norozilik chiqishlari bilan qarshilik qilishdi.

Yevropa bu jarayonni qo‘llab-quvvatladi: bu vaqtda kolonial siyosat hali shiddat bilan shakllanayotgan, yevropaliklar Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani orollarini o‘zaro bo‘lishayotgan, amerikaliklar esa hindularni rezervatsiyalarga haydab,

filippinliklarni ommaviy ravishda qirib tashlayotgan, inglizlar esa *bur*lar ustida konslager metodikasini sinab koʻrayotgan davrlar edi. Shunday ekan, Usmonli imperiyasiga tegishli viloyatlardan birini yahudiylashtirishni hech kim muammo sifatida koʻrmayotgan edi.

Shunday boʻlsa-da, Falastinning musulmon va nasroniy aholisi orasida etnik birdamlik tez sur'atlarda shakllandi. Avvaliga norozilik namoyishlari asosan iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish xususiyatiga ega boʻlgan esa-da, 40 yildan soʻng musulmon va nasroniy aholining yahudiylarni koʻchirib olib kelish toʻlqinlariga qarshiligi – qat'iy siyosiy tus oldi. 1920-1921-yillarda Falastin shaharlarida mahalliy aholi va yangi olib kelingan koʻchkindilar oʻrtasida shafqatsiz toʻqnashuvlar toʻlqini yuz berdi. Bu paytga kelib Falastin allaqachon Britan mandati rejimi ostida edi[2] va koʻtarilishlar sabablarini sudlov sohasi amaldori Tomas Xoup boshchiligidagi Britaniya harbiy komissiyasi koʻrib chiqishi lozim boʻldi. Uning xulosalariga asoslanib, Britaniya koloniyalar vaziri Uinston Cherchill falastinliklarni tinchlantirish maqsadida "Yahudiylarning milliy oʻchogʻi, Falastinning batamom yahudiylashuvini anglatmaydi" degan bayonotni berdi.

Aynan shu paytdan boshlab alohida olingan "musulmon va nasroniy aholisi" haqida soʻz yuritish imkonsiz boʻlib qoldi. Ular endi tahdid qarshisida jipslashgan, oʻz milliy manfaatlarini anglaydigan zamonaviy ma'nodagi xalqqa *[nasiyaga]* aylangan edi. Shubhasiz, bu xalq oʻzini okkupantlar panjasida his qilardi. Bunda nafaqat britaniyaliklar, balki koʻchkindi yahudiylarga ham okkupant sifatida qaralardi. "Yahudiy milliy oʻchogʻi"ni barpo etish siyosatini e'lon qilgan Britaniya Yevropa yahudiylaridan kolonizator sifatida foydalandi – ular mahalliy aholini siqib chiqarayotgan Yovvoyigʻarbning qoʻllovidagi oʻziga xos kolonistlari edi.

1929-yilga kelib Falastinda milliy-ozodlik harakati shakllanishni boshladi.

Quddus, Xevron va Sayda shaharlarida yangi gʻalayon toʻlqinlari yuz berdi. Qoʻzgʻolon sezilarli darajada yahudiylarga qarshi yoʻnaltirilgan boʻlib, u Britaniya

[2] Rasman Britaniya mandati 1923-yildan boshlab amal qilgan, norasmiy ravishda esa 1917-yildan beri mavjud boʻlgan.

qo‘shinlari va kolonial politsiya tomonidan bostirildi. Falastinning birinchi partizan guruhi 1935-yilda tashkil topdi. Uning tuzilishi Falastin muqovamat harakatining boshlanishi deb hisoblanadi, uning asoschisi mulla Izzad Din al-Qassam esa harakatning tashabbuskori sifatida tan olingan. Al-Qassam partizanlarining harakatlari 1936-1939-yillardagi milliy Falastin qo‘zg‘oloniga aylandi. Birlashgan front, Britaniya oliy komissari Artur Uochopdan – arab hukumatini tuzish bilan birga, yahudiylar immigratsiyasini to‘xtatishni va yahudiylarga yer uchastkalarini sotishni taqiqlashni talab qildi. Binobarin, shuni ta’kidlash lozimki, falastinliklar tobora ko‘payib borayotgan yahudiylarga nisbatan kurashning kuch ishlatish usullariga ancha kech o‘tdilar.

XX asr boshlarida Falastinga ko‘chkindi yahudiylarning asosiy oqimi Rossiyadan kelgan, faqatgina 1904-1905-yillarda u yerga 40 000 rus yahudiysi ko‘chib o‘tgan. Ularning ko‘pchiligi noqonuniy inqilobiy partiyalar bilan aloqador bo‘lib, terroristik tashkilotlarda jangovar tajriba orttirgan edi. 1907-yilda Falastinda “Bar Gior” nomli konspirativ harbiy tashkilot tuzildi. Uning asosiy maqsadi yahudiy jangarilarni tayyorlash edi. 1909-yilda “Bar Gior” qayta tashkil etildi va “Gashomer” (“Qo‘riqchi”) deb qayta nomlandi. “Gashomer” yetakchilaridan biri keyinchalik Isroil prezidenti bo‘lgan Isxak Ben-Svi edi. Isroilning birinchi bosh vaziri Ben-Gurion ham “Gashomer” ga aloqador bo‘lgan.

Birinchi jahon urushidan so‘ng sobiq so‘l eser Vladimir Jabotinskiy esa “Gashomer” ga o‘xshash “Xagana” *(“Mudofaa”)* tashkilotini, keyinchalik esa boshqa harbiy tashkilot - “Gdad Xaavoda” ni tashkil etdi. Jabotinskiyning tashkiloti terroristik hujumlar uyushtirish, qurol-yarog‘ kontrabandasi va noqonuniy muhojirlarni olib kirish bilan shug‘ullangan. “Xagana”ning birinchi qurol-yarog‘ fabrikasi Kfar Gileadi pasyolkasining yer osti tunnelida ochilgandi. Keyingisi esa Tel-Avivda joylashgan edi. 1927-yilda “Xagana”dan ajralib chiqqan “Kvutsat Xamerkas” guruhining asosiy vazifasi arab aholisiga qarshi terror uyushtirish bo‘ldi. 1929-yildagi tartibsizliklar paytida “Xagana” jangarilari qo‘zg‘olonni bostirishda faol ishtirok etdi. 1937-yilga

kelib “Xagana” safida 21 000 jangari bor edi. 1936-1939-yillardagi qo‘zg‘olonni bostirishda “Xagana” Britaniya mustamlaka ma’muriyati bilan yanada yaqin hamkorlik qildi. 1936-yilda “Xagana” Falastin qishloqlarining butun aholisini bo‘g‘izlab tashlagan sayyor otryad *(“Xanodedet”)* larni tashkil etdi, 1938-yilda esa Tiveriyada qonli qirg‘in uyushtirgan maxsus tungi eskadronlarni tuzdi. Yahudiy jangovar tashkilotlari tez sur’atda qurollanayotgan edi. Polsha “Xagana” ga katta miqdordagi o‘qotar qurollarni sotdi, bular kontrabanda yo‘li bilan Falastinga etkazib berildi. Abram Teomi yangi “Irgun svay leumi” terrorchilik tashkilotini tuzdi va rus bombistlari amaliyotini qayta jonlantirdi.

1947-yilda BMT bu hududlarda arab va yahudiy davlatlari tashkil etilishini e’lon qildi. Aslida bu Britaniyaning o‘z mandati ostidagi hududlarda yagona arab-yahudiy davlatini shakllantirishga qodir emasligini tan olish edi. Yahudiy jangarilari falastinliklarga hokimiyat organlarini shakllantirishga imkon bermadi. “Xagana” qurolli bo‘linmalari arab davlati tarkibiga kirishi kerak bo‘lgan hududlarning bir qismini darhol o‘z nazoratiga oldi. 1948-yil aprel oyida “Irgun svay leumi” jangarilari Quddus xalqaro hududiga tegishli Deyr-Yasin arab qishlog‘ida ommaviy qirg‘in uyushtirdilar. Hayfa va Yaffadan chiqib ketayotgan ingliz qo‘shinlari ortidan, yahudiylar xavfi ostida falastinlik qochqinlar ham yo‘lga otlandi.

BMT ning qarori falastinliklarni ham qoniqtirmadi. Falastinliklar orasida mashhur bo‘lgan Abdulqodir al-Husayn arab partizanlarining tarqoq otryadlarini birlashtirishga urinib, faol harakatlarni boshladi. 1948-yilda uning vafotidan so‘ng Iroqdan yetib kelgan Fauzi Kaukaji otryadlarga rahbarlik qila boshladi. U Iroq armiyasining zobiti bo‘lib, nisbatan yirik va tayyorgarlikdan o‘tgan otryadni tashkil qildi va boshqardi. Biroq bu partizanlarning havaskorlik harakati edi, u yaxshi tashkil etilgan, puxta tayyorlik ko‘rgan va qurollangan, keyinchalik Isroil armiyasining asosini tashkil etgan “Xagana” va “Irgun” otryadlariga bas kela olmadi.

Hozirda hayratlanarli vaziyat yuzaga kelgan: o‘zlarini uzoq vaqt davomida yersiz xalq deb atab kelgan yahudiy sionistlari falastinliklarni yersiz xalqqa aylantirdilar.

Falastin xalqi 70 yildan ortiq vaqtdan beri o‘ziga tegishli yerga egalik qilolmasdan yashab kelmoqda.

Yersiz qolgan xalq deganda nimani tushunish kerak, o‘zi u qanday bo‘ladi? Bir necha avlodi adolatsizlik tamg‘asi ostida yashayotgan odamlar kimlar? Umuman olganda, bunday vaziyatda qanday qilib yashab qolish, shuningdek nafaqat o‘ziga hurmatni, balki insoniyatning hurmatini ham saqlab turish mumkin? Bu kitob aynan mana shular haqida hikoya qiladi.

G‘AZO

Sektor

Sektor blokadasi haqidagi gap so‘zlar – bu ko‘plab bayonotlar, talablar, ommaviy axborot vositalaridagi chalkashliklar, internetdagi kilometrli haqoratlar va megabaytlab yolg‘onlardir.

Bu na blokada va na konslager. Blokadani olib tashlashga majbur qilish, konslagerni ochish va uning panjaralarini buzish mumkin. Bu huddiki okkupatsiya ham emas – Isroil o‘zini okkupant deb tan olmaydi va rasmiy ravishda bu yerda o‘z qo‘shinlarini ham saqlamaydi. Bu – ma’lum bir gettoni tashqi boshqarishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, unda ma’muriyat kollaboratsionistlikdan bosh tortadi.

Isroil oldin bombalangan aeroportni yana bombardimon qiladi va uning samolyotlari har kecha zulmatga cho‘mgan G‘azo ustidan gumburlab uchib o‘tadi.

Uning kemalari har oqshom dengizga chiroyli botayotgan quyosh fonida miltillab ko‘zga tashlanadi. Ular xushyorlik bilan baliqchilarning qayiqlarini kuzatib turishadi, ba’zida baliqchilarni otib tashlab, ularni darhol terrorchi deb e’lon qilishadi.

Faqat men boshimni ko‘tarib, samolyot guvillayotgan tungi osmonga tikilaman, ammo Falastin bolalari yaqin atrofida nimadir dahshatli gumburlasa-da, hatto parvo ham qilishmaydi.

Jo‘mrakdan oqayotgan ko‘zlarni achishtiruvchi sho‘r suv bilan yuvingach, bu satrlarni tunda quloqni qomatga keltiradigan darajada guvillayotgan generator berayotgan yorug‘da yozyapman. Ehtiyotsizlik qilib, Falastin uzumini jo‘mrak suvi bilan yuvib qo‘ydim: endi u sho‘r, uning ta’mi esa sho‘rtak.

Men blokada e’lon qilinganidan beri uch yil davomida bu yerga kirishga urinib keldim, lekin bu urinishlar bekor ketayotgandi. 2010-yilda nihoyat sektorga kirishga erishdim, uning ko‘chalarini kezdim, turli kasb va yoshdagi, turlicha dunyoqarash va turmush darajasidagi odamlar bilan suhbatlashdim. Men sektorga kirib kelishni chegara nazorat punkti orqali amalga oshirdim. Umidsizlikka tushgan falastinliklar kabi –

devordagi yoriqlardan yoki falastinlik, jumladan rus onalari o‘tib kelayotgan tunnellardan ham foydalanmadim. Bu onalar o‘z farzandlari va juftlarini ko‘rish hamda bag‘riga bosish uchun darvozalar ochilishini umidsizlik bilan kutishdan charchab, ana shu tunnellardan o‘tishga majbur bo‘lishmoqda.

G‘azoda blokada yengillashganini tasdiqlab beradigan biror bir kishini topishga muvaffaq bo‘lmadim.

Lekin men bu yerda bir yangi tipdagi shaxsiyatlarni ham uchratdimki, ular Isroildan – mehribon, mehmondo‘st va sodda dehqonlar sifatini, istar-istamas axtarib topish umidida bo‘ladi. O‘nlab yillar davom etgan misli ko‘rilmagan zulm va asoslanmagan shafqatsizlik falastinliklarni dunyodagi eng ma’rifatli, jipslashgan, a’lo darajada uyushgan, eng fantastik tahdidlar oldida ham tushkunlikka tushmaydigan va qo‘rqmas xalqqa aylantirdi. Bu yerda mard bolalar tug‘iladi, ular sher yurakli erkak va ayollar bo‘lib voyaga etadi.

Dunyoning yuragi mana shu yerda – Falastinda urayapti. Tarix shu yerda yozilmoqda, uning asab tolalari shu yerdan o‘tgan va faqat shu ma’noda u g‘alaba qozonish mumkin.

Inqirozni boshdan kechirayotgan, tushkunlikka tushgan yoki kundalik hayotning arzimas azob-uqubatlaridan qayg‘urayotgan har bir kishi Falastin qiyofasiga nazar solishi kerak. Shundagina hayot jarligi chegarasida turib, qurolsiz xolda Xudoga tavakkal bilan – tish-tirnog‘igacha qurollangan dushmanning ko‘ziga kulib qarash qanday bo‘lishini tushunasiz.

2010-yil. Blokadaning to‘rt yili

Qizib cho‘g‘ bo‘lgan sahroiy ko‘chada eshak yelib bormoqda. Uning orqa oyoqlari oldingi oyoqlariga tez-tez urilib ketayotgandek, hademay qoqilib tushadi deb o‘ylaysiz. Ammo u qoqilmaydi, balki ko‘zini bir muncha orqaga qiyalatib qarab, keskin to‘xtaydi. Undan yigirma metrcha orqada egasi yugurmoqda.

Egasi yaqinlashib, ushlashga uringan zahoti, eshak shatoloq otib, boshini silkitib, keng yoyilgan qo‘llardan qochib, orqaga buriladi. Egasi esa yana uning ortidan ergashadi.

Bu o‘yinni yondiruvchi jaziramadan soyaga yashiringan o‘tkinchilar kuzatib turishardi. Quyuq changda vayronalarda qolgan toshlarni elayotgan ishchilar ham. Oilasini boqish uchun saralangan toshlarni aravalarda tosh maydalagichga tashib pul topayotgan kattaroq bolalar ham. Ko‘chada shunchaki o‘ynab yurgan jajji bolajonlar ham. Kichik guruhlarga jamlanib o‘z yumushlariga ketayotgan ayollar ham. G‘azoga katta qiyinchiliklar bilan yetib kelganimga ikki kun bo‘lgan, men ham bu tomoshani kuzatardim.

Barchamiz jilmayamiz. Bu xo‘tikcha bugungi G‘azo sharoitida inson tabiatining qandaydir mohiyatini ifodalaydi. Umr jarligi chegarasiga siqib olib borilgan, ammo taslim bo‘lmagan inson mohiyatini.

U hatto bo‘sh hudud bo‘lmasa ham, bahona topilmasa ham, hatto o‘yinning o‘zi ham yo‘q bo‘lgan paytda o‘ynaydi va oniy bir lahzada – na jazirama, na g‘amginlik, na fojia yuki - u qadar katta emasdik tuyuladi.

G‘azo – bu O‘rta yer dengizi bo‘ylab uzunligi qirq, kengligi esa 6-12 kilometr bo‘lgan, Isroilning Misr bilan chegarasidagi sohil bo‘yi yo‘lagidir.

Ba’zi isroilliklar sektor maydoni ancha katta ekaniga ishonishadi - ularning xaritalarida shunday ko‘rsatilgan. Ularning o‘z hokimiyatlari okkupatsiya yillarida chegaralarni tobora toraytirib borgani, oxir-oqibat sektordan anchagina yerni ajratib, devor qurgani xayollariga ham kelmaydi.

Oxir-oqibat, G‘azo endi juda kichkina. U qo‘riqchi minoralar bilan o‘ralgan bo‘lib – quruqlik, havo, dengiz va koinotdan uzluksiz kuzatuv ostidadir. Minglab kameralar kechayu kunduz u yerdagi aholini kuzatib turadi. Turli xil moslamalar havoda uchib, odamlarning yer haydashi, baliq ovlashi, maktabga borishi, to‘y qilishi va yaqinlarini dafn etishini tasvirga oladi.

Ba’zan osmonda samolyotlarning guvillashi eshitiladi, ufqda kemalar harakati ko‘zga tashlanadi. Bular bosqinchi tuzumning samolyotlari va kemalaridir. Birorta ham falastinlik to‘satdan quloqni qomatga keltiradigan shovqin manbasiga e’tibor bermaydi.

Zotan bu gumburlagan portlovchi tovushni boshqa hech narsa bilan adashtirib bo‘lmaydi – faqat bombalar shunday portlaydi.

“Agar har bir shovqinga e’tibor beraversak, vaqtimiz qolmaydi,” – deydi menga Ahmad.

U 25 yoshda, ikki oylik qizchasi bor, Ahmad ziyoli oiladan chiqqan, ingliz va fransuz tillarida so‘zlashadi. Uning ajdodlari G‘azoda tug‘ilib yashashgan.

Ahmad, G‘azodagi har bir oila yaqinlarini yo‘qotish dardini boshidan kechirganini juda yaxshi biladi. Ahmadning ishonchi komilki: blokada va okkupatsiya shundoq ham odamni ich-ichidan yemirib tashlaydi, ammo g‘am-g‘ussa va tushkunlikka berilib ketsang, ular seni va yaqinlaringni butunlay va qoldiqsiz yutib yuboradi.

“Shuning uchun biz ruh tetikligini yo‘qotmaymiz va uchoqlarga e’tibor bermaymiz”, – deya jilmayadi Ahmad.

Men suhbatlashgan odamlarning ko‘pchiligi jilmayardi, garchi G‘azo yashovchisi nuqtai nazaridan kulishga arzigulik narsa bo‘lmasa ham.

Ha – shunday xalq bu.

Ahmad yaqinda tahsil olish uchun Yevropada bo‘lib keldi.

“Men u yerda qizlar va ayollar bilan qo‘l berib so‘rashishga tayyor edim. Ammo qarangki, o‘pishish ham kerak ekan. Belgiyada bir marta, Fransiyada ikki marta, Gollandiyada esa uch marta!” – deya kulgiga to‘lib toshadi Ahmad.

Bunday jazirama hamda og‘ir ish sharoitida qanday qilib shuncha kuch topishini so‘radim: u kuniga 10 soat tarjima ishi bilan shug‘ullanadi, ertalab va kechqurun dissertatsiyasi hamda ishi bo‘yicha nimalardir yozadi, kechalari esa ayoli uxlab olishi uchun qizini tebratadi.

“Men yoshman, kuch-quvvatga to‘laman, ko‘p rejalarim bor va aniq bilamanki, qiyinchiliklarga e’tibor qaratmaslik kerak – agar doimo hayot og‘irliklarini o‘ylayversak, omon qolmaymiz va g‘alaba qozonmaymiz”. Ahmad shunday ishonch bilan gapiradiki, ularning omon qolishiga shubha qilmaysan. Va ular albatta g‘alaba qozonishadi.

Iroq, Pokiston, Dog‘iston, Ingushetiya, Shimoliy Osetiya va boshqa joylarda ko‘zga tashlanganidek, G‘azoda hech kim shikoyat qilmadi va uni tinchroq joyga olib ketishni so‘ramadi. Hatto so‘nggi urushda uy-joyi, butun oilasi, barcha tirikchilik vositalari va qarindoshlaridan ayrilgan ikki ayol ham nolimasdi. Ular meni chet ellik ayol ekanligimni bilib, ko‘chada yonimga kelishdi va qanday yashayotganini, BMT bergan oziq-ovqat ulushlarini sotib ijara haqini to‘lashini, so‘ngra ovqatlanish uchun uyma-uy yurib ehson so‘rashini aytib berishdi.

“Haqiqatni yoz. Biz gadoy ham, tilanchi ham emasmiz, odamlar qo‘llaridan kelgancha yordam berishadi - bu bizning urf-odatimiz. Lekin butun dunyo qayerda? Bizni bombardimon qilishayotganda va bu yerda qamalda saqlanayotganimizda ular qayoqqa qarayapti?” – deyishdi ular.

Bu yerdagi odamlar “Haqiqatni yoz” deb tez-tez aytishardi.

Haqiqat – o‘zining eng to‘liq ifodasida shundan iboratki, yerning bu bo‘lagida 1,5 million[3] kishi yashab qolishi mumkin emas. Shunday bo‘lsa-da, boshqa har qanday xalq taslim bo‘ladigan sharoitlarda falastinliklar qat’iyatlik ko‘rsatib omon qolmoqdalar.

G‘azo haqidagi hikoyani tinglab, Kavkazdagi jasur yigitlardan biri “Chechen batalioni bu muammoni uch kunda hal qilardi”, – dedi.

Afsuski, biz yashayotgan g‘alati dunyoda muhojirlar avlodlari va yaqinda ko‘chib kelgan ba’zi chechenlar va cherkeslar falastinliklarni o‘ldirayotgan armiyaga yollanmoqda. Kavkazdagi qarshilik ko‘rsatish saytlari Isroil targ‘ibotini itoatkorona

[3] 2023-yilda G’azo sektordagi falastinliklar allaqachon 2,2 millionga etgan edi.

uzatib, falastinliklar bilan birdamlikni bildirish uchun shoshilmayapti. Xorijiy ommaviy axborot vositalari – mujohidlarni, millatchilik harakatlarini, Kavkazdagi zo‘ravonlikka qarshi qo‘zg‘olonlarni qo‘llab-quvvatlaydi, ammo Yaqin Sharq masalasida Isroil tomonida qat’iy turishadi.

Shunday ekan, hozircha ufqda G‘azo muammosini hal qila oladigan batalionlar ko‘rinmayapti – faqatgina G‘azo aholisining shaxsiy matonati, bolalar, ayollar, o‘g‘il bolalar va keksalarning, shuningdek qurolsizlar va miskinlarning bardoshi qolmoqda.

Ochig‘ini aytaman – bu yerga kelish uchun ko‘p kuch sarflashimga to‘g‘ri keldi. Men XXI asrda Qohira va Rafah o‘rtasidagi jazirama sahro bo‘ylab jurnalistlar uchun chegara panjarasini ochadigan[4] g‘alati hujjatlar ortidan yurishga majbur bo‘ldim.

Bu eshik na iordaniyalik shifokorlar uchun, na G‘azodagi har bir bola biladigan amerikalik advokat Stenli Koen uchun ochildi. Bu yerda uni doktor Stenli deb chaqirishadi. U yahudiy va Nyu-Yorklik muvaffaqiyatli advokat bo‘la turib falastinlik oilalarning huquqlarini himoya qiladi[5].

Menga chegarada birinchi marta rad javobini berishgan kuni Stenli Koenga ham rad javobini berishgandi. Menga o‘xshab u ham yopiq darvozadan nariga o‘ta olmadi, men kabi u bilan ham birorta ofitser gaplashgani chiqmadi, men singari u ham Qohiraga qaytdi. Tanishlarim SMS yuborishdi: “Sen nima xohlayapsan o‘zi, ular kimsan doktor Stenlini ham o‘tkazmabdi-ku!”

Bizning vaziyatimizdagi farq shunda ediki, men chegarada muvaffaqiyatsizlikka uchragach, Rossiya elchixonasiga bordim va menga u yerdagilar yordam berishdi. Amerika elchixonasi esa Stenli Koenga hech qanday yordam ko‘rsatmadi, Amerika fuqarosini Misr maxsus xizmatlari qanday xo‘rlayotganini nochor kuzatishdan boshqasini uddalashmadi.

[4] 2017-yildan boshlab xorijiy jurnalistlar, BMT va, missiya xodimlari G’azo sektoriga faqat Isroilning Eres nazorat punkti orqali o‘tishlari mumkin. Misrning Rafah o‘tish joyi ular uchun yopiq.

[5] Stenli Koen 2014-yilda advokatlik maqomidan mahrum qilinib, 18 oy qamoqda saqlangan. U HAMAS siyosiy byurosi a’zosi Musa Abu Marzuk AQSHda hibsga olinganida uni xuquqiy himoya qilgan va ko‘plab falastin oilalarining manfaatlarini ifoda etgan.

Ikkinchi marta nazorat-o‘tkazish punktidan o‘tishga uringanimizda u bilan uchrashdik. Tayinlangan Misr ofitseri menga vasiylik qilardi – o‘sha ofitser bo‘lmaganda chegara qog‘ozlarini to‘ldirishga mas’ul bo‘lgan amaldorlarni bir kunda ham aylanib chiqolmagan bo‘lardim.

Stenli bir necha soatdan beri peshtaxta oldida turar edi. Unga goh va’da berishar, goh bosh chayqashar, goh qayergadir qo‘ng‘iroq qilishardi. Men Stenliga qo‘l silkidim va biz bir birimizga salom yo‘lladik. Men unga bu safar ham o‘tishimga ishonchim yo‘qligini aytdim. Sudlashayotgan oilalar sud ishlari yuzasidan turli ishonchnomalarni imzolashlari uchun Stenli G‘azoga albatta o‘tishi kerak edi.

Navbatdagi amaldor uning hujjatlarini hissiz ko‘chirayotgan paytda “Men ham Rossiyadanman”, – dedi xursand bo‘lib Stenli. “Rossiya” so‘zini eshitgach, amaldor seskanib ketdi. Nazarimda Stenli aynan shunday ta’sirga umid qilgandi. Har holda u amaldorga g‘olibona nazar tashladi va ko‘zlari chaqnab ketdi. “Mening ajdodlarim Litvada yashaganlar, keyin Zimbabvega, so‘ng Amerikaga ketishgan. Shukrki Falastinga emas”, – dedi Stenli.

Shunday qilib, u o‘zining ba’zi qabiladoshlariga o‘xshab qora ishlarda qatnashmagani uchun ajdodlariga o‘z minnatdorchiligini bildirganday bo‘ldi.

O‘sha kuni men chegaradan o‘tdim va Stenlining o‘tib kelishini esa yana uch soat kutdik.

Stenlini o‘tkazishmadi, u Qohiraga qaytib, musulmon mamlakati bo‘lmish Misr va uning hukumati G‘azo sektoridagi Isroil genotsidini astoydil qo‘llab-quvvatlashi haqida g‘azabli intervyu berdi.

Oddiy misrliklarda G‘azo sektorining bo‘g‘ib tashlanayotganidan dahldorlik ruhiyati uyg‘onmaydi. Aksincha, G‘azoga ketayotganingni aytishing bilanoq chet elliklarni va ularning pullarini ovlaydigan oddiy odamdan siyosatga do‘nishadi. Misrlik amaldorlardan tortib to taksi haydovchilarigacha, bu yovuzlik uchun butun javobgarlik Isroil zimmasida bo‘lishi kerak deb hisoblaydilar. Oddiy ijrochi xizmatchilar esa falastinliklar bilan birodarlarcha ish tutmayotganligi uchun o‘zini noqulay his qilishadi.

Men yopiq darvozalar oldida oftobda jizg‘anak bo‘lar ekanman, Misr chegarachilari esa pasportimni ko‘zdan kechirib, bosh chayqasharkan, boshliqlari kimgadir qo‘ng‘iroq qilishardi. To‘satdan ulardan biri pasportimni silkitib, telefon trubkasini qo‘yar-qo‘ymas, derazadan: “Siz nimalar qilyapsiz? Axir u Rossiyadan-ku! U hozir bu quyoshda erib ketadi-ku! Keyin biz nima qilamiz?” – deydi.

Ko‘rinib turibdiki, ular uyalishyapti – hatto o‘z uyatlarini ham ko‘rsata olmaganlari uchun uyalishyapti. Boshlarini chayqab, temir darvozaning bu tomonidagi soyaga o‘tishimni iltimos qilishdi. O‘zlari esa narigi tomonda gilamchalarni to‘shab, namozga turishardi.

2011-yilda Husni Muborak rejimi quladi. Inqilobiy prezident Mursiy keldi. Chegaradagi vaziyat ozgina yumshadi, ahvol biroz engillashdi. 2013-yilda general as-Sisiy davlat to‘ntarishini amalga oshirdi va chegaradagi tartib-qoidalar yanada qattiqlashdi. Oxir-oqibat chegara butunlay yopildi va yilda ikki marta, bayramlarda ochiladigan bo‘ldi.

Chegara tom ma’noda yopiq – uning darvozasi qulfda. Faqat qamal yillari davomida sektordan chiqib ketmoqchi bo‘lgan yoki unga qaytmoqchi bo‘lgan ozchilikni, ko‘zga tashlanmaydigan panadagi eshikdan istar-istamas o‘tkazib yuborishadi.

Misr statistikasiga ko‘ra, 2010-yil iyun oyining dastlabki ikki haftasida o‘tish punktidan har ikki tomonga 7 000 kishi o‘tkazilgan.

O‘shanda jazirama oftobda, uch soat turganimda G‘azoga bir falastinlik o‘tib ketdi. Bittasi esa chiqdi.

Shunga qaramay, G‘azo sektori ixtirochi, tirishqoq va sabr-toqatli odamlar bilan to‘lib-toshganini takrorlashdan charchamayman. Ular bombardimon qilingan inshoot vayronalarini qismlarga taqsimlab, metall simlarni ajratadilar, toshlarni va qurilish chiqindilarini elakdan o‘tkazadilar. Minglab eshak va ot aravalarida bu qurilish mollarini maydonchalariga olib kelishadi. Uning yordamida uylarni ta’mirlashadi va oz bo‘lsa-da yangilarini qurishadi. Ular nonni elektr tokisiz pishirish uchun tandir

yasashadi va loydan uy yasash bilan bog‘liq qadimgi mahoratini qayta jonlantiradi. Agar sinchiklab qaralsa, ba’zi tomlar – faner, polietilen, ba’zan esa shunchaki karton bilan yopilgan. Ammo uzoqdan turib, G‘azo hayotini shunday suratga muhrlash mumkinki - go‘yo bu yerda hamma narsa joyida.

G‘azoda guvvillash bor, uni generatorlar chiqaradi. Har bir generator – mislsiz boylik. Generatori bor odamlar elektrga ega, ya’ni ularda chiroq, muzlatgich, issiq suv va hatto kompyuter va televizor ham bo‘lishi mumkin. Hammaning, hatto eng baxtiyor odamlarning ham suvi sho‘r. U teri, ko‘z, bolalar organizmi va quvurlarni emiradi. Ammo G‘azoda boshqa suv yo‘q. Yangi quduqlarni qazish uchun kerakli uskunalar ham mavjud emas.

Falastinliklarni devor bo‘ylab qo‘riqlaydigan odamlar buning birortasidan habardor emas. Jamoaviy azob-uqubatni xalqaro huquq normasiga kiritgan va bu tushunchani boshqalar o‘zlashtirib olmasligini doimiy nazorat qilib turgan davlat (*Isroil)* fuqarolari ham bu haqda bilishmaydi. Internet aktivistlaridan tashkil topgan Isroil armiyasi kechayu kunduz dunyoning barcha internet-forumlarida Falastin blokadasi va kulfatlari masalasida barcha faktlarni inkor etishga urinishadi.

G‘azoda mashinalar va boshqa ko‘p narsalar bor, bularning barchasi Misr tomondan tunnellar orqali olib kelingan. Tunnellar – qamaldagilarning kashfiyoti. Ular bo‘lmaganida bir yarim million aholi tirik qolmasdi. Do‘konlar va bozorlarga deyarli barcha mollar tunnellar orqali kirib keladi.

Barcha zavodlar, ustaxonalar, fabrikalar va korxonalar 2008-yilgi bombardimonlar natijasida vayron bo‘lgan. Mutlaqo hammasi. Ularning parchalangan uskunalari, bombardimon qilingan qabriston va xarobaga aylantirilgan masjid yaqinidagi sobiq sanoat hududida qator-qator bo‘lib turibdi.

Biroq falastinliklar tushkunlikka tushmay, chang-to‘zon ostida ishlashmoqdalar, toshlarni g‘alvirdan o‘tkazishmoqda.

“Jahon chempionatini kuzatayapsizmi?” – G‘azo tuprog‘iga qadam qo‘yishim bilanoq menga berilgan birinchi savol shu bo‘ldi. Bu yerda futbol, to‘ylar va dengiz –

tinchlik hamda erkinlik ramzlari hisoblanadi. Buni muhokama qilmasdan shunchaki tan olish kerak, aks holda ushbu “munavvarlar davrida”, saylovlarda noto‘g‘ri ovoz bergani uchun[6] ayollar, erkaklar, bolalar va keksalarni yillar davomida qamalda saqlash mumkinligiga ishonishga majbur bo‘lasiz.

Qishloqning baxtiyor aholisi

Safat Hamdun 23 yoshda. U qishloq xo‘jaligi fakulteti talabasi. Biz G‘azo sektorining shimolida joylashgan kichik shahar – Bayt-Laxiya chekkasida joylashgan bodring ekilgan dalada turibmiz.

Men u bilan uchrashuvni oldindan kelishmagandim. G‘azo va Isroilni ajratib turuvchi devor yaqinidagi qishloq xo‘jaligi yerlarini ko‘rish maqsadida dalalar orasidagi tor tuproq yo‘ldan ketayotgan edim. Jo‘yakda birinchi ko‘rganim Safat Hamdun edi. U suhbatlashishga rozi bo‘ldi.

Safat fermerlar oilasidan, qochqinlardan emas. Hamdunlar oilasi va uning ajdodlari ushbu zaminda uzoq davrlardan beri yashab keladi va ular katta ekin maydonlariga ega. Safat va uning akalari kuniga 10-12 soatdan ishlaydi. Ko‘plab qarindosh-urug‘ va qo‘ni-qo‘shnilari ular bilan mehnat qiladi.

Safat kuzda qulupnayni qayerga ekishini ko‘rsatib, xo‘jaligi haqida maroq bilan hikoya qiladi. Hozir uning ishlari yaxshi ketyapti: sug‘orish tizimi ishlab turibdi, oilasining uyi bor, u ovqat va o‘qishi uchun pul topadi, generator va benzin sotib olish imkoniyati bor, shuning uchun elektr ham bor. Generatorning narxi bilan qiziqaman. U Safatga 300 dollarga tushgan – bu juda katta mablag‘, lekin generatorsiz hosil bo‘lmaydi. Generator va benzin tunnellar orqali olinadi.

[6] 2004-yilda Yosir Arofat vafot etdi. Uning davrida Falastin poytaxti G’azoda joylashgan edi. U Ramallohga ko‘chib o‘tmadi, chunki Quddusni Falastinning poytaxti deb hisoblardi. 2006-yilda Falastin muxtoriyatida parlament saylovlari o‘tkazildi. G’arbiy sohilda ovozlarning ko‘p qismi FATH uchun, G’azo sektorida esa HAMAS uchun berildi. Bu saylovlarda AQSH va Yevropa Ittifoqidan xalqaro kuzatuvchilar ishtirok etib, saylovlarni adolatli deb tan olishdi. Keyingi yillar davomida Ramallohdagi hukumat turli bahonalar bilan yangi saylovlar e’lon qilmadi.

Ufqda – Isroil chegara devori, kuzatuv minoralari va kuzatish uchun ko‘plab moslamalar ko‘zga tashlanadi. Chegara devori Hamdunlar oilasiga tegishli daladan o‘tkazilgan va 500 metrlik shudgor yerini kesib olgan. Safat ularning mulklari ilgari qayerlargacha yetib borganligini ko‘rsatadi. Hamdunlar oilasiga hech qanday kompensatsiya to‘lanmagan. Zotan ularning o‘z ekin maydonlari uchun hujjatlari bo‘lsa-da.

“Ko‘ryapsizmi, dalaning chegaralari yashil, undan narida esa qum? Bu ham bizning yerimiz. Lekin uni buldozer bilan tekislab ketishgan, devorga yaqin borish mumkin emas. Bu barcha fermerlar uchun qoida”, – deydi Safat. Uning aniqlik kiritishicha, isroilliklar yerning unumdor tuproq qatlamini ko‘chirib olib ketishgan. Safat “isroilliklar” yoki “yahudiylar” o‘rniga “ular” so‘zini ishlatadi. Men esa har safar uning kim haqida gapirayotganini aniqlashtirib olaman. U devor tomonga ishora qiladi.

Agar yaqinroq borib, 500 metrli zonada biror narsa ekish boshlansa nima bo‘lishini so‘rayman. Safat menga boqib, chindan ham tushunmayotganimni aniqlab olishga harakat qiladi.

“O‘ldirishadi” – deydi va sodda javobini yumshatish uchun jilmayadi.

“Ko‘p yillik va baland daraxtlarni kesishni talab qilishadi”. Faqat past o‘sadigan ekinlarni ko‘paytirish mumkin. Zaytun ekish mumkin emas. Omborlarni olib tashlashni buyurishadi, aks holda bombardimon qilishadi. Dalada ishlash xavfli - istalgan vaqtda o‘q uzishi mumkin. Yetti oy ichida yetti qo‘shnimizni o‘ldirishdi. Ikki hafta burun bombardimon qilishdi. Ular tanklarda kelib, irrigatsiya tizimini yo‘q qilishdi. Hech qanday sababsiz. Ertalab ham otishdi. Ketma-ket to‘rt kun uyimizni o‘qqa tutishdi”, – deydi Safat.

Miyamda Viktor Soy qo‘shig‘ining: “Men brezent dalaga alyuminiy bodringlar ekyapman”, – so‘zlari aylanadi.

Safat va uning qarindoshlari qaysi partiyaga mansubligini so‘rayman. U kulib javob beradi: “Biz fermermiz, siyosatchi emas. Biz yerda ishlaymiz”.

Men yana so‘rayman: “Ular sizni HAMASni qo‘llab-quvvatlayapsiz deb o‘ylab, o‘qqa tutishayotgan bo‘lishi mumkinmi?”

Safat shunday deydi: “Biz dehqon bo‘lamizmi yoki yo‘q, HAMAS ga qarshimizmi yoki tarafdor, farqi yo‘q – ular buni har qanday falastinlikdan qutilish uchun qilyapti”.

“HAMAS a’zosi bo‘lgan fermerlar bormi?” – deb so‘rayman.

“Tushuning, fermerlarning siyosatga vaqti yo‘q. Siyosatga kirgan fermerlar hamma partiyalarda bor. Lekin ular bu yerda yashamaydi, dalada ishlamaydi, o‘q otayotganlar buni bilishadi, kimni bombardimon qilishlari esa ular uchun baribir”, – deydi Safat.

Bu yerdan Isroilga kim raketa uchirayotganini ko‘rmadingizmi, deb so‘rayman. Safat esa bu joylarda raketani qayerdan uchirish mumkinligi haqida umuman tasavvurga ega emas.

U devor tomonga ishora qildi. “Kuzatuv minoralarini ko‘ryapsizmi? Ularda doimiy kuzatuv kameralari bor, agar qandaydir shubhali harakat bo‘lsa, avtomatik ravishda reaksiya qiladi. Kunduzi ular o‘z ko‘zlari bilan kuzatishadi. Agar o‘q uzishsa, shunchaki fermerlarga qarata otayotganini ko‘rishadi. Qorong‘ida mabodo it yugurib o‘tsa – unga avtomatik ravishda o‘q uzishadi”.

Hozir bizni ko‘rishyaptimi, deb so‘rayapman. “Albatta, ular bizni ko‘rib turishibdi”, – dedi Safat. U bizni qayerdan kuzatishayotganini ko‘rsatadi.

“Agar men qog‘ozga “Otma” deb yozsam, ular ko‘radimi?”

“Otma!” – hozirda Rossiyada ikkinchi mashhurlik davrini boshlagan Yuriy Shevchukning xit qo‘shig‘idir. Bizning rok qo‘shiqchilarimiz Isroilga uyushtiriladigan gastrollarni yaxshi ko‘rishadi. Ularning hech biri hatto bir marta ham falastinliklarni qo‘llab-quvvatlash yoki hech bo‘lmaganda qamalga qarshi norozilik bildirish uchun qo‘shiq aytmagan.

“Yo‘q – deya, yana jilmaydi Safat. – Ular shunchaki bizning sharpalarimizni ko‘rishyapti, turib suhbatlashayotganimizni payqashyapti”.

Uning ukasi Kamol 19 yoshda, u ham talaba. U suhbatga qo‘shilish uchun yaqinlashadi: “Agar yo‘q qilinsa, achinmaydigan narsalarni yetishtirmoqdamiz. Chet elga hech narsa sota olmaymiz – barchasini Isroil nazorat qiladi. Ular buldozerlarida yo‘llardan emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri dalalardan yurishadi. Urush paytida fermerlarni haydab chiqarishdi, ekinlarni yo‘q qilishdi. Mana bu ko‘chma plastik konteynerni ko‘ryapsizmi? – u shamolda tebranayotgan puflab shishiriladigan kubni ko‘rsatardi. – Omborxonani buzish haqidagi Isroil buyrug‘ini Qizil Xoch bizga yetkazgandan keyin buni o‘rnatdik. Agar buyruqni bajarmasak, unga zarba berishadi. Biz omborxonani ko‘p marta ko‘chirganmiz. Jonga ham tegdi. Mana endi ko‘chma konteyner ishlatmoqdamiz. Biz qochoq emasmiz – qochoqlarning yeri yo‘q. Qayerga boramiz? Bu yer bizniki, bu bizning tirikchilik manbaimiz. Unda ishlash xavfli, bu haqiqat. Ammo boshqa choramiz yo‘q,” – deydi Kamol.

Ular bombardimonlardan keyin portlamay qolgan minalar muammosini qanday hal qilishganini so‘rayman.

“Urushdan qolgan snaryadlar ko‘p. Biror shubhali narsani ko‘rsak, politsiya va muhandislarni chaqiramiz”, - deydi Kamol.

Men ulardan 2008-2009-yillardagi urushdan keyingi otishmalardan tashqari isroilliklar bilan mojarolar bo‘lganmi, deb so‘radim.

“Albatta, ular bronetexnikada kirishadi. Bir hafta burun isroilliklar kelib, fermerning yer haydaydigan otini olib ketishdi. Fermerga yerga yotishni buyurishdi. Agar g‘azablansangiz, o‘ldiradi va terrorchi deb e’lon qilishadi. Ikki kundan keyin otni qaytarib berishdi. Ular qayerda mina borligini tekshirish uchun otlarimizdan foydalanmoqda”, – deydi Kamol.

Hamdunlar oilasining omadi keldi, ular o‘z yerlarida qolishdi, oila o‘z uyiga ega, 2008-2009-yillardagi bombardimonlardan keyin ekinlarni tiklay olishdi. Ularni o‘ldirishmadi. Ular endi tahsil olishi uchun pul to‘lashlari mumkin.

G‘azo sektorida 1,5 million kishidan 1,1 millioni qochqinlar, ya’ni yersizlar. “Qo‘yma qo‘rg‘oshin”[7] operatsiyasida barcha ustaxona va fabrikalar vayron qilindi, endi esa ularda nafaqat yer, balki ish ham yo‘q. Shunday qilib, falastinlik Hamdunlar oilasining fermerlari shunchaki omadli odamlardir.

“Nega siz ulardan keyin kelasiz?”

“Nima uchun siz hamisha urush va vayrongarchilikdan keyin kelasiz? Nega siz ularni oldinroq to‘xtatishni istamaysiz?” 22 yoshli fermer Faysal Malak suhbatga unchalik moil emas, chunki shu kungacha bunday suhbatlardan hech bir foyda ko‘rmagan.

Faysal iborasi bilan aytganda “ular” – ya’ni Isroil armiyasi bu yerdan bir necha yuz metr narida. Chegara – bu elektr tokli sim va minora. Uning so‘zlariga ko‘ra, simlarga berilgan tok har qanday tirik mavjudot uchun halokatlidir.

Faysal oilasining uyi chegaraga ancha yaqin.

“1948-yildan beri yevropaliklar biz haqimizda o‘z gazetalarida yozishgani yozishgan, lekin hech narsa o‘zgarmaydi. Siz 2008-yilgi urushdan beri biznikiga kelgan yo to‘rtinchi yoki yettinchi odamsiz. Jurnalistlar ularni to‘xtata olmaydi”. Faysal bolalarga tarqalishni va derazadan tashqariga qaramaslikni buyuradi, menga esa devorlardagi o‘q izlarini va oilasini himoya qilish uchun o‘rnatilgan po‘lat panjaralarni suratga olishga ruxsat beradi.

Bu o‘q izlari va temir darchalar bizga uzoqdan ham ko‘ringandi. Lekin bola baribir bola-da: ular taqiq ostida bo‘lsa-da, yana kattalar atrofida o‘ralashib yurishadi.

Faysal Islom universiteti bitiruvchisi, a’lochi, magistr, menejer.

“Isroilliklar sizlarni johil dehqonlar, o‘qishni ham bilishmaydi”, – deb ta’riflashadi deyman.

[7] “Quyma qo‘rg’oshin” – Isroilning G’azo sektoriga qarshi 2008-yilgi Rojdestvo bayrami arafasida boshlangan hujumi. Isroil o‘zining barcha jazo operatsiyalarini AQSH kabi dabdabali iboralar bilan ataydi.

“Biz Yaqin Sharqdagi eng o‘qimishli xalqmiz, ular qancha ko‘p narsamizni tortib olsa, biz shuncha ko‘p o‘rganamiz. Ilgari men bog‘da ishlashim mumkin edi, endi esa menga o‘qishdan boshqa ish qolmadi. Buning hech qanday kulgili joyi yo‘q”, – deydi Faysal mening zo‘raki tabassumimga javoban.

Ilgari uning oilasining bog‘lari bor edi, endi esa ular yo‘q.

“Isroil buldozerlari 2000-yildan beri barcha daraxtlarni yo‘q qilib kelmoqda – apelsin, limon, bodom, zaytun daraxtlarini kesib tashladi. Hatto tovuqxonani ham vayron qilishdi. Ular 2000 va 2009-yillarda uyimizni ikki marta qum bilan ko‘mishgan. 22-yanvarda buldozerda kelishdi va tomgacha qum bilan ko‘mib tashladi”, – deydi Faysal va buldozer haqidagi gapni ikki marta takrorlaydi, chunki men bularning barchasini aqlimga sig‘dirishga qiynalayotgan edim.

Uning amakisi Muhammad Malak bizning oldimizga chiqadi. U 58 yoshda, Qohira universitetining bakalavr bosqichini tugatgan, ingliz tilini biladi va jurnalistlar bilan suhbatlashish ijtimoiy foydali ish ekaniga ishonadi. U Isroil patriotlari og‘zida yuradigan: ular kelgindi qabilalarmi? Lo‘lilarmi? Ular o‘z yerlarini doimo Isroilga sotish taraddudidami? Isroil aholi punktlari G‘azodan olib chiqilmagan davrlarni falastinliklar qo‘msab yashaydimi? – kabi savollarga sabr-toqat bilan javob beradi.

“Bizning oilalarimiz bu yerda azaldan – yuzlab avlodlar davomida yashab kelgan. Hozirda chegara bilan kesib tashlangan mening erimda Sharonning oilasi istiqomat qilmoqda. Sharon qaerdan kelganini bilasizmi?[8] Rossiyadan. Men tushunolmayman, nega u kelgindi bo‘la turib, mening erimga o‘rnashib oldi. Men uni bu yerga taklif qilmagan edim. Ha, biz ko‘chib o‘tdik. Yuz yil oldin, uyimiz yo‘lga yaqinroq edi, hozir yuz metr ichkariga siljidik. Ular bu yerda chegara o‘rnatayotganda bizdan minglab metr yerni tortib olishdi. Hech kimga yer uchun tovon puli taklif qilishmadi. Bizga ularning tovon puli kerak emas, hatto million taklif qilishsa ham olmaymiz. Simga 500 metr yaqinlashsangiz ogohlantirmasdan o‘q uzishni boshlashadi.

[8] Isroil bosh vaziri Ariel Sharonning ota-onasi 1921-yilda Rossiyadan Falastinga kelgan. 1928-yilda ularning o‘g’li tug’ildi.

Bola bo‘ladimi, echki bo‘ladimi – o‘ldirishni ko‘zlab otishadi”, – Muhammad hammaga stul keltirishni buyuradi, uning farzandlari va nabiralari esa suv, qahva olib kelishadi, erkaklar sigaret tutatishadi.

Men esa Isroil tarafdorlarining dalillarini keltiraman: Isroil armiyasi shunday yo‘l bilan o‘z boshlariga uchib kelayotgan “qassamlar”[9]dan himoyalanmoqda.

“Faqat o‘zlari tarafdan otishyapti! Biz tomondan biror marta o‘q uzilmadi. Birorta ham “qassam” otilmadi! Quloq soling, jangovar guruhlar hech qachon turar joy mavzelaridan o‘q uzmaydi, hech qachon! Fermerlarda esa qurol yo‘q va ular buni bilishadi. Falastin jangovar guruhlari agar bu joylardan o‘q uzsa, javob zarbasi sifatida raketalar yuborilishini tushunishadi va tinch aholining ular tufayli azob chekishini umuman istashmaydi. Isroil askarlari esa mendan tirik qalqon sifatida foydalanishdi. Mana shunday qilib meni ushladi va uyimga yashirinib olish uchun kirdi”, – Muhammad isroillik ofitser uning tomog‘idan qanday ushlab olganini ko‘rsatadi. U, yoshlardan farqli o‘laroq, dushmani ustidan kuladi. Atrofdagilar ham kula boshlashadi.

Malaklar oilasi katta, 80 kishi atrofida. Muhammad nabiralarining sonini hatto sanashga ham urinmaydi: “37 yoki 40 mi? Bir oy oldin 37 ta edi shekilli. Oilamizning bir necha uyi bor, hammasini kuzatib turishning iloji yo‘q. Biz ko‘payish orqali ularga qarshi turamiz, chunki ular bizni o‘ldirishmoqda – boshqa qarshilik ko‘rsatish imkonimiz yo‘q. Hamma farzandlarimiz o‘qiydi. yaqin atrofda maktab bor. Urush paytida uni bombardimon qilishdi. Mashinamni ham bombardimon qilib yo‘q qilishdi” – deydi Muhammad.

Biz telefon raqamlarimizni almashib olamiz. Muhammad: “Xo‘sh, yana bombardimon qilishganda sizga qo‘ng‘iroq qilaman va siz bizni himoya qilish uchun borasiz, rozimisiz? Ba’zi jurnalistlar bombardimon qilishdan oldin ham kela olishini Faysal bir ko‘rib qo‘ysin, rozimisizlar?” – deydi Muhammad va suhbat nimadan boshlangan bo‘lsa shu joyga olib kelganini hazilga aylantirib ifoda etadi va xursand

[9] “Qassam” – qo‘lbola usulda tayyorlangan, qattiq yoqilg’ili, boshqarib bo‘lmaydigan “yer-yer” turidagi reaktiv snaryad.

bo‘ladi. Men esa unga javoban jurnalistning G‘azoga kirishiga ruxsat olish qanchalik qiyinligini aytaman. Biz uch oy ruxsat kutganimizni eshitib, Muhammad chegara va minoraga ko‘z yugurtiradi va: “Ularning otishmalarini ko‘rishga ulgurishingiz uchun yaxshisi hech qayoqqa ketmaganingiz ma’qul”, – deydi.

Tuyg‘ular sochiladigan dengiz

G‘azo – dengiz bo‘ylab cho‘zilgan uzun bir yo‘lak. Nazariy jihatdan bir yarim million aholining har bir a’zosi, deylik qayiqqa ega bo‘lsa, dengizdan o‘ziga ozuqa ovlashi mumkin edi. Sohil bo‘ylab yursangiz, kunduzi qayiqlarning quruqlikda turganini ko‘rasiz, kechqurun ular sohildan uzoqlashadi. Eng ko‘p qayiqlar G‘azo shahri portida joylashgan. Baliqchilarni ham aynan shu yerda uchratish mumkin.

Port – G‘azo shahri markazida “G” harfi shaklida qurilgan to‘g‘ondir. 2000-yilgi intifada davomida hali Yosir Arofat hayotlik paytidayoq barcha port inshootlari va kranlar Isroil tomonidan vayron qilingan edi. “Free Gaza[10]” flotiliyasi aynan shu yerga kelib to‘xtashi kerak edi. Xuddi shu bandargohga 2008-yildan beri qamalni engib o‘tishga muvaffaq bo‘lgan beshta kichik kema etib kelgan holos.

To‘g‘on tashqarisida to‘lqinlar mavj urmoqda. Sohilda baliqchilarning qayiqlari va omadini kutib o‘tirgan baliqchilarning o‘zlari ham ko‘zga tashlanadi.

G‘azo aholisining ko‘pchiligi sohildan baliq ovlaydi - bu mahalliy terapiya usuli.

Bir shifokor menga: “Men baliq tutmayman, balki xayollarimni dengizga sochaman”, – degan edi.

Agar to‘g‘ondan shaharga nazar solsangiz, quyosh nuriga cho‘milgan baxtli va go‘zal sohil bo‘yi shaharni ko‘rasiz. Bu yerdan turib na qamal belgilarini, na vayronagarchilikni ilg‘ab bo‘lmaydi. Bu yerdan faqat go‘zallikni ko‘rish mumkin.

[10] “Erkin G’azo”, “Erkin flotiliya”, “Ozodlik flotiliyasi” amerikaliklar va evropaliklarning G’azo sektori dengiz blokadasini engib o‘tish tashabbusi shunday nomlanadi.

Ayrim xorijiy jurnalistlar G‘azodagi kam sonli reportajlarini efirga uzatganlarida kameralari bilan aynan shu yerdan turib, sohil bo‘yidagi baxtiyor sokinlik manzarasini tasvirlaydilar.

Maxsus sharoitlarda baliq ovlash san’ati haqida

Sami Ioga 30 yoshda. Uning chap qo‘li yo‘q. Uning boshiga hali “Quyma qo‘rg‘oshin” operatsiyasi boshlanishidan oldin bir baxtsizlik tushgan edi. Garchi o‘sha paytda ham, hozir ham falastin baliqchilariga uch kilometr masofada baliq ovlashga huquqiy jihatdan ruxsat berilgan bo‘lsa-da, u sohildan bir yarim kilometr uzoqlikda baliq ovlayotganda Isroil harbiylari tomonidan hujumga uchragan,

“Men bilan 12 yoshli bola bor edi. Ko‘plab jarohatlar olgandim. Tez yordam mashinasini bir soat kutdik”, – deydi Sami Ioga. – “Isroil yangiliklarida bizni, ya’ni meni va bolani, mergan-terrorchilar deb ta’riflashdi. Lekin negadir meni Falastinning “Shifa”[11] shifoxonasidan Isroildagi “Ixilov” shifoxonasiga o‘tkazishdi, garchi ular terrorchilarni Isroilga olib o‘tmaydi va davolamaydi. Men juda og‘ir jarohatlar olgandim, u yerda 60 kun yotdim. Ramallohdagi Sog‘liqni saqlash vazirligi operatsiyam uchun 40 ming dollar to‘ladi, Isroil esa hech narsa to‘lamadi. Men sudga murojaat qildim, hozircha javob yo‘q”.

Hozir dengizga chiqyapsizmi, deb so‘rayman. Bu haqda so‘rash noto‘g‘ri ekanligini bilsam-da, Sami bu mavzuni o‘zi boshlamasligini ham bilardim.

Sami Ioga tin olib, uzoqlarga tikildi.

“Bir qo‘l bilan baliq ovlash imkonsiz, xonim. Qayig‘imni buzib tashlashdi, uning qiymatini kompensatsiya qilishmadi, ta’mirlash uchun 10 ming dollar kerak. Faqat motorining o‘zi 5 ming dollar turadi”. Menda bunday pul yo‘q”, – deydi baliqchi Sami.

Samining ikki farzandi bor. Uning o‘zi Ashkelon yaqinidagi Hamam shaharchasidan. Isroil tomonidan tortib olingan va buzib tashlangan uyining kalitlari va

[11] Dar ash-Shifa kasalxonasi 2023-yil noyabr oyida jahon miqyosida mashhur bo‘ldi. U 1946-yilda tashkil etilgan edi. 2023-yilda Isroil armiyasi tomonidan deyarli butunlay yo‘q qilindi.

hujjatlarini o‘zida saqlaydi. Uch oyda bir marta qochoq sifatida oziq-ovqat paketini oladi. To‘rt kishiga 3 kg shakar, 25 kg un, 2 banka o‘simlik yog‘i to‘g‘ri keladi. Kuniga bir kishiga 8 gramm shakar va 70 gramm un to‘g‘ri keladi. Samining hisob-kitoblariga ko‘ra, har bir kishiga uch oylik davr uchun taxminan 40 shekel sarflanadi.

U Al-Shati qochqinlar lagerida istiqomat qiladi.

“Oslo[12] kelishuvlaridan so‘ng 18 mil masofada baliq ovlash mumkin edi, keyin bu masofa oltiga, hozir esa uchga tushdi. Bunday masofada baliq yo‘q. Isroil buni yaxshi biladi. Ko‘pchilik baliqchilar dengizga shunchaki sho‘ng‘ish, bolalarni sayr qildirish uchun chiqadi. Men ham sohilga kelaman, chunki dengiz meni o‘ziga tortadi. Men maktabning oxirgi ikki yilini o‘qiy olmadim va Universitetga kirish imkonim bo‘lmadi – chunki dengizni juda sevardim”, – deydi u.

2010-yilning iyun oyida “Ozod G‘azo”[13] flotiliyasiga qilingan hujumdan so‘ng Isroil dengizda o‘z harbiylari tomonidan otib o‘ldirilgan akvalangdagi terrorchilar haqida xabar berdi. O‘shanda bu xabarni dangasalardan boshqa hamma ko‘chirib e’lon qildi – kimdir nafrat bilan, kimdir esa ayyor falastinliklar yangi bir narsa o‘ylab topishdi, degan qarash bilan... Samidan bunday qurollangan akvalangchilar guruhi ko‘pmi, deb so‘radim.

Sami xorg‘inlik bilan xo‘rsindi. Juda ko‘p achchiq haqiqatni biladigan inson uchun gazeta o‘rdakchalari (*uydirma xabarlar)* hatto kulgisini ham keltirmas ekan.

“Ular ham xuddi mendek baliqchilar edi. Men taniyman – ular Radilar oilasidan bo‘lgan aka-ukalar edi. Ularda hech qanday akvalang ham, qurollari ham yo‘q edi – faqat sho‘ng‘ish ko‘zoynagi bor edi xolos. Odatdagidek, ularga kechasi hujum qilishdi. Har kuni baliqchilarga shunday hujumlar bo‘ladi. Ko‘pchiligi qamoqqa olingan, qo‘l-oyoqlaridan ajralgan, qayiqlari o‘g‘irlanib, musodara qilingan” – deydi Sami Ioga.

[12] Oslo bitimi – 1993-yilda FTT va Isroil o‘rtasida imzolangan kelishuvlar.
[13] 2010-yilda Isroil xalqaro suvlarda flotiliyaga hujum qilib, 11 kishini otib o‘ldirgan.

Baliq ovlash huquqi

Baliqchilar uyushmasi raisi Mahfuz Kabaritiy 53 yoshda, u Misrdagi Iskandariya universitetida ta’lim olgan, o‘zi G‘azoda tug‘ilgan.

Mahfuz aslida tinch kasb qanday xavfli bo‘lib qolganini quyidagicha tushuntiradi: “300 kishi jarohat oldi, yetti baliqchi halok bo‘ldi. Qayiqlar GPS orqali harakatlanadi, ko‘pchilik baliqchilarning uskunalari ishdan chiqqan, yangisini sotib olish mumkin emas, Isroil dengiz patrullari qayiqlardagi kompaslarni sindirib tashlaydi, shu sababli baliqchilar sohildan uzoqlikni qiyinchilik bilan aniqlamoqda”.

Ularga hech qanday ogohlantirish berilmaydi – darhol o‘q uzishni boshlashadi. Isroil foydasiga ishlash bizda bo‘layotgan voqealarni ularning armiyasiga etkazishga majburlash maqsadida shunchaki hibsga olishadi. Men o‘zim baliqchi bo‘lganman, lekin hozir baliq yo‘q. Hozirda bolalarni sayr qildirish uchun olib chiqaman, suzishni o‘rgataman. Biz har bir narsaga Isroildan ruxsat olishimiz kerak, hatto eng huquqsiz odamlarda ham mavjud bo‘lgan narsa – o‘z dengizimizda baliq ovlash uchun ham ruxsat yo‘q.

“Qatar falastinlik bolalarga 10 ta qayiq ehson qilgan edi. Isroil ularni G‘azoga etkazishni taqiqladi, endi bu qayiqlar Kiprda bizni kutib turibdi”, – deya qo‘shimcha qiladi Kabaritiy.

Biz to‘g‘onda tik turib suhbatlashyapmiz. Yonimizdan bolachalar o‘tirgan tor eski qayiq suzib o‘tdi. Ulardan biri gondolchiga o‘xshab uzun eshkakni ushlab, muvozanatini yo‘qotmaslikka urinib, sekin-asta eshkak eshardi. Bolalar, dengiz va quyosh... Ularga optik nishon orqali qarab, hikoyalariga quloq solmasdan kuzatsak, bularning barchasini – baxt deb atash mumkin. Yoki terrorizm.

“Soqol olishga qachon vaqt topaman?”

G‘azoda quyosh botayotgan paytda minglab qayiqlar dengizga chiqib, ufq bo‘ylab saf tortishadi. Bu manzara quruqlikdan miltillab turgan chiroqlar orqali ko‘zga

tashlanadi. Baliqchilar suzib ketishadi va sohilni ko‘rib turish uchun bir-birlariga yaqin turishadi.

Ulardan nariroqda Isroil harbiy kemalari ham xuddi shunday saflangan holda turadi. Ular ham sohildan aniq ko‘rinib turadi.

Men G‘azoda bo‘lgan paytimda har ikki kunda harbiylar qayiqlarga o‘t ochar, ertasi kuni esa G‘arb ommaviy axborot vositalarida chegara buzilishining oldi olinganligi yoki terrorchilik harakati to‘xtatib qolinganlgani haqida xabarlar paydo bo‘lardi. Biroq odatda bu xabarlarda ismlar keltirilmasdi.

Shunday o‘tgan kechadan keyin men portga keldim.

Tuproqdan ko‘tarilgan to‘g‘on ichida yuzlab baliq ovlash kemalari mahkamlangan. Barcha port binolari aviazarbalar vaqtida bombardimon qilingan va falastinliklar hozircha bu yerdagi qurilish ishlaridan voz kechishgan – baribir foydasi yo‘q, birinchi ommaviy bombardimonda yana vayron qilinishi mumkin.

To‘g‘on bo‘ylab otalar bolalari bilan sayr qilishar, toshchalar otishar, ba’zilar qarmoq bilan baliq ovlashardi. Ma’lum bo‘ldiki, kechasi hech kimni o‘ldirishmagan va qamoqqa olishmagan.

Odamlar ovlangan baliqlarni qayiqlardan tushirishardi.

Baliqchilardan biri chiroyli qisqichbaqalarni toshlar ustiga joylashtirib, tutganlarini saralardi. Uning to‘la beshta qutisi bor edi.

Mazin Abu Riyolning yoshi 40 da, u bolaligidan baliq ovlaydi. Dengizga chiqishni unga bolaligidanoq otasi o‘rgatgan. Avvaliga Mazin suratga tushishni xohlamadi. Buning sababi kutilmagan edi.

“Soqolimning ahvoliga qarang! O‘zimizni unutib qo‘ydik, qanday ko‘rinishda bo‘lish kerakligini ham esdan chiqardik! Oilamni boqishga qurbim etmayapti. Soqol olishga qachon vaqt topaman? Sohildan biror narsa tutib bo‘larmidi!” – Mazin o‘zining beshta qutisiga qo‘l siltaydi. “Qarang, bu baliqni yolg‘iz o‘zim tutmadim-ku. Bunda og‘a-inilarimning ham ulushi bor, ular ham o‘z oilalarini boqishlari kerak,

hammasining ota-onasi bor, ular ham muhtoj. Yana benzinga 500 shekel sarflangan”, – deydi Mazin, qayiqda to‘rlarni yig‘ishtirayotgan to‘rt kishini ko‘rsatib.

Falastinliklar yomon yashaydi – chunki ular ishlamaydi, degan fikrlar yuradi, deyman.

“Biz kechasi soat uchda dengizga chiqdik, hozir esa kunduzi soat ikki bo‘ldi. Dengizda 11 soat bo‘lib, juda kam baliq tutdik. Endi esa bu baliqlarni sotishimiz kerak”, – deydi baliqchi.

Baliq bozori sohilga yaqin joylashgan, undan taralayotgan hidni adashtirib bo‘lmaydi. Bu katta bino: G‘azodagi barcha baliqchilar bir kunda uni to‘ldirish uchun etarli miqdorda baliq ovlay olishiga ishonish qiyin.

“Baliqlarning 97 foizi bozor baliqlari, Misrdan keltirilgan, bizning oilalarimiz ovlagan baliq emas. Sohil yaqinida nima ham tutish mumkin?” – deb xo‘rsinadi Mazin. Albatta, uning balig‘i ham sifatli, ham yangi. Lekin bunday ov bilan kun ko‘rib bo‘lmaydi, chunki u ham boshqalar kabi barcha baliqlarini ulgurji narxlarda sotadi.

Baliqchilarning vaxtadan qaytib kelishi albatta yaxshi. G‘aflatda qolsa-chi, qayiqqa hujum qilishlari, kamiga baliqchining o‘zini qo‘shib – butun ovini va qayig‘ini ham musodara qilishlari mumkin.

“Meni shaxsan uch marta ushladilar, qamoqqa olishdi, ustimdan kulishdi, Ashdotga olib borib 11 kun hibsda ushlab turishdi, amakivachcham bilan ikkalamizni sudlab har birimizni 20 ming shekeldan jarimaga hukm qilishdi. Biz ruxsat etilgan uch milga suzib bordik, motorni o‘chirib, baliq ovlashni boshladik. Shamol bizni bir oz chetga surib yubordi – bu esa ular uchun etarli bo‘ldi”. Boshqa baliqchilar yana bir milcha uzoqqa suzib ketishdi, ammo ularga tegishmadi. Men zobitdan nima uchun aynan bizni qamoqqa olishganini so‘radim. Shunda u: “Sen baliqchi sifatida hamma baliqni tutib olishing mumkin? Biz esa bunga yo‘l qo‘ya olmaymiz”, – dedi.

Barcha falastinliklar kabi Mazin ham, o‘rab olingan Falastin zaminidagi hayotning butun murakkabligini, chetdan kelgan insonlar tasavvur qila olmasligiga xotirjamlik bilan qaraydi.

G‘azoda nima eyilishi bilan qiziquvchilar uchun quyidagilarni aytishim mumkin: sakkiz kunlik safarim davomida biror marta ham go‘sht ko‘rmadim. Go‘sht faqat bayramlarda eyiladi. Baliq va dengiz jonivorlari noyob taom hisoblanadi. G‘azoda faoliyat yuritayotgan BMT shifokorlarining taklifiga binoan men tushlik qilgan baliq restoranida, bizdan boshqa hech bir mijoz yo‘q edi. Umuman olganda, bularning barchasiga faqat chet elliklarning qurbi etadi holos. Faqat o‘ziga to‘q odamlar tovuq eyishi mumkin. Aksariyat aholi esa har kuni faqat guruch va non bilan kifoyalanib, topgan har qanday ishidan mamnun bo‘ladi. Chunki 2008-2009-yillardagi harbiy operatsiya paytida vayron qilingan besh mingta ustaxonani qamal sharoitida qayta tiklash va ishga tushirish imkonsiz. Shu bois G‘azo baliqchilari har kecha dengizga chiqishadi. Bu xavfli, lekin nima bo‘lganda ham, baribir ish-ku.

Savdo – kurash omili sifatida

G‘azodagi savdo-sotiq Qohira yoki Nyu-Yorkdagi kabi oddiy do‘kondorlik kasbi yoxud shunchaki foyda keltirayotgan korxona emas, balki qamalga qarshi turishning bir shakli hamdir.

Chunki G‘azoda sotib olish mumkin bo‘lgan narsalarning katta qismi bu yerga tunnel qazuvchi, yuk tashuvchi va mollarni Misr tomonidan tunnellarga etkazib beruvchi yuzlab odamlarning aql bovar qilmas sa’y-harakatlari tufayli olib kelinadi.

Agar bu xatarli tadbirlar bo‘lmaganida G‘azodagi odamlar tirik qolmas edi. Bu mubolag‘a ham, so‘z o‘yini ham emas.

Isroilning rasmiy etkazib berishi mumkin bo‘lgan mahsulotlari, kishi boshiga kuniga atigi 600 gramm har xil tovar *(un, shakar, yog‘, graviya, suv, sut)* ga teng.

Bu Isroil armiyasi keltirgan ma’lumotlar, faqat ular har bir kishi kesimida grammlarda emas, balki olti oy davomida tonnada etkazib berish statistikasini keltirishadi. Bir yarim million odamning tirik qolishi uchun graviya[14] va kir yuvish

[14] Graviya – mayda tosh, shag’al.

kukuni ayirib tashlansa, juda kam miqdor kelib chiqadi. Bu sionistik propaganda da’vo qilayotgandek, Isroilning xayriya harakatlari emas, balki Isroil G‘azo sektoriga o‘tkazib berishga majbur bo‘lgan BMT yuklaridir.

2010-yil iyun oyida G‘azoda bo‘lganimda Isroil nazorat-o‘tkazish punktlaridan birorta ham yuk mashinasi o‘tmadi.

Tunnellar orqali o‘tkazib bo‘lmaydigan dori-darmonlar, tibbiy jihozlar va ularning ehtiyot qismlari “Ozod flotiliya” kemalari bilan olib kelingan, lekin Isroilning va’da berishiga qaramay, G‘azoga etkazilmadi. Faqatgina bir yil o‘tgandan so‘ng bu yuklarning uchdan bir qismi sektorga – buzilgan, shikastlangan va qiyshaygan holda etib keldi. Masalan, nogironlar aravachalarining motorlari olib tashlangan, dori-darmon qutilari teshib tashlangan, dorilar esa bir yil davomida quyosh ostida qolib, yaroqsiz holga kelgan edi.

Bozor. Tovarlar ko‘pligidan, chin ma’noda rastalar sinay deydi. Men peshtaxtadan-peshtaxtaga o‘tarkanman, har bir sotuvchi oldimga otlanadi, go‘yo mening siymomda Santa-Klausni ko‘rayotgandek.

“Ular sizning chet ellik ekaningizni bilishdi va sizga ko‘rsatadigan narsalari borligidan xursandlar, bo‘sh rasta ko‘rsatilmaydi-ku axir”, – deb tushuntirdi men bilan suhbatlashgan birinchi savdogar.

“Bo‘sh rastalar bo‘lganmi?” – deb qiziqib so‘radim sotuvchidan.

“Devorni portlatib, Misrga xarid qilgani borganimizgacha umuman hech narsa yo‘q edi[15]. Urushdan so‘ng ko‘p tunnellar paydo bo‘ldi va hamma narsa topila boshladi. Lekin siz rastalarning to‘lib toshganiga qaramang – aholining ko‘pchiligi bularni sotib ololmaydi”, – deydi do‘kondor.

Xavfsizlik devorining narigi tomonida ayrim ijtimoiy tarmoqlarda blog yurituvchilar hech qanday blokada yo‘qligining isboti sifatida G‘azo bozorlaridagi mo‘l-ko‘llikning ayrim fotosuratlarini joylashtirishni yaxshi ko‘rishadi. Urush

[15] 2008-yil 23-yanvar, ikki yil blokadadan keyin.

paytidagi Leningradning lash-lush bozori suratlarini ham xuddi shunday muvaffaqiyat bilan e’lon qilish mumkin aslida – blokada bo‘lmagan deb.

Isroil bir vaqtning o‘zida blokada yo‘qligini ta’kidlaydi va – mana bu rasmlarga qarang deydi va ayni paytda falastinliklar Isroilni tan olmaydilar – demak blokada ham qonuniydir deb hisoblaydi.

Xuddi shu ishonch bilan urush paytida nemislar Leningrad qamalini qonuniy deb hisoblaganlar, chunki shahar aholisi taslim bo‘lmayotgan edi-da.

Bayram hamma, hatto mahrumlikka mubtalo qilinganlar uchun ham kelganini butun dunyo ko‘rishi uchun bu “to‘kin-sochinlik” rasmlarini falastinliklarning o‘zlari Ramazon oyida olishadi,

Isroilliklar esa hech qanday blokada yo‘qligini va bularning barchasini G‘azoga o‘zlari olib kirganligini isbotlash uchun Falastindan olingan suratlarini ko‘z-ko‘z qilishmoqda...

Bozorda nimani so‘rama, hammasi tunnel orqali olib kelingan. Tunnellar qancha ko‘p bo‘lsa, tovarlar shuncha arzon tushadi, deyishadi menga.

O‘yinchoqlar qatori – ular ham tunnellar orqali olib kelingan. Qo‘g‘irchoqlar, zobitlar, radio boshqaruvli mashinalar.

Radio boshqaruvli mashinalar oldida uzoq vaqt turib qolaman – bu sotuvchining alohida fahrli tovarlaridan biri: “Ular bunday mashinalarni taqiqlaydilar, chunki bu o‘yinchoqlar yordamida bomba yasab, o‘zlariga yo‘naltirilishidan qo‘rqadi”.

Tish tozalagich bormi deb so‘rayman. Bu yerda tish tozalagichlar qurol sifatida ko‘rilishi va ular olib kirilishi taqiqlanganligi haqidagi hazillarni eshitaman, chunki nindzyalar tish tozalagichlar bilan ham odam o‘ldirishadi-ku.

Isroil xavfsizlik masalalari tufayli har qanday buyumni olib kirishni taqiqlashi mumkin. Shuning uchun o‘yinchoqlardan tortib to kir yuvish kukunlarigacha hamma narsa xavfli bo‘lib chiqadi.

Sotuvchilar bu mavzuni bajonidil qo‘llab-quvvatlashadi: agar xohlasangiz, shakar va o‘g‘itdan bomba yasashingiz, uni bolalar mashinasiga o‘rnatib, Isroil armiyasini yorib o‘tishga o‘yinchoqlar sherengasini jo‘natishingiz mumkin, vacsalom.

Hayot shunday: birovlar tish tozalagichlar haqida hazil qiladi, boshqalar ularni taqiqlashadi, uchinchilari esa hayotlarini xavf ostiga qo‘yib, tunnel orqali olib o‘tishadi.

Isroil hozircha *(2010-yil kuzida)* olib kirish taqiqlangan tovarlarning va’da qilingan yangi ro‘yxatini e’lon qilmagan, shuning uchun ruxsat etilgan tovarlarning oldingi ro‘yxati amal qilishda davom etmoqda: sotuvchilarning so‘zlariga ko‘ra, u bir necha o‘nlab tovar nomlaridan iborat, holbuki odamlar normal hayot uchun bir necha minglab nomdagi tovarlarga ehtiyoj sezadi.

Do‘konlar va magazinchalar yonidan o‘taman. Generatorlarning bo‘g‘iq guvillashi eshitiladi. Generatorlar ham taqiqlangan va tunnellar orqali olib kelingan.

Kostyum 250 shekel turadi. “Ilgari 600 edi”, – deydi sotuvchi. Qochqinlar bunday kiyimni sotib ololmaydilar. Sotuvchining o‘zi ham qochqinlardan yollangan ishchi. Eng ko‘p haridorgir mahsulot non va ikki shekel turadigan arzon sandal, ko‘pchilik shunday sandal kiyib yuradi.

Sandal, non va qadimgi odam bisotidagi ko‘plab buyumlar sektorda tayyorlanadi. Masalan, loydan yasalgan, oftobda quritilgan g‘ishtlar. Qadimgi Shumerdagidek. Yoki non uchun o‘tin pechkalar. Yoki uyda to‘qilgan ko‘ylaklar.

Mahalliy mevalar bor. Qovunning bir donasi – 5 shekel, tarvuzning bir kilosi – 2 shekel, uzum va mango – 6 shekel turadi.

“Narxlar o‘zgarib turadi”, – deyishadi savdogarlar. Agar sizda kuniga besh og‘izga besh shekel bo‘lsa, qovun sotib olasizmi? G‘azodagi bir million odamda bu 5 shekel yo‘q.

Isroildan olxo‘ri *(8 shekel)*, gilos *(250 grammi 9 shekel)*, shaftoli *(12 shekel)*, nok va banan *(5 shekel)* keltiriladi. Shuningdek, Amerika olmalari ham *(6 shekel)* etkazib berilmoqda.

“Isroil o‘z fermerlariga foyda keltiradigan mahsulotlarni bizga etkazib beradi. Hosilni qaergadir sotish zarurati tug‘ilganda, ularning armiyasi ba’zan bu yuklarni bizga o‘tkazishga ruxsat beradi. Bizning boshqa tanlovimiz yo‘q. Agar rad qilsak, boshqa joydan olishning iloji yo‘q. Bizga boshqa hech kim hech narsa etkazib bermaydi”, – deydi sotuvchi.

“Ba’zida Isroildan kir yuvish kukuni keltiriladi, u sifatsiz, lekin arzon – 7 kilogrammi 35 shekeldan. Ilgari bunday imkoniyat ham bo‘lmagan”, – deb ta’kidlaydi savdogar.

Butun bir javonda kitob to‘lib turgani uchun bu yerda “kutubxona” deb ataladigan do‘kondan ikki shekelga yon daftar sotib oldim. Yelim, bo‘yoqlar, bo‘r, rangli qalamlar kabi yon daftar ham ko‘pchilik bolalar uchun mislsiz hashamatdir. Yetimxonalar va yozgi maktablarda menga hunarmandlik ishlanmalarini ko‘rsatishdi: o‘qituvchilar bir oz rangli qog‘oz topib, bolalarni elimsiz ishlash san’atiga o‘rgatganliklari bilan faxrlanishardi.

Do‘kon egasini suratga tushishga ko‘ndirish ham, gapga tortish ham qiyin. “Peshtaxtalardagi hamma narsa – tunnellar orqali olib o‘tilgan. Barcha tadbirkorlarimizning Isroildagi tovar konteynerlari hibsga olingan. U yerda uch yildan beri 12 ta yuk mashinam qolib ketgan. Ularga yiliga 10 ming dollar to‘lashim kerak. Hech qanday molni, hatto qog‘ozni ham o‘tkazishmaydi. Siz meni suratga olasiz va u yerda meni qora ro‘yxatga kiritishadi”, – deb tushuntiradi u.

Kundalik hayot uchun g‘ayrioddiy bo‘lgan qiyinchiliklarga qaramay, G‘azo bozori eng optimistik joylardan biridir, chunki bu yerdagi hayot hammadan ko‘ra katta dunyodagi oddiy odamning oddiy hayotiga o‘xshaydi. Aytgancha, ular har kuni bozorga borishadi va faqat shu kuni iste’mol qilinadigan bir kunlik mahsulotlarini sotib olishadi – axir ko‘pchilikning generatorlari, demak, sovutgichlari ham yo‘q.

Yer osti bolalari

Tunnellarni ko‘rsatish uchun olib borar ekan, mening ko‘zlarimni bog‘lashmadi. Shunday bo‘lsa-da, faqat ichkariga kirgandan keyin va faqat devorlarni suratga olishga ruxsat berishdi – tunnel qaziyotgan va yuklarni[16] tashiyotgan odamlarni emas.

Men ko‘rgan birinchi tunnel oddiy turar-joy mavzesi orasida joylashgan edi. Qanchalik urinma uni tashqaridan hech qanday usulda ko‘rib bo‘lmasdi. Undan olib chiqiladigan hamma narsa kichik-kichik qismlarga ajratilib, yashirin joylarga tashiladi va faqat o‘sha yerda yuklanadi.

Tunnel 28 metr chuqurlikdagi bo‘sh quduqqa o‘xshaydi. Chig‘irda zanjir, zanjirda esa o‘rindiq bor. Yigitcha o‘rindiqqa o‘tirib, boshini pastga egib, hazil-mutoyiba bilan tezda quduqqa tushib ketdi. To‘satdan chiroq yondi va quduq tubida ham yorug‘lik paydo bo‘ldi. Bunday tunnellarda kislorod ballonlari bilan ishlashadi. Ular ba’zan portlab ketadi, odamlar halok bo‘ladi, lekin ularsiz nafas olish mumkin emas.

Qo‘rqa-pisa pastga qarar ekanman yigitlar xushchaqchaqlik bilan, pastga tushishga undashadi va agar elektr tugab qolsa, mening pastda qolib ketishimga yo‘l qo‘ymaslikka va’da berishadi.

Bunaqa issiqda tunnel qazish uchun nimadan “kuch olishini”, buning ustiga hazil-mutoyibaga qanday imkon topishini so‘rayman. Ular qandaydir energetiklar va antidepressantlar iste’mol qiladi, degan mish-mishlar ham yuradi. Bir aptekachi menda bunday dorilar yo‘q, lekin qo‘shnimda bor, uni tunnel qazuvchilar sotib olishadi, deb meni ishontirmoqchi bo‘ladi. Shuning uchun qo‘shnisi boyib ketyapti emish...

“Xo‘sh, birinchidan, biz tetik bo‘lishimiz kerak - ish shunaqa. Rossiyadan G‘azoga kelganingizdan xursandmiz. Bunday tashrif uchun ham tetiklik kerak-ku? Biz har-xil bo‘lar bo‘lmas narsalar bilan “kuchga to‘lmaymiz”. Bu xavfli, axir har soniyada

[16] Men faqat Isroil tomonidan taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar va kundalik buyumlarni etkazib berish uchun mo‘ljallangan inshootlarni ko‘rdim. Bular bilan tunnellar vazirligi shug’ullanadi. Harbiy tunnellar esa HAMAS harakatining harbiy qanoti nazorati ostida.

xushyorlik kerak. Ibodat qilamiz va ishga kirishamiz”, – deb tushuntiradi hozirgina quduq bo‘ylab nindzyaday yuqoriga va pastga yugurib yurgan azamat.

Tunnellarni Isroil bombardimon qilmoqda. Ularda istalgan vaqtda tuproq o‘pirilishi mumkin – ular qumli hududda qazilgan va monastir g‘orlariga o‘xshaydi. Yomg‘ir paytida tunnellardan foydalanilmaydi – bunday vaqtda tuproq ko‘chishi muqarrardir. Yomg‘irdan keyin ularni qayta tozalashga to‘g‘ri keladi.

“Ilgari tunnellar kam edi va ishchilarga katta pul to‘lanardi. Hozir esa kuniga 30 shekel. Tunnellarning shunday turlari ham borki, ularni qazish uchun 100 shekeldan to‘lashadi”, – deydi yer osti bolasi.

Tunnel kovlash sohasidan uzoqda bo‘lgan odamlar bu yerda kuniga 100 dollardan ishlab topish mumkinligiga meni ishontirishgan edi. Bir dollar uchun 3,7 shekel kurs nisbatini inobatga olsak bu juda katta mubolag‘adir.

Suhbatdoshlarim aniq buncha pul oladiganga o‘xshamaydi.

Tunnellar orqali giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar, qurol va pul o‘tkazish taqiqlanadi. Buni tunnel egalarining o‘zlari nazorat qilib borishadi. Agar ular bu qoidalarga amal qilishmasa, muammoga duch kelishi mumkin. Ishchilar menga shunday tushuntirishdi. Buni parlamentda ham tasdiqlashgan ekan.

Men ko‘rgan ikkinchi tunnel keng yo‘lak bo‘ylab pastga qarab ketgan bo‘lib, ba’zi joylaridan arava ham o‘tishi mumkin edi. U yerda ham havo kam, lekin yuklarni tortib olish mumkin bo‘lgan arqonlar bor.

Bu tunneldagi ishchilar yapon kaskadyorlariga o‘xshamaydi. Bular og‘ir-bosiq odamlar. Lekin ular ham meni tunnelga olib kirayotganlarida hazil- mutoyiba qilayotgandi. Menga ma’lum qilishlaricha, shu paytgacha ular chet elliklarni sayohatga olib kirmagan ekanlar.

Mish-mishlarga qaraganda, avtomobil o‘tadigan juda keng tunnellar ham bor emish. Darhaqiqat, G‘azoda yangi mashinalarni ham ko‘rish mumkin – ularning barchasi tunnellar orqali keltirilgan. Aytishlaricha, ular uchun ikki baravar haq to‘lashadi.

Men faqat bunday transportirovka qanday amalga oshirilishi haqidagi video rolikni ko‘rdim xolos. Va yana aynan shunday yangi mashina shahar markazida avariyaga uchragani guvohi bo‘ldim: harakat butunlay to‘xtadi.

Shofyorlar, eshak va ot aravakashlari, yo‘lovchilar va butun tumanning bolalari haydovchiga hamdardlik bildirgani kelishdi. Millionlab qashshoqlardan kutish mumkin bo‘lganidek, boylarning “cho‘ntagi bo‘shab qolishini” o‘ylab ichiqoralik qilish uchun emas, balki hamdard bo‘lish uchun kelishdi.

Nega unga achinishdi?

“Chunki hamma uning boy odam ekanini va istagan payti bu yerlarni tark etishi mumkinligini tushunadi, lekin u G‘azoda yashayapti va hamma bilan birga qiyinchiliklarni baham ko‘rmoqda”, – falastinliklar ushbu ko‘p qirrali birdamlikning mohiyatini menga aynan shunday tushuntirishdi.

Ikki ayol, ikkalasi ham sobiq SSSR respublikalaridan, ikkalasi ham falastinliklarning rafiqalari, Sektor chegarasini kesib o‘tish uchun Isroil hukumatidan ruxsat olishdan umid uzgan holda o‘z oilalariga yetishish uchun shunday tunnellar orqali qanday borganliklarini menga aytib berishdi.

Bu voqea 2008-2009-yillardagi urushdan oldin bo‘lgan edi. O‘sha paytlarda tunnellar kam, juda tor bo‘lib, undan o‘tish ming dollar yoki undan ham qimmatroqqa tushishi mumkin edi. Ikkita ayoldan ham bir tiyin olishmagan.

Onalardan biri bolalari bilan tunnel bo‘ylab emaklab borgan: “O‘g‘illarim oldinda, men orqada. Tiqilib qolganimni his qilaman. Nafas rostlab, kuch yig‘aman va yana davom etaman. Yomg‘ir boshlanish arafasida edi. 700 metr emaklab o‘tdik”.

“Misr tomondan tunnelni topishning iloji yo‘q, u ko‘rinmaydi. Tomorqada bir parcha kesakni ko‘tarib, sakra, deyishadi. Yaxshiyamki, ilgari sayllarga chiqqanman”, – deydi menga Natalya.

Agar qamal davom etsa va Misr hukumati 20 metr chuqurlikka olib borilgan temir devor qursa, nima bo‘lishini tunnel qazuvchilardan so‘rayman.

“Unda biz bu devorni aylanib o‘tish yo‘lini o‘ylab topamiz” – deydi, ko‘zni qamashtiruvchi tabassumi bilan har kuni o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yayotgan bolakay.

Agar blokada olib tashlansa va tunnellar kerak bo‘lmay qolsa, nima bo‘ladi, deb so‘rayman.

“Agar blokada olib tashlansa, hamma uchun odatiy ishlar yo‘lga qo‘yiladi!”

FATH deputati, ilgari Yosir Arofatning portlatuvchilar guruhiga rahbarlik qilgan Ashraf Juma – tunnel industriyasi shunchalik katta va qudratli ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu sanoatni nazorat qiluvchilar qamalning tugashini ham, FATH va HAMAS ning yarashuvini ham istamaydi.

“Blokada odamlarga ta’sir ko‘rsatadi – bu uning oqibatlaridan biri. Odamlar o‘z fojialarining sabablarini ko‘pincha noto‘g‘ri joydan qidirishadi”, deydi menga FATH ning ham, HAMAS ning ham tarafdori bo‘lmagan, balki so‘l qarashlarni qo‘llab-quvvatlaydigan yosh yigit.

“Men ularga nima qildim?”

Yahyo G‘oziy 23 yoshda. 2008-yil dekabr oyida Bayt-Laxiya bombardimoni boshlanganda u qo‘shnilari bilan BMT ning “Al-Faxura” [17] maktabiga yugurdi, u yer xavfsiz deb o‘ylashdi. Ammo maktabga zarba berildi, u yuzidan jarohatlandi va ikkala ko‘zi ham ko‘r bo‘lib qoldi. U bilan birga 82 kishi bor edi, ularning barchasi, shu jumladan bir oiladan 11 kishi o‘ldirildi.

“Oxirgi ko‘rgan narsam – ko‘plab jasadlar. Keyin 16 kun jonlantirish bo‘limida hushsiz yotdim”. – deydi Yahyo.

Yaralanishidan oldin u matematika fakultetining oxirgi kursida o‘qiyotgan muvaffaqiyatli talaba edi. Endi unga belgilangan BMT dan uch oyda bir marta beriladigan 50 dollarlik moddiy yordam oziq-ovqat paketidan iborat. Uning yuz suyaklari ezilib ketgan, bosh og‘rig‘ini to‘xtatish uchun miyani skanerlash va bir nechta

[17] 2023-yil noyabr oyida ushbu maktabda Isroil tomonidan amalga oshirilgan hujum natijasida Isroil vayron qilgan mahallalardan kelgan qochqinlardan iborat 200 ga yaqin kishi halok bo‘ldi.

operatsiya o‘tkazish kerak va u xunuk yuzni yashiradigan ko‘zoynaksiz yura oladigan bo‘ladi. G‘azoda bunday uskunalar mavjud emas. Oilaning chet elga borish uchun esa mablag‘i yo‘q.

“Biz qochqin emasmiz, lekin mablag‘imiz yo‘q. Bir yarim yil o‘tdi, Isroil menga jarohat etkazgani uchun hech qanday to‘lov qilmadi, UNRWA[18] ham. Agar BMT Xavfsizlik Kengashi Isroilga qarshi kuchsiz bo‘lsa, men qanday qilib Isroil ustidan sudda g‘alaba qozonishim mumkin? Mening xususiy ishim bo‘yicha emas, balki ular qilgan barcha ishlar bo‘yicha umumiy sud kerak. Urushdan oldin ta’lim olishga mablag‘ bo‘lishi uchun fermer bo‘lib ishlaganman. Endi mana shu karavotda o‘tiribman, bor-yo‘g‘im shu”, – deydi Yahyo.

Uning chap qo‘li oskolkalar kelib tegishi natijasida singan – barmoqlari ishlamaydi: “Shifokorlarning aytishicha, Yevropada operatsiya qilinsa qo‘l ishlab ketishi mumkin. Arab mamlakatlarida bunday mutaxassislar yo‘q. Odamlar yordam beryapti, lekin yordam bizga etib kelmaydi. Barcha zakot *(ya’ni xayr-ehson)* Ramalloh orqali o‘tadi, ular esa faqat o‘zlarini qo‘llab-quvvatlaydigan oilalarga yordam beradi. Arab va Yevropa mamlakatlari ko‘p xayr-ehson qilishiga qaramay, barcha mablag‘ Ramallohda joylashgan ijtimoiy yordam vazirligiga borib tushadi va u bu pullarni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf qiladi”.

Eshik tirqishida ayol qomati ko‘rindi. May oyida uylandim. Xotinim kambag‘al va ko‘r odamga turmushga chiqib, o‘zini qurbon qilish jasoratini ko‘rsatdi. U universitetda o‘qiy olmaydi - buning uchun pul yo‘q. Opam va ukam ish topa olmayapti, urushdan oldin dalalarda ishlab qo‘shimcha pul topish mumkin edi, endi esa ko‘plab fermerlar bor-yo‘g‘idan ayrilgan”.

Loay Usoma Sinnah 12 yoshda. U oilasi bilan o‘z uyida o‘tirganida, isroilliklar ularga bu hududni tark etishni buyurishadi. Ular uzoqdan yo‘naltirilgan hujumga

[18] BMTning Falastinlik qochqinlarga yordam ko‘rsatuvchi Yaqin Sharq agentligi. Isroil ularning faoliyatiga har tomonlama to‘siqlar qo‘ymoqda.

uchraganlarida qo‘llarida oq bayroq bor edi. Uning akasi halok bo‘ldi, singillari yaralandi, o‘zi esa ko‘r bo‘lib qoldi.

“O‘g‘limni olib ketishga harakat qildim, menga yana o‘q uzishdi. Uyimiz atrofida 15 kishi o‘ldirildi. Tez yordam mashinasini o‘tkazishga ruxsat berishmadi. “Shifa” kasalxonasiga borish uchun mashina topgunimizcha uni choyshabda ko‘tarib bordik. Qirol Abdulloh uni homiylikka oldi va Saudiya Arabistonidagi shifoxonaga olib ketishdi. Keyinchalik inson qiyofasiga qaytarish uchun kosmetik jarrohlik va’da qilishdi. Shifokorlar asab tolalari shikastlangani sababli hozirda amaliyot o‘tkaza olmasligini aytishdi”, – deydi uning otasi.

U har kuni ertalab o‘g‘lini G‘azodagi ko‘zi ojizlar maktabiga borishi uchun avtobusga kuzatib qo‘yadi. Uning oilasi qochoq emas, urushdan oldin ular ham dalada ishlaganlar, endi bunday ish yo‘q. Bu uyda 15 kishi yashaydi. Bolalar ba’zan soatbay ishga yollanadi, kattalar uchun ish yo‘q. Har hafta ular *World Food Program* dasturi bo‘yicha 62 shekel, ya’ni har bir kishi uchun haftasiga bir dollardan 17 dollar miqdorida yordam oladilar.

“Advokat bo‘laman. Da’vo kiritaman. Velosipedim bor edi, futbol o‘ynardim, suzishni bilardim, endi hech narsa qilolmayman. Men yosh bolaman, Isroilga nima yomonlik qildim?” – endi Loay o‘zining ko‘rligini engib o‘tgan mashhur falastinlik ko‘zi ojiz yozuvchi Toha Husaynning ismini biladi.

Yetimlar

G‘azodagi boquvchisini yo‘qotganlar markazi 1993-yilda tashkil etilgan. Markazda 20 ming bola ro‘yxatda turadi, ular orasida ota-onasidan biri vafot etgan yoki kasal bo‘lganlari ham bor. Sakkiz ming nafar bolaga esa xorijdagi shaxsiy vasiylar g‘amxo‘rlik qilmoqda. Markaz direktori Momen Barokat kim va qaysi bolaga xayr-ehson qilinayotgani qayd etilgan ulkan hisob-kitob daftarlarini ko‘rsatadi: odatda bunday odamlar bolaning boshqa ta’minot manbasi paydo bo‘lmaguncha yoki u ishlay boshlagunga qadar har oy yordam berishadi.

Bir yuz ellik nafar bola farzandsiz oilalarga joylashtirilgan, bir yuz ellik nafar ruhiyatida nuqsoni bo‘lgan bolalar har kuni markazga reabilitatsiya mashg‘ulotlariga olib kelinadi, yigirmata shunday bola markazda doimiy yashaydi. Mehnat bilan band bo‘lgan xotin-qizlarning farzandlariga qarab turish uchun 400 nafar bolaga mo‘ljallangan bog‘cha faoliyat ko‘rsatmoqda.

17 yil davomida bu yerga 150 nafar noqonuniy tug‘ilgan bola kelib tushgan, hozirda 20 nafar shunday bola bor. Chaqaloqlarni tutingan oilalar bajonidil asrab olishadi.

“Ularni kasalxonada, masjidda qoldirib ketishadi. Biz esa bu bolalarni oilalarga joylashtiramiz. Ular markazda qolishsa, nikoh to‘ylarigacha yashashadi, biz ularga ish topib beramiz. Soqov va kar bolalar uchun maxsus sinflarimiz bor. Fizioterapiya markazi bor. Sektorning har bir shahrida fizioterapiya xonasiga ega bo‘limlarimiz mavjud. Biz rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan ham ishlaymiz. Jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun hamma bilan psixologlar va pedagoglar shug‘ullanadi”. Momen Barokat meni ko‘p qavatli bino bo‘ylab olib yuradi. Hamma joyda bu bahaybat odamdan qo‘rqmaydigan bolalar unga yopishib olishadi.

16 yil farzand ko‘rmagan er-xotinga ko‘zimiz tushadi, ular chaqaloqqa ega bo‘lishdi. Ular o‘zlarini suratga olmaslikni so‘rashadi, chunki bola hali yashashi kerak.

Markazda teatr ishlab turibdi, barcha mebel va bezaklar bolalar va xodimlar tomonidan tayyorlangan.

Aya Ahmad 9 yoshda. U bombardimon ostida ota-onasini yo‘qotgan bolalar uchun tashkil etilgan yozgi maktabga boradi. Bu yerda yuzlab shunday bolalar bor. Ular G‘azodagi tabassum qilmaydigan kam sonli shu kabi bolalar bilan shug‘ullanishadi, ularga kostyumlar va o‘yinchoqlar tikishadi, ular bilan psixologlar ishlashadi, lekin tabassum qilishining imkoni bo‘lmayapti. Ayaning otasi uning ko‘z o‘ngida o‘ldirilgan, akasi yaralanib, nogiron bo‘lib qolgan, onasi saraton kasalligiga chalingan.

Bolalarga kulgili chehralar, dahshatli qoshlar chiziladi, jangovar hindular aks ettirilgan bo‘yash rasmlari tayyorlanadi, ular bilan jamoaviy kuylashlar o‘tkaziladi, ular

quvlashmachoq va bekinmachoq o‘ynaydilar, ilon va qayiq suv o‘yinlarini o‘ynashadi. Lekin bu jiddiy chehralarda tabassum yo‘q.

Aya bu maktabdagi aksariyat bolalar kabi o‘qituvchi bo‘lishni xohlaydi. Chunki ushbu bolalarning dahshatga to‘la butun hayoti davomida, maoshi bor-yo‘qligidan qat’i nazar, faqat o‘qituvchilargina ularga real yordam berishadi.

Vera Pavlovna ishi

“Nusayrat” qochqinlar lagerida ayollar ishlaydigan do‘kon bor. Sotuvchi ayolning naqadar ajoyib manzara xosil qilishini tushunish uchun Islom olamini yaxshi bilish kerak. Bular eri o‘lgan, oilasi qashshoq bevalardir. Boshqa hollarda Sharqda ayollar peshtaxta ortida turmaydilar.

Ushbu bevalar jamiyati 10 yil oldin tashkil etilgan. Hozir ushbu jamiyatda 40 nafar ayol bor. Jazoirlik musulmonlarning ehsonlari hisobiga ular uch qavatli binoni ijaraga olishgan. Birinchi qavatda novvoyxona, ikkinchi qavatda tikuvchilik ustaxonalari joylashgan. Elektr tikuv mashinalari bekor turibdi – chunki elektr bir necha soatga beriladi, generator va yoqilg‘i uchun pul yo‘q, generator uchun esa ortiqcha joy ham yo‘q. Ammo qadimiy “Zinger” oyoq yuritmali tikuv dastgohidan samarali foydalanilmoqda.

Ular tikadi, to‘qiydi, bo‘yaydi, ko‘ylaklar, ro‘mollar tikadilar, to‘rlar to‘qiydilar, pannolar tikadilar – bular Falastin uslubidagi haqiqiy san’at asarlari. Falastin ko‘ylagi – bu qo‘lda to‘qilgan og‘ir qora ko‘ylak. U zig‘irpoya tolasi, paxta yoki jundan to‘qilgan bo‘lib, og‘ir shoyi yoki engil shifondek ko‘rinadi. Naqshlar an’ana va provinsiyalarga qarab farqlanadi.

Ularning to‘y syujetlari aks ettirilgan kartinalarini men bir nechta xonadonda ko‘rdim. Ishlab chiqarayotgan narsalarining hammasi juda sifatli, narxi 200 dollar va undan yuqori, ushbu maxsulotlarni to‘ylarga sovg‘a qilish uchun boylar sotib olishadi.

Uchinchi qavatda ular sport zali, onalar ishlayotgan bolalar bilan o‘ynab o‘tirish uchun, shuningdek ibodat qilish hamda dam olish mumkin bo‘lgan xonalarni o‘zlari

uchun jihozlaganlar. Xullas, Chernishevskiyning “Nima qilmoq kerak?” romanidagi Vera Pavlovna ko‘rgan tushning G‘azo sektori markazida gavdalanishi bu. Devorlar shishadan emas, loydan, xulq-atvorlar ham Rossiya sufrajist ayollariniki kabi emas, kamtarona.

Rossiyalik shifokor – Falastindagi asosiy professiya

G‘azoda birinchi uchragan shifokorim men bilan bir rastada narsa xarid qilayotgan oddiy xaridor edi. Hayratga tushgan falastinliklar ko‘z o‘ngida biz xuddi bir umr tanishdek rus tilida jonli suhbat boshlab yubordik.

Bu holat keyinchalik qayta-qayta takrorlandi: qaerga bormayin, SSSR, Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Mahachqal’a va Ukrainada ta’lim olgan shifokorlar uchrab turardi. Muhandislar, quruvchilar, diplomatlar, harbiylar esa kamroq uchraydi. Bizda o‘qigan yoki bizdan uylangan odamni G‘azodan topish juda oson. G‘azoda rus tilida gapiradigan odamni topish ham qiyin emas.

Odatda bu shunday kechadi. Odamlar bilan ularning muammosi bo‘yicha gaplashasan, yozib olasan, rasmga olasan.

Biroz narida turgan odam birdan qotib qolib, suhbatga quloq soladi. Keyin o‘sha odam bizga yaqinlashib, rus tilida, ba’zan unutilgan g‘alizlik bilan: “Rossiyadanmisiz? O‘sha yerda men o‘qiganman” – deydi.

Bolalar kasalxonasining bosh shifokori Nasr Xussam Abu Safiya Olma-otada o‘qigan va rafiqasini o‘sha yerdan olib kelgan. Uning bemorlari yurak xastaligi bilan hastalangan 28 oygacha bo‘lgan bolalardir. Ularga Isroil chegaradan o‘tkazishga ruxsat bermayotgan dorilar kerak. Uning aytishicha, UNISEF[19] o‘ziga tegishli kasalxonalar uchun nimalardir olib keladi, lekin bu etarli emas. Saqlashning qat’iy harorat rejimiga amal qilinishi lozim bo‘lgan dorilarni tunnellar orqali olib o‘tish mumkin emas. Shuning uchun bolalar o‘lyapti.

[19] BMTning bolalar fondi.

“Urushdan keyin tug‘ma yurak nuqsoni bilan dunyoga kelish holatlari juda ko‘p uchrayapti. Bu kasallikka chalingan barcha bolalar bizga kelib tushadi. Biz tadqiqotlar olib bormoqdamiz: hozircha bizda bolalar yurak kasalliklarining avj olishiga nima sabab bo‘lganiga javob yo‘q. Har kuni shunday tashhis bilan bolalar keladi - urushgacha bunday emas edi. Ikki hafta oldin bitta ampula qolgandi. Bolaga uni yuborish kerak edi, aks holda u o‘lib qolardi. Tasodifan bu yerga turk televideniyasining jurnalistlari kelib qolishdi, ular reportaj tayyorlashdi. Turklar El-Arishga[20] uchoq jo‘natishdi, kun davomida bizga dori-darmon olib kelindi. Bola omon qoldi. Ammo bu zaxira ham tugagach, biz nima qilamiz?” – shifokor meni bir apparatdan ikkinchisiga olib boradi. U yerda trubkaga ulangan jajji bolachalar yotishardi.

“Biz ba’zi dori-darmonlarni olib kelishni flotiliyadan[21] so‘radik, ammo Isroil ohir-oqibat ularni bizga bermadi”, – deydi u.

Oilalar uchun kasalxonada davolanish bepul, sug‘urta barcha xarajatlarni qoplaydi. Ayrim badavlat oilalar o‘z farzandlari uchun dori-darmonlarni tunnellar orqali olib o‘tish uchun pul sarflaydilar. Ba’zi oilalar esa boshqa oilalar uchun ham dori-darmonlarni o‘tkazib berishga mablag‘ ajratadilar.

Ammo shunday oilalar ham borki, ularda aka-ukalarning biri FATH, ikkinchisi esa HAMAS a’zosi. FATH dagi uyida o‘tirib, Ramallohdan maosh oladi va uning maoshi ishlaydigan akasinikidan ko‘proq. Bu haqda menga o‘tmishda Italiya Respublikasi senatori bo‘lgan Franchesko Rossi gapirib bergan edi. U G‘azoda ikki marta bo‘lgan. Lekin men senator Rossining gapiga ishonmagandim.

G‘azoda men shunday shifokorlar bilan tanishdim. Ular haqiqatan ham uyda o‘tiradi va shifoxonaga ishga bormagani uchun maosh olishadi. Nazarimda ular ma’naviy jihatdan o‘zlarini yomon his qilishadi. Meni eng hayratga solgan narsa shuki,

[20] El-Arish – Sinay yarim orolidagi shahar bo‘lib, u yerda aerodrom ham mavjud.
[21] 2010-yilda “Ozodlik flotiliyasi” katta miqdordagi dori-darmonlarni olib kelayotgan edi. Kemalarga hujum qilgandan so‘ng Isroil u yerda shubhali hech narsa topmagach, dori-darmonlar va boshqa fuqarolik tovarlarini G’azo sektoriga etkazib berishga va’da berdi.

ularni hech kim qoralamaydi. Ular o‘zlarini ich-ichidan eyishadi. Shuning uchun ham ularning ismlarini tilga olmayman.

Shunday doktorlardan biri uzoq masofadan akasining uyiga keldi, u yerda turli avlod va turli kasb egalari, jumladan, shifokorlar ham to‘plangan edi. U uchun qarindoshlari bilan uchrashish og‘irlik qilgan bo‘lsa-da, men bilan gaplashish uchun kelgandi.

U Rossiyada o‘zi bilan o‘qigan bir ayolni tanishimga umid qilib kelgan edi. Mo‘jiza yuz berdi – men bu ayolni tanirdim. Biz 15 daqiqa suhbatlashdik, u hamma bilan xushmuomalalik bilan xayrlashdi, tushlik qilishga ko‘nmadi, kepkasini kiydi va xayrlashuv chog‘ida ma’yus tabassum bilan: “Uyga boray. Ish tashlash uchun” – dedi.

Bolalar shifoxonasidagi doktor Nasrning uyida maoshini olib turadigan qarindoshlari yo‘q, shuning uchun u hech kimdan uyalishi shart emas. Uning aytishicha, qamaldan oldin shifokorlar konferensiyalarga, o‘qishga borishlari mumkin edi. Endi esa tibbiy tajriba almashish, elektr energiya borligida internet orqali amalga oshirilmoqda.

“2010-yil 1-iyundan boshlab, Isroil tomonidan dengizda sodir etilgan qirg‘indan so‘ng Misr kasal bolalarni davolash maqsadida olib o‘tish uchun o‘z chegaralarini ochdi – ungacha bolalarning o‘tishi uchun ruxsat yo‘q edi” – deya Nasr Xussam Abu Safiya muammo haqida istar-istamas gapiradi. “Ramallohdagi sog‘liqni saqlash vazirligi ishlamaydigan shifokorlar ishga chiqmagani uchun pul to‘laydi. FATH shu tariqa G‘azodagi vaziyatni boshqarishga harakat qilmoqda. Lekin shifokorlar etarli. Hukumat ishlayotgan shifokorlarga 1000 dollardan, hamshiralarga 700-800 dollardan mablag‘ topib bermoqda”.

Doktor Hussam Abu Safiyaning oilasi 1948-yilgacha Hamam shaharchasida yashagan. U 37 yoshda. “Uyining hujjatlari va kaliti saqlanib qolgan, hozir u yerda isroilliklar yashaydi, arablar esa qolmagan. Olti yoshimda otam menga daraxtlarimizni va uyimizni ko‘rsatgandi. Beshta farzandim bor, ular faqat bog‘imizning suratlarini ko‘rishgan. Quddusni esa hech qachon ko‘rishmagan”, – deydi Hussam.

Tibbiyot tilida blokada nima o‘zi?

Professor Xanis Najjar - gematolog, 1973-yilda Qohira, 1984-yilda esa Tel-Aviv universitetini tamomlagan. U parlamentda sog‘liqni saqlash uchun mas’ul. U shifokorning partiyaviy muhokamalarda qatnashishga vaqti ham, huquqi ham bo‘lmasligi kerak, deb hisoblaydi. U mening parlamentda bo‘lishimni bilgach, parlament rahbarining ofisiga ataylab kelibdi. U suhbatimiz tugashini kutdi va meni G‘azoda bugungi kunda eng muhim deb hisoblagan masala – bolalar salomatligi haqida gaplashish uchun olib ketdi.

Men uni FATH dagi ish tashlagan shifokorlar mavzusida gapirtirishga harakat qilaman. Professor Najjar qisqa javob beradi: “FATH 2007-yilda shifokorlarning maoshini kesib tashladi. Ular Ramalloh shifokorlariga ishga chiqmasliklari uchun pul to‘lashmoqda. Bu haqiqat. Buni qanday izohlashni bilmayman. Yaxshisi, muammolar haqida gaplashaylik. Hukumat ishlayotgan shifokorlarga haq to‘lash uchun mablag‘ topdi. Ammo ularning maoshi uyida o‘tirgan shifokornikiga qaraganda kamroq. Ammo ishlaydigan shifokorlar ishlamaydiganlarga qaraganda ko‘proq. Axir bular falastinliklar-ku!”

Doktor Najjar bularning hammasini xuddi Mixalkovning eski filmidagi: “U rus – bu ko‘p narsani anglatadi”, degan ibora yo‘sinida tushuntiradi.

Uning parlamentdagi kabineti tom ma’noda vayronalar ustida osilib turganday ko‘rinadi, parlamentning qolgan qismi esa bombardimon qilingan. Devorlarda bomba parchalardan hosil bo‘lgan chuqurlar ko‘zga tashlanadi, derazada esa oyna yo‘q – u polietilen bilan qoplangan. Uning fikricha, birinchi navbatda shifoxonalar va maktablar muhim, kabinetlar esa kutib turishi mumkin.

“Bizda 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar aholining 50 foizini tashkil etadi - bu xalqimizning kelajagidir. Tibbiyot birinchi navbatda ularga qaratilgan bo‘lishi kerak: ular kam himoyalangan va dardlari og‘irroq. Butun tibbiyotning byudjeti Ramallohdan keladi. Ajratilgan umumiy mablag‘ning 40 foizi G‘azoga yo‘naltirishi kerak, biz

zo‘rg‘a 5-10 foiz olamiz. Xayriyachilar juda katta miqdorda mablag‘ ajratadi, ammo biz saratonga emas, grippga qarshi dorilarni olamiz, ular bizga kerak emas, garchi butun dunyo 2009-yilgi urushdan keyin saratonga chalingan barcha yoshdagi bemorlar soni qancha ko‘payganini juda yaxshi bilishadi. Bizga yaroqlilik muddati tugagan dorilar yuborishadi. Bahrayn 2 million dollar xayriya qilmoqda – hammasi faqat Ramalloh orqali o‘tadi va G‘azoga yarim millioni ham etib kelmaydi. Bu pulga Ramalloh mutasaddilari farmasevtika kompaniyalaridan muddati o‘tgan dorilarni arzon narxda sotib oladi va bizga jo‘natadi. Bizga 200 nomdagi dori kerak – amalda esa 30 tasini zo‘rg‘a olyapmiz. “Ozod G‘azo” kemalari bizga ushbu dorilarni olib kelishgandi, Isroil ularni topshirishga va’da bergan – lekin biz esa hech narsa olmadik”.

Professor Najjar davom etadi: “Bizga etkazilayotgan tibbiy asbob-uskunalarning 50 foizi allaqachon ishlatilgan, foydalanilgan holatda bo‘ladi. 1000 turdagi uskunaning uchdan biridan kamrog‘i bizda mavjud. 30 foizi esa ishlamayapti, chunki biz almashtiriladigan detallar va kimyoviy moddalarni olib kela olmayapmiz. Uskunalarning bir qismi xizmat muddatini mutloq o‘tab bo‘lgan, ular bemorlar uchun xavfli. Saratonga qarshi dorilar masalasida ahvol – falokatli.

Bemorlarni chet elga yuborishga harakat qilyapmiz. Mana siz chegaradan o‘tdingiz, uni hatto sog‘lom odam kesib o‘tishi qanday mashaqqatli ekanini ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Bemorga, ayniqsa saraton kasaliga chalinganlarga bu jarayondan o‘tish qanday bo‘lishini bir tasavvur qilib ko‘ravering. Ko‘pchilik yolg‘iz harakatlana olmaydi. Bemor va hamrohlik qiluvchi shaxs ham, aql bovar qilmaydigan byurokratik jarayondan o‘tish talab etiladi. 2009-yilda 350 kishi vafot etdi, ularning aksariyati saraton kasalligi bilan og‘rigan bemorlar edi, chunki ular yordam ololmagan va chet elga chiqa olmagan.

“Shifa” kasalxonasini ham qo‘shib hisoblaganda 3 yil oldin uchta gospitalda qo‘shimcha binolar qurila boshlangandi. Qurilish to‘xtagan, ular shundoq turibdi. Qurilishni davom ettirish uchun investorlarni topish, bizning qurilish materiallari bilan

bog‘liq og‘ir vaziyatimizda imkonsiz – Isroil ularni taqiqlab tashlagan, barchasi tunnellar orqali o‘tadi.

Odamlar qurilishni butunlay yangidan boshlashga tayyor, lekin tashlab qo‘yilgan qurilishni davom ettirishni istovchilar esa yo‘q. Oqibatda shifoxonalar qurib bitkazilmagan chala xolatda yotibdi. Blokada minglab tafsilotlarda tavsiflanadi, men sizga ularning faqat bir qismini aytib berdim xolos”.

Eng zarur insonlar – shifokorlar, eng intizorlik bilan kutilayotgan yuk – dori-darmonlardir

Qamal hammadan ko‘ra ko‘proq bemorlarga, ayniqsa nogiron bo‘lib qolgan, saraton kasalligiga chalingan, tug‘ma yurak nuqsoni, o‘pka va buyrak kasalliklari bor bolalarga qattiq zarba bermoqda. Ularni davolanishga olib chiqish mushkul, dori-darmonlar yo‘q, mavjudlari juda qimmat, ularni sektorga etkazib olib kelish qiyin. Rossiyada[22] to‘plangan G‘azo bolalari uchun xayriya mablag‘lariga birinchi navbatda to‘qqiz turdagi eng zarur dori-darmon xarid qilindi. Dori-darmonlarni olib o‘tishga Misrdan ruxsat olish uchun uch oy tekshiruvlar va hujjatlarni rasmiylashtirish uchun yana uch oy kutish kerak bo‘ldi.

Yuklar endigina Rafah chegarasidan o‘tar ekan: dorilarni qabul qilib olib, shifoxonalarga tezda jo‘natishga ulgurishi uchun dori-darmonlar ortilgan mashina omborga uchib kelishini so‘rab shifokorlar qo‘ng‘iroq qilishayotgan edi. Ertasi kuni esa o‘sha shifokorlar bemorlarga umidlarini qaytarganining guvohi bo‘ldik.

Kasallik tarixidan

Men G‘azoda sodir bo‘layotgan voqealardan eng umidbaxshlarini keltirib o‘taman.

[22] Rossiyaning “Solidarnost” jamg’armasi 15 yildan buyon sektor shifoxonalari uchun saqlash murakkab bo‘lgan va qimmatbaho dori-darmonlarni olib kelmoqda. Ular hozir ham bu dori-darmonlarni G’azoga etkazib berishni davom ettirmoqda.

Abdurrahmon hozir 10 yoshda. U maktabga ketayotganida yonidagi uyga raketa zarbasi berildi, u o‘sha paytda yetti yarim yoshda edi. Olov uning yuzini kuydirdi.

Ushbu oilaning HAMAS ga aloqasi yo‘q, ular harbiy harakatlarda qatnashmagan. Ularning o‘g‘li shunchaki maktabga ketayotgandi. Davolanish uchun esa Isroil hech qanday kompensatsiya to‘lamagan.

Unga kasalxonadan ruhsat berishgach, bolaning otasi Saule uydagi barcha oynalarni olib tashladi.

Ota o‘g‘lining o‘ziga kelib, rasm chiza boshlaganini eslaydi. Tank va samolyotlar rasmini chizadi.

Oila Isroilning “Hadassa” klinikasida davolanish uchun ruxsat olishga muvaffaq bo‘ldi.

Ota o‘g‘li bilan Ramallohgacha etib bordi, undan nariga o‘tishning iloji yo‘q, bola Isroil hududiga yolg‘iz o‘zi borishi kerak.

“Uch oy ruxsatnoma kutamiz, uch kun yo‘l yuramiz, bir kunga klinikaga boramiz-u, u yerdan orqaga qaytishimizni aytishadi. Yo‘l va davolanish xarajatlari juda qimmat – 5 ming dollar. Men faqatgina Ramallohgacha bora oldim. U yerda olijanob odamlar topildi: o‘g‘lini gospitalga olib borishdi, besh soat kutishib, qaytarib Isroil shifoxonasiga olib ketishdi. “Hozirgacha birorta ham operatsiya qilishmadi, u ettita kurs davolashdan o‘tdi, Amerika dorilari sanchilib, terini silliqlaydigan qandaydir ukollar qilindi. G‘azoda bunday dorilar yo‘q”, – deydi Saule.

Nima bo‘lganda ham bu voqeaning baxtli yakuni bor, chunki bola tirik, ko‘r bo‘lib qolmagan, u endi begona odamlar oldiga chiqishdan uyalmaydi, yana maktabga borishi mumkin, u rassom bo‘lishni xohlaydi. G‘azoda birgina 2008-2009-yillardagi urushdan 500 dan ziyod og‘ir nogiron qolgan. Nogironlarning umumiy soni 12 mingdan ortiq.

15 yoshli Hasan Shafiq al-Attor 2009-yilning 5-yanvar kuni ertalab Bayt-Lahiyadagi maktabga ketayotgan edi. Unga drondan otilgan raketa etib keldi. Endi uning tanasining pastki qismi falaj bo‘lib qolgan, u siydik chiqarishni boshqara

olmaydi. U maktabda uch yillik o‘qish davrini boy berdi. Hozir u o‘tkazib yuborilgan yillarning o‘rnini to‘ldirib, 12-sinfda o‘qiyapti. U operatsiyaga muhtoj. Isroil shifoxonasi uni to‘lov evaziga davolanishga qabul qilishga rozi bo‘ldi va G‘azodagi nogironlar jamg‘armasi hatto pul yig‘ishni boshlagandi, ammo Isroil xavfsizlik xizmati unga rad javobini berdi. U jarohat olgani yoki davolashdan bosh tortilgani uchun Isroildan hech qanday tovon puli olmagan. G‘azoda unga nogironlar skuterini sovg‘a qilishdi, ammo u Hasanning jarohatlari va azob-uqubatlarini engillashtirish uchun mos darajada emas. Shunga qaramay, u G‘azo Islom universitetiga[23] “Umumiy boshqaruv va menejment” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga kirmoqchi.

Maktabda unga qanday munosabatda bo‘lishlarini so‘rayman. Hasan esa butun suhbat davomida birinchi marta jilmayadi: “Ular menga qahramondek qarashadi” – deydi.

Dori-darmon inqirozi

G‘azodagi BMT missiyasining etakchi xodimlaridan biri bo‘lgan oftalmolog, doktor Muhammad al-Kashif aytishicha, sektorning tibbiyot sohasi eng kritik nuqtaga 2011-yil iyun oyida etgan: “Operatsiyalar to‘xtab qoldi, biz davolashni davom ettira olmadik. Bemorlarimiz davolanish uchun hech narsasi yo‘qligi sababli vafot etardi. Bizda 150 ga yaqin falajlangan nogiron bor. Biz yordam so‘rab faryod qilardik, kerakli narsalar ro‘yxatini internetga joyladik. 460 turdagi dori yetishmayotgan, 150 tasi umuman yo‘q edi. Sektorga 900 ta preparat va almashtiriladigan materiallar kerak edi, ularning 200 tasi shifoxonalarda mavjud emas edi. Bizda tajribali jarrohlar bor, ammo ezgu niyatli odamlarning yordamisiz dori-darmon yetishmovchiligini bartaraf eta olmaymiz”.

G‘azoga butun dunyodan ko‘ngilli shifokorlar kelmoqda: Gretsiya, Norvegiya, Islom mamlakatlaridan - faqat ommaviy axborot vositalari bu haqda kam xabar beradi.

[23] 2023-yil noyabr oyida Isroil armiyasi tomonidan portlatilgan.

yaqinda bir guruh fransuz shifokorlari Rafah chegara punktidan o‘tkazilmadi, shundan so‘ng ular tunnellar orqali o‘tishga majbur bo‘lishdi.

Doktor Muhammad al-Kashifning so‘zlariga ko‘ra, shifokorlar falastinliklar bilan birdamlik belgisi sifatida operatsiya qilish, tajriba almashish uchun odatda bepul kelishadi. Dunyo tibbiyot yulduzlari ham keladi: yaqinda BAA lik jarroh 20 nafar kar-soqov bemorni operatsiya qilib, yo‘l-yo‘lakay yosh shifokorlarga ham saboq berib ketdi.

Qiruvchi samolyotlar amaliyoti paytida to‘qqiz kishi halok bo‘lib, yuzdan ortiq kishi yaralangandan keyin tunda G‘azo Sog‘liqni saqlash vaziri doktor Basem Naim bilan uchrashdik.

“Urush tugagandan so‘ng biz bunday aviatsiya hujumlarida 2500 dan ortiq odamni yo‘qotdik, minglab odamlar yaralandi. Falastinliklar uchun qamal qimmatga tushmoqda. 2008-2009-yillardagi urushda besh nafar shifokor halok bo‘lgan. Jarrohlar qonga belangan holda odamlarning qoldiqlari orasida turib operatsiya qilishdi, tananing uzilgan qismlari oyoq ostida yotardi, stollar yetishmasdi, polda ham operatsiya qilishdi. Jarroh ukam o‘g‘lining halok bo‘lganini bildi. U operatsiyani oxiriga etkazdi va shundan keyingina o‘g‘lining jasadini kutib olish uchun borgandi”, – deydi vazir.

Doktor Naimning so‘zlariga ko‘ra, blokada keltirib chiqarayotgan muammo yana shundaki, shifokorlar malaka oshirib turishi lozim, ular esa G‘azodan chiqib keta olmaydi.

Shifoxonalar videokonferensiyalarni yo‘lga qo‘ydi – shu tariqa 190 nafar shifokor masofadan turib qayta malakalashdan o‘tishga muvaffaq bo‘ldi (sektorda jami 3200 nafar shifokor bor, ularning 500 nafardan ortig‘i sobiq SSSR respublikalarida ta’lim olgan). Arab shifokorlari ittifoqi videokonferensiya orqali maslahatlashuvlar bilan operatsiyalarni tashkil etishga yordam berdi.

G‘azo sektorida dori-darmon ombori mavjud. Bu yerda bir nechta farmasevtlar shifoxonalarning so‘rovlarini muvofiqlashtiradi, har kuni zarur dori-darmonlar,

preparatlar, uskunalar – shifoxonalar uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar ro‘yxatini yangilaydi.

Doktor Ashraf bizni omborxona bo‘ylab olib yurib muzlatgichlarni ochadi. Kerakli dorilar yozilgan taxtachalar tagida bo‘sh tokchalar ko‘p.

“Bugungi kunda 130 ta dori va 180 ta preparat umuman mavjud emas, bu raqamlar xorijdan keladigan yordamga qarab o‘zgarib turadi. Asosiy homiy – Yevropa Ittifoqi, u hamma narsani Ramallohga yuboradi, u yerdan esa bizga topshiriladi. Ammo yordam bir tekisda etib kelmaydi: aytaylik, saraton kasalligiga chalingan bemorlarga kimyoterapiya uchun berilgan preparatlar faqat uch yoki ikki portsiyaga etadi – davolanish bunday bo‘lmaydi”, – deydi doktor Ashraf.

Shifokorlar uzluksiz davolanishga muhtoj bo‘lganlarning ro‘yxatini tuzdilar. G‘azoda faqat saraton kasalligi bilan og‘rigan bemorlar uchun asosiy dorilarning 34 foizi yo‘q. Ba’zan bitta preparat yetishmaydi, u bo‘lmasa butun davolash zanjiri uziladi.

Ivrit tilida yozilgan qutilarni ko‘rganimda Isroilning yordami kattami deb so‘rayman.

“Isroildan hech qanday yordam yo‘q. So‘nggi urush paytida ular dori-darmon omborini bombardimon qilishdi. Yevropa Ittifoqi shunchaki qulaylik uchun dori-darmonlarni Isroildan sotib oladi va nazorat-o‘tkazish punktlari orqali G‘azoga o‘tkazadi. Bu dorilar Yevropa Ittifoqidagi homiylar puliga sotib olingan. Isroil fuqaroligiga ega falastinliklar dori-darmonlar bilan bizga yordam beradi – ular ham Isroilniki”, – deydi va Isroilda falastinliklarga yordam beradigan nofalastin xayriya tashkilotlari va jamg‘armalari yo‘qligini ta’kidlaydi doktor Ashraf.

Oq fosfor

“Rantisi”[24] nomidagi bolalar onkologiyasi shifoxonasida shifokorlar saraton kasaliga erta tashxis qo‘yish uchun apparatlar yo‘qligidan shikoyat qilishmoqda, shu sababli onkologik bemorlar juda kech murojaat qilishmoqda.

Gospital bosh shifokori doktor Mustafo al-Aylning tushuntirishicha, urushdan keyin saratonga chalingan bemorlar – bolalar va kattalar soni ko‘paygan, buni oq fosforni qo‘llash oqibati deb hisoblaydi u.

“Suyak iligi transplantatsiyasiga muhtoj bo‘lgan ikki yarim yoshli bu qizaloqning kasalligi o‘tib ketgandan keyin olib kelingan. Biz unga qon quyamiz. Uni Isroilga jo‘natishga muvaffaq bo‘ldik, biroq u yerdagi shifokorlar qizchani uch yoshga to‘lganida yana olib kelish kerakligini, hozir esa davolash mumkin emasligini aytishgan. Ona va uning qizi qanday azobli yo‘lni bosib o‘tgani bilan ularning ishi yo‘q: onaning chegaradan o‘tishiga ruxsatnoma, bolani olib yurishga ruxsatnoma, onaning olti oy davomida bola yonida bo‘lishiga ruxsatnoma. Qancha bemorlar nazorat-o‘tkazish punktida vafot etmoqda... Isroil shifokorlari pul o‘tkazilmaguncha davolashni boshlamaydi. Misrda ko‘plab shifokorlar rahm-shafqat tufayli operatsiya narxini pasaytirishadi. Isroilda esa bu shunchaki biznes. Agar tezda suyak iligi transplantatsiyasi amaliyoti o‘tkazilsa, bu qizcha uchun 80% ijobiy prognoz bor edi”.

U g‘azolik bolalar uchun bitta operatsiya Isroilda 80 ming dollar, Misrda esa 30 ming dollarga tushganini misol qilib keltiradi. Har qanday holatda xayriya yordamisiz falastinliklar bu narxlarni ko‘tara olmaydi, bundan tashqari ushbu chiqimlar ro‘yxatiga – tashxis qo‘yish, hamrohlik qiluvchi shaxsning yo‘lkira, yashash va boshqa xarajatlar kiritilmagan.

[24] Bu Sektordagi bolalar onkologiyasini davolashga yo‘naltirilgan yagona shifoxona edi, ushbu shifoxona 2023 yil noyabr oyida Isroil armiyasi tomonidan yo‘q qilingan.

Urush va tinchlikning tibbiy tavsifi

G‘azodagi eng yirik “Shifa” kasalxonasi bosh shifokori doktor Metat Abbos shunday deydi: “Bombardimonlardan keyin halok bo‘lgan bolalarning jasadlarida 33 ta zaharli element, jumladan, uran borligi aniqlandi. Biz oq fosforning nafas olish va immun tizimiga ta’sirini o‘rganayapmiz”.

“Shifa” kasalxonasining bosh shifokori o‘z so‘zlarining tasdig‘i sifatida bizga tug‘ma badburushlik va bombardimonlarning og‘ir oqibatlari, blokada sharoitida davolash va sektordagi ekologik falokat haqida guvohlik beruvchi bir dasta hujjatlarni taqdim etadi. “G‘azodagi suvni ichimlik suvi deb bo‘lmaydi, allaqachon qamalda tug‘ilgan va urushni boshdan kechirgan butun bir avlod voyaga etdi”, – deydi u.

G‘azo sektoridagi urush va “tinchlik davri” quyidagicha farqlanadi.

“Urush paytida besh mingga yaqin yarador bolalar kelib tushgandi. Boshlari uzilgan, oyoq-qo‘llari parchalangan jasadlar, temir bo‘laklari bilan ilma-teshik qilinganlari bor edi. Urushdan keyin snayper o‘qlari va raketa zarbalaridan halok bo‘lgan va yaralangan bolalarni qabul qilamiz. Bu holatlar esa yuzlab uchraydi. Besh nafar o‘quvchi maktabdan sumkalarini ko‘tarib chiqayotganda ularning barchasi raketa zarbasi natijasida halok bo‘lgan. Snayperlar shifokorlarni ham o‘ldirishadi. Men Vaffa Medical Reabilitation Hospital bosh shifokori bo‘lib ishlayotganimda tungi soat birlar atrofida bizning ikki tibbiyot xodimimiz – Muhammad Hasan va Abdulkarim Vaddat snayperlar tomonidan nishonga olingandi. Ular bemorlar yotgan palatada o‘ldirildi”, – deydi doktor Abbos.

“Shifa” kasalxonasi bosh jarrohi Sobhi Shaik Fresed shunday deydi: “So‘nggi urush paytida ko‘plab shifokorlar G‘azoga kelishdi. Ular odamlarga qarshi qo‘llanilgan turli xil qurollarning ta’siridan lol qolishdi. Oq fosfor to‘qimalarni kuydirardi. U nafaqat saraton va majruhlikni keltirib chiqaradi, balki uning oqibati erkaklarda va ayollarda bepushtlikka olib keladi. To‘yintirilmagan uran kabi u ham bolalar organizmiga ta’sir ko‘rsatadi, saraton va organizmning umumiy shikastlanishiga olib keladi. Qurolning yana bir turi bor, u DIME *(dense inert metal explosive)* – zich inert

metall portlovchi modda deb ataladi. Uning tarkibida juda mayda metall va magnit zarralari bor, bu modda bilan shikastlangandan keyin shifokorlar davolay olmaydi, faqat qo‘l-oyoqlarni kesib tashlashadi. Qurolning yana bir turi bor: u tanada va ichki to‘qimalarda qora nuqtalar paydo bo‘lishiga olib keladi, ular barcha organlarga keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatadi. Biz uning qanday qurol ekanligini bilmaymiz, faqat jarohatlarni va uning ta’sirida vujudga kelgan o‘limni qayd etamiz xolos”.

G‘azoda ayol kishi qanday qilib shifokor bo‘lishi mumkin

G‘azoda alohida tibbiy faxr mavzusi bor – u ham bo‘lsa sektordagi Islom va Al-Azhar[25] universitlarining tibbiyot fakultetlari mavjudligidir. Bu ta’lim maskanlarida asosan qizlar o‘qiydi.

Islom universiteti fakulteti dekan o‘rinbosari doktor Umar Solih Farvona blokada sharoitida fakultet nima uchun bu qadar muhimligini shunday tushuntiradi: “Ilgari shifokorlar butun dunyo bo‘ylab o‘qishgan, endi esa chiqib ketishning iloji yo‘qligi sharoitida ular o‘z yurtida o‘qishlari mumkin. 1970-yillarda Misr o‘z institutlarida falastinliklarning o‘qishiga to‘sqinlik qilganida SSSR ularni o‘qishga taklif qildi. Lekin bularning hammasi faqat yigitlarga taalluqli edi. Endi falastinlik qizlar shifokor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldilar”.

Falastin oilalari qizlarini kattalar hamrohligisiz o‘qishga yubormaydi. G‘azoda fakultet paydo bo‘lishi bilan qizlar shifokorlikka o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Bu yerga faqat a’lo baxoli shahodatnomaga ega bo‘lgan nomzodlarni qabul qilishadi. O‘qish yiliga 6 ming dollar turadi, agar ularning oilasi uchun bunday summani ko‘tarishning iloji bo‘lmasa, barcha o‘zlashtirishi yaxshi talaba qizlarga yordam ajratiladi. Hozircha 60 nafar qiz tahsil olayotgan bo‘lsa, bu G‘azodagi eng yaxshi talabalardir, deb hisoblaydi doktor Umar.

[25] Isroil 2023-yil dekabr oyida ushbu fakultetlarni portlatib yubordi.

U o‘z she’rlari bitilgan kitobini ko‘rsatadi. U Al-Aqso intifadasi haqida doston yozib, kitobini nashr etishga muvaffaq bo‘ldi[26].

Hisob bo‘yicha nechanchi urush?

Urush haqidagi eng qo‘rqinchli kitobni men G‘azoda ko‘rdim. Uni bir nemis fotografi yozgan. U shunchaki odamlarni, uylarni va daraxtlarni – to‘g‘rirog‘i, urush ularni nimaga aylantirib tashlaganini suratga olgan. Kuygan, ko‘r, qo‘lsiz va oyoqsiz bolalar, erkaklar va ayollar. Xarobalardan iborat uylar. Daraxt to‘nkalari.

Bu juda mahorat bilan olingan suratlar. Kitobdagi barcha insonlar tabassum qilishadi – amerikacha tabassum emas, balki axborot agentliklari hali xabar bermagan bo‘lsa-da, dushman tor-mor keltirilganini allaqachon bilgan odamlarning tabassumi bilan.

Men bu kitobni nogironlar uyida o‘tirib, dronlarning guvillashi ostida varaqlardim. Yonimda kechagi yigitchalar o‘tirishardi – ikkitasi ko‘r bo‘lib qolgan, birining oyoqlari, boshqasining qo‘llari ishlamay qolgan. Ular ham tabassum qilishardi. Ularning bolalik davri butun dunyo “Quyma qo‘rg‘oshin” deb ataydigan, musulmonlar esa qirg‘in deb nomlagan kunlarda tugagan edi. Ular o‘limning yuzini ko‘rgan va undan qo‘rqmaydigan erkaklar kabi jilmayishardi.

2008-yil 27-dekabr kuni ertalab G‘arb dunyosi Rojdestvo arafasida kurka va g‘oz go‘shtini eb tugatayotgan vaqtda 88 ta samolyot 220 soniyada G‘azo sektoridagi 100 dan ortiq nishonlarga bir vaqtning o‘zida zarba berdi. “Nishonlar” yonma-yon o‘tirishardi. Ularda tabassum va adolat tantana qilishiga bo‘lgan qat’iy ishonchdan boshqa qurol yo‘q.

O‘shanda birinchi bo‘lib 95 nafar qurolsiz kursant o‘ldirilgan – ular bitiruv chizig‘iga saf tortib turishgan edi.

[26] 2023-yil 15-oktyabrda doktor Umar, uning rafiqasi, farzandlari va nabiralari G’azo shahrining Tal-al-Hava tumanidagi uyiga aniq yo‘naltirilgan zarba natijasida halok bo‘lishdi.

Qaysidir “*X*” kunida maktabga borgani sababidan bu maktabga manzilli zarba berilgani uchun nogironlar aravachasiga mixlanib qolgan 17 yoshli bola kulib qaraganida siz uni unuta olmaysiz. Va siz nima uchun qabiladoshlaringizning o‘zlari tug‘ilgan joylarda emas, balki ushbu bola, uning ota-onasi, bobolari va katta bobolari tug‘ilgan mamlakatda yashashni ko‘ngli tusab qolgan uchun ushbu o‘smirning hayoti minglab hududlarni o‘zgartirishga bo‘lgan ovning garoviga aylanganini tushunishni juda xohlaysiz. Nima uchun boshqa shaharlarning son-sanoqsiz aholisi Muqaddas Kitobga asoslanib, Xudo ularga bu yerlarni tortiq qilgani, nega ular 2000 yil davomida bu yerda emas edilar degan savolga esa, chunki butun dunyo ularga nisbatan yomonlik va adolatsizlik qilgan edi... degan qarashga asoslanib Muqaddas zaminga ko‘chib kela boshladi, falastinliklarni uylaridan haydab chiqardi, zaytun daraxtlarini kesib tashladi, lagerlarga bandi qildi va har yili og‘ir aviatsiya yordamida ularni parokanda qilmoqda.

Falastinliklarda ushbu javobsiz savollarni tafakkur qilib ko‘rish uchun imkoniyat yo‘q. Ular oldingi urush dahshatlarini saranjomlashga ulgurar-ulgurmas, ustlariga navbatdagi urush dahshati yopirilib keladi.

G‘azoning ikki mingdan ortiq bolalari o‘sha urushda ota-onasidan birini yoki ikkalasini ham yo‘qotdi. Urush yetimlarini oilalarga taqsimlashadi, oilalar esa o‘zlarining uncha to‘kin bo‘lmagan dasturxonlarini ular bilan teng baham ko‘rishadi. Urushdan keyin ham ancha vaqtgacha yuragida nuqsoni bor, badbashara va kasalmand bolalar, terisi yo‘q va ichki a’zolaridagi patologiya bilan bolalar tug‘iladi. Falastinliklar kamdan-kam yig‘laydi, faqat juda yosh bolalarning yig‘laganini ko‘rishingiz mumkin. Keyinchalik ular qo‘rquv nimaligini bilmaydigan botir erkak va ayol bo‘lib ulg‘ayishadi. Ular shafqatsiz dunyoning kameralari va ob’ektivlariga qarab tabassum qiladi. Zero, ular adolat o‘zlari tomonida – dunyo esa aldayotganini bilishadi.

Falastinliklar o‘z tarixini sinchkovlik bilan yozadilar.

Olti qiz va bir o‘g‘ilning baxtli onasi Iptisam ummu Muhammad. Iptisam jurnalist. Men u bilan tanishganimda u gullab-yashnagan yosh ayol edi. Osmondan

bombalar tushishi to‘xtashi bilanoq hayotining bir necha oyini nimaga bag‘ishlaganidan habarimiz bo‘lmasa, uni tashvishsiz xurliqo deyish mumkin edi.

Iptisam har kuni sektordagi vayron bo‘lgan uylarni piyoda aylanib, omon qolganlar bilan suhbatlashardi: u bomba ostida qolib halok bo‘lganlarning barchasiga martirolog[27] yuritadi. U vafot etganlarning ismini, yoshini, shart- sharoitini, oilasining mashg‘ulot turini yozib borardi. U kim va qanday yarador bo‘lgani, shuningdek bombalar ostida qolmasdan gospitalga olib borilgan odamning barcha to‘qimalari fosfor yoki o‘sha paytda noma’lum bo‘lgan, barcha a’zolarni eritib yuboradigan yoki tanani elakdek ilma-teshik qiladigan boshqa qurol bilan kuydirilganidan yoki u shifokorlarda dori-darmon bo‘lmagani uchun yoxud bunday jarohatlar bilan yashash mumkin bo‘lmagani uchun o‘lganmi, degan ma’lumotlarni sinchkovlik bilan to‘plardi.

Uning eng dahshatli ro‘yxati – 22 kunlik qirg‘inda yer yuzidan supirib tashlangan bolalar ro‘yxati edi. Uning ro‘yxatida halok bo‘lganlarning ismlari 1200 ta. Yana 300 ga yaqinini identifikatsiya qilish imkoni bo‘lmadi.

U har doim ozoda kiyimda kelardi, garchi G‘azoda suv juda yomon bo‘lsa ham. Chuchuk suv umuman yo‘q, olib kelinadigani esa sho‘r va zangli edi. Ammo Iptisam faqat musibat hisobchisi bo‘libgina emas, balki tartibsizlik va dahshat ustidan g‘alaba qozonish timsoli bo‘lib ham kelish kerakligini bilardi.

U navbatdagi xarobalar yoniga kelib, devor qoldiqlari ustiga o‘tirar, nafasini rostlab, tabassum bilan bolalar, ularning onalari va otalari bilan suhbatlasha boshlardi. Va ularning barcha so‘zlarini yozib olardi.

U erta tongda uydan piyoda chiqib, kechqurun qaytib kelardi, chunki G‘azodagi yo‘llarning katta qismi vayron bo‘lgan, avtomobillarning katta qismi yo‘q qilingan va o‘sha paytdagi ikki yillik blokada tufayli benzin ham yo‘q edi. Eshaklarning aksariyati bombalar va ochlikdan halok bo‘lgan, yangilarini esa G‘azoga tunnellar orqali olib kirishga hali ulgurishmagan edi.

[27] Martirolog – o‘limi tasdiqlangan shahidlar ro‘yxati, ularning ismlari shahidlik sanasiga ko‘ra taqvim tartibida keltiriladi.

Iptisam nafas rostlar va jilmayardi. Chunki uning atrofida 22 kunlik urushda tabassumni unutib qo‘ygan bolalar turardi.

Shunday qilib, Iptisam oq fosfor va to‘yintirilmagan uran erishidan xosil bo‘lgan zaharli havodan nafas olib ishlagani uchun bularning hammasi asta-sekinlik bilan uning tomog‘iga o‘tirib qoldi va u saraton kasaliga chalindi.

U o‘zidagi yo‘tal charchoqdan, tomog‘idan kelayotgan qon haddan tashqari holsizlanishdan emasligini tushunib etganida kitobini tugatib ulgurgan edi. G‘azoda saraton tashxisi uchun apparatlar mavjud emas.

Ammo uni sektordan olib chiqib, Turkiyaga tekshiruvga yubora oladigan odamlar topildi. U yerda Iptisamni davolay boshlashdi. Sog‘ligining bugungi holati insonga taskin beradi.

Iptisam kasallik davrida ingliz tilini o‘rganmoqda, kompyuterni qo‘lidan qo‘ymaydi, chunki u barcha tarmoqlarda G‘azoni tiklash qanday ketayotgani, kimni va qanday qilib davolanishga yuborish mumkinligi haqida gapiradi. Har safar kimyoterapiyaning navbatdagi kursiga otlanar ekan, u “safari bekorga ketmasligi” uchun bir qator uchrashuvlarni rejalashtiradi. Muolajadan keyin o‘ziga kelishi bilanoq yana tabassum qiladi.

Iptisam 22 kunlik qirg‘indan keyin G‘azodagi deyarli har bir uy va har bir oila qanday ko‘rinishda bo‘lganini aniq biladi. Urushning so‘nggi kuni bilan taqqoslaganda, uning nuqtai nazari bo‘yicha, hozirda hammasi ancha yaxshi. Axir deyarli barcha vayronalar yig‘ishtirib olingan, tuzatishga ulgurish mumkin bo‘lgan deyarli barcha kasalxonalar ta’mirlangan. Avtomobillar ham, benzin ham bor, garchi qamal davom etayotgan bo‘lsa-da.

Falastinliklar barcha dahshatli voqealar qanday sodir bo‘lgani haqidagi hikoyalarni eslab turish ahamiyatli ekanligini unchalik urg‘ilamaydilar, chunki u allaqachon o‘tmishga aylangan va ularning fikricha, o‘sha kunlarning dahshatiga fikran qaytishdan ko‘ra engib o‘tish haqida gapirish yaxshiroqdir.

Rus shifokori Marina G‘azoda 12 yildan beri yashaydi. Marina bu yerda juda talabgir – Marina ginekolog, musulmon ayollar esa bu masalada ayol shifokorlarni afzal ko‘rishadi. Ayol ginekologlar bu yerda kam. Marina shifokor erini urushdan keyin darhol qayta malakadan o‘tish uchun Rossiyaga yubora oldi, bu qamal sharoitida mo‘‘jiza edi. *(G‘azoda shifokorlarning malakasini oshirishga intilishi o‘ziga xos hayot bosqichi. Uning muhimligi haqida har qanday shifokor ilhom bilan, batafsil va atroflicha gapiradi. Chegarani kesib o‘tish har qanday falastinlik kabi shifokorlar uchun ham qiyin, malaka oshirmasdan turib ular o‘zlarini o‘z ishining ustalari deb his qilmay qo‘yishadi).*

Shunday qilib, Marina gaplashib olishga ulgurishimiz uchun meni nazorat-o‘tkazish punktigacha kuzatib bordi, men esa chegara yopilgunga qadar sektordan chiqishga kechikmadim. U gospitalda va umuman kasbi bo‘yicha uchta joyda ishlaydi, urushdan oldin o‘z uyida tug‘ayotgan ayollarni qabul qilish uchun xona jihozlay olgan edi.

Kunlarning birida u nafaqat uyini yo‘qotdi – balki kvartalga bomba tushishi natijasida uning xonasidagi derazalar, jihozlar va asboblar portlash to‘lqini bilan supirib tashlandi. Marinaning qaynotasi samolyotlar shovqinini eshitib, hammaga chiqishni buyurganini eslaydi. Narsalarni yig‘ishtirishga vaqt yo‘q edi. Uning oilasi tirik qoldi, lekin ularning barcha mol-mulkini xarobalar ko‘mib yubordi. Ularning omadi bor ekan – raketa ularning uyiga tushmagandi.

U turmush o‘rtog‘i roppa-rosa ikki yildan buyon malaka oshirayotganidan baxtiyor. “U har holda ozgina dam oldi, uyquga to‘ydi, to‘yib ovqatlandi, usti but bo‘ldi, har kuni qo‘ng‘iroq qiladi – bizni sog‘inadi, men esa uning o‘qishini davom ettirishini xohlayman. Qiynchiliklar bor, lekin hechqisi yo‘q, axir men ishlayapman, bizga hozircha etadi”, - deydi Marina. U bir bemorni ko‘rib, ikkinchi bemor uyiga borishi uchun yarim soat vaqt ketadi, Marina ikkalasiga ham shunchalik chegirma beradiki, bu pul hatto ular orasidagi masofani bosib o‘tish uchun benzin sotib olishga

ham etmaydi. “Kabinet uchun pul ishlayapman, tunnellar orqali uskunalarga buyurtma beramiz va yana kabinetga ega bo‘lamiz. Uy ta’mirlab bitkazdik-ku!” – deydi Marina.

Marinaning o‘zi homiladorlik paytida kasalxonada navbatchilik qilayotganda chalg‘ib qolib, harbiy operatsiya boshlanganini va shifoxona oldidagi yo‘lga tanklar chiqib kelganini payqamay qoladi. Qochib ketayotganda unga qarata o‘q otishardi. “Men odamlar orasiga yugurib kirdim va ular meni panaga olishdi”, – deya kuladi u. Ne ajabki, bizning kengliklarimizda esa mashinalar suv sachratib o‘tgani uchun g‘azablanib gapirish odatiy hol.

Marina adolat qaror topishini anglatuvchi, o‘sha o‘ziga xos falastincha tabassum bilan jilmayadi. U tanklardan o‘ziga qarata o‘q uzilgan urush, hisob bo‘yicha nechanchi urish ekanini eslashga harakat qiladi. U hisobdan adashadi: “Qisqasi, bu hali Isroil o‘z aholi punktlarini G‘azodan olib chiqib ketmagan, Rafahdan G‘azo sitiga borishning iloji bo‘lmagan payt edi. Qaranglar, endi bu masofani qanchalik tez bosib o‘tdik!”

Uylanish

Kelishimdan oldin G‘azodagi to‘ylarga kam tashrif buyurishni niyat qilgandim. Ammo taklifdan bosh tortmoqchi bo‘lganimda, hatto o‘ylamang ham – pushaymon bo‘lmaysiz deb qulog‘imga shivirlashdi.

Falastin to‘ylari – ulug‘vor tadbirdir. To‘y uch kun davom etadigan, gavjum va quloqni qomatga keltiruvchi yig‘indir.

Ko‘chada to‘y bo‘layotganini bexato bilib olish mumkin: yoshlar tiqilinch bo‘lib minib olgan yuk mashinasi yoki boshqa transport vositasi harakatlanmoqda, bolachalar unga uzum shingillari kabi osilgan, barcha o‘tkinchilarni xursandchilik bilan kutlashmoqda. Agar shunday shod-xurram jamoaga duch kelsangiz, demak, oilada to‘y bo‘lyapti. Kamdan-kam hollarda to‘y tadbiriga mingdan kam odam to‘planadi: falastinliklarning oilalari katta va to‘yga hammani – qarindoshlar, qo‘shnilar, hamkasblarni taklif qilishadi.

“Quyma qo‘rg‘oshin” dengiz bo‘yidagi yoshlarning eng sevimli to‘yxonasiga quyildi – endi bu xarobadan boshqa narsa emas. Lekin boshqa zallar ham bor. Muhammadning singlisi o‘z qo‘shnilarining to‘yiga taklif qildi.

Ayollarga atalgan to‘y tadbirining ko‘rinishi quyidagicha: ulkan zalda turli yoshdagi yuzlab ayollar – chaqaloqlardan tortib kampirlargacha o‘tirishadi. Sahnada kuyovga qarindosh bo‘lgan ayollar raqsga tushishadi. Bu yerda erkaklar bo‘lmagani uchun ayollar istaganicha va xohlagan narsalarida raqsga tushishadi.

Butunlay qora kiygan va yuziga parda tutgan shuningdek, yevropacha ochiq ko‘ylak kiygan, sochlari yoyilgan ayollar ham bor.

Kampirlar xam bu yerda o‘g‘illari, jiyanlari va nevaralariga bo‘lajak kelinlarni izlashadi.

Raqs ikki soatcha davom etadi, hech kim eb-ichmaydi, ortiqcha sarf-xarajat ham qilinmaydi. Keyin dugonalar va qarindoshlar taqinchoqlar solingan sandiqni tantanali ravishda olib chiqishadi va kuyovning kelinga sovg‘asini hammaga namoyish qilishadi.

Bu mahr – kelinning barcha ehtimoliy holatlari uchun sug‘urtasidir, zotan bunday ehtimoliy holatlar Falastinda juda tez-tez sodir bo‘ladi.

Ayollar sovg‘alarni diqqat va viqor bilan ko‘zdan kechiradilar. Va tarqalishadi. Hech qanday taom yo‘q – quvonchning eng sof shakli.

Bir kun oldin erkaklar xursandchilik qilishadi. Aytishlaricha, erkaklar tadbiri ancha zerikarli o‘tadi – choy ichib, tarqalishadi.

Uchinchi kuni esa qarindoshlar kelin-kuyov sharafiga tort eyishadi va bolalar no g‘oralar va o‘tkinchilarning o‘zaro salomlashuvlari ostida shahar bo‘ylab sayohat qilishadi.

To‘y ortidan to‘y ulanadi, ba’zida qochqinlar lagerlaridan kelgan juftliklar uchun to‘ylar zal ijarasi xarajatlarini kamaytirish uchun birlashtiriladi. Bunday juftliklarga mahrni pul yig‘ib sotib olishadi, chunki qochqinlar lagerlaridan kelgan oilalar kambag‘al, to‘y sovg‘asini bermasdan esa uylanish mumkin emas.

To‘ylar - jamoat ekranlarida futbol o‘yinlarining tomoshasi va dengizga jamoaviy sayohatlar qilish kabi katta dunyo uchun oddiy bo‘lib ko‘ringan ishlar – G‘azoda qamal qiyinchiliklari eng yuqori cho‘qqiga chiqqanida xalq ruhining tetikligini namoyish etadi.

Bir marta to‘yga borganimdan keyin boshqa hech bir taklifni rad etmadim: ayollar bilan dengizga tushlik qilgani bordim, bevalar bilan piknikka chiqdim. Ikkinchi jahon urushi davridagi ingliz qabristonini ziyorat qildim – bu qabriston G‘azodagi eng obod va e’tibor bilan qaralgan yashil joylardan biri bo‘lib, u yerda olti qirrali yulduzli bir nechta uchuvchi yahudiylarning qabrlari alohida e’tibor bilan qo‘riqlanadi, chunki bu yahudiylar Falastinga hech qanday yomonlik qilishga ulgurmagan, ular bu joylarga dunyoda amalda bo‘lgan barcha qonunlardan ajralib turadigan g‘alati qonuniyatga ko‘ra yashash uchun kelmagan.

Bombardimon qilingan, mozorlari ag‘darilgan Falastin qabristoniga ham tashrif buyurdim. Bombardimon qoldiqlaridan butunlay tozalangan, fabrika va zavodlar, hatto masjid joylashgan hududlarni ham kezdim. Va albatta, falastinlik bolalar va qizlar bilan generator shovqini ostida futbol ham tomosha qildim.

“Avliyo Georgiyning onasi falastinlik bo‘lganini bilarmidingiz?”

G‘azo siti qadim shahar bo‘lib, Quddusdan qariyb ikki ming yil qadimiyroqdir. Aleksandr Makedonskiy G‘azoning qarshilik ko‘rsatib turgan ko‘chalaridan o‘tayotganida bu shahar allaqachon asrlar changiga ko‘milib bo‘lgan edi. O‘shandan beri asrlar va changlar qo‘shilib bordi.

G‘azo siti markazida egri-bugri ko‘chalardan iborat o‘rta asr mahallasi mavjud. Bu yerda birinchi mahalliy episkop - avliyo Porfiriy[28] ibodatxonasi joylashgan.

[28] 2023-yil oktyabrida ibodatxona ruhoniylari va cherkov jamoasi G’azoni tark etmasliklarini ma’lum qilishdi. 10 oktyabr kuni Isroil raketasi ruhoniylar uyini vayron etdi. 20 oktyabr kuni ko‘plab ibodat qiluvchilar boshpana topgan ibodatxona hovlisiga Isroil tomonidan raketa zarbasi berildi. 18 kishi halok bo‘ldi, o‘nlab odamlar jarohat oldi.

Ibodatxona xochi uzoqdan ko‘rinib turadi. G‘azodagi har qanday odam unga qanday qilib tezroq borish mumkinligini mamnuniyat bilan ko‘rsatadi.

2008-yilda “Ozodlik flotiliyasi” bilan G‘azoga borgan italiyalik Franchesko Rossi uni birinchi bo‘lib quchoqlagan odam pravoslav ruhoniysi bo‘lganini menga aytgan edi. Ruhoniy qamalni yorib o‘tishga muvaffaq bo‘lganlarni qutlash uchun, falastinliklar va o‘zi bilan birga kelgan qavmi ila ochiq dengizga qayiqda suzib chiqqan edi.

Senator Rossi o‘shanda lol qolgandi, chunki u G‘azoda ruhoniyni, ayniqsa pravoslav ruhoniysini, bo‘lib ham qayiqda, ustiga qora jubba kiygan va xoch ko‘targan ruhoniyni ko‘rishni kutmagandi. Ma’rifatli Yevropadan farqli o‘laroq Falastindagi xristianlar xochlarni yashirishlari shart emas.

Rossiyaliklar G‘azodagi nasroniylar haqida uzoq vaqtdan beri bilishadi – cherkovlar o‘rtasidagi aloqalar yuzlab yillardan beri mavjud.

G‘azodagi pravoslav ibodatxonasi qadimiyligi jihatidan jahon ziyoratgohlaridan qolishmaydi. U 1600 yoshda. Yakshanba kuni ibodatxonada oyoq bosishga joy yo‘q. Generator gumburlamoqda, shuning uchun yorug‘lik bor. Oddiy kunlarda jimjitlik hukm suradi, faqat quyosh nurigina qop-qorong‘i zulmatni yorib o‘tadi. Bir necha kun ichida qavmdagi ko‘plab odamlar bilan tanishib oldim, meni o‘z tug‘ishganidek qutlashdi.

Birinchi marta kelganimda ko‘cha shamol va chang edi, ro‘mol o‘ragan edim. Ibodatxonaga ro‘molsiz ham kirishim mumkinligini, ular ham nasroniy sifatida ro‘molsiz yurishlari mumkinligini aytib, qavm ayollari g‘amxo‘rlik bilan oldimga shoshilishdi.

“Biz erkin odamlarmiz, bizda erkin jamiyat, bilasizmi?” – deb sochlari silliq turmaklangan kampir menga jilmayib qaraydi. – “Men rossiyalikman, bizda cherkovga ro‘mol o‘rab boriladi”. – “Ha, Rossiyadanmisiz, marhamat qiling, bu yerda ruslar ko‘p”.

U nazarda tutayotgan ruslar falastinliklarning xotinlaridir.

Ibodat boshlangunga qadar barcha o‘rindiqlar to‘ldi, plastmassa stullar olib kelindi, odamlar cherkov hovlisida joylashdi. Bolalar hamma joyda, ularga hech kim churq etmaydi. Bu yerga oila-oila bo‘lib kelishadi, hamma bir-biridan xursand. Sharqda cherkov – hayotning eng muhim elementidir. Bu shahar intelligentlarining zo‘rma-zo‘raki jamoasi emas, Moskvadagi ko‘plab yangi qavmlarda bo‘lgani kabi ular uchun cherkov jamoalari “manfaatlarga asoslangan ziyofat” o‘rnini bosuvchi emas, balki dindoshlar va erkin odamlarning haqiqiy hamjamiyatidir. Soxta taqvo, tavozu’da musobaqa, din peshvolari huzurida shijoatli bo‘lib ko‘rinishga intilish yo‘q. Ruhoniylar ham barcha bilan o‘zlarini sodda tutishadi.

Bu ruhni “shodlik” so‘zi bilan ta’riflash osonroq bo‘lsa kerak. Pravoslav falastinliklar ibodatdan zavq olishadi, bir-birlaridan xursand bo‘lishadi, ko‘p narsalarni tashkil qila olishganidan ko‘ngli ko‘tariladi. Ruhoniy qandaydir aql bovar qilmas ulushlar bilan quvonch ulashadi.

Agar dunyoning qaysidir burchagidagi xizmat ma’naviy jasorat bo‘lsa, bu albatta – Falastindir. Axir bu yerdagi nasroniylar ham xuddi musulmonlar kabi tirik nishon, asir va garovga olinganlardir.

Qamal xuddi musulmonlar singari ularning ham tomog‘idan oldi. Faqat ularga har kuni chegaraning narigi tomonidan: “Nega imillaysan? Ketaqol, yugur, axir sening ularga nisbatan ustunliging bor”, – deb qulog‘iga shivirlab turishadi.

Amerikaning ba’zi ijtimoiy dasturlari ko‘p yillar davomida nasroniylarni maxsus tanlab, ularga Avstraliya va Janubiy Amerikaga ketish huquqini berardi.

Pravoslav falastinliklar ketayotgan bo‘lsa-da, homiylari achchiqlanishiga qaramasdan, Falastin fuqaroligini qat’iy turib saqlab qolishardi – ular boshiga qilich kelsa-da, integratsiyalashmasdi.

Aytgancha, katolik nasroniylar pravoslavlarga qaraganda ko‘proq ketishga tayyor edilar, bu ham tushunarli. Axir pravoslavlar bu yerda avvalboshdanoq, havoriylar va’z qilgan zamondan beri bor. Katoliklar esa bu yerda XI asrdan keyin salib yurishlari natijasida paydo bo‘lishgan.

Ibodatxonada xizmat o‘talayotganda, tog‘ safarlariga mo‘ljallangan shim kiygan, ryukzak va fotoapparat ko‘targan qiz u yoqdan-bu yoqqa yurardi.

Bir tanishim menga engashadi: “Bu Fransiyadan kelgan jurnalist. U cherkovda ikkinchi yakshanbaki suratga olyapti. O‘tgan safar mehrobga borishga rosa intildi, nima uchun u yerga ruhoniy borishi mumkin-u, unga esa mumkin emasligini aqliga sig‘dirolmadi”.

U hamma narsani suratga olgani olgan. Vino va non marosimi boshlanganda uning ob’ektivi idishga kirib ketishiga sal qoldi. Bu yerning xalqi xushyor, kampirlar kutilmaganda tushunmovchilik yuzaga kelmasligi uchun ko‘zlarini yerga tikishadi. Ayni paytda jurnalist qiz hadiksiragan ko‘rinishda. U oshirib yuborayotganini o‘zi ham tushunyapti, lekin shu bilan birga uni hech kim to‘xtatmayapti-da.

Keyinroq undan G‘azoda yana nimalarni suratga olganini so‘radim. Ma’lum bo‘lishicha, boshqa hech narsani suratga olmagan, pravoslavlar haqida reportaj tayyorlagani kelgan. “Siz pravoslavlarni birinchi marta ko‘ryapsizmi?”

Ma’lum bo‘lishicha, ha, u Fransiyada ham pravoslavlar borligini bilmas ekan. U Isroil chegaralari orqali kelgan va kelishilmagan syujetlarni Isroil chegarasidan o‘tkazmasligidan xavotirda. Pravoslavlarning surati bilan esa, ehtimol, o‘tamiz, deb umid qiladi.

Xizmatdan keyin hech kim tarqalmaydi. Qabullar zalida qahva ichishadi va dengizga sayohat haqida kelishib olishadi: jamoa o‘z hisobidan plyajda atrofi o‘ralgan va soyabonli maydonni ijaraga oladi, u yerda oilalar kun bo‘yi o‘tirishlari, tushlik qilishlari va cho‘milishlari mumkin.

Diniy xizmatdagi nasroniy ayollar chiroyli va tartibli soch turmagida. Katta avlod tashrif buyuruvchilari esa to‘r ro‘mol o‘ragan.

Ibodatxona o‘rtasida parlamentning pravoslav deputati Xosam at-Tavil qaddini rostlab turibdi. Unga o‘tiradigan joy topilmadi, hamma joy band. U hamma bilan birga vino va non marosimini kutmoqda. Butun pravoslav dunyosida bo‘lgani kabi birinchi bo‘lib bolalarni cho‘qintirishadi: bolalar uzun zanjir bo‘lib kirish joyidan saf tortadi.

To‘rda jamoaning yana bir obro‘li a’zosi o‘tiribdi. U ham saylovda o‘z nomzodini qo‘ydi, ammo Tavilga yutqazgan.

Andreyning otasi Kipr orolidan bo‘lgan grek. Faol va g‘ayrioddiy tetik, go‘yo tashqarida 35 daraja issiq emasdek. U G‘azoga kelganiga ikki yil bo‘ldi, bu yerga 2008-2009-yillardagi bombardimonlardan to‘rt oy oldin, qamalning eng og‘ir oylarida kelgan. Uning diniy boshqarmasi Quddusda. U Moskvada o‘qigan, rus tilini biladi, arab va ingliz tillariga osongina o‘tadi.

Bu odam xuddi qamal markazida emas, jannat ostonasida turgandek ko‘tarinki kayfiyat ulashadi.

Ibodat davom etayotganda ibodatxonada chiroq yonib turardi – chunki generator ishlab turgandi. Endi esa yorug‘lik yo‘q: u hamma uchun bo‘lgani kabi kuniga uch soatga, kamdan-kam hollarda undan ko‘proqqa yoqiladi, chunki bombardimon natijasida vayron bo‘lgan elektr stansiya bloklarini ta’mirlash uchun yoqilg‘i va qurilish materiallarini olib o‘tishga Isroil ruxsat bermaydi.

Biz avliyo ota abadiy qo‘nim topgan xonada suhbatlashyapmiz, bu yerda hamma narsa baxmal, oltin va gullar bilan bezatilgan.

“Urush boshlanishidan bir hafta oldin Isroil hukumati bizga ketishni astoydil maslahat berishdi. Lekin biz mo‘‘tabar Aleksis bilan kelishgan holda bu yerdan ketishni istamadik. Bombardimon paytida uchta dafn marosimi o‘tkazdik. 16 yoshli qiz shifoxonada kislorod uskunasi bo‘lmagani uchun vafot etdi. Ikki kishi esa bombalardan xalok bo‘ldi”, – deydi Andrey ota. U hech narsadan – bombardimondan ham, qamaldan ham shikoyat qilmaydi. “Biz xuddi askarlarga o‘xshaymiz, bizda cherkov intizomi bor, faqat afsuski, bizni har uch yilda bir marta ko‘chirishadi. G‘azoda bo‘lish ruhoniy uchun sharafdir”.

“Musulmonlar bilan munosabatlarimiz yaxshi, bayramlarda bir-birimizni tabriklaymiz. Qarang, – Andrey ota devordagi ramkaga solingan qadimiy yorliq nusxasini ko‘rsatadi. – 637-yilda Umar ibn Xattob bu yorliqni Quddusdagi patriarximiz Sofroniy Ikkinchiga bergan. Bu xristianlar bilan tinchlik yorlig‘idir. Bizda 400 ga yaqin

pravoslav oilalari va 50 ga yaqin katolik oilalari bor. G‘azoda bizning ham, ularning ham ibodatxonasi mavjud”.

Shuni tushunish kerakki, oila Sharqda keng tushuncha bo‘lib, uni har doim ham hisob o‘lchamlariga solib bo‘lmaydi. G‘azoda 2 mingga yaqin nasroniy bor, deyish qabul qilingan. Aksariyati pravoslavlar, 100 ga yaqin kishi katoliklardir. G‘arbiy sohilda pravoslavlar ancha ko‘p – 20 - 30%, bu ham statistikani kim berishiga bog‘liq.

Isroil tomoni o‘rni kelishi bilan “islomchilar” tomonidan nasroniylarga nisbatan ta’qiblar haqida gapirishni yaxshi ko‘radi. “Islomchilar” – Falastindagi qarshilik harakatining yuzaga kelishiga Jorj Habash hamda Vadi Haddod kabi nasroniylar bosh bo‘lganini unutishmagan har holda.

Qanaqasiga qaramang, nasroniylarning sharqdagi mavqei baland.

Andrey ota atrofida sodir bo‘layotganlarni mashaqqat deb emas, balki sabr-toqat uchun vahiy qonuniyati o‘laroq gapiradi. “Biz mitropolit bilan Quddusdagi patriarx huzuriga borganimizda, Eres nazorat-o‘tkazish punkti orqali ikki kilometr piyoda yurishimizga to‘g‘ri keladi. Diplomatik raqamli mashinamiz ham, diplomatik pasportimiz ham bor, lekin menda avtomobil boshqarish uchun guvohnoma yo‘q. Falastin haydovchisini esa o‘tkazishmaydi. Lekin doktorlar – piyoda yurish juda foydali ekanini ta’kidlaydi”, deydi Andrey ota.

Andrey ota G‘azoda besh yoshli bola ham tushunadigan narsani tushunmayotganimni ko‘rib, kuladi: “Albatta, tashrif buyuruvchilarimizning mashina boshqarish huquqini beruvchi guvohnomalari bor, lekin ularning hech biri bizni mashinasida narigi tomonga o‘tkazish u yoqda tursin, hatto chegaragacha olib borolmaydi, isroilliklar ruxsat bermaydi”.

“Bizda HAMAS hukumatining xati bor, unda biz, nasroniylarga ibodat qilish uchun sharob kerakligi aytilgan. Bundan tashqari, bizda marhum politsiya boshlig‘i Tavfiq Jobirning[29] cherkov ehtiyojlari uchun vino olib kirishimizga ruxsat beruvchi xati

[29] Tavfiq Jobir 2008-yilgi bombardimonlarning birinchi kunida 200 nafar bitiruvchi kursant bilan birga o‘ldirilgan.

ham bor. Ular bizning diniy an’analarimizni hurmat qilishadi. Bizning nasroniy maktabimizga ta’lim vaziri Muhammad Asqul tashrif buyurgan. Maktabimiz arab tili bo‘yicha birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Ikki yil oldin bizga Mahmud Az-Zohar[30] ham kelgandi. Men sog‘liqni saqlash vaziri Naim Basem bilan ham uchrashganman”, - deya Andrey ota bularning barchasi haqida hech bir ulug‘vorliksiz gapiradi. U bu yerda o‘zini uyidagidek his qiladi, hech kimdan qo‘rqmaydi, – “fundamentalist” va “islomchi” musulmonlar pravoslav nasroniylarga dushman emas, balki do‘st ekanligini aniq biladi.

U kimning pravoslavlarga do‘st, kimning dushman ekanligini har onda tekshirish imkoniyatiga ega. Ruhoniylar ongida bu masalada hech qanday, hatto mayda chalkashlik ham yo‘q.

Andrey ota 405-yilda avliyo Porfiriy sharafiga qurilgan ibodatxona haqida hikoya qiladi. Uning muqaddas tana qoldiqlari shu yerda, oddiygina, ochiq holda, oynasiz, kichik qutichada yotadi. Ko‘plab ikonalar bor, alohida e’zozlanadigan suratlari ham mavjud.

“Avliyo Georgiyning onasi falastinlik bo‘lganini bilasizmi? Ioann Damashqiyning onasi ham”, – deya u avliyolar haqida xuddi qarindoshlari haqida gapirayotgandek so‘zlaydi.

Sharqona pravoslavlikning ajoyib xususiyati shundaki, u yerda barcha bir-biriga qarindosh, barcha bir-biriga va aziz-avliyolarga yaqin hamda qo‘shnidirlar. Muqaddas zaminda odamlar o‘sha asrlardagi sinovlar hozirgi zamon sinovlariga qay darajada qiyoslash mumkinligini yaqqol ko‘radilar. Ammo hozircha tinchlik hukm surayotganga o‘xshaydi, to‘g‘ri, bombalar tushmoqda, lekin unchalik zich emas. Andrey ota esa bu kunlarini qanday tasvirlash uchun so‘z izlaydi: “Hozir eng og‘iri – odamlarga sektor chegaralarini kesib o‘tish taqiqlangani va ish yo‘qligidir. Bu yerlarda hech qachon

[30] Maxmud Az-Zohar - HAMAS politbyurosi a’zosi.

bunday bo‘lmagan, odamlar bemalol yurishgan. Biz faqat nasroniylargina emas, barcha odamlar ozodlikka erishsin, deb ibodat qilamiz”.

“Siz qabristonimizda bo‘lganmisiz?” – bu qayg‘uli joy tilga olinganda Andrey otaning ovozi qanday quvonch bilan jaranglashini eshitish kerak. Menga qavm a’zosi hamrohlik qilmoqda. Cherkov qoshidagi qabriston kichik, ozoda, qabrtoshlar zich joylashgan, har joyga ham kirib bo‘lmaydi.

Pravoslav shahidining qabri – jamoatning faxri. Bu evfemizm emas, shahid arabcha so‘z bo‘lib, haq yo‘lda azob chekib vafot etganlar shahid hisoblanadi. Ayyad Saeh muhandis-zobit bo‘lgan va 1992-yilda isroilliklar tomonidan o‘ldirilgan. Uning tabassum qilgan surati qabr toshiga o‘yib tushirilgan. Musulmonlar kabi pravoslavlar ham o‘z shahidlarini yuvmasdan dafn etadilar. Musulmonlardagi kabi pravoslav shahidlar ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratganning huzuriga boradilar.

“Biz ozchilikka ishonmaymiz”

Parlament binosidagi Xosam at-Ta’vilning qabulxonasi 2008-yilgi bombardimonlar oqibatida vayron bo‘lgan. Shu bois hozircha u odamlarni kichik ofisda qabul qilmoqda. Elektr ta’minoti yo‘qligi sababli lift ishlamayapti. Yuqoriga piyoda ko‘tarilish lozim. Pravoslav deputatining qabulxonasida musulmon ayollar o‘tiribdi, shunchaki emas, balki yuzlarini qora niqob bilan to‘liq berkitgan holda. Ular qora qo‘lqop kiygan nozik qo‘llarini nafis harakatlar bilan siqadi, tabassum qilayotgan ko‘zlari esa charaqlaydi va og‘ir shoyi ko‘ylaklari shitirlaydi. Ular o‘zlari yoqlab ovoz bergan va o‘zlari taniydigan nasroniy deputatning oldiga kelishgandi, unga kotib qog‘ozlarni to‘g‘rilab beradi.

2006-yilgi saylovlardan so‘ng G‘azoda HAMAS harakati g‘alaba qozongan, doktor Tavfiq esa pravoslav deputati etib saylangani ma’lum bo‘lganidan so‘ng birinchi marta unga qo‘ng‘iroq qilgandim. Mening muharririm bunday bo‘lishi mumkinligidan hayratda qoldi: qanday qilib pravoslavga nafaqat pravoslavlar, balki musulmonlar ham ovoz berishi Moskovcha tafakkur sxemasiga to‘g‘ri kelmayotgandi.

Doktor Xosamning o‘zi, aksariyat nasroniylar, yana taxminan 400 ming kishi singari G‘azoning qadimiy oilalaridan *(G‘azoning boshqa 1,1 million aholisi qochqinlar bo‘lib, ba’zilari 1948-yilda, boshqalari keyinroq*[31] *o‘z uylaridan haydalgan)*. Ta’villar oilasi – katta va mashhur oila. Yosir Arofatning bevasi Suha ham shu oilaga mansub.

Nasroniy uchun yer yuzida bundan ko‘ra ibratliroq joyni, dindor kishi ruhi uchun bundan ko‘ra foydaliroq makonni izlab topish qiyin. Bizning kulfatlarimiz G‘azodagi hayot fonida – engil anglashilmovchilik; xafagarchiligimiz esa nozik qalbning injiqligi; hayotdan noroziligimiz esa kechirib bo‘lmas zaiflikdek tuyuladi.

Axir rossiyaliklar eng katta va eng boy mamlakatda yashaydilar va uning istalgan burchagiga borishlari mumkin, bizda dengizlar va daryolar, mo‘l-ko‘l ajoyib chuchuk suv *(falastinliklar uchun chuchuk suv umuman yo‘q)*, o‘rmonlar va tog‘lar, hayvonlar va qushlar, cheksiz dalalar va bog‘lar – inson xohlagan hamma narsa bor.

Biroq ruslar yashashni istashmaydi, erta vafot etadi, farzand dunyoga keltirmaydi, hayotini izga solmaydi, musulmon vatandoshlari haqidagi har qanday uydirmaga ishonadi. Dunyodagi eng katta qamoqxonada tikanli simlar ortida qamalgan, ochlikdan o‘lmasligi uchun qat’iy qamal taomnomasiga o‘tqazilgan falastinliklar esa birodarlikni saqlab qolishni uddalaydi, bombalar ostida taslim bo‘lmaydi, hech qaerga qochmaydi, haqiqat hamda g‘alaba ular tomonida ekanligini qat’iy biladi.

G‘azodagi parlamentning pravoslav deputati bilan o‘sha birinchi telefon suhbatimni “Kommersant” da e’lon qilayotganimda muharririm uni “Gazeta” da chop etishga qo‘rqdi, chop etilganini ko‘rib esa tirsagini tishladi.

Men deputat janoblaridan – “HAMAS ga sotilganlargina uni qoralamaydi” – degan keng tarqalgan fikr haqida nima deb o‘ylashini so‘rayman.

“Ha, ko‘p yevropaliklar menga ham shunday deyishadi. G‘azo sektoridagi hayot va nasroniylar hayoti manzarasini hatto jiddiy matbuot ham sariq matbuot qonuniyatlari

[31] 2023-yilda G’azo aholisi 2,2 million kishini tashkil etgan.

asosida buzib ko‘rsatayotganini payqadim. Men mustaqil deputatman. Men musulmonlarning ham, nasroniylarning ham ovozini oldim. Meni Xalq fronti ham, Demokratik front ham, sobiq kommunistlar ham, Mustafo Bargutiy[32] ham, so‘llar ham, o‘nglar ham qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa G‘arb ko‘rishni xohlamayotgan, nasroniylarning Falastin jamiyati bilan munosabatlari aslida qanday ekanini aks ettiradi”.

Pasxa bayrami munosabati bilan Quddusga borishi mumkinmi, Shunga aniqlik kiritib berishini so‘rayman.

“Men Quddusga nasroniy sifatida emas, parlament a’zosi sifatida borishim mumkin. Buning uchun menda ruxsatnoma bor, uni har olti oyda Ramallohdan olaman. Ammo men *(FATH va HAMAS o‘rtasidagi)* bo‘linish bartaraf etilmaguncha G‘arbiy sohilga bormayman”.

G‘arbiy sohilga nasroniy sifatida borish – bu alohida mavzu. Isroil tomoni barcha falastinliklarning G‘arbiy sohilga borishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ammo ular ba’zi nasroniylarga Pasxa bayramida ruxsatnomalarini berish orqali umumiy vaziyatni biroz yaxshilashni o‘ylashmoqda. Ular bizga qandaydir messedj yubormoqchi: siz nasroniy sifatida ba’zi imtiyozlarga ega bo‘lishingiz mumkin. Ammo keling, bu ruxsatnomalar kimga va qanday berilishini ko‘rib chiqamiz. Bir oilada ruhsatnomani bir yoshli bolaga berishi, ota-onalariga esa rad etishi yoki yolg‘iz o‘zi safar qila olmaydigan kampirga berishi mumkin. Yoki xotiniga berib eriga rad etishi mumkin: tabiiyki yakka o‘zi bormaydi. Bunday safarning naqadar og‘irligini tushunish kerak-da! Ular har yili 500-600 ta ruxsatnoma berilganini aytib jar solishadi, lekin amalda bunday emas. Bu yolg‘on”.

Kitobxon uchun bugungi Falastin muammolari ierarxiyasini tuzib berishini undan so‘rayman. U uchta asosiy muammoni sanaydi.

[32] Mustafo Bargutiy – Quddusda shifokorlik qiladi. U Falastinning barcha partiyalarini birdamlikka da’vat etmoqda. Yozuvchi Edvard Said bilan hamkorlikda shu g’oyaga asoslangan harakat tashkil etgan. Prezidentlik uchun saylovda qatnashgan, biroq Mahmud Abbosga mag’lub bo‘lgan. Hozirgi kunda Ramallohda istiqomat qilmoqda.

“Blokada; Isroilning falastinliklarga nisbatan siyosati; Falastin kuchlarining siyosiy bo‘linishi. Umumiy strategiya, umumiy maqsadlar uchun milliy birlikka erishish kerak. U yo‘q ekan, saylov o‘tkazish mumkin emas. Kuchlarni birlashtirish – bu qiyin vazifa, lekin uni yangidan boshlash kerak emas. Bizda birlashish uchun mustahkam zamin bor – milliy muloqot to‘g‘risidagi hujjatlar, Qohira deklaratsiyasi. U barcha Falastin partiyalari tomonidan imzolanishi kerak.

Nasroniy va mustaqil siyosatchi sifatida shuni aytmoqchimanki, HAMAS va FATH siz birlikni qurib bo‘lmaydi. Bizga ushbu bo‘linishni ko‘rish og‘riqli, umumiy siyosiy til kerak”.

G‘arb odamlari va liberallar avvalo xavfsizlik masalasi bilan andarmon bo‘lishadi. Urush bo‘lmayotgan bo‘lsa, G‘azoda qanday xavf bo‘lishi mumkin? - deb o‘ylashadi ular.

“Agar ko‘chadagi odamlarning xavfsizligi haqida gapiradigan bo‘lsangiz, ularning xavfsizligi bilan hammasi joyidami? Qarang, dengizda qancha odam, tunda ko‘chalarda qancha odam bor. Ammo G‘azoda na siyosiy, na harbiy xavfsizlik mavjud, chunki biz har daqiqada Isroilning hujumini kutamiz. Biz okkupatsiya va blokada holatidamiz”.

Ayni damda Isroil bir vaqtning o‘zida blokadani rad etadi va uning zarurligini o‘z xavfsizligi bilan izohlaydi.

“Blokadaning Isroil xavfsizligi bilan shartlanishi bu yolg‘on. Bu insoniyatga qarshi jinoyat va jamoaviy jazolashdir, uning sabablari esa siyosiydir. Blokada to‘xtatilishi kerak. “Ozod G‘azo” flotiliyasi g‘oyasi asosida ko‘tarilgan falastinliklar bilan butun dunyoning birdamlik to‘lqini qamalni to‘xtatadi. Biz farqni yaqqol ko‘rib turibmiz: siyosatchilar o‘zlariga obro‘ortirishi mumkin, odamlar esa birlashish uchun zamin yaratadi”.

Blokada odamlarni to‘sib turibdimi, deb so‘rayman. Agar u olib tashlansa, G‘azodan hamma qochib ketadimi?

“Bombardimonlardan oldin Misr bilan o‘rtadagi devorni portlatib blokadani yorib o‘tish paytida[33] falastinliklar qochib ketishini kutishgan edi. Bombardimon paytida yana falastinliklar G‘azodan qochib ketadi deb o‘ylashdi. Rafah chegara hududida G‘azo qochqinlari qancha edi? Bu esa butun dunyoga falastinliklar o‘z yerlaridan hech qaerga ketishni istamayotganligini ko‘rsatdi.

Falastinliklar ham xuddi boshqalar kabi oddiy odamlar, ular ham boshqa ozod insonlar singari erkin harakatlanish, oila qurish, o‘z uyini barpo etish, dunyo bo‘ylab sayohat qilish va o‘z uyiga qaytib kelish huquqiga ega. Men qaerda yashashimni hech kim men uchun hal qilishga haqli emas.

Men qafasdagi qush emasmanki, qafas ochilganda nima qilishimni butun dunyo kuzatib tursa. Bizning chegaralarimizni ochish kerakmi yoki yo‘qligi haqidagi turli hukumatlarning mulohazalarini eshitib turish og‘riqli. Biz qafasda saqlanadigan hayvonlar emasmiz. Bu bizning erimiz, biz o‘z hayotimizni qurishga, uylanishga, boshqalarning ko‘rsatmalarisiz farzandlarimizga o‘zimiz xohlagandek ta’lim berishga haqlimiz”.

Nihoyat, Isroilning falastinliklarga va ularni qo‘llab-quvvatlovchilariga nisbatan tamg‘a sifatida bosayotgan – antisemitizm, nasizm va millatchilik masalasiga oydinlik kiritilishini so‘rayman.

“Biz o‘zimiz semitlarmiz, arab musulmonlari va nasroniylarimiz. Biz o‘zimizga o‘zimiz qarshi bo‘lolmaymiz. Biz barcha dinlarni va ularga e’tiqod qilish huquqini hurmat qilamiz. Biz hech qachon nasistlar kabi yahudiylarga ikkinchi navli odamlar yoki hayvonlar sifatida qaramaganmiz. Sionistlarning sharmandaligi shundaki, ular nasistlarning qurboni bo‘lib, o‘z his-tuyg‘ularini falastinliklarga yo‘naltirib, begunoh odamlardan o‘ch olish uchun bizning zaminimizga kelishgan”.

Xosam At-Ta’vil bir necha yil o‘tgach, tez kechuvchi saraton kasalligidan vafot etdi.

[33] 2008-yilda, ikki yillik qamaldan keyin ocharchilik boshlanib, HAMAS devorni portlatgach, odamlar non sotib olish uchun do‘konlarga chiqa boshlagan.

Pravoslav shahidlar

“Xudoni nima deb ataysiz?” - deb so‘rayman ibodatxona oqsoqoli Komil Oyatdan.

“Alloh va Abuna”, - deb javob beradi Komil. Abuna - “bu bizning otamiz”.

“Musulmonlar bilan muammongiz bormi?” deb savol beraman, oqsoqol esa bu qanday savol ekanini tushuna olmaydi: “Biz hammamiz falastinlikmiz!” - deb javob beradi u, nihoyat gap nima haqida ketayotganini tushuntirishgandan keyin.

U bizni qabristonga boshlab boradi va u yerda falastinliklar orasida din asosida vujudga kelgan muammolar mavjudligi haqidagi g‘oyani o‘z hayot tarzi bilan rad etib kelgan pravoslav xristianlarning qabrlarini ko‘rsatadi.

“Mana, advokat Faraj as-Sarabning qabri. U bir yil oldin vafot etgan. U pravoslav nasroniysi, bizning ibodatxonamiz a’zosi va “Oslo bitimlari” ning muallifi edi”, deya tushuntiradi cherkov oqsoqoli.

“Mana bu yerda “Quyma qo‘rg‘oshin” operatsiyasi paytida halok bo‘lgan beshta pravoslav falastinliklarning qabrlari joylashgan”. Komil Oyat qabrtoshlarni ko‘rsatib, bu kishilar haqida shunday deydi: “Bular bizning jafokashlarimiz, biz ularni shahidlarimiz deb ataymiz. Ulardan 4 nafari ayollardir. Ularning barchasi qurolsiz odamlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nishon berilishi bilan otilgan raketalardan halok bo‘lgan. Mana Kristina Konstantinovna Atdodning qabri, u 2009-yil 2 yanvarda vafot etgan”.

U Falastinning umumiy ishi uchun turli yillarda o‘z jonlarini fido qilgan pravoslav-falastinliklar ofitserlar va dunyoviy odamlar yotgan boshqa qabrlarni ham ko‘rsatadi.

“Pravoslavlar barcha guruhlarda bor – FATH da ham, HAMAS da ham, HAMAS harakatiga tegishli bo‘lgan “al-Qassam brigadalari” da ham bizning odamlarimiz bor”, deydi Komil Oyat.

Komilning o‘zi 16 yoshli o‘smirlik paytida intifadada qatnashgan va Isroil qamoqxonasida bir yarim yil o‘tirgan: “Men shunchaki tosh otdim. Ko‘plab nasroniylar Isroil qamoqxonalaridan o‘tishgan – biz uchun istisno yo‘q”.

Uning oilasi asli Quddusdan: “Biz 600 yil oldin G‘azoga ko‘chib o‘tganmiz. Biz bu yerda qochqin emasmiz. Biz Muqaddas zaminning tub aholisimiz”.

Uning aniqlik kiritishicha, Rus pravoslav cherkoviga G‘azo hududining 2 foizi tegishli: “Bu juda ko‘p! Bu juda katta mulk. Ammo okkupatsiya va blokada davrida Rossiya Pravoslav cherkovidan biror marta ham tashrif bo‘lmadi. Bu katta boy berishdir”.

Xristian o‘smirlari klubi

G‘azodagi eng qadimgi nasroniy tashkilotlardan biri Nasroniy o‘smirligi fondi[34] hisoblanadi. Bu shunday bir klubki, unda odamlar yig‘ilishi, bayramlar o‘tkazishi, sport bilan shug‘ullanishi mumkin. Bu yerda qadimiy chinor soyasida o‘rindiqli keng hovli, voleybol va tennis maydonchalari, bir nechta yopiq inshootlar mavjud. Ushbu fondga 1956-yilda Muso Iso Yusuf Saba tomonidan asos solingan. Bu ancha keksayib qolgan odam, butun vaqtini shu yerda mana nechta avlod, yosh va keksa mehmonlar atrofida o‘tkazadi. Uning kamtarona ishxonasida yosh Muso Saba navqiron Yosir Arofatning qo‘lini siqayotgani aks etgan surat osig‘liq turardi.

Klubda hozirda 2020 ta abonement bor, klubning har bir a’zosi o‘zi bilan mehmonlarni olib kelishi mumkin. Haftaning turli kunlari bu yerda turli jamoalar yig‘iladi. Masalan, juma kuni klubga ukrain, rus ayollar – falastinliklarning xotinlari tashrif buyurishadi. Janob Musoning aytishicha, uning oilasi asli Beer-Shevadan bo‘lib, o‘sha yerda yashagan va XX asr o‘rtalarida G‘azoga ko‘chib o‘tgan. Ular o‘z joylaridan ixtiyoriy ravishda ko‘chib o‘tgan bo‘lsa-da, qochqinga aylangan kamdan-kam

[34]Xristian yoshlar klubi ham 2023-yil noyabr oyida bombardimonga uchragan.

uchraydigan oilalardan biridir. Saba oilasi ham boshqa g‘azoliklar kabi o‘z vatanini ziyorat qila olmaydi.

Ushbu nasroniy klubida men rus va ukrain ayollar – falastinliklarning xotinlari bilan tanishdim. Ularning barchasi qimmatli kasb egalari, aksariyati o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlaydi – shifokorlar va o‘qituvchilar, musiqachilar, me’morlar, farmasevtlar ham bor. Bir vaqtlar rus ayollari bolalar teatri tashkil etib, unda ertaklar sahnalashtirgan, har bir spektaklga elliktacha bola jalb qilingan. Bu yerga pravoslavlikni saqlab qolgan, shu bilan birga Islomni qabul qilgan ayollar ham kelishadi: har bir guruhda ular erkin muloqot qilishadi.

Katolik maktabi

G‘azoda katoliklar soni kam bo‘lsa-da o‘z maktabini saqlab turishadi. Bu maktab juda mashhur, chunki u yerda juda sifatli ta’lim mavjud deb hisoblanadi. G‘azoning boshqa barcha maktablarida o‘g‘il va qiz bolalar alohida, bu yerda esa aralash o‘qitiladi.

Maktab hovlisiga tanaffus paytida kirib keldim: bolalar oddiy maktab churvaqalari kabi xursandchilik bilan sho‘xlik qilyapti. Tarbiyachilar o‘z o‘quvchilarining e’tiqodiga ko‘ra qanday taqsimotga ega ekanligi bilan bog‘liq savolimni qiyinchilik bilan tushunadi.

Nihoyat, bizni turli diniy e’tiqodlarga ega o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari haqidagi masala qiziqtirayotganini tushuntirishga muvaffaq bo‘lganimizdan keyin tarbiyachi bu yerda musulmonlar ham, xristianlar ham, katoliklar ham, pravoslavlar ham o‘qishini va mazkur farqlar bu yerda hech kimni – bolalarni ham, ota-onalarni ham qiziqtirmasligini aytadi.

Ingliz qabristoni

Odamlar bilan to‘lib-toshgan, kuyib qaqshagan, imkonli va imkonsiz joylarga uylar qurib tashlangan G‘azoning o‘rtasida jannatning bir bo‘lagi – xochli qabrlarning

geometrik to‘g‘ri qatorlari bilan ko‘zga tashlanadigan daraxtlarga mo‘l, yashil maysazor bor. Bu Ikkinchi jahon urushi davri qabristoni bo‘lib, bu yerda Afrikadagi janglarda halok bo‘lgan ingliz askarlari dafn etilgan.

G‘azoda nafaqat tiriklarga, balki o‘liklarga ham joy yetishmaydi, odamlarni dafn qilish uchun joy yo‘q. Ammo bu joy nafaqat saqlanib qolgan – balki u juda tartibli saqlangan.

Qabriston qorovuli Ibrohim Dixada menga barmog‘ini ko‘rsatib tahdid qiladi: “Meni suratga olishni xayolingga ham keltirma, shundoq ham ijtimoiy tarmoqlardan tinchlik yo‘q!” U tashrif qog‘ozi olib kelish uchun ketadi.

Ibrohim ko‘rinishidan yuz yoshga kirganga o‘xshaydi. Ibrohim tetik va o‘zi g‘amxo‘rlik qilayotgan ob’ekt haqida bajonidil gapirib beradi. U qabristonni 1958-yildan beri qo‘riqlaydi, ungacha esa otasi qo‘riqlagan.

Bobosi tashrif qog‘ozi uchun ketar ekan, qabriston bo‘ylab uning chevarasi Amir al-Banno olib yuradi. Aftidan, u bu yerda yotgan yuzlab jangchilarning nomlarini yoddan biladi.

2008-2009-yillar qishidagi bombardimonlar paytida bu yerga bir nechta bombalar tushdi, ammo falastinliklar barcha qabrlarni mukammal tartibga keltirishdi, garchi G‘azo sektori aholisi aksariyatining o‘z qishloqlaridagi ota-bobolarining qabrlari yo‘q qilingan, uylari esa yer yuzidan supirib tashlangan bo‘lsa-da.

Menga Dovud yulduzi tushirilgan oltita qabrni ko‘rsatishadi, u yerda ingliz qo‘shinida hizmat qilgan yahudiylar yotibdi. Ularning qabrlari ham xuddi shunday mukammal tartibda, garchi Isroil armiyasining askari bo‘lgan boshqa yahudiy bizni kuzatib turgan samolyot tepamizda tinmasdan aylanayotgan bo‘lsa-da. Va bu askar kayfiyatiga qarab, xoh nasroniy, xoh musulmon, xoh yahudiy qabri ustiga raketa yuborishi mumkin.

Al-Samuniy oilasi isroillik ko‘chkindilar bilan qanday do‘st tutingan

G‘arbda eng mashhur falastin oilasi – Samuniylar oilasidir. U G‘arbda CNN reportajlari, Goldstone hisoboti[35], Ken O’kif[36] va Isroil josuslari tomonidan o‘ldirilgan Vittorio Arregoni[37] kabi ko‘ngillilarning sa’y-harakatlari bilan tanilgan.

Ushbu oilani 2009-yilning yanvar oyida isroillik askarlar uyidan haydab chiqarib, omborga to‘plashgan va unga yoppasiga o‘t ochishgan. U yerda 29 kishi halok bo‘lgan, yana 200 kishi yaralangan va mayib bo‘lgan. Isroil armiyasi ikki hafta davomida tez yordam va qo‘shnilarni ularga yaqinlashtirmadi. G‘azoni tark etayotganda askarlar Samuniyning uyini o‘liklar bilan birga buzib tashladi. Turli yevropalik faollar yillar o‘tib, omon qolganlarga uyni tiklashga yordam berishdi.

Samuniy bolalari oldiga delegatsiyalar kelib, ularga yordam berishga harakat qilishadi. Ushbu oilaning taqdiri G‘arbda ko‘p muhokama qilinadigan tinchlik mumkinligi haqidagi butunlay yo‘q qilingan, umidlarning ramziga aylandi. Lekin ushbu xonadon ostonasida bu haqda gapirishga hech kimning haddi sig‘maydi.

Zaytun kommunasi sektorning o‘rtasida, unumdor yerlarda joylashgan. Samuniylarning barcha avlodlari dehqonchilik bilan samarali shug‘ullanishgan. Ularning bog‘lari, dalalari, uzumzorlari bo‘lgan.

Yaqin atrofda isroilliklar manzilgohi paydo bo‘lganida ular Samuniylar yerlariga deyarli tegmagan. Samuniy oilasi ham ko‘chkindilar bilan birga mehnat qilishgan. Ularning bobosi yahudiylar bilan hamkorlik qila boshlagan va o‘g‘liga ularga do‘stona munosabatda bo‘lishni vasiyat qilgan.

---

[35] BMTning 2008-2009-yillardagi urush to‘g’risidagi hisoboti.

[36] Kennet O’kif - AQSH fuqaroligiga ega bo‘lgan irland. Keyinchalik Falastin fuqaroligini qo‘lga kiritgan. U o‘tmishda dengiz piyodasi bo‘lgan. G’azo sektorida istiqomat qilgan. AQSH fuqaroligidan uch marta voz kechishga uringan, hattoki pasportini yoqib yuborgan. 2010-yilda “Moviy Marmara” kemasida, kemaga hujum qilgan ikki nafar isroillik askarni qo‘l kuchi bilan qurolsizlantirgan. Ko‘plab antisionistik tadbirlarning ishtirokchisi va tashkilotchisi bo‘lgan. Radiodasturlar olib boradi.

[37] Vittorio Arregoni – 2008-yildan 2011-yilgacha G’azo sektorida faoliyat yuritgan italiyalik muxbir. U 2011-yilda sektordagi Isroil agentalari tomonidan o‘ldirildi. Arregoni 2008 yilgi urushgacha, urush paytida va undan keyingi davrda G’azodan yozgan reportajlarini kitob qilib chiqargan.

Shu tariqa 40 yil o‘tdi. Birinchi intifada ham, ikkinchisi ham, muxtoriyatning tashkil topishi ham Samuniylarni isroillik ko‘chkindi qo‘shnilari qurol ko‘tarmaydi degan ishonchini yo‘q qila olmadi. Samuniylar ivrit tilini o‘rganib, ko‘chkindi qo‘shnilari bilan juda yaxshi kelishardilar. Oilaning ba’zi a’zolari qo‘shnilarning dalalarida ishlardi.

Sharon G‘azodan ko‘chkindilardan iborat aholi punktlarini olib chiqqanda Samuniylar xafa bo‘lishdi, chunki ular buni Isroildan kelgan mehnatkashlarga nisbatan adolatsizlik deb hisoblashdi. Samuniylarning hech biri hech qachon Falastin harakatlari va partiyalariga a’zo bo‘lmagan va bu harakatlar ularga yordam so‘rab murojaat ham qilmagan.

Isroilliklar bilan Muqaddas zamindagi “do‘stona munosabatlar” deyilganda katta dunyoda bu tushuncha ostida nazarda tutilgan ma’no kelib chiqmasligini tushunish muhimdir. Isroil xalqiga falastinliklar oldiga kelish taqiqlangan. Ularni o‘z uyida qabul qilish mumkin emas.

Samuniylar va ko‘chkindilar hech qachon yuzma-yuz uchrashmaganlar, choy ichmaganlar, bir-birlarini hech narsa bilan mehmon qilmaganlar. Ammo ishchilardan birortasi kasal bo‘lib qolsa, isroillik xo‘jayinlar telefon orqali qo‘ng‘iroq qilishardi. Muqaddas zamindagi “yagona demokratiya” ning haqiqatlari shunday: agar ko‘chkindi qo‘shningiz farzandlaringizga o‘q uzmay, muammoni hal qilish uchun qo‘ng‘iroq qilsa, bunday munosabatlar yaxshi hisoblanadi.

“Biror kishi kasal bo‘lib, ishga chiqmay qolsa, yahudiy sherigimiz hatto bizga qo‘ng‘iroq qilib, nima bo‘lganini so‘rardi. Biznikilarning ko‘pchiligi ularning traktorlarida ishlardi”, – deydi Samuniylar oilasining onasi Ummu Ahmad g‘amgin nim tabassum bilan.

Samuniylarnikida mehmon bo‘lib o‘tiribman. Avvaliga meni chodirga o‘tqazmoqchi bo‘lishdi. Lekin u yerda bolalar uxlab yotardi. Keyin menga quyonlarni ko‘rishga taklif qilishdi va ularning yoniga o‘tqazishga qaror qilishdi, lekin u yerda o‘tirishga joy yo‘q edi. Menga o‘sha paytda o‘zlarida qolgan yagona tosh binoni

ko‘rsatishga olib ketishdi – omborxonaga o‘xshash bir narsa, lekin u yerda umuman joy yo‘q edi.

Shunday qilib, biz avvalgi hayotdan qolgan divanga, polotno soyabon tagiga o‘tirdik. Bolalar qo‘shnilaridan stullarni olib kelishdi. Va biz Ummu Ahmad va uning omon qolgan oila a’zolari bilan suhbatimizni boshladik

U baquvvat va tabassumli ayol. Uning qiyofasida farovonlikda tug‘ilgan va yashagan ayolning baxtsizlik va qashshoqlikda ham saqlanib qolgan xotirjam g‘ururi sezilib turardi. U o‘tmishdagi qora bulutlar bo‘lmagan kunlar haqida hikoya qiladi, o‘shanda hamma tirik edi, Somuniylar nima bo‘lishidan qat’i nazar isroilliklar ularga hech qachon tegmasligiga amin edilar. Axir ular isroillik ko‘chkindilarning do‘stlari edi-ku.

U qancha ko‘p gapirsa, bu yerda “ko‘chkindilar bilan do‘stlik” deb hisoblangan munosabat shaklining hayratlanarli tafsilotlari shunchalik aniq ko‘rinardi.

“Ularga biz bilan muloqot qilish taqiqlandi, hatto ishda ham. Traktorni to‘xtatmoqchi bo‘lishsa, bosh ustidan o‘q uzishardi. Axir ular xodimning oldiga borib, “To‘xta” deyishlari mumkin emas, ular biz bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchrashishlari taqiqlangandi”, – Ummu Ahmad bularning barchasi begona quloqqa g‘alati eshitilayotganini tushunadi. Hatto hozir ham, mening ko‘z oldimda, beixtiyor o‘sha “yaxshi” ko‘chkindilarni biroz kechirishga harakat qilmoqda.

U Isroilda ularning oilasi “ijobiy hisobda” bo‘lganiga shubha qilmaydi. Bu shuni anglatadiki, maxsus xizmatdagi ko‘plab isroillik bekorchilar uning qarindoshlarini hibsga olishmagan, sudsiz qamoqda saqlashmagan, qiynoqqa solishmagan, qo‘shnilarini chaqib berishni talab qilishmagan...

Orqamizda ilma-teshik shifer bilan yopilgan kichkinagina ombor bor. Hovli ko‘chadan latta to‘siq bilan ajratilgan.

U 2009-yilning 4 va 5 yanvar kunlarini esga oladi. “Quyma qo‘rg‘oshin” operatsiyasi avjida edi, ammo Samuniylar oilasi bularning barchasi ularni chetlab o‘tishiga ishonchi komil edi.

“Biz uchun urush shu yerdan boshlandi, – Ummu Ahmad biz o‘tirgan chodirdan ellik qadam naridagi maydonchani ko‘rsatadi. – U yerga vertolyot qo‘ndi. Undan HAMAS kiyimidagi odamlar tushishdi. Ular bizdan HAMAS kim, ular qaerda, deb so‘ray boshlashdi.

Men ularga bu yerda hech qanday HAMAS yo‘qligini, ular ketishlari kerakligini, chunki isroilliklar ularni topib olishsa, hammasini o‘ldirishlarini aytdim. Shunda ular mening oilam HAMAS ekanligini va bizni o‘ldirishlarini aytishdi. Bular kiyimini o‘zgartirib olgan harbiylar, Isroillik druzlar edi, ular o‘q uza boshlashdi. Ular akalarimni, kelinlarimni, singillarimni, onamni o‘ldirishdi. Ular uyimizni vayron qilishdi. Hamma narsa – hujjatlar, diplomlar yo‘qoldi. Ular hammani o‘qqa tutishdi. Oltita bolam omon qoldi, qarindoshlarimning bolalarini o‘ldirishdi. 40 ta tank keldi va dalalarimizdan o‘tdi, ekinlarning hammasini yo‘q qildi. Oilamizda 200 nafar yarador bor edi. Ular tez yordam mashinasining o‘tib kelishiga imkon bermadi. Kichik farzandim tug‘ilganidan bir necha oy o‘tgach, qo‘limda jon berdi. Keyin oila a’zolarim halok bo‘lgan uyni vayron qilishdi, jasadlar bilan birga yo‘q qilishdi”.

U shikoyat qilmaydi, tirik qolgan bolalarining yuzlariga tabassum bilan qaraydi va Isroil askarlari buyurgan joyga hamma bilan birga itoatkorlik bilan o‘tganini xotirjamlik bilan hikoya qiladi. Uning eslashicha, hech kim qo‘rqmagan, na farzandlari, na eri, na ukalari, chunki isroillik askarlar ularga zarar etkazmasligiga amin edilar.

Men uning oilasida qurol bormidi, qarshilik ko‘rsatishdimi, deb so‘rayman. Isroilliklar uning qarindoshlari qo‘lida qurol ko‘rib HAMAS jangchilari deb o‘ylashlari mumkin emasmidi?

“Bizda qurol yo‘q edi. Ular hech kimda hech qanday qurol yo‘qligini ko‘rishdi. Ular bizning oddiy dehqon ekanligimizni bilishardi”, – deydi Ummu Ahmad.

Oila onasi mehmonlarni o‘tqazadigan joyi va mehmon qiladigan narsasi yo‘qligidan uyaladi.

Biz u va uning bolalari o‘qqa tutilgan uy vayronalari ostidan topgan narsalarini joylashtirgan omborni yana bir bor ko‘zdan kechirmoqdamiz. Bu yerda ular endi

tunashyapti. Ularda bir necha to‘shak, skameyka, radio va kerosin lampadan boshqa hech narsa qolmagan edi. BMT ularga bir nechta chodir sovg‘a qilgan.

“Bu kichkina kulba bo‘lib, ilgari ishchilar dalada ishlaganlarida dam olishgan. Bizning uyimiz bor edi, endi uy ham, suv ham, elektr ham yo‘q. Ekinlar nobud qilindi. Chet eldagi ko‘plab odamlar bizga yordam bermoqchi. Biz uchun ikkita konteyner keldi, lekin ularni Misr tomonidan o‘tkazilmayapti. Xotin-qizlar vazirligi bizni otaliqqa olishdi va quyonlar sovg‘a qildi”, – Ummu Ahmad bolalarga o‘sha quyonlarni menga ko‘rsatishni buyuradi. Men yana quyonlarni ko‘rgani ketaman. Ular brezent soyabon ostidagi qafaslarda o‘tirishadi. “Quyonlar uchun bu yer juda issiq. Maktabimizni ko‘rmoqchimisiz? Bu yerdan ko‘rinib turibdi, - deyishadi Ummu Ahmadning farzandlari. - Maktab ham o‘sha paytda buzib tashlangandi, lekin hozirda qayta tiklashgan”. Onasi kabi Samuniy oilasining farzandlari ham tabassum bilan gaplashadi – tabassum bilan gapirish holdan toygan, ammo sinmagan falastinliklarning hayratlanarli xususiyatidir.

Ummu Ahmad eski chodirning pardasini ko‘taradi: “Mana bizning mehmonxonamiz”. U yerda chiziq bo‘ylab qabulxonadagi divanlar kabi rangi o‘chgan gilamchalar to‘shalgan.

Uning katta o‘g‘li 18 yoshda, u o‘qiydi va ishlaydi. Kichkintoylar muhandis va jurnalist bo‘lishni xohlashadi. Muhandis – chunki bu yerda hamma narsani yangidan qurish uchun. Jurnalist – chunki hech narsani unutmaslik uchun. Farzandlardan hech biri shifokor bo‘lishni xohlamaydi, garchi bu kasb G‘azoda eng orzu qilingan kasblardan biri bo‘lsa-da. Ummu Ahmad: “Ular uchun shifokor igna sanchadigan, og‘riq beradigan kishidir. Bolalarimga ko‘p igna sanchishgan”.

Goldstounning dokladida bu oilaning falokatiga bir sahifa bag‘ishlangan.

Isroil ularga hech qanday kompensatsiya taklif qilmagan. Ular Isroilga qarshi qo‘zg‘atgan da’vo odatdagidek sudning turli instansiyalarida tiqilib qolgan. Ular Isroildagi na so‘llardan, na kommunistlardan va na dindorlardan yordam ko‘rmadi. Umuman olganda, Isroil hech qachon hech bir vayronagarchilik yoki qotillik uchun uzr

so‘ramagan yoki tovon to‘lamagan. Shunday ekan, falastinliklarning Isroilni davlat deb hisoblamasligida hech qanday g‘alati narsa yo‘q. Zotan u o‘zini boshqa normal davlatlar kabi tutmaydi.

Bu oila o‘z kuchi bilan yangi uy ko‘tarib, dalalarni tiklay olmaydi.

Oila boshlig‘i Ummu Ahmadning eri qirg‘indan bir yil o‘tib vafot etdi. “Yurakdan” o‘lim topdi. Hamma narsaning barbod bo‘lishi va bunday ochiq-oydin yovuzlikka qarshilik ko‘rsata olmaslikni erkaklar og‘irroq o‘tkazadi.

Samuniy oilasi haqida ommaviy axborot vositalarida tez-tez yozib turishadi, o‘ldirilganlar sonini har xil – goh 22 ta, goh 92 ta qilib ko‘rsatishadi. Ummu Ahmad xafa bo‘lmaydi. U nima uchun aniq aytish qiyinligiga hayron bo‘ladi, chunki barcha 29 qurbonning ismlari ma’lum-ku. Jurnalistlarning ishini engillatish uchun Ummu Ahmad o‘ldirilgan qarindoshlaridan qolgan suratlarini yig‘ib, plakat tayyorladi. Markazda uning eri. Faqat o‘ldirilganlar, shuning uchun u ramkada emas.

U barmog‘i bilan bir rasmdan ikkinchisiga o‘tib, har bir oila a’zosi kim bo‘lgani va kim qanday o‘ldirilgani haqida hikoya qiladi. Portretda juda kichik bolalar va yosh qizlarning fotosurati yo‘q. Ummu Ahmadda oilaning yosh bolalari o‘q izlari bilan o‘lib yotgan fotosurati bor.

Ummu Ahmad vafot etganlar aks etgan bu suratga qaramaslikka harakat qiladi.

U qarindoshlarining portretlari osilgan tarafga o‘tiradi va o‘zining atrofida jamlanayotgan bolalari va jiyanlariga qarab jilmayadi. U hammani yonma-yon o‘tirishga undaydi. Shunday qilsa unda oila yana jam bo‘lgandek tuyg‘u paydo bo‘ladi. Erkaklar vafot topgan va uning orqasidagi portret rasmlarida aks etgan bo‘lsa-da, vafot etmagan bolalari uning yonida – tirikdirlar. Demak hammasi yaxshi.

Ayol nima uchun urushga boradi?

G‘azoda Islom olamining eng mashhur ayollaridan biri yashaydi, u jangovar otryadga qo‘mondonlik qilgan. Ular ikki dugona edi – Laylo Xolid[38] va Maryam Abu Dakka, ularning ikkalasi ham Livandagi qo‘zg‘olonchilarga rahbarlik qilishgan. Hozir Laylo Xolid oilasi bilan Iordaniyada, Maryam Abu Dakka esa qamaldagi G‘azoda[39] yashaydi.

Doktor Maryam – Falastin Ozodlik Xalq Fronti Markaziy Komitetining a’zosi, televideniyada tez-tez chiqishlar qiladi, dissertatsiya yoqlagan. U o‘zining kommunistik g‘oyalariga sodiq, diniy partiyalarni esa tanqid qiladi va Falastin siyosiy guruhlar asiriga aylanmasligiga ishonadi.

Biz 2011-yildayoq blokada olib tashlanishi bilan ko‘rishishga kelishib olgan edik. Men, misr va falastinlik faollar ishtirokida birdamlik marshi bilan G‘azoga borish uchun Qohiraga kelgandim. Ammo armiya Sinayni bloklagan, qamal esa davom etardi. Doktor Maryam G‘azodan chiqib keta olmadi.

Bir yil ichida aql bovar qilmaydigan narsa sodir bo‘ldi: Muborak rejimi quladi, FATH va HAMAS ittifoq tuzdi va saylovlar haqida kelishib olishdi, ammo Muborakdan keyin Misrda hokimiyat tepasiga kelgan harbiy xunta Rafahdagi chegaradan erkin o‘tish yo‘lini ochmadi, uning o‘rniga kelgan “Musulmon birodarlar” hukumati chegarani kesib o‘tish qoidalarini biroz yumshatdi. “Musulmon birodarlar” hokimiyati qulaganidan keyin As-Sisi rejimi Rafah orqali tovarlar, dori-darmonlar va qurilish materiallarini o‘tkazishni to‘xtatib qo‘ydi, jurnalistlar uchun esa qamaldagi sektorga kirish uchun hali ham ko‘plab ruxsatnomalar olish talab etiladi.

[38] G’arbda Laylo Xolid Falastinning ramziy qizi sifatida tanilgan. U 1944-yilda Falastinda tug’ilgan, uch yildan so‘ng esa uning oilasi Livanga qochishga majbur bo‘lgan. 1969-yildan boshlab u Falastin qarshilik ko‘rsatish harakati rahbarlaridan biri Jorj Xabbash guruhiga a’zo bo‘lib kelgan.

[39] Maryam 2023-yilning oktyabr oyida Fransiyaga Falastindagi vaziyati bo‘yicha 17-konferensiyaga keldi. Uning 50 kunlik vizasi bor edi. Politsiya uni 14-oktyabr kuni Marselda qo‘pollik bilan hibsga oldi va 10 noyabr kuni respublika xavfsizligiga tahdid sifatida harbiy samolyotda Misrga chiqarib yubordi. Maryam 72 yoshda. U qamoqda bo‘lgan kunlar davomida G’azoda uning oila a’zolaridan 64 kishi halok bo‘ldi.

Doktor Maryam qamal davom etar bor ekan, G‘azodan chiqmasligini menga aytgandi. Maryam shu yurtda tug‘ilgan, uning uyi va oilasining eri shu joyda. Okkupatsiya uni – revolyutsioner, qamoqxona – kommunist, yashirin xizmat esa – “Temir xonim” taxallusi ostidagi harbiy otryad komandiriga aylantirdi.

“Men Isroil qamoqxonasiga tushganimda 15 yoshda edim, u yerda 2 yil o‘tirdim. Keyin ular opamning uyini va Xon Yunusdagi yana 17 ta uyni portlatib, meni surgun qilishdi. Men 11 kun quyosh tig‘ida chegarada o‘tirdim: Isroil o‘tkazmadi, Iordaniya ham. Meni jurnalist o‘rtoqlarim qutqarib, olib ketishdi va mashinaga yashirib qo‘yishdi. Men vatanimni ozod ko‘rishni istayman va o‘shanda armonsiz o‘lishim mumkin”, – deydi doktor Maryam va bu gaplarni ortiqcha hissiyotlarsiz aytadi. U 1967-yildan beri ozodlikka chiqishini kutmoqda.

“Men shifokor bo‘lishni orzu qilardim. 17 yoshimda bu haqidagi orzularim barbod bo‘ldi: men turma do‘zaxi nima ekanligini angladim va xalqimning azob-uqubatlari tugashi uchun kurashishga qaror qildim. Men marksizm haqida tasavvurga ham ega emasdim. Men onam kabi kambag‘allarga achinardim, garchi biz boy bo‘lsak ham. Men shifokor bo‘lmoqchi edim, lekin kasalliklardan ham dahshatliroq kasalliklar – okkupatsiya va kapitalizm, qoloqlik va qashshoqlik borligini ko‘rdim. Men ilm bilan shug‘illanishni juda yaxshi ko‘rardim. Biz sakkiz opa-singil va bir o‘g‘il, maktabda esa a’lochi, ildam o‘quvchilardan edik. Men otamning erkatoyi edim, u meni oqila qiz deb atardi. Mening ota-onam Falastin haqida tinmay gapiradiganlardan edi, uning taqdiri uchun qayg‘urardi. Axir Falastin – oldin inglizlar, keyin Isroil qo‘lida asirlikda qoldi-ku. Otam odamlar uchun qayg‘urardi, u qashshoq qochqinlarga yerni sariq chaqaga ijaraga berardi, lekin u qizining ozodlik uchun kurashga borishini xayoliga ham keltirmagan edi”.

“Bolaligimda qo‘rqoq qiz edim, hatto mushuklardan ham qo‘rqardim. Qarindoshlardan kimdir vafot etsa, qo‘rqmasligim uchun onam men bilan tunashiga to‘g‘ri kelardi”, – deydi Maryam.

Maryamning Falastin kurashidagi ishtiroki oddiy suhbatlardan boshlangan. Uning jiyani Iordaniyadan kelib, Maryamga Xalq fronti haqida gapirib berdi: “U shunday degandi: ular yo‘qsil, shuning uchun ham sodiq. Yana u: agar partizan bo‘lsang, hech kimdan qo‘rqmaysan, dedi. Men Falastinga xiyonat qilmaslikka va partiyaning barcha sirlari o‘lgunimcha o‘zimda qolishiga ont ichdim. Bunday qasam ichish oson bo‘lmadi. Onam zimmamga og‘ir yuk tushganini yurakdan his qilardi, ammo bu qanday og‘irlik ekanini bilmasdi. Men suyukli va erka qiz edim, qarangki hammasi birdan o‘zgarib ketdi”.

Maryam Qarshilik ko‘rsatish harakati uchun xayriya yig‘ish faoliyatini yo‘lga qo‘ydi va u ishni o‘z oilasidan boshlashga qaror qildi: “Men va o‘rtoqlarim harbiy kiyimlarni kiyib, yuzlarimizni niqoblar bilan yopdik va o‘z uyimizga kirdik. Otam bilan ovozimni o‘zgartirib o‘zim gaplashdim. Onam meni darrov payqadi, lekin sir boy bermadi. Otam pul berdi, singlim esa tilla taqinchoqlarni echib uzatdi. Chiqib ketdik va hech narsa bo‘lmagandek uyga qaytib keldim va otamdan partizanlarga ko‘zingiz tushdimi deb so‘radim. U esa menga partizanlar uyga kelishganini, u yerda shunday kichkina, lekin qalbi qaynoq bir qizcha e’tiborini tortganini gapirib berdi. Men undan qanday qilib bir vaqtning o‘zida Falastinni ozod qilishni orzu etish va o‘z farzandlarini Qarshilik harakatiga qo‘shilish uchun ruhsat bermaslikka qaror qilishi mumkinligini so‘radim”.

Uning otasi suyukli qizining partizanlikka ketganini xayoliga ham keltirmagan edi. U ikki oy mozoristondagi qabrda yashirinib yurdi. Otasi uning otryadda ekanligini qamoqqa tushganidan keyingina bildi.

FOXF *(Falastinni ozod qilish xalq fronti)* asoschilari Jorj Habash va Vadi Xaddod yosh Maryamning qo‘lida hamisha kitob bilan yurishiga e’tibor qaratgandilar. “Men oddiy savolga javob bera olmaganimdan juda uyalganman. Birinchi marta Leninni o‘qiganimda bironta so‘zini ham tushunmadim. Jorj Habash bir kuni proletariat nima, deb so‘ragan edi. Men unga: bu juda mashhur kitob, degandim. U rosa kuldi va

nima o‘qishim kerakligini maslahat bera boshladi. U menga “Jinoyat va jazo”, “Aka-uka Karamazovlar”, Gorkiy asarlarini berdi.

Endi uning o‘zi kitoblar muallifi, doimiy sahifa yuritadi, she’rlar va ertaklar yozadi.

“Kambag‘allar revolyutsiya olovidir. Boylarnikiga moddiy ko‘mak uchun borganimda menga gadoydek qarashardi. 1 dollar berib, eshikni tezroq yopishga shoshilishardi. Qochqinlar lagerlaridagi yo‘qsil odamlar esa tushlik qilishga taklif qilishar, oxirgi narsalarini berishar, ayollar esa nikoh tilla taqinchoqlarini ham echib berishardi. 20-30 ming dinor yig‘ilmaguncha qo‘yib yuborishmasdi. Kambag‘al odamlar dunyoni o‘zgartiradi, boylar esa faqat urush va baxtsizlikdan foyda izlashadi”, – u o‘smirlik davridan hech narsani unutmagan. Har oyda 200 dollardan Falastindagi eng qashshoq odamlar – qochqinlar foydasiga xayriya qiladi.

“Livanda biz Laylo Xolid bilan qo‘lida qurol ushlab jang qilgan va otryad qo‘mondoni bo‘lgan birinchi ayollar bo‘ldik. Mening qo‘l ostimda 100-150 ta kishi bor edi. Mening oldimdan chumoli ham sezdirmay o‘tib ketolmasdi. Elkamda RPG *(tankka qarshi qo‘l granatamyoti)*, yana o‘q-dorilar olib yurardim”, – keyin Maryam Suriyaga bordi va u yerda yoshlar harakatini tuzishga yordam berdi, Kubaga, Daniyaga, Xitoyga bordi. Uni hamma erda tinglashni istashardi, u harbiy va siyosiy o‘quv kurslarini olib borardi. Misrda u Sadatga[40] qarshi namoyishlar uyushtirdi, Liviyada esa Falastin ayollar ittifoqini tuzdi.

“Men Liviyada ofisga ega bo‘lgan birinchi ayol bo‘ldim. Endi esa aktivist qizlar yuzlarini berkitib, mayin ovozda gapiradilar”, - deb kuladi Maryam.

Uni Bolgariyaga o‘qish va dissertatsiya yoqlash uchun yuborishadi. “30 yoshingda qayta partada o‘tirish, atrofingda esa sendan 10 yosh kichik talabalar... Ha, bu oson bo‘lmadi, ayniqsa otryadga komandirlik qilgan odamga. Lekin epladim, dissertatsiyani yozib tugatdim. Garchi himoyamda ishtirok etgan olimlar Falastin

[40]Anvar Sadat – Misr prezidenti, Isroil bilan tinchlik shartnomasini tuzgan va buning uchun 1981-yilda leytenant Xolid al-Islambuli tomonidan o‘ldirilgan.

kurashiga mutlaqo xayrixoh bo‘lmasalar va buni unchalik yashirmasalar-da, barcha 22 tasi bir ovozdan ma’qullashdi. Dissertatsiya himoyasida fotosuratchi faqat oyoqlarimni suratga olgan – nahot qo‘rqqanimdan oyoqlarim qaltiragan bo‘lsa. Yaxshiyamki oyog‘imda ajoyib tufli bor edi”, – deydi Maryam. Haqiqatdan ayol hamisha ayolligicha qolaveradi.

“Osloda muzokaralar boshlanganida Isroil meni G‘azoga qo‘yishdan bosh tortdi. Qarindoshlarim menga mehmon vizasi berishdi. Mana 30 yildan keyin qaytib keldim. Ierixonga kelganimda hayajondan hatto isitmam chiqib ketdi. Layloga qo‘ng‘iroq qildim, u hayratga tushdi va uyga qaytganingda meni unutma, dedi. Taksi topdim, haydovchi meni tanidi. Seni qaerga olib boray deb so‘radi. Uyga deyman. Kechasi soat 12 da etib keldik, onam umidini uzgandi. U yolg‘iz o‘tirib, atrofiga bolalarning suratlarini yoyib tashlagan. Ko‘p odamlar keldi, lekin men hech kimni tanimadim. Debka milliy raqsiga tusha boshlashdi, o‘rtoqlarim mushakbozlik qilishdi, sigir so‘yishdi. Axir 30 yil uyda bo‘lmadim. Mana, men yana ularning orasida – bir o‘zim ro‘molsiz va chekyapman. Akam menga: sen hech bo‘lmasa Xalq frontining qizil bayrog‘ini boshingga il, deydi. Men unga bu yerdan Abu Daqqa urug‘ining biri sifatida chiqib ketdim va Falastinning sodiq qizi sifatida qaytib kelganimni aytdim. Men butun umrimni Falastinga bag‘ishladim. Ro‘mol o‘raganimda mullalar men bilan faxrlanishardi, hozir esa mendan uyalmoqdalar... Lekin hechqisi yo‘q, men ayollar o‘z xalqi uchun nima qila olishi mumkinligi haqidagi stereotipni sindirib tashladim. Endi qaysidir qiz mustaqil va dadil harakat qilayotganini ko‘rishsa, uning Xalq frontidan ekanligini darrov payqashadi. Men ular uchun devor va himoyachiman”.

2007-yilda G‘azoda FATH va HAMAS o‘rtasida to‘qnashuvlar boshlanganida doktor Maryam o‘t ochish chizig‘ida chodir qurib, unga o‘tirib, ro‘za tutganini e’lon qildi: “Erkaklar va ayollar birinchi marta birgalikda ro‘za tutishdi, biz odamlar chodir ustida partiya bayroqlarini emas, balki Falastin bayrog‘ini ko‘tarishiga va bu ahmoqona urushni to‘xtatish uchun ro‘za tutishiga erishdik. Ular bir-biriga qarata o‘q uzishar, biz esa ularning boshliqlari kelib, otishni to‘xtatishlarini aytmaguncha ketmagandik”.

Endi u kitob nashr etish bilan shug‘ullanadi: “Falastinlik qochqinlarning haydab chiqarilishi va ishg‘ol tafsilotlari haqida yigirmata kitob yozgan, o‘n oltita sobiq siyosiy mahbuslar yaxshi darajada qalam tebratmoqda. Biz qamoqxona va okkupatsiya haqida bir qancha spektakllar tayyorladik. Biz blokada jamiyatga qanday ta’sir qilishi va uning salbiy ta’siriga qanday qarshi turish kerakligi haqida tadqiqot o‘tkazdik. Bir kishilik kamerada jazo o‘tash odamga qanday ta’sir qilishi haqida sobiq mahbuslar bilan videokonferensiya o‘tkazdik. Ammo eng muhimi, falastinliklar o‘rtasida qanchalik ko‘p qarama-qarshiliklar bo‘lsa, dushmanimiz uchun bu shunchalik yaxshi ekanini, iloji boricha ko‘proq odamlar tushunib yetishi kerak. Biz partiya manfaatlari uchun emas, Falastin uchun qarshilik ko‘rsatmoqdamiz”.

G‘azoda men suhbatlashgan odamlar orasida faqat doktor Maryam partiyaviy kelishmovchiliklar qachondir emas, balki tezda bartaraf etilishini bashorat qildi. U qamal tugashiga va Falastin ozod bo‘lishiga ham ishonadi.

Kar-soqovlar maktabi

Men so‘z yuritmoqchi bo‘lgan qizchaning ismi Gada Zarab. 17 yoshli Gada bilan suhbat qurishimiz uchun ikki kishi – surdo va arab tili tarjimonlari kerak. Chunki Gada G‘azo sektoridagi yuqori sinf o‘quvchilari uchun tashkil etilgan ilk maktabning 150 nafar qiz va 50 nafar o‘g‘il bolalari kabi kar-soqovdir.

Nima bo‘pti: butun dunyoda kar-soqovlar maktabi bor – bu odatiy hol-ku. G‘azo sektorida esa bunday maktab – katta masshtabdagi qiyinchiliklarni engib o‘tishning sinonimidir, ushbu maktab bilan G‘azo aholisi faxrlanadi. Maktabning ochilganiga endigina bir yil bo‘ldi, u hali to‘liq qurib bitkazilmagan, lekin unda nafaqat kunduzgi, balki sirtqi ta’lim ham olib boriladi. Maktab yoshidan allaqachon o‘tib ketgan, ammo qamal yillarida o‘qiy olmay, bilimsiz bo‘lib qolganiga rozi bo‘lmagan kar-soqov yigit-qizlar sirtdan ta’lim olishadi.

Endi esa bu maktabni bitirgan o‘quvchilar universitetga kirishi mumkin bo‘ladi. Qamal paytida esa ular faqat 9-sinfgacha o‘qishlari mumkin edi, shunda ham hammasi

emas, faqat transport, benzin, yo‘lkira uchun mablag‘ yo‘qligi sharoitida bombardimonlar bo‘lmayotganda maktabga qandaydir yo‘l bilan etib borishi mumkin bo‘lganlari.

Gada Zarab sektor janubida joylashgan Rafahda yashaydi, maktabga esa 35 kilometr yo‘l yurish kerak. Uyidan avtobus bekatiga ham bir necha kilometr masofa bor.

Katta dunyoda 35 kilometr nima degani? Hech narsa. G‘azo sektorida bu maktab avtobusida bir yarim soatlik yo‘l va bir soatlik piyoda yurishdir.

Gada zarracha hijil bo‘lmaydi. Bu maktabda, umuman, hech kim xijil tortmaydi, chunki bu dargohda xo‘jako‘rsinga emas, jiddu-jahd bilan o‘qishadi. Bu maskanda qoyil-maqom qilib o‘qishadi. Umuman olganda, falastinliklar shunchalik tirishqoqlik bilan o‘qiydilarki, katta sivilizatsiyalashgan dunyoning barcha zerikkan bolalari havas qilsa arziydi. Axir ularda hamma narsa muhayyo, hatto bola uchun zarur bo‘lganidan ham ko‘proq narsalari bor, G‘azo bolalarida esa ba’zan butun sinf uchun bitta darslik ham yo‘q. Chunki maktablarga takror va takror bombalar tushadi va barcha darsliklar, partalar, daftarlar, sinfdoshlar va o‘qituvchilar portlash olovida yonib kul bo‘ladi.

Shuning uchun ham falastinlik bolalar maktabi bor ekan vaqtini behuda sarflamaydilar – ular o‘qiydilar.

Gada imo-ishoralar bilan gapiradi, uning qo‘llari chiroyli. U bir qo‘lini ko‘ksiga shunchalik tez-tez olib boradiki, surdo tarjimonisiz ham uning nima demoqchiligini tushunish mumkin: “G‘azoga xush kelibsiz. Biz ruslarni juda hurmat qilamiz. Biz siz bilan og‘a-inimiz. Biz sizlarga katta umid bilan qaraymiz. Men do‘st bo‘lgan Rossiya xalqiga murojaat qilmoqdaman, biz sizni juda hurmat qilamiz va eng yaxshi tilaklarni tilab qolamiz. Biz Rossiya bosh vaziri Putin va Rossiya prezidenti Medvedevni qutlaymiz. Biz sizning qo‘llab-quvvatlashingizga umid qilamiz”.

Kitobxonlarning yarmi o‘sha paytda ham yuqoridagi jumlaga to‘ng‘illab qo‘yishgandi, endi esa...

Gada Rossiya prezidenti va bosh vaziridan biron bir narsa so‘ramaydi – sovg‘a ham, pul ham. Unga fikr bildirish bilan e’tibor qaratishi etarli. U G‘azo sektorining 17 yoshli zaif eshituvchi qizi, Rossiya siyosatchilarining Falastinni qo‘llab aytgan barcha so‘zlarini Rossiyadagi aksariyat musulmonlardan ko‘ra ko‘proq biladi. Zotan, Gada oxori to‘kilgan so‘zlarga to‘lgan dunyoda, ushbu so‘zlarning qiymatini juda yaxshi biladi. Shuning uchun ham siyosatchiga o‘xshab gapiradi. Siyosatchilardan farqli o‘laroq uning kichkina mushti tez-tez ko‘ksiga ko‘tarilib turadi.

“Men sizga Falastin xalqining azob-uqubatlari va bizning toifadagi odamlarning okkupatsiya paytidagi qiyinchiliklari haqida gapirib bermoqchiman. Biz juda og‘ir kunlarni boshdan kechirdik. Biz o‘limni bir necha bor o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rganmiz. Qariyalar va bolalar o‘rtasida bemorlar juda ko‘p. Falastinni ozod qilish uchun juda ko‘p odamlar halok bo‘ldi. Okkupantlar ko‘plab oilalarning uylarini vayron qilishdi. Ko‘plab oilalar o‘z farzandlarini yo‘qotdi. Biz juda zaif davlatmiz, shuning uchun Isroil bizga past darajadagi mavjudot sifatida qaraydi, ular xalqimizga xohlagan ishini qiladi”.

Maktab direktorining ismi Alihassan Abujihod. Har qanday maktab direktori kabi Alihassan ham bir sutkada 24 soat davomida yetishmayotgan o‘qituvchilar, darsliklar, daftarlar, partalar, doskalar, kompyuterlarni qidirish bilan shug‘ullanadigan vazmin ayol. Faqat G‘azo sektorida bunday qidiruvlarning barchasi – katta dunyodagiga qaraganda nechi karraga qiyinroq ekanini aytish ham mushkul.

U maktab hovlisida turib ushbu maskanga xuddi jannat bog‘iga qaragandek tikiladi. Aslida esa bu shunchaki ikki qismga bo‘lingan changli maydoncha: u yerda tanaffusda voleybol o‘ynayotgan o‘g‘il bolalar, biroz narida esa qatorga tizilgan qizlar. Lekin bu maktab mo‘‘jiza tufayli paydo bo‘lgan. Axir, har bir qop sement, har qanday g‘isht G‘azoga tunnellar orqali kiradi va shuning uchun katta dunyodagiga qaraganda o‘n, hatto yigirma baravar qimmat turadi. Mo‘‘jizaviy tarzda pul to‘lab, tunnellar orqali sement va g‘ishtlarni olib o‘tadigan odamlar topildi. Va maktab qurdilar.

Alihassan Abujihod bulutsiz osmonga qaraydi. Samoda odatdagidek dron g‘uvillaydi, u istalgan daqiqada zarba berishga loyiq deb topilgan nishonga raketasini uchirishi mumkin. Bu nishon Abujihod bo‘lishi ham mumkin. Agar kimdir, masalan, juda tez yugursa yoki juda ko‘p imo-ishora qilsa zarba berib qolishi mumkin. Dronlar ko‘pincha xato qiladi. Ammo dron Alihassanni umuman tashvishlantirmaydi.

“Hozir, albatta issiq emas, yomg‘ir ham yog‘mayapti. Biz yomg‘irdan va quyoshdan saqlaydigan soyabon qurishni orzu qilamiz. Lekin bu hozircha faqat orzu sifatida qolmoqda”, – deydi maktab direktori.

U kar bo‘lib qolish kambag‘allikdan ekanligini sabr-toqat bilan tushuntiradi. O‘quvchilarning aksariyati juda kambag‘al oilalardan. G‘azoda bir yarim million aholining 1.1 millioni qochqinlar bo‘lib, ularning oziqlanish uchun hech qanday mablag‘i yo‘q. Umuman hech qanday. Barcha ustaxonalar urushda vayron bo‘lgan, sektorda ekin yerlari esa juda kam, bu bilan kun ko‘rib bo‘lmaydi. Kambag‘al oilalarning bolalari ham katta dunyoda bo‘lgani kabi kasal bo‘ladi. Faqat ularning ota-onalarida shifokor chaqirish va dori sotib olish imkoniyati yo‘q, chunki G‘azo sektorida dorilar juda taqchil va odamlarda ularni xarid qilish uchun pul juda kam. Kasalliklar asorat qoldiradi va bolalar kar bo‘lib qoladi va bu haqiqiy ofatdir. Ba’zida katta dunyodan ko‘ngilli shifokorlar keladi, ular operatsiya qiladi va ko‘pchilik bolalar eshitishni boshlaydi, lekin ular hamma bolalarga ham yordam bera olmaydi. Shifokorlar unchalik ko‘p emas, ularning sektorga kirishi ham juda qiyin.

Bunday kasallikka chalingan o‘g‘il bolalar bir amallab ish topa oladilar, qizlar uchun esa bu yanada qiyinroq.

“Bu qizlar hayotdan surib chiqarilishi mumkin, ular biron bir joyda o‘qib ishlay olmaydi. Bizning maktabda esa ularning nafaqat o‘qishi, balki muloqoti, hayotiy istiqbollari ham bor. Ularning yuzlariga bir qarang!” Alihassan Abujihod o‘z tarbiyalanuvchi qizlariga zavq bilan qaraydi, ular esa osmondagi dronning guvillashi va maktab yonidagi qurilishda ishlatilayotgan zarb bolg‘aning ovozi ostida jonli imo-ishoralar bilan gaplashishmoqda.

“Cektorda 1-sinfdan 9-sinfgacha bo‘lgan nogironlar maktabi bor. Ilgari ular o‘qishni tugatishi bilan uyida o‘tirishga mahkum edi. Agar ishga joylashgan taqdirda ham boshqalarga qaraganda ikki baravar kam maosh oladi. Ular har qadamda azob chekishardi. Ko‘pchiligi umidsizlikka tushib qolishgan edi. Ular universitetga kira olishmasdi. Endi esa bizda 10-12 sinflar bor va bizning bolalarimiz o‘qishni davom ettirishadi”. Ajib holat, katta dunyoda London Iqtisodiyot maktabi yoki Garvardga o‘qishga kirganlar haqida shunday zavq bilan gapirishadi.

Direktor nima uchun sirtqi ta’lim shaklini ochganliklarini tushuntiradi. Nima ham qilardik, Falastin sharoitida ba’zan eng oddiy bo‘lib tuyilgan narsalarni tushuntirib berishga to‘g‘ri keladi, chunki ular katta dunyo odamlari uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin.

“Qamaldan oldin kar-soqovlar chet elga borib, o‘sha erda maktabni tugatishlari mumkin edi. Masalan, agar qarindoshlari arab mamlakatlarida yashasa, qizlarni u yerga yuborishlari mumkin edi. Bilasiz-ku, islomiy oilalarda qiz bolaning internatda yashashi mumkin emas. Qamal esa bu imkoniyatlarni ham yo‘qqa chiqardi. Mana endi ko‘pchilik yo‘qotilgan vaqtning o‘rnini qoplamoqda”.

Direktorning xonasida feska kiygan odamning portreti osig‘liq turadi – bu arab dunyosida mashhur shoir. U bezgag bilan kasallanib, soqov bo‘lib qolgan. Falastindagi ko‘pchilik uchun u engib o‘tish ramziga aylandi. Maktab uning nomi bilan ataladi, uning she’rlarini bu yerda hamma biladi. Kar-soqov falastinlik qizlarning qo‘llar yordamida aytilayotgan she’rlar devorlarni teshib o‘tishga qodir.

Gada Arab Amirliklaridagi universitetga o‘qishga kirishni va kar-soqovlar uchun o‘qituvchi bo‘lishni orzu qiladi. Zakxel AQSHda o‘qishni, keyin vataniga qaytib, ingliz tilidan dars berishni niyat qiladi. Maryam Abujadda Turkiyada o‘qishni xohlaydi. Almaz Jebba Rossiyadagi, Xeba esa Germaniyadagi universitetga kirishni rejalashtirmoqda.

Alihassan Abujihod ularning hammasi istagan narsalariga erishishlariga shubha qilmaydi. Barchasiga.

Ularning hammasi boshqalarga dars berish uchun albatta G‘azo sektoriga qaytadi. Bu yerda ham izoh berib o‘tish kerak: G‘azo sektoridan chiqish ham, bu yerga qaytish ham juda qiyin. Bu yerda yashash ham oson emas. Falastinliklar “mamlakatni tark etishni xohlash” nimani anglatishini tushunishmaydi. Falastinlik minglab ayol qizlar bu yerga qaytish uchun yillarni sarflaydi. Agar ular chegaradan o‘tkazilmasa, tunnellar bo‘ylab yurishadi.

Hozir G‘azoda katta optimizm davri. Axir ular Falastinning katta qismida o‘zaro habardor bo‘lib yashaydilar.

Alihassan Abujihod shunday eslaydi: “Isroil aholi punktlari G‘azodan olib chiqilmaguncha, bolalar sutkalab nazorat-o‘tkazish punktida turib qolardi, ularga qarata o‘q uzishardi. Endi esa maktabgacha bir yarim soatlik yo‘l xolos.

Sinfma-sinf yuraman. Yoshgina o‘qituvchilar fanlardan dars berishadi. Ko‘pchiligi xorijiy universitetlarni tugatishga ulgurgan. yaqinda G‘azodagi Al-Aqso universitetida yana “zaif eshituvchilar uchun o‘qituvchilar tayyorlash” mutaxassisligi ochildi.

Biz xayrlashamiz. Alihassan Abujihod qo‘shimcha qiladi: “Yana bir muhim narsa – ilgari ular o‘zlarining soqovligidan shunchalik uyalishardiki, ustimdan kulishmasin deb umuman ko‘chaga chiqmaslikka harakat qilishardi. To‘rt devor ichida o‘tirardi xolos. Endi esa maktab bor, ular haqida hamma biladi. Qizlarimiz bilan hamma faxrlanadi. Ular ham boshqalarga o‘xshab turmushga chiqishadi”.

Yarim dollarga kun kechirish

Rafat Mustafo Gabin 28 yoshda. Uning ikki xotini va sakkiz farzandi bor. U ertalab soat 6 dan kech soat 7 gacha ishlaydi, tunnel kavlaydi. U kuniga 10 dollar topadi. G‘azo o‘lchoviga ko‘ra, bu katta omad. Axir uning ishi ham, daromadi ham, oilasi ham bor.

To‘g‘ri, biz hozir G‘azoning shimolidamiz. Rafatning ishi esa janubda. U yerga borish uchun avvalo avtobusga etib olishi, keyin yana bir yarim soat yo‘l yurish kerak.

Har kuni borib kelishning iloji yo‘q, shuning uchun u bir hafta ishlaydi va dam olish kunlari uyiga qaytadi.

Tunnel qazish – bu qo‘lda, yer ostida, kerilib olish imkonsiz, tuproq jinslari tez-tez o‘pirilib tushadigan, havo yo‘q va bo‘g‘ilib qolish mumkin bo‘lgan joyda ishlashdir. Tunnellarni aviatsiya bombardimon qiladi, tunnelga kirish joyi havoda ko‘rinmasligi uchun niqoblanadi, tunellardan chiqarilgan qum tog‘larini ham soyabon ostiga joylashtirishga harakat qilishadi. Ushbu tunnellarsiz G‘azo blokadaga dosh bera olmasdi: o‘tgan yilgacha BMTning juda cheklangan yordamidan tashqari, deyarli barcha oziq-ovqat maxsulotlari, barcha tovarlar yer ostidan sektorga etkazib berilgan. Bu og‘ir, lekin muhim ish, G‘azoda tunnellar vazirligining mavjudligi ham bekorga emas. Agar ular bo‘lmaganida G‘azoda benzin ham bo‘lmasdi. Rafat ham ish joyiga avtobusda etib borolmasdi. Darvoqe, avtobus ham bo‘lmasdi.

Oila yashaydigan uyga mashinada etib borish imkonsiz: yo‘l shunchalik torki, burilish uchun joy yo‘q, shuning uchun jarlik bo‘ylab dalalar yonidagi yo‘ldan 500 metrcha piyoda yurish kerak. Bolalar bizni kutib olishadi va tezroq yurishni so‘raydi – ko‘chada ko‘p turib qolish xavfli. Qosh qoraymoqda.

Osmonda guvillab dron parvoz qilmoqda. Ular har kuni kechasi shu yerda uchishadi. Meni kutib olayotgan bolalar uyga shoshiltirishadi: dron uchayotganda ularning har biri harakatlanayotgan nishonga raketa otishi mumkin. G‘ira-shirada har kim nishondir. Oilaning barcha farzandlari dronlar ovozi ostida ulg‘aygan.

Yaqin-yaqingacha Rafat bolalari bilan issiqxonada yashardi: ustida plyonka tortilgan to‘rtta g‘ishtli ustun. Menga o‘sha issiqxonaning qoldiqlarini ko‘rsatishadi. Ularning hatto poli ham bo‘lmagan, shunchaki erda yashashgan.

– Agar hammasi shunchalik yomon bo‘lsa, nega ikkinchi xotin olding?

“Birinchisidan bola bo‘lmadi, keyin ikkinchisiga uylandim, u esa tug‘di. Keyinchalik birinchisi ham tug‘di. Mana endi sakkizta bo‘ldi”.

Rafat bolalarini yig‘ishga harakat qiladi. Bolalar atrofida aylanishmoqda. Suratga olar ekan Rafat kuladi: “Suratda hammasi aralashib ketdi: meniki – mana bular, mana bular esa – jiyanlar”.

Biz ota-onalar uyiga o‘tamiz. Bu kichkinagina yarim xaroba va har xil narsalar bilan o‘rab tashlangan uy. Mehmonxonaning polida matras ustida oilaning onasi yotadi. Uning yoshi 60 da, qandli diabet sababli yaqindagina uning oyog‘ini amputatsiya qilishdi. Oila otasi uning yonida o‘tirib qo‘lidan ushlab, tebranib o‘tiribdi. U 80 yoshda. 1970-yilda Isroil armiyasi tomonidan hibsga olingan va besh yil qamoqda o‘tirgan. Uni azoblashgan, u ko‘r va deyarli kar bo‘lib qolgan. yaqinda unda o‘simta borligi aniqlandi. U G‘arbiy sohildagi gospitalga analiz topshirish va qanday o‘simta borligini hamda operatsiya qilish mumkin yoki mumkin emasligini bilish uchun yo‘llanma oldi. Lekin uni kuzatib borish uchun kimni yuborish noma’lum: ikkala o‘g‘il ham ishlashi kerak, otasi esa yolg‘iz borolmaydi. Axir, Misr va Iordaniya orqali borish kerak, bu bir necha kunlik yo‘l, garchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri borilsa – eng ko‘pi bilan bir soatlik masofa bo‘lsa-da.

O‘zining boshidan kechirgan ofatlari haqida Rafatning akasi Majdiy hikoya qiladi. 2008-2009-yillardagi 22 kunlik urushda otasi va onasidan tashqari butun oilasi qochishga muvaffaq bo‘lgan. Majdiy esa asir tushdi va uni 12 kun garovda ushlab turishdi.

Majdiy aytishicha: “Urushning to‘rtinchi kuni qo‘shin bu yerga etib keldi. Bu yerdan chegaragacha juda yaqin – ikki kilometr. Otasi va onasi uyda qolishdi. Ular yura olishmasdi. Harbiylar uyga qarata o‘q uzishdi. Biz oq bayroq ko‘tarib, ularga arab tilida o‘q otishni to‘xtatishini, biz tinch aholi ekanimizni aytdik. Lekin ular uyga bostirib kirishdi. Erkaklarni qip-yalang‘och qilib echintirib chegaraga olib ketishdi. Meni qaysi binoda ushlab turishganini bilmayman. Uyni esa qiruvchi samolyotlar bombardimon qilishdi. Keyin buldozerlar bilan soldatlar kelishdi, bu yerda jangchilar bor-yo‘qligini tekshirib ko‘rishdi. Ota-onamga ketishlari uchun bir necha soat vaqt berildi. Lekin yurishlari qiyin, yoshlari ulug‘. Meni maxsus xizmatlar qiynoqqa solishdi. Kim bo‘lib

ishlashimni surishtirishdi. Men fermerman, tinch fermerman. Lekin askarlar ofitserlarning buyrug‘isiz meni ura boshlashdi. Mening Muqovamat jangchilariga aloqam yo‘qligini bilishgach, urushni to‘xtatishdi. Mendan jangchilar qaerda, deb so‘ray boshlashdi. Ularning tarjimoni bor edi”.

Majdiy jangchilar qaerdaligini bilmasdi.

Urush tugagach, u xayriya tashkilotidan Falastinga ajratilgan yordamni oldi. Bu yordam bo‘lmaganda oila omon qolmasdi.

Qiynoqlar uchun ham, vayron bo‘lgan uy uchun ham Isroil hech qanday tovon puli to‘lamadi. Ularning dalalari buldozerlar bilan yo‘q qilindi, barcha ekinlar nobud bo‘ldi. Bog‘lar allaqachon kesib tashlangan: Isroil armiyasi chegara yaqinida bog‘lar bo‘lishiga ruxsat bermaydi.

Majdiy dalada ishlaydi, lekin bu pul keltirmaydi: mahsulotni olib ketadigan joy yo‘q, urug‘likka ham pul yo‘q. U xo‘jaligi kamroq zarar ko‘rgan boshqa fermerlarga yollanib ishlaydi.

Ammo Mustafo Gabin oilasining asosiy baxti – bu arab shifokorlari ittifoqi tomonidan qurib berilgan uylardir.

Ota-onasining uyidan pastroqda yap-yangi kottejlar bor.

Bu haqiqatdan juda katta sovg‘a: har bir o‘g‘ilga bittadan rosmana g‘ishtli uy berildi. U yerda elektr, tosh pollar, derazalar, eshiklar bor. To‘g‘ri, aka-ukalarning hozircha mebel sotib olishga puli yo‘q, lekin bu yerda hech kim bunday arzimagan narsa uchun tushkunlikka tushmaydi.

Aytgancha, agar Rafat qazigan tunnellar bo‘lmaganida, uylar qurishning iloji bo‘lmasdi: G‘azoga qurilish materiallarini olib o‘tish taqiqlangan. Metall konstruksiyalar kabi sement ham hozirgacha taqiqda.

Rafat o‘z xonasini ko‘rsatadi: bu polda yupqa to‘shak va televizor qo‘yilgan mutlaqo bo‘sh xona. Rafat mamnuniyat bilan o‘z mulkiga nazar tashlaydi. “Bu yerda ishdan keyin dam olishim mumkin. Bu yerda hammadan qochib yolg‘iz qolaman”. Bolalari va xotinlari boshqa xonalarda yashaydilar. Oshxonada faqat kichik plitka bor.

Keyin biz Majdiyning hashamatli uyini ham xuddi shunday tantana bilan koʻrib chiqamiz. Uning uyida hali romlar qoʻyilmagan, pardozlash ishlari tugallanmagan. Nihoyat, aka-ukalar oʻz farzandlarini oilalar boʻyicha taqsimlashga muvaffaq boʻlishadi. Men ularning har birini bolalari bilan suratga olaman, ular burchak-burchaklarga tarqalib ketmoqchi boʻlishadi.

Biz xayrlashamiz. Tashqarida tun. Dronlar turar-joy mavzelari tomon uchib ketgan.

“Bizda har kuni kechqurun komendantlik soati yoʻlga qoʻyilgan. Kechki soat 9 dan keyin uydan chiqish mumkin emas. Yoʻq, bu Gʻazo qonuni emas. Bu Isroil oʻrnatgan qoidalarga koʻra oʻrnatilgan komendantlik soati”, – deydi Gʻazo shimolida, sektor chegarasida yashashga majbur boʻlgan Gabinlar oilasining vakili, tinch fermer Majdiy.

Zotan ular Gʻazoda tugʻilgan ekan, BMTning qochqinlar uchun ajratiladigan hech bir nafaqasini olishmaydi. Tunnel qazib kuniga topilgan 10 dollar va Majdiyning kamtarona daromadi bu ularning kasal ota-onasi va bir etak bolalari bilan yashashi uchun barcha topgan-tutganidir. Chegara yaqinidagi yerga na ishlov, na ijaraga berish mumkin.

“Avvallari hosildor qulupnay yetishtirardik, sotardik, hozir esa bularning hech biri yoʻq”, – deydi Majdiy.

Gʻazoliklar, ayniqsa fermerlar farzandlariga ta’lim berishga intilishadi. Ammo bu oilada oʻgʻil bolalar maktabda faqat 9-sinfgacha oʻqiy olishdi. Ular qochoqinlar yashaydigan katta manzilgoh chekkasida istiqomat qiladi, u yerdagi maktabda yuqori sinflar yoʻq.

Yangi qurilgan uylar osmonida sokin oy osilib turibdi. Bolalar jimib qolishdi. Biz koʻchada turib, bamaylixotir gaplashyapmiz, xuddi Yangi Angliyaning qaysidir burchagidagi fermerlar, yangi uyga koʻchib oʻtishlarini intiqlik bilan kutayotgandek.

Biz birgalikda topilgan mablagʻ Mustafo Gabin oilasining har bir a’zosiga necha dollardan toʻgʻri kelishini hisoblashga harakat qilmoqdamiz. Bundan kelib chiqadiki,

ota-onalar, bolalar va ayollar bilan kuniga 1 dollardan kam to‘g‘ri kelar ekan, shunda ham Majdiy biror narsa topishga muvaffaq bo‘lsa. Kishi boshiga o‘rtacha yarim dollardan to‘g‘ri keladi. Axir, dalada yollanib ishlash tunnelda ishlaganlik kabi unchalik foydali emas.

Dronlar qaytib keladi, bolalar uyga qochib kirishadi, men esa tepalikdan asta-sekin sirg‘alib tusha boshlagan mashina tomon shoshilaman, u yerda har kecha qandaydir tushunarsiz qonunlar bilan o‘rnatilgan komendantlik soati hukmronligini boshlaydi.

Tutqun bo‘lmoq

XX asr sovet qamoqxonalari solnomachisi Aleksandr Soljenitsin o‘z vaqtida paradoksal fikr bildirgan edi: “Minnatdorman sendan ey turma, sen meni odam qilding!” Farovon dunyoda bu hikmatni tushunish qiyin. Uni Rossiyada va qanchalik g‘alati tuyulmasin, Falastinda tushunish ancha oson.

Isroil qamoqxonalaridagi falastinlik mahbuslarning aksariyati siyosiy mahbuslardir. Aytishlaricha, har uch falastinlikning ikkitasi Isroil qamoqxonalarida bo‘lib chiqqan. Bunday statistikaga hech bir xalq duch kelmagan. Ehtimol, hozirda bir necha ming siyosiy mahbusga ega bo‘lgan boshqa bir mamlakat dunyoda yo‘qdir. Ajablanarlisi shundaki, dunyoda insonlar bu faktga juda xotirjam munosabatda bo‘lishadi.

Ashraf Husayn 40 yoshda. U umrining to‘qqiz yilini qamoqda o‘tkazgan. U G‘azoda birinchi intifada vaqtida bosqinchilarga tosh otgani uchun 16 yoshida hibsga olingan. Ashraf ayni damda qamoqda o‘tirganlar haqida ko‘proq gapiradi. Lekin menga uning o‘zi qanday o‘tirganini gapirib berishi muhim.

Agar siz o‘z e’tiqodi va kurashlari uchun uzoq yillar qamoqda o‘tirgan mahbuslar bilan suhbatlashgan bo‘lsangiz, ular bilan qaerda uchrashmang, bunday insonlarni tezda tanib olasiz. Bu insoniy shaxsiyatlarning alohida tipidir. Ularga xos bo‘lgan umumiy xususiyat qo‘rqmaslikdir. Odamlar hech narsa bilan ularni qo‘rqita olmaydi.

Ashraf qamoqxonada boshidan kechirganlarini sanab o‘tadi. Uni qiynoqqa solishgan, oyog‘idan osishgan va shunday kaltaklashganki u xotirasizlik xolatiga tushib qolgan. Ashraf qamoqning ikki yilini bir kishilik kamerada o‘tkazgan.

U o‘zini qiynaganlarning ismlarini biladi: “Qamoqxona direktori druz Fares Fares edi, ikkinchisining ismi janob Beni edi – u o‘zini shunday deb atagan. Ishonchim komilki, bu uning asl ismi. Men ularni 1991-yilda sudga berganman. O‘shanda men Negevdagi qamoqxonada edim. Fares uni o‘ldirmoqchi bo‘lganimni tasdiqlab berishi uchun 20 nafar askarni guvoh sifatida sudga olib keldi. Meni jinoyatchilar va narkodilerlar qatoriga qo‘shib qo‘yishdi”.

Ashraf Husayn shoshilmay, batafsil hikoya qiladi. Bunday shoshilmaslik va sabrli nutqni faqat siyosiy mahbuslarda kuzatish mumkin.

Qamoqxonada u hozirda o‘ldirilgan HAMAS etakchilaridan biri Abdulaziz Rantissi bilan ko‘rishib qolgan. Lekin Ashrafning o‘zi Jorj Habash rahbarlik qiladigan Xalq fronti a’zosi. U jilmayib: “Men kommunist edim. Kommunist bo‘lib qolaman. Kommunistlar inonmalarini o‘zgartirmaydi”, – deydi.

“Qamoqda ivrit tilini o‘rgandim, ko‘plab yangi kelgan yahudiylardan ko‘ra yaxshiroq gapirardim. yaqinda ko‘chib kelgan isroil emigrantlaridan farqli ravishda menda til o‘rganish uchun ko‘p vaqt bor edi, – deydi Ashraf Husayn. – Ingliz tilini o‘rgandim, Shekspirni, Chexovni, Tolstoyni, Gorkiyni, Leninni, Marksni o‘qidim. Siz Lenin bilan Marksni omborga erta uloqtirdingiz, hali ular kerak bo‘ladi”, – deydi Ashraf.

Ashraf qamoqdalik paytida o‘zini qo‘riqlab turgan zobitlardan nega aynan unga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishayotgani bilan qiziqadi. Ular bo‘ysunishni, taslim bo‘lishni istamayotgani, boshqa mahbuslar uchun esa go‘yoki o‘ziga tortuvchi markazga o‘xshayotgani sababli shunday qilinayotganini aytishadi. “Senga o‘xshaganlar bilan, – deyishdi menga, – qamoqxonada eng yomon voqealar sodir bo‘ladi. Ular unchalik yashirmasdan to‘g‘ri gapirishadi”, – deb eslaydi Ashraf.

Hozir u mahbuslar ishlari bo‘yicha vazirlikda ishlaydi: “Bugungi kunda Isroil qamoqxonalarida yetti yarim ming falastinlik, jumladan 39 nafar ayol va 340 nafar bola saqlanmoqda. 1600 dan ortiq mahbus kasal, ularga hech qanday dori-darmon berilmayapti. Ko‘p yillar davomida bosh og‘rig‘iga qarshi tabletkalardan boshqa hech narsa olishmaydi, hatto saraton kasalligiga chalinganlari ham. Odamlarni bir kishilik kameralarga yolg‘iz qamab qo‘yishadi, oqibatda ular aqldan ozishadi. Bir ayolning qamoqxonada ko‘zi yoriydi, qamoqxona xodimlari esa uning ko‘z o‘ngida chaqaloqni polga uloqtirgani ma’lum. Ular jazo sifatida etti, hatto o‘n umrga ham hukm qilishadi. Qiynoqlardan 406 kishi vafot etgan. Qariyalar qamoqxonalarda o‘lishadi, ularga o‘limidan oldin oilasi bilan uchrashishga ruxsat berilmaydi. Umuman olganda, ota-onaning qamoqxonadagi o‘g‘lidan xabar olishini tashkil qilish bajarib bo‘lmaydigan vazifa, aksariyat odamlar o‘z shahri yoki qishlog‘idan Isroilga, nafaqat G‘azodan, balki G‘arbiy sohildan ham o‘ta olmaydi, so‘zda hech qanday blokada yo‘q, ammo u yerda 500 ta blokpost bor, hatto falastinliklar o‘z qishlog‘idan qo‘shni qishloqqa o‘tishni istaganda ham, bu to‘siqni oshib o‘tib bo‘lmaydi”.

Qamoqxona san’ati

Falastinliklar devorlarga, xarobalarga, asfaltga, plakatlarga rasm chizishadi. Erkaklar va ayollar, bolalar va qariyalar rasm chizadilar. Hatto bemorlar ham chizishadi. Chizish uchun va chizadigan narsa bo‘lsa bas. Ular chizgan hamma narsa – siyosat va protest. Ularning san’at namunalari biennaleda namoyish etilmaydi, zavq-shavqqa to‘lgan san’atshunoslarni to‘play olmaydi. Ammo ushbu san’at asarlarini ko‘rib “bu nima uchun kerak?” degan savol berilmaydi. U Falastin ozodlik kurashining bir qismidir.

Rassom Jozef Baxader devor orti mavzusida rasmlar chizadi va Isroilning turli qamoqxonalari maketlarini yaratadi.

Jozefning fikricha, ularning hammasi bir-biriga o‘xshash qurilgan: baraklar, o‘rtadagi maydonda esa yerga raqamlar yozilgan. Har bir mahbus raqamga ega. Sanoqda u o‘z raqami ustiga turib olishi kerak, aks holda jazoga tortiladi.

Jozef 50 yoshda, uning o‘zi ham rasm chizgani uchun bir yil Isroil qamoqxonasida o‘tirgan. Endi uning o‘zi qamoqxonalar qanday tashkil etilgani va u yerda mahbuslarga qanday munosabatda bo‘linayotgani haqida qamoqdan chiqqanlarning guvohliklarini to‘playdi. U hozirgi va sobiq mahbuslarning rasmlaridan iborat ko‘rgazma yig‘di. Munchoq bilan tikilgan pannolar esa mahbus ayollar, mahbuslarning xotinlari va qizlarining qo‘l ishidir.

“Ular qamoqxonadagi saqlash sharoitlarini suratga olishga ruxsat berishmaydi, uchrashuvlarga ruxsat berishmaydi, hech qanday sababsiz o‘nlab yillarga qamoqxonalarga joylashtirishadi, qiynoqqa solishadi va qiynoq qo‘llagan turma nozirlarini tergov qilishmaydi. Minglab falastinliklar buni boshdan kechirgan. Buni sir tutib bo‘lmaydi. Biz dalillar yaratamiz va kitoblar yozamiz, u yerda nima bo‘layotganini chizamiz va tasvirlaymiz. Men ishonaman, ertami yoki kech dunyodagi odamlar bu mamlakatda nimalar sodir bo‘layotganini ko‘radi”, – deydi Jozef Baxader.

Agar G‘azo o‘lchovi bilan qarasak, uning qimmatbaho buyumlari bor: bu moy bo‘yoqlar, mo‘yqalamlar, bo‘yoq eritgich va elim. Bularning hammasi tunnellar orqali G‘azoga olib kelingan.

Uning qanday qilib rassom bo‘lib yetishgani bilan qiziqaman. Jozef shunday deydi: “Mening ajdodlarimdan hech biri rassom bo‘lmagan. Bolaligimdan rasm chizardim, keyinchalik meni qiziqishlarim bo‘yicha o‘qishga berishdi. Lekin bolalarim rassomchilik yo‘lidan yurishmadi. shunday bo‘lsa-da mening shogirdlarim bor. Qarang, G‘azoda qancha tug‘ma rassomlar bor. Bolalar devorlarga graffiti chizishadi, biz hammamiz shunday boshlaganmiz”.

“Bizning o‘g‘limiz va Shalitning o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?”

Nazir Badaviy 62 yoshda. 2001-yilda Isroil uning 22 yoshli o‘g‘li Musoni “Abu Xolli” chorrahasida hibsga olgan. Hibsga olish chog‘ida o‘g‘lining oyoqlariga o‘q uzilgan va 25 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. Muso 9 yildan beri o‘tiribdi. Oilaga Muso bilan uchrashishga birorta ham ruhsat berilmagan, uzatma va yozishmalar taqiqlangan.

Men Musoning ota-onasini ko‘rish uchun ularning uyiga tashrif buyurdim, bu Isroil askarini Falastin mahbuslariga almashtirish bo‘yicha “Shalit bitimi” tuzilishidan bir yarim yil oldin edi va o‘shanda hech kim bunday bitim bo‘lishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagandi.

Bu faqirona, lekin ozoda uy, unda ko‘plab farzandlar, ularning nevaralari bor.

“Suddan so‘ng uni furgonga o‘tqazishayotganda onasi uni oniy ko‘rishga muvaffaq bo‘lgandi. Bu to‘qqiz yil oldingi gap. Biz uni na ko‘ra olamiz, na dori-darmon bera olamiz, undan na xat va na qo‘ng‘iroq olamiz. Men huquqshunoslikka o‘qimaganman, lekin Jeneva konvensiyasini allaqachon yoddan bilaman. Xalqaro qonunlar mening okkupatsiyaga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish huquqimni tan oladi”.

Nazir Badaviy o‘g‘lining Qarshilik ko‘rsatishda qatnashganidan faxrlanadi.

“Ular o‘g‘illarimizni terrorchilar deb atashadi. Qaysi birimiz terrorchi? Bizmi yoki huquqimizni poymol qilgan, bir o‘g‘limni o‘ldirib uning uch farzandini yetim qoldirgan, ikkinchi o‘g‘limni hibsga olgan davlatmi?

Isroil o‘z zobiti Gilad Shalit ozod qilinishida, Shalitni garovda saqlayotganlarga biz bosim o‘tkazishimizni istashadi. Lekin o‘zlari esa bolalarimizni uydan tutib olib ketishadi. Mana, qo‘shnilarimizning onasi qamoqdagi o‘g‘lini ko‘rish armonida allaqachon vafot etdi.

O‘g‘limiz bilan Shalit o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Men Shalit uchun javobgarmanmi yoki uning qaerdaligini bilamanmi? Falastinlik mahbuslarning oilalari

Shalitning ota-onasi bilan birdam ekanliklarini yozishdi. Fikrimizcha, Shalit o‘z yaqinlari bag‘riga qaytishi kerak.

Ammo yahudiy ota-onalarning biz bilan birdamligi qani? Men Isroilga: o‘g‘illarimizni Shalitga almashtiringlar deb to‘rt marta xat yozdim. Javob yo‘q. Ular meni terrorchi deb atashadi. Men ularga nima qildim? Hech narsa. Faqat ularning bombalari ostida o‘tiraman va o‘g‘limning Muqovamat harakatida bo‘lganidan faxrlanaman. Hatto otasining o‘g‘li uchun kiyim-kechak etkazib berishiga ham imkon berishmaydimi?

Ko‘plab odamlar – ayollar, G‘azo bolalari – menga mobil telefonlaridagi Isroildan kelgan Shalit haqidagi SMS larini har kuni ko‘rsatishadi, qo‘ng‘iroqlar bo‘ladi. “Har kuni qo‘ng‘iroq qiladi va mexanik ovozda bir xil narsani so‘raydi: Shalit qaerdaligini ayting va katta mukofot oling. Men qayoqdan bilay? Falastin otalari va o‘g‘illari qaerda, deb oldin o‘zlaridan so‘rashsa bo‘lmaydimi”, – deydi oilasida bir nechta qarindoshlari qamoqda bo‘lgan yetimlar maktabi o‘qituvchisi Ummu Muhammad.

Bolalik vaqtlarida askarlarga tosh otgani uchun ularning hammasi juda uzoq muddatli jazolar olishdi. “Bir tomonda tosh otgani uchun 10 yildan muddat oladigan o‘g‘il bolalar. Ikkinchi tomonda esa ularga qarshi tanklar va samolyotlar. Butun dunyo Shalitning keyingi taqdiridan xavotirda. Qamoqxonalardagi falastinliklardan xavotirlanish vaqti kelmadimikin?”

Nazir Badaviy o‘zining mo‘ysafidlik ko‘z yoshlarini ko‘rsatmaslik uchun qo‘shni xonaga yugurib kiradi va birozdan so‘ng botinka olib chiqadi: “Qarang, buni ham o‘g‘limga berolmayapman. Ular botinkadan ham qo‘rqishadi!”

Badaviylar o‘zining faqirona uyiga farzandarining suratlarini ilib tashlashgan. Endi ularning vazifasi Musoning ozod bo‘lishigacha yashab qolish bo‘lsa, Musoning vazifasi esa 25 yillik muddatning oxirigacha yashab qolishdir. Ozodlikka chiqqanda uning yoshi 47 da bo‘ladi.

Shalitni almashtirish evaziga Musa Badaviy 2011-yilda ozod etildi.

“Ular mendan yana nima istashadi?”

Nazir Badaviy meni shunday bir ayol oldiga boshlab boradi – unga o‘g‘liga nazar solish nasib etmagan.

Ummu Faris Barud 84 yoshda. Uning o‘g‘li Faris 1992-yilda G‘azoda hibsga olingan va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi berilgan. Hozir Faris 45 yoshda. Mana 10 yildirki u bilan uchrashuvga ruxsat berilmaydi. Endi ona o‘g‘lini ko‘ra olmaydi, faqat bag‘riga bosishi mumkin, o‘tgan yillar ichida uning ko‘zi ojiz bo‘lib qoldi. Farisga har olti oyda bir marta qo‘ng‘iroq qilishga ruxsat beriladi: faqat 10 soniya va suhbat uziladi.

“Ularning ofitserlaridan birining ma’lum qilishicha, men HAMAS a’zosi ekanman, shuning uchun uchrashuvga ruxsat berilmayotgan ekan. Men shunchaki keksa o‘ziga to‘q xonim edim. Ular mendan HAMAS yasashyaptimi? – Ummu Faris kuladi. Uning kulishga hali quvvati etadi. – Menga bir nazar tashlang – men HAMAS ga o‘xshaymanmi?

“O‘g‘limni G‘arbiy sohildagi Tulkarma ko‘chasida birga ketayotganimizda olib ketishdi. Uyimni buzib tashlashdi, erimni tortib olishdi. Shalitning hamma narsasi bor, o‘g‘illarimizda esa hech narsa yo‘q, Shunga qaramay o‘g‘limiz uchun biror narsa berishga ruxsat etilmaydi. Shalitni tankdan olib ketishgan, farzandlarimizni esa uyimizdan olib ketishyapti. Farisni bomba yasashda ayblashdi, lekin u hech narsa qilmagan, u mening kenja o‘g‘lim edi. Ular ona[41] uchun kenja o‘g‘il qanday ahamiyatli ekanligini bilmaganga olishadi. Uning otasi ikki yoshligida vafot etgan, men uni o‘zim katta qilganman, u menga g‘amxo‘rlik qilishi mumkin edi. Ular mening hamma narsamni – o‘g‘limni, erimni, uyimni, ko‘zlarimni tortib olishdi. Ular mendan yana nima istashadi? Belimga granatalar o‘rab olishimnimi?”

[41] Kichik o‘g’il ota-onasiga g’amxo‘rlik qilishi, ular vafot etguncha ular bilan birga yashashi odat tusiga kirgan; kichik farzandning oilasi ham ota-onasi bilan birga yashashi va ularga g’amxo‘rlik qilishi kerak.

Ummu Faris Barud 12 yil oldin Ashkelon yaqinidagi uyini ko‘rish uchun boradi. U o‘z uyidan 22 yoshida askarlar tomonidan haydab chiqarilgan edi. Tortib olingan uyida iroqlik yahudiy ayol yashayotgan edi. Iroqlik ko‘chkindi ayol unga suv olib chiqishdan bosh tortdi, ostonaga ham qo‘ymadi. “Isroilga nima qildimki, endi yolg‘izlikda yashayapman, o‘g‘lim qamoqda, qo‘shnilar devordagi tirqishdan ovqat uzatadigan darajaga tushib qoldim?” – deb ritorik savol beradi Ummu Faris.

Uning orqasida – loy devordagi temir eshikcha, karavotining shundoqqina tepasida. U uyining kichkina bog‘chasida eng jazirama soatlarni soyada o‘tkazadi.

Uning qizi Rafahda yashaydi. Isroil aholi punktlari G‘azodan olib chiqilmaguncha, u onasining oldiga ham, onasi uning oldiga ham bora olmasdi.

Sektor bo‘ylab janubdan shimolga birorta falastinlik o‘tolmasdi, hamma joy yahudiy aholi punktlari va blokpostlar bilan to‘sib qo‘yilgandi. G‘azo Siti aholisidan tashqari ko‘pchilik uchun dengizga o‘tishning ham iloji yo‘q edi – dengizda isroillik ko‘chkindilar va ularning bolalari borar va cho‘milardi.

Hozir Ummu Farisning qizi bir oyda ko‘pi bilan bir marta kelishi mumkin: oilasi, yumushlari bor, buning ustiga qatnov sertashvish va qimmat.

Suratga tushishga rozilik berishdan oldin u oppoq ro‘molini paypaslab tuzatdi va Nazir Badaviydan o‘g‘lining portretini va Isroil tortib olgan uyining ramziy kashta kalitini olib kelishini so‘raydi. “Mendan hamma narsani tortib olishdi, lekin buni tortib olisholmaydi”.

Isroil qamoqxonasi deganda nimani tushunish kerak?

Qamoqxona protestlari rekordini Isroil qamoqxonalaridagi falastinlik mahbuslar o‘rnatgan: qariyb 2000 kishi, ya’ni barcha mahbuslarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i g‘ayriinsoniy sharoitlarga qarshi norozilik sifatida 77 kun davomida ochlik e’lon qildi. Biroq Isroil davlat propagandasi faollari va kiberpropagandachi otryadlari o‘z qamoqxonalari namunali ekanligini da’vo qilmoqda. Mahbuslar uchun bu qamoqxonalarda qanday sharoitlar bor?

2011-yil holatiga koʻra, Isroil qamoqxonalarida 4700 falastinlik mahbus boʻlgan. Yiliga 700-800 nafar voyaga etmaganlar hibsga olinadi, 64 yil ichida falastinliklarning har beshinchisi, ya'ni 20 foizi Isroil qamoqxonasi nima ekanligini oʻz tanasida sinab koʻrishgan.

Yahyo Sinvar[42] 1988-yilda hibsga olinib, 462 yilga qamalgan. U 23 yil qamoqda oʻtirib, Shalit kelishuvi asosida ozodlikka chiqqan. U 1962-yilda tugʻilgan. Yahyo HAMAS tashkiloti va Gʻazodagi Islom universiteti asoschilaridan biri.

Isroil uni HAMASning "Majd" ichki xavfsizlik otryadini tuzganlikda va unga rahbarlik qilganlikda hamda Isroil foydasiga josuslik qilgan sotqin falastinliklarni oʻldirganlikda aybladi.

Yahyo Qarshilik koʻrsatish harakatining kontrrazvedka xizmatini boshqarganini inkor etmaydi.

"Tanlash imkoni yoʻq edi, bunday odamlar Muqovamat harakati uchun xavfli edi, sionistik maxsus xizmatlar ularni turli yoʻllar bilan vasvasa qilishdi, ular Isroil rejimi qurboni boʻlishdi, ularni yoʻq qilish kerak edi".

"Shaxsan menga ketma-ket 10 kun uyqu berishmadi. Koʻzim ilinar-ilinmas ustimdan ixtiyoriy tanlov bilan yo muzdek yoki qaynoq suv quyishardi. Qoʻllarimni orqamga bogʻlab, yerga uloqtirishar, qamoqxona noziri qornimga yoki koʻkragimga oʻtirar, chovimga bosim berishardi - bu dahshatli ogʻriq edi, - deb qiynoqlarni sanab oʻtadi Yahyo Sinvar. – Ularning yana shunday uslublari ham bor: qoʻllarni bogʻlaydi va yuqoriga koʻtarib bir sutkaga osib qoʻyishadi. Yoki boʻgʻishadi: koʻkarib ketguncha qarab turishadi, qoʻyib yuborishadi, keyin esa buni bir necha marta takrorlashadi".

Bunday qiynoqlardan hech qanday iz qolmaydi: Yahyoning fikricha, isroillik qamoqxona nozirlari qiynoqlarni qayd etishning minimal usullar bilan maksimal azoblash ta'siriga erishish uchun ongli ravishda qiynashadi. Isroillik shifokorlar aslida

[42] 2017-yildan beri HAMAS Ramallohning yangi saylovlar oʻtkazishni rad etgani sababli Gʻazodagi vakolatlarini oʻz zimmasisdan soqit qildi. Sinvar Muqovamat harakatining ichki saylovlariga asoslanib Ismoil Xaniyaning oʻrnini egalladi va Gʻazo sektoridagi harakatga rahbarlik qila boshladi.

kaltak izlarini topishga harakat qilishmaydi, bunday xohishi bo‘lgan taqdirda ham, zarba izlarini topish qiyin.

Bundanda mohirlik bilan amalga oshiriladigan boshqa usullar ham bor.

“Mening yaqin do‘stimni shunday qiynashgan: gazetalarni qalin qilib o‘rab, ensasiga urishgan. Shundan so‘ng odamda vahshiyona bosh og‘rig‘i, jazava, Shuningdek barcha a’zolarda zarba asoratlari ko‘rina boshlaydi”.

Sinvar keng tarqalgan qiynoqlarni tasvirlaydi: bog‘langan odamni sutka davomida egilgan bolalar stulchasida muvozanat saqlashga majbur qilish, muzli kartserga joylashtirishadi, shundan so‘ng odamlarning sovuq urgan oyoq-qo‘llari amputatsiya qilinadi, avtobusga chiqarishadi va mahbuslarning oyoq qo‘llarni bog‘lab aynan bir musiqani qayta-qayta qo‘yishadi, bundan insonning idrok etish tizimi ishdan chiqadi.

Unga jallodlik ekspromtlari misollari ham ma’lum: “Men bir falastinlikni bilaman, u 65 yoshda edi, uning yuziga tupurishardi va botinkasi bilan Yuziga surkashardi”, – deydi Sinvar.

Nozirlar biladiki, arablar uchun etikni echib uloqtirish alohida xo‘rlik ramzi, chol uchun esa bunday sinov sharmandalikdir.

“Ular har bir odamni alohida o‘rganishadi, uning uchun eng ta’sirli kamsituvchi usulni tanlashadi. Falastinlik uchun xo‘rlikka chidashdan ko‘ra o‘lish osonroq. Ular buni o‘rganishgan va odamlarimizni ustalik bilan tahqirlamoqdalar”.

Sinvar qiynoq fabrikasi qanday ishlashini ochiqlaydi: “Surishtiruv paytidagi qiynoqlar haqida nima degan bo‘lsam, barchasini “Shavak” xizmati amalga oshiradi. “Shabas” esa qamoqxonalarda mahbuslarni sud hukmidan keyin qiynoqqa soladigan idora. Bularning “Naxshon” va “Msada” bo‘limlari bor, ular inson shaxsini maxsus psixologik yo‘q qilish uchun javobgardirlar, bunday qiynoq turi dunyoning hech qaerida qo‘llanilmaydi”.

Ochlik e’lon qilish – uning fikricha, falastinliklar uchun qamoqxonalardagi yagona qarshilik vositasidir.

“Isroil qamoqxonalarida boshqa mamlakatlarda beriladigan ratsionning mahbuslarga ko‘pi bilan 10 foizi beriladi. Ko‘p kunlik ochlik e’lon qilishlardan so‘ng mahbuslar tirik murdadan boshqa narsa emas. Mana shu mahbuslarni turma nozirlari tergovga zambilda olib borishadi, kameralarda esa tosh polga uloqtirishadi”.

Sinvar shifokorlarning mahbuslarga munosabati haqida shunday deydi: “Bir necha soatlik kutish va og‘riqlardan so‘ng odamning oldiga hatto shifokor ham emas, balki hech bir tajribaga ega bo‘lmagan tibbiy xodim keladi, ularda barcha kasalliklarga qarshi bitta tabletka bor – og‘riq qoldiruvchi dori, tamom. Mahbus o‘ladimi yoki azob chekadi – ularga baribir”.

U qiynoqlar paytida bosh suyagi yorilganida buni boshidan o‘tkazgan:

“Qamoqxona xodimlari meni polga uloqtirganidan keyin miyam chayqalib, boshimda ochiq jarohatlar paydo bo‘ldi. Meni kasalxonaga olib ketishlarini 10 soat kutdim. Jarrohlik amaliyotidan so‘ng menga, agar yarim soatga kech olib kelganida o‘lishim yoki bir umrga falaj bo‘lib qolishimni aytishdi, chunki miyamda yallig‘lanish boshlangan ekan. Ular menga qurbonlikka keltirilgan hayvondek munosabatda bo‘lishdi: operatsiyadan ikki kun o‘tib, besh soat davomida qamoqxona furgoni polida qo‘l va oyoqlarim bog‘langan xolatda qamoqxonaga olib ketishdi”.

Hech qanday adaptatsiya paydo bo‘lmasligi uchun unga nisbatan doimiy ravishda qamoqxonadan-qamoqxonaga o‘tkazish taktikasini qo‘llashgan.

“Isroilliklar hali sektordan chiqib ketmagan davrlarda meni G‘azo hududidagi Saraya qamoqxonasida ushlab turishdi. Ikkinchi ko‘chirilgan qamoqxonalar Al-Ramnada, keyin Aylon, keyin Ashkelon, Kfar-Yona, Nafxa, Beer-Sheva, Ramot, Ishel, Oxlikedar, Xadarim, Shatta edi”.

Har qanday harakatga ertami-kechmi qarshi harakat topiladi. Ushbu tryuizm[43] hech bir joyda Falastindagidek yaqqol namoyon bo‘lmaydi.

[43] Tryuizm - hammaga ma’lum, siyqasi chiqqan haqiqat. Tryuizm deb ko‘pchilik uchun o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lgan narsaga aytiladi, bu faqat eslatma, ritorik yoki adabiy bayonot sifatida eslatib o‘tiladi.

1948-yilda falastinliklar oddiy odamlar bo‘lgan bo‘lsa, ishg‘ol yillarida ular kurashning barcha metodlarini o‘rgandi. Ular rejimga har qanday qarshilik ko‘rsatganlik uchun hibsga olinardi, ular esa dushman askarlarini asirga ola boshlashdi. Shalit – askar o‘g‘irlash bilan bog‘liq birinchi xolat emas. Ammo Isroil o‘z askari Shalit uchun “Quyma qo‘rg‘oshin” operatsiyasi paytida G‘azoda bir yarim ming kishini o‘ldirdi va keyin bir yarim ming falastinlik mahbusni Shalitga almashtirgandi.

Yahyo Sinvar qamoqda o‘tirgan bo‘lsa-da uni yana ikki isroillik askarni o‘g‘irlashda ayblashdi. Sinvar ushbu operatsiyalarni qamoqxona devorlari ortida turib boshqargan. Ha, ular tuzumning cheksiz shafqatsizligiga qaramay, bunga ham o‘rganishdi. Axir, falastinliklar partizanlar va yashirin tashkilotchilarning barcha usullarini, okkupantlarning haddan tashqari manmanligi, o‘limdan qo‘rqishi, milliy ustunlik va umumiy harbiylashtirish bilan bog‘liq g‘alati g‘oyasi asosida qurilgan ishg‘ol ostidagi hayotning barcha ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari kerak edi.

“Askarlarni o‘g‘irlash strategiyasi – o‘rtoqlarimizni ozod qilishning yagona yo‘li. Isroilda adolatli muddatlar ham, afv etishlar ham, ishlarni qayta ko‘rib chiqishlar ham yo‘q. Ular mahbuslarimizni 6 umr, 10 umr, 20 umr muddatga hukm qilishadi, 500, 700, 1000 yilga ozodlikdan mahrum qilishadi. Bunday odamlar ozodlikka chiqish umidini yo‘qotadilar. Falastin ma’muriyatining muzokaralari yigirma yillab davom etdi, ular hech qanday natijaga olib kelmadi, garchi butun dunyoda tinchlik shartnomalari mahbuslarni ozod qilishni nazarda tutsa ham. Qaysi tomondan qarama, Isroil jahon amaliyotidan istisnodir”.

Sinvarning eslatishicha, Isroil faqat avtomobil o‘g‘irlagani yoki giyohvand moddalar tarqatgani uchun qamalganlarni ixtiyoriy ravishda ozod qiladi.

“Sionistlar bilan hech narsa haqida kelishib bo‘lmaydi, ular hammani aldaydi. Ular hatto tarix davomida payg‘ambarlarni ham aldaganlar. Falastinlik mahbuslar qanday azob chekayotganini dunyo bilsa, odamlarning tepa sochi tikka bo‘ladi. Ularni hayvon o‘rnida ko‘rishmaydi. Bu inson aqli qabul qiladigan doiradan tashqarida, bu

nafaqat Falastin xalqini, balki odamlarni yo‘q qilish uchun shakllantirilgan maxluqdir” –, deydi Sinvar.

“Bu Isroil emas, bu fashizm, – deya xulosa qiladi suhbatdosh. – Ular Jeneva bitimlari va mahbuslar bilan insoniy munosabatda bo‘lishdan yer bilan osmonchalik uzoqda”.

120 ga 80 santimetrdagi Yolg‘iz

G‘azodagi Ayman Hotim Afif ash-Shahririyning uyi atrofidagi barcha devorlar unga yo‘llangan salomlar bilan to‘ldirib tashlangan – u Isroil qamoqxonasida 19 yil o‘tirdi, umumiy 550 yilga hukm qilingan edi, Shalit almashinuvlari vaqtida ozodlikka chiqdi. Ayman mashhur Falastin oilasidan kelib chiqqan. Uni 28 yoshga to‘lganida olib ketishgan. Qamoqdalik paytida uchta qizi katta bo‘ldi, ulardan ikkitasi usiz turmushga chiqdi va nevaralar tug‘ib berdi.

Ayman Muqovamat harakatining jangovar qanoti – “Al-Qassam brigadasi” bo‘limlaridan biriga rahbarlik qilgan. U G‘azo hududida Isroil askarlariga qilingan hujumda ishtirok etganlikda ayblanadi.

Sherigim uni shunchaki ko‘chada tanib qoldi, garchi shaxsan o‘zi bilan tanish bo‘lmasa-da. Ayman va uning xotini bizni uyga taklif qilishdi. Butun zinapoya va yo‘lak uning sharafiga gullar bilan bezatilgan.

“Hozir biz turgan uyni o‘z qo‘lim bilan qurganman. Deraza romlarini qo‘yganimdan to‘qqiz kun o‘tib qo‘lga olindim”, - deydi sobiq mahbus.

Ayman odam saqlash uchun tavsiya etilishi mutloq mumkin bo‘lmagan kamerada o‘tirgan.

“Bir kishilik kamera – bu 120 ga 80 santimetr – bunday kamerada yotib ham, turib ham, oyoq uzatib ham bo‘lmaydi, unda hech narsa yo‘q, kuniga bir marta eyish mumkin bo‘lmagan ovqat beriladi. Men bunday kameralarda 25 yil jazo o‘tagan uch mahbusni bilaman”.

Aymanning ishonchi komilki, bir necha umrlik ma’nosiz muddatlar yagona bir niyat bilan beriladi – bu mahbusning irodasini sindirishi lozim.

“Inson tosh qopda o‘tirishi va shu yerda o‘lib ketishini anglab yetishi kerak. Ammo ular adashadi: har bir falastinlikning Yaratgandan umidi bor, uni tortib olib bo‘lmaydi”.

Ba’zi mahbuslar tinimsiz bir joydan boshqasiga ko‘chiriladi, boshqalari o‘nlab yillar davomida bir joyda saqlanadi.

“Men 18 yilni bir turma, ya’ni Navxada o‘tkazdim. Shuncha vaqt bir joyda ushlab turilgan yagona odam menman”.

“2006-yildan keyin besh yil davomida mahbuslarning hech biriga tashrif bo‘lmadi. Otam umrining oxirgi 10 yilini meni ko‘rmasdan o‘tkazdi va olamdan o‘tdi. Faqatgina Qizil Xoch ba’zida menga xat etkaza olardi, bu qarindoshlar bilan aloqani ushlab turishning yagona usuli edi, bolalar mensiz katta bo‘lishdi”, – deydi Ayman.

U yoshligida karate bilan shug‘ullangani va qora belboqqa ega bo‘lgani uchungina qamoqxonada sog‘lig‘ini saqlab qolganini ta’kidlaydi: “Meni umumiy kameraga o‘tkazishganda, men sheriklarimni mashq qildirdim. Nazoratchilar kamera yonidan o‘tib ketishi bilanoq men mahbuslarga karate usullarini ko‘rsatardim. Shu tariqa biz jismony xolatimiz va ruhiy tetikliimizni saqlab turardik”.

“Isroil butun dunyoga o‘z propagandasi orqali qamoqxonalarini besh yulduzli mehmonxona sifatida reklama qiladi – bu yolg‘on. Go‘yoki u yerdagi mahbuslar Isroil oliy o‘quv yurtlarida tahsil olishi mumkin – bu ham yolg‘on”. Uning o‘zi muddatining avvalida G‘azo universitetining ijtimoiy himoya yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriatini masofaviy tamomlagan. Endi esa mahbuslarning o‘qishi mutloq taqiqlangan. “Mahbuslarning irodasini bostirishga qaratilgan butun bir tizimi ishlaydi: dunyo bilan aloqangizni his qilishga yordam beradigan narsalarni taqiqlashadi”.

Qo‘l va oyoqlar bog‘liq xolda tug‘moq

Samar Isbeh 22 yoshida talabalar namoyishida qatnashgani uchun hibsga olingan va 2,5 yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Hozir u 28 yoshda. Samar G‘azoda istiqomat qilsada, o‘zining va turmush o‘rtog‘ining oilasi G‘arbiy sohilda yashaydi.

“Nikoh to‘yimdan uch oy o‘tib, meni qamoqqa olishdi. Men Islom universitetida talabalar kengashiga rahbarlik qilardim. Bizning kengashimiz okkupatsiyaga qarshi namoyish uyushtirdi. Meni Tulkarmda – erimning uyida hibsga olishdi. Oradan ikki kun o‘tib, turmush o‘rtog‘imni ham hibsga olib, to‘qqiz oyga hukm qilishdi, unga qarshi umuman hech bir ayblov yo‘q edi”, – deydi Samar.

Endi u eri va bolalari kabi Tulkarmga, qarindoshlarinikiga bora olmaydi. Qarindoshlari uning oldiga tashrifi esa – butun boshli bir tadbir, juda qimmat va tashvishli ish: okkupatsion rejimdan ruxsat olish, qog‘ozlarni uzoq kutish, keyin blokpostlarda sarg‘ayib turish va, naq uchta chegaradan o‘tish kerak.

Aynan shuning uchun aksariyat falastinliklar o‘z qarindoshlarini ziyorat qilish imkoniyatiga ega emas: blokpostlar engib bo‘lmas to‘siqdir, har safar ko‘plab ruxsatnomalar talab etiladi, qamoqxona joylashgan Isroil hududiga esa falastinlik fuqarolarning kirishi taqiqlangan.

“Homiladorlikning dastlabki oylarini o‘tkazayotgan edim. Qiynoqlarning barcha turlaridan o‘tkazishdi – 66 kun davomida yer ostidagi xonada qiynoqqa solishdi. Bolalar stulida ham, muzli kartserda ham o‘tirishga majbur qilishdi”, – deydi Samar.

“Men qo‘lim va oyog‘im bog‘liq holda tug‘dim. Ular menga tibbiy ko‘rsatmalarga ko‘ra emas, balki shunchaki nafrat tufayli kesarcha kesish operatsiyasini o‘tkazishdi. Bolani menga qoldirishdi, lekin unga xuddi mahbusga qaragandek muomala qilishdi: unga hech narsa berishmadi – na sut, na taglik. Agar bu narsalar olib kelingan bo‘lsa-da, faqat yaroqlilik muddati o‘tganini berishdi. Tug‘ruq paytida va tug‘ruqdan keyin meni insoniy sharoitlarsiz kamerada qoldirishdi. Menga ko‘chaga chiqish taqiqlangan edi. Parasetamol – bu menga va bolamga barcha kasalliklarni davolash uchun berilgan yagona dori edi”, – deydi Samar.

Homiladorlar ochlik e’lon qilishi mumkinmi?

Patima Zakka 42 yoshda, u Shalitning videokassetasi evaziga ozod qilingan.

Uni hukm qilishga ulgurishmadi, chunki 12 yillik qamoq jazosi so‘ralayotgan sud jarayoni arafasida uni ozod qilishdi. Sakkiz farzandning onasi bo‘lgan ayolni, Isroil harbiylarini olib ketayotgan avtobusda o‘zini portlatmoqchi bo‘lganlikda ayblashdi.

“Hibsga olingunga qadar homiladorligimni bilmaganman. Meni hibsga olishganda, hamshira buni aniqladi. Uyda esa sakkiz nafar farzandim qolgandi. Hech kim meni portlatishga jo‘natmadi va hech kimni portlatishga majbur qilmadi. Ha, mening akamni va ko‘plab qarindoshlarimni o‘ldirishgan. Falastinda ko‘pchilik shunday musibat bilan yashaydi”.

Patima surishturuvning butun proseduralarini boshdan kechirgan:

“Meni homilador holimda qiynoqqa solishdi. Meni muz kameralarda ushlab turishdi, kameradan-kameraga sudrashdi. Ular homila tashlash darajasiga tushirishni xohlashdi. Oqibatda qon keta boshladi”.

O‘shanda u ochlik e’lon qildi va homilador bo‘la turib, ochlikni 21 kun ushlab turdi:

“Shunchaki ular menga boshqa yo‘l qoldirishmadi. Allohga shukrki, bola tushmadi. O‘g‘lim qamoqxonada tug‘ildi. Uning ismi Yusuf”.

Yusuf Patimaning tizzasida o‘tirib, jimgina mudrayapti. Onasining boshidan kechirganlarini eshitmagani ham yaxshi aslida.

“Akusher-shifokor ayol menga shunday baqirib, hayvondek muomala qilardi, osma tomchi dori qo‘yishdan va, anesteziya olib kelishdan bosh tortdi. U menga dahshatli la’natlar yog‘dirardi. Bilasizmi, u darhol jazolandi: u kamerada boshini juda qattiq urib oldi. Alloh menga yordam berdi. Shifokor menga: sen terrorchisan va sendan terrorchi tug‘iladi, dedi. Ammo menda ajoyib Yusuf tug‘ildi, haqiqiy terrorchilar esa Isroil qamoqxonalaridagi shifokorlardir”.

Falastinlik muhandis Isroil qamoqxonasida Ikki yildan beri nima sababdan o‘tiribdi?

Ukraina fuqarosi, olti farzandning onasi Veronika Isroil tomonidan erining o‘g‘irlab ketilgani va asirlikda saqlanayotganiga norozilik sifatida o‘zi va farzandlari G‘azo sektoridan chiqmasligini e’lon qildi. Kimgadir bu ojizlik harakati bo‘lib tuyulishi mumkin, u uchun esa bu – butun dunyo tomonidan qaroqchi davlat bilan yakkama-yakka tashlab ketilgan turmush o‘rtoq va onaning amalga oshirishi mumkin bo‘lgan protestning so‘nggi shakli edi.

Uning turmush o‘rtog‘i G‘azodagi elektr stansiyasining texnik direktori Dirar Musa Abu Sisi 2011-yil fevral oyida Ukraina fuqaroligini olish uchun kelganida Isroil maxsus xizmatlari tomonidan Ukraina hududida o‘g‘irlab ketilgan. U Isroil qamoqxonasida sudsiz, qiynoqlar ostida saqlanmoqda. Rasmiy Kiev esa Dirar Musa Abu Sisining Ukraina hududidan tashqariga chiqib ketmaganini da’vo qilishda davom etmoqda.

Yevropa davlatlari ham, AQSH ham, Islom davlatlari ham, 2011-yilda qo‘zg‘olon ko‘targan xalqlar ham, BMT ham, xalqaro inson huquqlari tashkilotlari ham muhandisning o‘g‘irlanishi haqida hech qanday bayonot bermadi.

Biz ularning Jabaliyadagi falastin qochqinlari lagerida joylashgan kamtarona xonadonida o‘tiribmiz. Veronika hijobda. Bu go‘zal, o‘ziga ishongan ayol, lekin u xavotirda. Rossiyadan G‘azoga uning oldiga jurnalistlar kelmagan. Ukrainalik jurnalistlar esa uning mavzusiga tabu qo‘yilganini aytishgan.

U qat’iy gapirishga harakat qiladi, faqat qaynonasiga muloyim ovozda murojaat qilib, uni ukrain tilida “mamo” deb chaqiradi.

Uning qaynotasi va qaynonasi ham hozir u bilan birga yashaydi, ular sektorga Iordaniyadan kelishgan.

Veronika harbiylar oilasidan, Leningradda tug‘ilgan. Keyin ota-onasi Ukrainaga ko‘chirilgan va tez orada SSSR parchalanib ketdi.

Ular 1998-yilda turmush qurishdi. Dirar Xarkovda o‘qigan, Veronika bilan o‘sha erda tanishgan. Veronika 19 yoshda edi, u musiqiy ma’lumotga ega, Falastin muammosi haqida hech qanday tasavvurga ega emas edi.

Endilikda Dirar 43, Veronika esa 34 yoshda.

2000-yilda G‘azodagi elektr stansiyasiga o‘sha paytda egalik qilgan Amerika kompaniyasi uning erini operator yordamchisi lavozimiga ishga taklif qildi.

“Biz Ukrainada ish izladik, lekin u yerda hech qanday ish yo‘q edi. Keyinchalik Iordaniyada ish qidirdik, ammo u yerda eriga Ukraina diplomi ro‘yxatga olinmaganini aytishdi. U G‘azodan taklifnoma olganida, biz xursandchilik bilan uchib keldik – u paytda hali aeroport ishlab turardi”, – Veronikaning tushuntirishicha, bu ish aynan erining mutaxassisligiga mos edi va G‘azo ularga etarlicha farovon joy bo‘lib tuyulgan. Tez orada Amerika kompaniyasi kasodga uchradi, elektr stansiyasini boshqa kompaniya sotib oldi, uning rahbariyati, Veronikadagi ma’lumotlariga ko‘ra, Abu-Dabida. “Erim birinchi darajali injener, hamma bosqichlarni bosib o‘tgan, stansiyaning har bir detali qanday tuzilganini biladi”.

2003-yilda Dirar G‘azoda yagona bo‘lgan ushbu elektr stansiyasining texnik direktori etib tayinlandi. Ushbu stansiya, elektr energiyasiga bo‘lgan sektor ehtiyojining 25 foizini qoplaydi. Agar bu stansiya bo‘lmaganida, so‘nggi yetti yil ichida G‘azoda umuman chiroq bo‘lmasdi. U bor ekan bir sutkada sakkiz soat elektr bor.

2006-yilda elektr stansiyasi bombardimon qilindi.

Eslatib o‘taman, 2006-yil qishida HAMAS saylovlarda g‘alaba qozonib, hukumatni shakllantirdi. Bunga javoban Isroil sektor blokadasini e’lon qildi, chegarani yopdi, Misrni ham blokada talablariga rioya etishga majbur qildi.

Agar muhandis Dirar bo‘lmaganida, Isroil sektorni blokada bilan bo‘g‘ib tashlardi, ammo bunday bo‘lmadi.

“Dirar ta’mirlashni amalga oshira oldi. Eng muhimi, u stansiyani qayta qurdi va Isroildan olinayotgan yoqilg‘i ta’minotini to‘xtatib Misr yoqilg‘isiga almashtirdi. Bu G‘azo uchun elektr energiyasini arzonlashtirdi, ammo Isroil manfaatlariga putur

etkazdi”, – Dirar o‘zining yaratuvchanligi bilan hali o‘sha vaqtda Isroil hukumatining yarasiga tuz sepgan, deb hisoblaydi Veronika.

“Bizning uyimiz bor edi. Bizda hammasi yaxshi edi. Albatta, bu adabsizlikday tuyuladi. Biz urushni, qamalni, ofatlarni sezmay yashardik. 2008-yilgi urushdan ikki hafta oldin kenja o‘g‘limiz Usoma tug‘ildi”, – bu bola onasining yonidan ketmaydi, uning uzundan-uzoq asabiy hikoyasini diqqat bilan tinglaydi.

“Dirar Iordaniyada tug‘ilgan, u yerda falastinliklarga fuqarolik berilmaydi. Uning bor-yo‘q hujjati qochoq ekanligi haqidagi qog‘ozdir. Ukrainada hammasi kelishilgan, Dirar fuqarolik olishi kerak edi, men bu bilan yarim yil shug‘ullandim. 2011-yil 27-yanvar kuni Dirar, men va kenja o‘g‘limiz Xarkovga borib, uning hujjatlarini fuqarolik olish uchun topshirdik. Besh nafar farzandimiz G‘azoda qolgandi. Erim belgilangan sanada, ya’ni 18 fevral, juma kuni bordi, tegishli idora yopilishigacha kutdi, lekin hujjatlarni olish imkoni bo‘lmadi. U bizni G‘azoga qaytarib yubordi, o‘zi esa dushanbagacha poezdda Kievga borib kelishga qaror qildi, 16 yildan beri ko‘rmagan akasi bilan uchrashmoqchi edi”, – deb eslaydi u.

Ertasi kuni Kanadadan Kievga uchib kelgan Dirarning akasi Veronikaga qo‘ng‘iroq qilib, u bilan uchrasha olmagani habarini beradi. Dirar telefon qo‘ng‘iroqlariga javob bermayotgan edi.

Veronika bolalarini erining qarindoshlari bilan qoldirib, qamaldagi G‘azodan tunnel orqali Misrga o‘tib Ukrainaga qaytadi.

Yo‘lda u eridan g‘alati SMS oldi: “Salom. Men eng tubiga cho‘kib yotishim kerak. Biz umraga bormoqchimiz. Qo‘ng‘iroqlashamiz”.

“Bu uning uslubi, uning ifodalari emas edi. Ushbu SMS kelguncha men Dirarni tovon puli olish uchun o‘g‘irlab ketishgan yoki Ukraina xavfsizlik xizmati tomonidan hibsga olingan deb umid qilardim. Endi esa bu ishlar Isroil tomonidan amalga oshirilganiga shubha qilmay qo‘ydim”, – deydi Veronika.

O‘shandan beri Veronika advokatlar hizmati uchun pul to‘laydi. Ular qilgan yordami esa – bu erining qamoqxonadan qilgan yagona qo‘ng‘irog‘idir xolos.

“Telefon jiringladi va Dirarning ovozi bilan kimdir men bilan arab tilida gaplashmoqchi ekanligini aytishdi. Biz hech qachon bir-birimiz bilan arab tilida gaplashmaganmiz. Men rus tilida gapira boshladim va suhbat uzilib qoldi”, – deydi Veronika.

Veronikaning qo‘lida o‘sha qamoqxonaning sobiq mahbusi Ubad Bilolning etkazgan ma’lumoti bor, unga ko‘ra “aybiga” iqror bo‘lish uchun Dirarga qiynoqlar qo‘llanilgan. Dirar 1 metrga 1,5 metr keladigan kamerada yolg‘iz o‘tirgan. Unga vaqti-vaqti bilan irodasini sindirish uchun ayollarning qichqiriqlari eshittirilib, bolalari va xotinini o‘ldirish bilan tahdid qilishgan.

Shunday ekan, uning Isroilda uchrashuvga erishish imkoniyati kesib tashlangan. U qamoqxona nozirlari erini shantaj qilish usullarini engillatishga intilmaydi deb hisoblaydi.

“Men unga qo‘yilayotgan ayblarning hech biriga ishonmayman. Avvaliga undan Shalit qaerga yashiringanini aytishni talab qilishdi. Birdan unga raketa tayyorlash bilan shug‘ullanish, keyin esa masjidda jangarilar tayyorlash ayblovi e’lon qilindi. Nega uni sud qilishmaydi?” – deb xitob qiladi Veronika.

Veronika hamda Dirar oilasining fikricha, Isroil maxsus xizmatlari o‘g‘irlab ketilgan o‘z askari Shalitni almashishga arziydigan, G‘azodagi ijtimoiy hayot uchun muhim bo‘lgan odam qidirgan va Dirarni qo‘lga kiritgan, endi esa Shalit kelishuvi amalga oshirilgandan keyin uni nima qilishni bilmayapti.

“Uni aynan chegaradan chiqishi bilan kuzatishgan. Dirarning Ukrainaga ketayotganini bilishgan va Ukraina maxsus xizmatlari bilan til biriktirgan”, – deydi Veronika.

Dirar G‘azodan yo‘lga chiqqanida oila shubhali epizodlarga ahamiyat bermagan. Misrda uni Misr maxsus xizmatlari so‘roq qilgan, ammo Muborak davrida barcha falastinliklar, shu jumladan saraton kasalligi bilan og‘rigan bemorlar ham shunday so‘roq qilingan. U o‘z oilasini ko‘rgani Iordaniyaga borganida politsiya uni 10 soatlab

ushlab turgan. Aslida Iordaniyada falastinliklarga katta shubha bilan qarashadi, garchi falastinliklar u yerda aholining 80 foizini tashkil qilsa ham.

Dirar Iordaniya maxsus xizmatlariga G‘azoga qaytishini aytganida, unga bu huquq berilmagan. Bu ham aslida odatiy hol.

Xarkovda esa oldindan kelishilgan bo‘lsa-da, belgilangan muddatda unga fuqarolik hujjatlari berilmadi. Ammo Dirar bu oddiy qog‘ozbozlik bo‘lsa kerak, deb umidini uzmadi. Dushanba kuni Ukraina pasportini olish uchun yana Xarkovga qaytib kelish rejasini tuzib, akasi bilan uchrashish uchun Kievga poezdda jo‘nadi...

Veronika Ukraina rasmiylarini erini o‘g‘irlashda ishtirok etganlikda va uni yashirishda ayblaydi.

Uning ta’kidlashicha, SBU *(Ukraina xavfsizlik hizmati)* undan biror marta ham erining tashqi ko‘rinishi, u bilan qanday shaxsiy buyumlar bo‘lgani haqida so‘ramagan. Hatto uning huzurida qandaydir boshliq erining yo‘qolgani va uni mamlakatdan olib chiqib ketish uchun chegaralar yopilishi kerakligi haqidagi arizaga imzo chekkandi – bu ariza izsiz yo‘qolgan.

Veronika Ukraina xavfsizlik xizmati erini hatto rasman qidirmaganidan g‘azabda, garchi uning joylashuvini mobil telefon orqali osongina aniqlash mumkin bo‘lgan esada. U ukrainalik militsionerlar tomonidan kaltaklangani, qo‘lma-qo‘l isroillik o‘g‘rilarga topshirilganidan xabardor. O‘sha soatlarda Dirarni topish mumkin edi, lekin Veronika ishonchi komilki, SBU uni qidirishni xayoliga ham keltirmagan.

Ayniqsa, vokzaldagi videokamera yozuvlarini taqdim etishdan bosh tortilgani uni hayratga soldi: SBU Veronikaga Dirar poezddan tushirib qolingan bekatda bunday kameralar mavjud emasligini ma’lum qilgan.

Veronikaning o‘zi issiq izidan borib vagon kuzatuvchisini topdi. Ushbu kuzatuvchi Dirar uning kuzatuvidagi vagonda ketganligini tasdiqladi, uni o‘g‘irlaganlarni tasvirlab berdi, lekin keyinchalik barcha ko‘rsatmalaridan voz kechdi, kuzatuvchining boshlig‘i esa Veronika advokat bilan uning xonasiga kelganida ta’tilga chiqib ketgan edi.

“Ukraina rasmiylari hali ham Dirar Ukrainani tark etmaganini ta’kidlashmoqda. Isroil televideniyasi allaqachon Dirar ularning qo‘lida ekanligini ko‘rsatishdi, Shalit almashinuvidan uch kun oldin mening erim ularning qo‘lida ekanligini Netanyaxu aytgan edi. Menga Shalitning otasi teleko‘prik orqali qo‘ng‘iroq qildi va erimni uning o‘g‘liga almashtirishni talab qildi, Ukraina esa erimni o‘z hududidan kim va qanday olib chiqqanini hali ham bilmaydi”, – deydi Veronika.

Bungacha u Isroilga ham yomon munosabatda bo‘lmagan va Shalitni ozod qilish tarafdori bo‘lgan. Ammo Isroildagi odamlar, falastinliklarning butun dunyo bo‘ylab o‘g‘irlanishini qoralashni xayoliga ham keltirmagani uni hayratda qoldiradi.

U turmush o‘rtog‘i asirlikda ekan, o‘zi va Ukraina fuqarosi bo‘lgan farzandlari G‘azo sektoridan chiqmasligi haqida ochiq bayonot berdi. Bunga javoban Ukraina Tashqi ishlar vazirligi Ukraina fuqarolari boshqa davlat hududida ko‘pi bilan to‘qqiz oy qolishi mumkinligini ma’lum qildi.

“Erim kalta soqol qo‘yardi – bu ular uchun dalil bo‘lishga etarli aslida. U ko‘zga ko‘ringan, o‘qimishli, soqolli, qaddi-qomati kelishgan kishi edi va muhim lavozimni egallagan – mana ularning barcha dalillari”, – deydi Veronika.

“Dirar Ashkelondagi turmada. Unga kitob va gazetalar berish taqiqlangan. Sakkiz oy davomida eri “televizor” va “muzlatgich” uchun haqiqiy kurash olib bordi. Hibsga olinishidan oldin uning vazni 98 kg, chiroyli va maqomli erkak edi. Endi esa u qurib bitayogan chol, og‘irligi 61 kg, yurak, buyrak, ichak va astma kasalliklarini orttirgan, ko‘rishi xiralashgan. Lekin uning oldiga vrachlarni qo‘yishmaydi va dorilardan bitta aspirin berishadi, – lekin uning ovozi titramaydi. Faqat yonoqlarida isitmali qizillik miltillaydi.

Dirar ochlik e’lon qildi – qamoqxona xodimlari uni zo‘rlab oziqlantirdilar.

“Barcha tahlillardan faqat bittasini – sutga sezgirligi tekshirildi. Shu xolos. Isroilda odamlar 10, 20 va 30 yillab sudsiz o‘tirishadi. U yerda konstitutsiya ham, normal qonunlar ham yo‘q. Mening vatanim Ukraina esa – Isroilning mardikori vazifasini bajaryapti”, – deydi Veronika.

Eri yozgan bir nechta xatni Qizil Xoch orqali olishga muvaffaq bo‘ldi. Faqat arab tilida xat yozishga ruxsat berilgan. Ammo u ukrain tilida birgina maktubni – uni qanchalik sevishini va yurakchalar rasmini etkaza olgan.

Veronikaning xatlari esa unga etib bormaydi.

Veronikaning fikricha, turmush o‘rtog‘ining raketalar ishlab chiqarishda ayblanishi vaziyatdan bexabar odamlarni manipulyatsiya qilishga mo‘ljallangan. Uning eri ma’lumoti bo‘yicha elektrik, aspiranturani esa Xarkov shahar xo‘jaligi akademiyasida tamomlagan.

“Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish institutida raketa yasash va portlatish o‘rgatilmaydi, jangovar qo‘mondonlarga esa Ukraina fuqaroligi kerak emas”, – Veronikaning fikricha, Isroil propagandasi boshi berk ko‘chaga kirib qolgan.

HAMAS a’zolaridan biri Qarshilik ko‘rsatish harakatining har qanday darajadagi birorta ham haqiqiy rahbari qo‘riqchilarsiz uchinchi davlatga bormasligini aytgandi. Bu turdagi tashriflarga tayyorgarlik ko‘riladi. Bunday odamlarga esa hamrohlik qilishadi. Dirar esa shunchaki muhim ob’ektning texnik xodimi, lekin tashkilotga aloqasi yo‘q edi. Elektr stansiyasining texnik masalalari, Isroilni bunday o‘g‘irlikni amalga oshirish darajasida qiziqtirishi mumkin emas. Buning ustiga elektrostansiya Dirar bo‘lmasa-da ishlab turibdi. Suhbatdoshimning ishonchi komilki, Isroil maxsus xizmatlari Shalitga ekvivalent almashinuvni zo‘r berib izlagan, ammo endi Dirar masalasida echimsiz vaziyatga tushib qolgan. Shuning uchun bir yildan ortiq vaqtdan beri Dirar ishida oldinga siljish haqida hech qanday xabar yo‘q.

Hatto Isroil maxsus xizmatlari ham keraksiz odamni o‘g‘irlab qo‘yishi mumkin ekan, endi esa vaziyatdan chiqish yo‘lini topolmay, yolg‘on gapirishda davom etayotgani haqida ovozalar yangramoqda.

“Bugun ular qirol, ertaga esa qaroldirlar, ammo Xudoning hisobi albatta bo‘ladi”, – Veronika 12 yil davomida shunchaki baxtli rafiqa va siyosatdan yiroq ona bo‘lgan. Endi esa barcha qonunlar va deklaratsiyalarni o‘rgangan – temir xonim, ona, shu bilan

birga – ota ham. Mashina haydashni, advokatlar va jurnalistlar bilan suhbatlashishni biladigan matonatli ayolga aylandi.

“Dirar elektr stansiyasining xodimi bo‘lib qolmoqda, to‘g‘ri, maoshi saqlanmagan. Biz oilaviy jamg‘armamizning qolgan qismiga kun ko‘ryapmiz. Bu vaqt ichida onam vafot etdi”, – Veronika qayg‘uda qolib ketmaslik uchun rasm chiza boshladi. U farzandlari va Dirarning rasmlarini chizadi. Va uning chiqishini G‘azoda qolib kutadi. Vaholanki, ikki yil oldin ular Ukrainaga ko‘chib o‘tishni o‘ylayotgan edi. Eri uchun ushbu mash’um Ukraina fuqaroligi aynan ko‘chib o‘tish uchun kerak edi.

Kim kechalari bilan uxlamaydi?

Kelishilgan joyda bir nechta mashina kutib turibdi. Har birida besh kishidan. Mashinalar turar-joy mavzelari va kunduzi ko‘rinmaydigan postlar orqali o‘tadi. Asfalt tugaydi. Qop-qorong‘i tunda qiyalab yog‘ayotgan yomg‘ir va izg‘irin shamol ostida yo‘l chetidagi panjara va chim bostirma kabi qandaydir inshootlar yonida to‘satdan harbiy dala kiyimidagi yuzlari yopilgan 15 kishidan iborat otryad avtomatlar bilan paydo bo‘ladi. Ko‘rinishidan ular mashq qilgan, baland bo‘yli, baquvvat tanali “o‘zimizning yigitlar” haqidagi jangari filmlardagi kabi “pistirmadagi yo‘lbarslar” chayirligigi ega odamlar.

Jangchilar yarim doira bo‘lib salomlashadilar. Ularning komandiri ozg‘in, chayir, soqolli kishi bo‘lib, niqobsiz edi. U tashkilotchilik va safarbarlik bo‘yicha ba’zi tushuntirishlar beradi. Uning aytishicha, bu jangchilarning barchasi 2008-yilda G‘azoga qilingan Rojdestvo hujumi paytida sektor mudofaasida qatnashgan. Ularning barchasi 2012-yil noyabr oyidagi 8 kunlik kampaniyada ham jalb etilgan.

Jangchilar minomyotni suratga olishga ruxsat berishadi va oddiy qurollarini namoyish etishadi. Kimdir o‘zi ham suratga tushishga rozi bo‘ladi, ammo yomg‘ir shunchalik kuchli, qorong‘ilik esa shu qadar zim-ziyoki, bularning barchasi befoyda edi.

Keyingi otryad koʻproq oʻsmirlar va yangi jalb qilingan askarlarga oʻxshash jangchilardan iborat edi. Ularda shiddatli yomgʻirdan himoya qiluvchi chodirga oʻxshash narsa bor. Bu otryaddagi odamlar birinchi otryaddagilardan bir bosh pastroq. Eng kichigi 17 yoshda, lekin 30 yoshdan oshganlar ham bor. Ular, shubhasiz, yangi, mashq koʻrgan oʻrtoqlariga oʻxshab, bir butun boʻlib harakat qilishni hali bilishmaydi. Ularning komandiri koʻngilli boʻlib yonlanayotganlarning hammasi uylangan odamlar, ularning oilasi, ishi, oʻqishi borligini aytadi. Kunduzi ular oddiy ishlar bilan shugʻullanishadi, tungi yigʻinlar esa ixtiyoriydir. Agarda kimdir otryadga a'zo boʻlib kirsa, imtihonlar, yomon ob-havo yoki oilaviy ishlar sababli navbatchilik bekor qilinmaydi va u majburiyatga aylanadi. Buning uchun pul toʻlashmaydi.

Nihoyat, komandir chegaradan bir necha kilometr naridagi manzilga tashrif buyurishni taklif qiladi. Bu huddi otryad shtabiga oʻxshaydi, u yerda mashgʻulotlar oʻtkaziladi, oʻqitiladi va raqibning ma'lum bir hududdagi faolligi kuzatiladi.

Shtab – bu bir nechta stollar, stullar, dam olish va namoz oʻqish uchun qirqim mavjud boʻlgan xona. Bu yerda sektor va unga tutash hududning topografik xaritasi osilgan. Xaritadan sektorda aholi qanchalik zich joylashganligini, unda deyarli boʻsh joy yoʻqligini, sektor tashqarisida esa dalalar choʻzilganligi koʻrish mumkin.

"Bu bizning ishgʻol qilingan erimiz", – deydi komandir dalalarni koʻrsatib.

Hovlidagi zinapoya orqali kuzatuv maydonchasiga borish mumkin: u yerdan 2008-2009-yillardagi urushdan keyin qayta qurilgan falastinliklarning qorongʻilikka choʻmgan uylari koʻrinadi. Ufqda, chiroqlarga choʻmgan Isroil porlaydi.

Chegaraning oʻzi ancha olis, tahminan ikki kilometrcha narida.

Shtab Gʻazo sektori kabi aholi zich joyda qurilgan boʻlsa-da, u imkon qadar uylardan uzoqda joylashgan. Shtab binosiga uzumzor bilan oʻralgan yoʻlak olib boradi, bu yerda daraxtlar nisbatan koʻp – qandaydir bogʻga oʻxshaydi, devorlarda snaryad va oʻq izlari koʻzga tashlanadi. Hududda ob'ektni qoʻriqlayotgan bir nechta faxriylar bor.

Otryad komandiri niqobsiz. Uning aytishicha, hozirda “al-Qassam brigadalari”da jami 4000 ga yaqin ko‘ngilli bor. Bu raqam nogironlar va zaxiradagi yaradorlarsiz hisoblaganda, lekin ular ham “Brigada” a’zolari hisoblanadi.

Ularning dushmani – armiya, samolyotlar, katerlar, dronlar va barcha turdagi zamonaviy kuzatuv hamda hujum qurollarga ega.

“Bizda armiya, samolyot va tanklar yo‘q. Bizda faqat ko‘ngillilar bor”, – deydi u. Uning fikricha, falastinlik jangchilar nafaqat ruhiyati, balki oilasining qo‘llab-quvvatlashi bilan ham kuchlidirlar.

“Mening xotinim harbiy aslaha va qurol sotib olish uchun o‘zining barcha oltinlarini sotdi”, – deydi u.

“Biz o‘limni izlamaymiz – biz unga tayyormiz. Bizning ustunligimiz biz kuchliroq ekanimizda emas, balki ular hayotni, biz esa o‘limni yaxshi ko‘rishimizda, lekin biz bu yerda o‘lish uchun emas, balki jang qilish uchun sobitmiz”, – “Brigada” bo‘linmasi qo‘mondoni, aksariyat falastinliklar kabi “Isroil” va “isroilliklar” so‘zlaridan qochadi. Bu odamlar uchun “biz” va “ular” mavjud.

U “Brigada” tuzilmasi haqida shunday deydi: “Rahbariyat – bu bir kishi, unga barcha harakatlarga rahbarlik qilish vakolati berilgan. Bizda oltita bo‘linma va to‘rtta bo‘ysunish darajasi bor. Biz hammamiz yo hujum qilamiz, yo hammamiz mudofaada turamiz, yo hammamiz chekinamiz – har qanday harakatlar kelishilgan tarzda amalga oshiriladi”.

U xaritada kichik burchak chizadi. “Bu bizning javobgarligimiz ostidagi hudud. Biz bu yerda tun-u kun kuzatuv olib boramiz.

Ko‘ngillilar uchun tungi navbatchilik – bu yana bir mashg‘ulot. Har bir ko‘ngilli uchun haftada bir marta belgilangan kun bo‘lib, u o‘sha kuni belgilangan joyga etib borishi va kechki soat 11 dan ertalabki 4 gacha u yerda qolishi kerak.

Noyabr oyida sektor bombardimon qilindi va bunga javoban “al-Qassam brigadalari” Tel-Avivga zarba berdi, shundan so‘ng brigadalarga ko‘ngillilarning kuchli oqimi boshlandi”.

“Endi hamma bizning safimizda bo‘lishni istashmoqda, yoshlar ko‘ngillilar safiga yozilmoqda – talabalar, shariat bilimdonlari, politsiyachilar, muhandislar, temirchilar, savdogarlar, o‘qituvchilar”, – deydi u.

Shu bilan birga hamma politsiyachilar ham “Brigadalar” da xizmat qilmaydi: har bir kishi sinovdan o‘tishi, u jangchi bo‘lishga qodir ekanligini isbotlashi kerak. Hamma ham “Brigadalar” da uzoq vaqt qolmaydi, kimdir yuklamaga dosh berolmaydi, kimningdir sog‘lig‘i yo‘l qo‘ymaydi. Ammo odam jarohat olsa, u faxriyga aylanadi, unga va uning oilasiga yordam beriladi. “Brigada” faxriylari va nogironlari universitetga kirishda ustunlikka ega. Islom universitetida 400 dan ortiq nogironlar mebeldan tortib san’at buyumlarigacha bo‘lgan turli xil uy-ro‘zg‘or anjomlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan butun bir korpus mavjud. Sektorning deyarli barcha mebellari shu kishilar qo‘li bilan yasalgan[44].

“Bizda armiya yo‘q, bizda faqat ko‘ngillilar bor. Jangchilar va qo‘mondonlarning hech biri maosh olmaydi”, – deya ta’kidlaydi harbiy kiyimdagi suhbatdosh.

“Bizning unvonlarimiz bor, ularni mahorat va qobiliyatga qarab berishadi”, – deydi u. O‘zi esa katta ehtimol bilan qo‘l ostidagilarning ko‘pchiligidan yoshroq.

“Brigada” a’zosi bilan bir marta tanishganlik uchun 25 yil qamoq jazosi beriladi. Agar “ular” sizning ko‘ngillilar bilan tanishligingizni bilib qolishsa, sizni qo‘lga olishlari, qiynoqqa solishlari, sudsiz ko‘p yillar qamoqda saqlashlari, “ular” bilan hamkorlik qilishga rozi bo‘lishingiz uchun irodangizni sindirishlari mumkin. Bu odamlar siz bilan uchrashishga rozi bo‘lib juda katta tavakkal qilmoqdalar”, – deydi falastinlik Muhammad. Uning akasi “Brigadalar” ga yaqinlikda gumon qilinib G‘arbiy sohilda qo‘lga olingan va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan, 9 yil qamoqda o‘tirgan va Shalit almashinuvi bo‘yicha ozodlikka chiqqan.

[44] Isroil 2014-yilda mebel ustaxonalarini bombardimon qilgan edi. Universitga esa 2023-yilda zarba berdi.

“Izzaddin al-Qassam brigadalari” 1991-yildan beri mavjud bo‘lib, HAMAS harakatining qurolli qanoti hisoblanadi. Rossiya hech bir Falastin tashkilotini, jumladan, HAMAS jangovar qanotini ham terrorchi deb hisoblamaydi. HAMAS harakati mas’ul bo‘lgan xudkushlik aksiyalarining aksariyati “Brigada” jangarilari tomonidan emas, balki “Brigada” tarkibiga kirmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan.

“Brigada” shaxsiy tarkibi soni, Isroilning hisob-kitoblariga ko‘ra, 40 ming kishini tashkil etadi, bu reallikka yaqin emas.

G‘azodan uchirilayotgan raketalarning katta qismi “Brigadalar” ga aloqador emas – bu shunchaki quruq gap. Bunday raketalar qo‘lbola bo‘lib, yo‘naltirilmaydi va nishonni yo‘q qilmaydi.

“Brigadalar” Isroil muntazam armiyasining falastinliklarga qarshi jangovar harakatlariga, falastinliklarning o‘ldirilishi va qo‘lga olinishiga javoban raketa uchirishni amalga oshiradi. Qolgan vaqtda ular HAMAS tomonidan e’lon qilingan sulh intizomiga bo‘ysunadi.

2012-yil noyabr oyida G‘azo hududidan uchirilgan “Brigada” raketalari birinchi marta Tel-Avivga etib bordi. Tashqi kuzatuvchilar o‘rtasida bu raketalar sektorga etkazib berilganmi yoki o‘zlari mustaqil shu joyda yig‘ganmi, degan oxiriga etib bo‘lmaydigan bahs bor.

HAMAS ning jangovar qanoti hisobiga ko‘ra, 2011-yilga kelib 1365 nafar isroillik halok bo‘lgan va 6411 nafari yaralangan. Isroil kichikroq raqamlarni keltiradi va HAMAS hamda “Al-Qassam brigadasi” ning barcha faoliyatini terroristik deb hisoblaydi.

“Brigadalar” Isroilning bir necha o‘nlab askarlarini o‘g‘irlashda ishtirok etgan, ammo 2011-yilga kelib asirlardan faqat Shalit omon qolgan. Isroilning savdolashish va asirlar almashinuvidan qochish taktikasi asirga tushgan o‘z askarlarini yo‘q qilishdan iborat: Isroil askarlarining kiyimlarida mayoqlar bor, agar jangchi asirga tushsa, ularga zarba beriladi.

SURIYA VA LIVANDAGI LAGERLAR

Falastin begonalari

Lagerlar

Suriya va Livandagi Falastin qochqinlar lagerlarida men “islom uyg‘onishi” dan ancha avval va Suriyadagi voqealardan ancha oldin bo‘lganman. O‘sha vaqtga kelib, Suriya boshqa mamlakatlarga qaraganda Falastin xalqi bilan do‘stona munosabatlarni uzoq muddatli saqlab kelayotgan ittifoqchisi edi.

Falastin qochqinlarini vatanlariga qaytarish masalasi, Muqaddas zamin taqdiri yuzasidan olib borilayotgan barcha muzokaralarda tiqilgan tosh vazifasini bajarib turibdi.

1948-yilda Xazna Suvayt 17 yoshda edi. Isroil shimolida joylashgan Safad aholi punkti yonidagi Jahiliya qishlog‘idagi qo‘shnilari Suriyaga qochib ketishni boshlaganida, u allaqachon turmushga chiqib, ikki o‘g‘il tuqqan edi. Safad hozirda Sfat deb ataladi, u yerda sobiq SSSRdan ko‘chib kelganlar yashaydi, Xazna Suvayt va uning qishloqdoshlari emas, balki negadir ko‘chkindilar u yerda yashash huquqiga egalar.

U oddiy dehqon oilasida tug‘ilgan qiz edi. Hayot uni o‘qishga, bolalarini, nevaralarini o‘qitishga majbur qildi. Uning butun hayoti muddatsiz surgunga aylandi.

“Bizning erkaklarimizda qurol yo‘q edi. Qurol juda qimmat, biz esa qashshoq yashardik. Umuman olganda inglizlar qurol sotib olishimizni taqiqlagan”, – u Yevropadan ko‘chkindilar oqib kelguncha falastinliklar yahudiylar bilan tinch-totuv yashaganini eslaydi. – Ungacha yahudiylar yonma-yon yashashgan. Ular ko‘p emasdi – taxminan 2%, biznikiga qahva ichish uchun kelishardi. Falastinliklar o‘zlari eridan voz kechishi uchun inglizlar yer solig‘ini oshirdilar. Yahudiylarga qurolga ruhsat berilgan edi – bizga esa yo‘q. Ular kubitsalar qurishdi, minoralar o‘rnatishdi, lekin hech bir yomon narsa sodir bo‘lmayotgandi. Keyin Deyr-Yasin sodir bo‘ldi”.

1948-yilda Quddus yaqinida joylashgan Deyr-Yasin qishlog‘idagi qirg‘in haqidagi xabar butun Falastinni qamrab oldi. U yerda ko‘chkindilar 254 kishini

o‘ldirgan. Suratlar saqlanib qolgan. Bu yovvoyi va tushunarsiz shafqatsizlik edi. Xaznaning fikricha, ular aynan dahshatga solmoqchi bo‘lishgan. Keyin yana Shunga o‘xshash vayronagarchiliklar va qotilliklar davom etdi. Shunda, deydi Xazna, qurolsiz odamlar uylari va buyumlarini tashlab, omon qolish uchun najot izlashgan.

Yo‘lda qurollangan yahudiylarga duch kelardik, ular bizga xalaqit berishmasdi, tegishmasdi, chunki biz o‘z erimizdan qochib ketayotgan edik – ular o‘z niyatiga erishayotgan edilar”. U ikki bolasini ko‘tarib, pulsiz, buyumlarsiz, hatto ovqat pishirishga ham hech vaqosi yo‘q holda qochgan edi.

Uning lagerdagi qo‘shnilari hamma ham qochib ketmaganini eslashadi. Qurol topgan yoki sotib olgan erkaklar o‘z erida qolib, yashirinib, qarshilik ko‘rsatishgan. “Kurash 1956-yilgacha davom etdi”, – deydi quvg‘inda tug‘ilgan falastinliklar. Ular ota-onalarining hikoyalarini eslashadi, ko‘plarining qarindoshlari Falastinda qolgan, ammo bir-birlari bilan ko‘risha olishmaydi. Isroil hukumati falastinlik qochqinlarni Falastinga kiritmaydi. Falastinliklarga chet elga chiqish uchun ko‘plab qog‘ozlar kerak va qaytib kelishi bilan Isroil hukumati ularni chegarada hibsga olmasligiga hech bir kafolat yo‘q.

1948-yilda quvg‘in boshlandi. Falastinliklar buni Nakba, ya’ni falokat deb atashadi. Chunki falastinliklarning to‘rtdan uch qismi – ya’ni 700 mingga yaqin kishi boshpanasi, uyi, vatani, mol-mulkidan ayrildi. Ular tezroq qaytib kelish umidi bilan ketishgandi.

Isroil nafaqat yerni okkupatsiya ostida qoldirdi, balki so‘zlarni ham okkupatsiya qildi. “Nakba” so‘zi ular uchun maqbul emas. Faqat ulargina falokatga (genotsidga) uchragan xalq bo‘lishiga va falastinliklar yerini tortib olishga haqli. Asta-sekin ular falastinliklardan hamma narsani: falastincha *dabka* raqsini, miskinlar ovqati – *falafel*ni, *pita* nonini, xumusni tortib olishdi. Bularning hammasini ular o‘zlarining merosi deb e’lon qilishdi...

Barcha islom mamlakatlarini birlashtirgan “Islom konferensiyasi” tashkiloti, xalqlarning sudsiz surgun qilinishini xalqaro huquq normalari bo‘yicha tan olmasligini ma’lum qildi.

Obama Falastin xalqini yer yuzidagi eng baxtsiz xalq deb atadi.

Xazna Suvaytning hayoti turli tushunchalar ostida o‘tdi.

Damashq yaqinidagi Dunnum lagerida Xazna Suvayt butun umrini o‘tkazdi.

“Esga olishdan nima naf bor? Kelajakka qarash kerak. Biz qaytamiz. Biz bo‘lmasak bolalarimiz. Bolalarimiz bo‘lmasa nevaralar. Biz qaytamiz”, – kampir o‘rnidan engil turib ketadi. Uning 4 nafar o‘g‘li, 60 nafar nevara va chevaralari bor.

Bu yerda jurnalistlar, turistlar va chet elliklar bo‘lmaydi. Bu yerda insonlar loydan qurilgan mitti uychalarda bir xonada 10 kishilab bir-biriga yopishib yashaydi.

Tor ko‘chalarda tentirab yurib, qanday qilib 60 yil shunday yashash mumkinligini tushunishga qiynalaman. Bu lagerdan qanchadir uzoqlikdagi hayoliy uyimga albatta yo‘l topiladi, degan umid bilan yashash. Ularning ko‘pchiligi buzib tashlangan, Isroil harbiy bazalari, aeroportlar va yo‘llar qurib tashlangan qishloqlarga qayta olishga qanday ishonish mumkin? Nega ular “Falastinligini” tashlab, bekam-ko‘st hayotga qochib ketishmaydi?

Suriya falastinliklarga o‘z fuqarolari bilan teng huquqlar bergan yagona davlatdir. Qochqinlar Suriya fuqaroligini qabul qilmasa-da, fuqarolik huquqlariga to‘liq ega edilar. Shunga o‘xshash pozitsiya Amerika bosqinidan oldin Iroqda ham mavjud edi. Endi Iroqda panoh izlab yurgan falastinlik qochqinlar yangi boshpana izlashga majbur bo‘lmoqda. Keyin esa Suriyadagi falastinlik qochqinlar davri keldi.

Falastinliklarning Suriyadagi assimilyatsiyasiga to‘sqinlik qiluvchi bu siyosat Isroilning alohida nafratini uyg‘otdi. Isroil falastinliklarning singib ketishini, yo‘q bo‘lib ketishini istaydi.

Shunday bo‘lsa-da ular – falastinlik, shu bilan birga ummatning eng siyosiy motivatsiyalangan qismi bo‘lib qolaveradi.

Lagerning tor ko‘chalarida – g‘amgin va tashvishli chehralarni, g‘azab, tajovuz yoki tushkunlikni kuzatmaysiz. Ular tabassum qilishadi. Siz falastinliklarni qaerda uchratmang, tabassum ulardagi hayratlanarli hususiyatdir.

Vaqtinchalik boshpananing doimiyligi

Har bir lagerning o‘z qiyofasi bor. Dannum lageri Suriyadagi 20 ta lagerning eng kichigi.

1948-yilda bir necha ming falastinliklarga vaqtincha yashash uchun joy ajratilgandi: bo‘m-bo‘sh joyda chegaralar belgilangan. Axir hech kim bu yerda bunchalik uzoq yashashga to‘g‘ri keladi, deb o‘ylamagandi.

O‘tgan-ketganlar bilan gaplashaman. Bu yerda hech qanday suv yo‘q. Suv olib kelishadi va sotishadi. Hatto kir yuvish uchun ham suv sotib olish kerak. Har qanday oila byudjetining yarmi, suv uchun sarflanadi. Suv chiqarish uchun 550 metr chuqurlikda quduq qazish kerak. Bitta quduq 70 ming dollarga tushadi, odamlarda buncha pul yo‘q. Ichimlik suvi manbai esa bu yerdan 50 km uzoqlikda. Aholi loyiha ishlab chiqishgan, 10 yildan keyin suvni umumiy say harakatlar bilan olib kelishlariga umid qilishmoqda.

Lager oqsoqoli Ahmad Ibrohimning xonasida Falastinning bo‘linmagan xaritasi osig‘liq. 1948-yilda u 10 yoshda edi. Ularning uylari – mana bu yerda, u yuraklari qaysarlik bilan intilayotgan nuqtani ko‘rsatadi, buni ratsional tushuntirib berishning iloji yo‘q. Ularning qishlog‘i bor. Bu qishloqda uning hech qachon ko‘rmagan qarindoshlari yashaydi.

Shuncha yil ichida nega Suriya fuqaroligini olmaganligiga qiziqaman.

“Biz Suriya fuqaroligiga qarshi emasmiz, biz uyimizga qaytish tarafdorimiz”, – Ahmad xaritaga ko‘z yugurtiradi. Uning qo‘lida o‘z vatanining fotosuratlari yo‘q, faqat xarita va undagi nuqta bor.

“Agar ruslar o‘z yerlaridan haydab chiqarilsa, siz qaytib kelishga intilarmidingiz? Sizlarda urush bo‘lgan-ku. Nega ketishga yoki okkupatsiya ostida

yashashga rozi bo‘lmadingiz? Nima uchun odamlaringiz jonlarini qurbon qildilar, tanklar ostiga o‘zlarini tashladilar, och qoldilar, lekin dushman shartlariga ko‘nishni istamadilar? Siz bizni endi tushundingizmi?” – deb so‘raydi Ahmad. – “Ammo amerikaliklar va Isroil buni tushunmayapti”.

Yana bir suhbatdoshim Muhammad G‘arb davlatlari mantig‘idan hayratga tushadi: “Siz, ruslar, o‘z bosqinchilaringizni sevganmisiz? Nega biz ularni sevishimiz kerak? Nima uchun biz ular bilan kelishishimiz kerak? Nemislar Moskvaga yaqinlashganida ular bilan kelishib oldingizmi? Leningrad qamalda qolib, odamlar ochlikdan qirilib ketayotgan bir paytda, yoki Stalingrad ostonasida ular bilan til biriktirganmisiz? Osloda falastinliklar Isroilni tan olishdi. Buning uchun ulardan yerning 80 foizi tortib olindi. Lekin qolgan 20 foizini ham qaytarib berish niyati yo‘q”.

“Amerikaliklarning falastinliklar bilan turli loyihalari ko‘p. Buning uchun ko‘plab odamlar ishlaydi. YAngi va yangi loyihalar. Bir vaqtlar qochqinlar Avstraliyaga yuborilgan. Ayniqsa, falastinlik nasroniylar. Ular bilan ko‘plab missionerlik tashkilotlari ishlagan, ularni lagerlardan olib ketishgan. Zotan, nasroniy qishloqlardan ham, aralash qishloqlardan ham qochqinlar bor edi. Axir Falastinliklar ichida ham musulmon, ham nasroniylar bor. Biz tinch-totuv yashardik, – Ahmad yana xaritaga qaraydi. – Mana bu yerda nasroniylar qishlog‘i bor edi. Bu yerda ham. Missiya xodimlari nasroniylarni boshqa qochqinlardan ajrata boshladilar, ko‘pchilik ketishga rozi bo‘ldi. Ammo falastinliklar qaerda bo‘lsa ham falastinlik bo‘lib qolayotganini, qaytish umidini yo‘qotmayotganini ular ko‘rishdi. Missionerlar nimaga bunday bo‘layotganini tushunolmayaptilar”.

Lagerda nafaqat suv yetishmaydi. O‘rta maktab yo‘q, shifoxona yo‘q: suv oltinga teng bo‘lsa, ularni qanday boqish kerak? Oilalar bolalarini Damashqqa o‘qishga yuborishga majbur – bu avtobusda bir soatlik yo‘l. Ko‘pchilik qizlarni shaharga yuborishdan qo‘rqadi. Shuning uchun qizlar boshlang‘ich maktabni tugatgandan keyin ularni o‘zlari o‘qitishiga to‘g‘ri keladi.

Ta’lim barcha uchun bepul va 1-sinfdan 9-sinfgacha majburiy. Suriyadagi bu qoida falastinliklarga ham tatbiq etiladi. O‘qish bog‘cha *(4 yosh)* dan boshlanadi. Hozirda eng yaxshi bolalar bog‘chalari, deydi Ahmad, HAMAS chilar tomonidan tashkil etilgan. Bu ularning odamlar orasida mashhurligining garovidir.

Umuman olganda, ta’limga bo‘lgan munosabat zo‘riqishli. Falastinliklar astoydil o‘qishadi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi eng yuqori ta’lim darajasi falastinliklar va ayniqsa qochqinlar orasida. Quvg‘inning mevasi shunday bo‘ladi.

Eng iqtidorlilarni bolalar bog‘chasidanoq payqashadi, ularning qobiliyatlarini rag‘batlantirib, kasb egallashlariga yordam berishadi. Katta dunyoda bu ijtimoiy lift deb ataladi.

Suriyada falastinliklar uchun oliy o‘quv yurtlari ochiq edi, ularni yaxshi lavozimlarga qabul qilishgan, falastinliklar armiyada ham, ilm-fanda ham xizmat qilishgan.

Ahmadning aytishicha, maoshda ham, munosabatda ham farq yo‘q. Faqat lagerlarga yordam berish uchun pul yetishmaydi, shuning uchun ham kambag‘allik chuqur.

Lager chetida nega shuncha chiqindi bor, deb so‘rayman. “Chiqindi tashish uchun mablag‘ yo‘q, uni qayta ishlash uchun hech qanday moslama yo‘q, kanalizatsiya uchun pul yo‘q. Odamlarning o‘zlari kuchi etgancha tozalashadi”, – deydi Ahmad.

Barcha lagerlarda FATH, HAMAS va boshqa partiyalar o‘z yacheykalariga ega. Falastinlik qahramonlarning portretlari yonma-yon osilgan.

Bu yerdagi hamma narsa tashqi ko‘rinishidan oddiy hayotga o‘xshaydi. Soyada bolalar o‘ynayapti. Bola, ko‘zi ojiz otasini etaklab ketyapti. Baquvvat yigitlar bo‘lajak vodoprovod uchun xandaq qazishmoqda. Ular bu sharoitda qanday qilib toza va ozoda bo‘lib qolayotgani – jumboq.

Ammo mohiyatan qochqinlar lageridagi hayot boshqa hech bir hayot tarziga o‘xshamaydi.

“Xo‘p, sizlar qaytib borganlaringizda yahudiylar nima qilishi kerak?” – deb so‘rayman, lagerda kam uchraydigan qushni, ya’ni jurnalistni ko‘rgani kelgan kishidan.

Biri: “Qaerdan kelgan bo‘lsa o‘sha yerga: Rossiyaga, Amerikaga, Angliyaga, Germaniyaga, Polshaga borsin. Amerikaliklar hamma joyda xolokostdan shikoyat qilishadi, ularning eri ko‘p, ularni o‘zlarining hududiga joylashtirishsin”. Boshqasi esa bu fikrga qo‘shilmaydi: “Yahudiylar payg‘ambar davrida ham bo‘lgan va oxirgi kungacha bo‘ladi. Barchasini Alloh taoloning O‘ziga havola qilamiz”.

Shialar bilan munosabat qanday, deb qiziqaman. Bu mavzu amerikaliklarning Iroqni bosib olishi natijasida paydo bo‘ldi va ommaviy axborot vositalarida faol rivojlana boshladi. Axir falastinliklarning ko‘pchiligi sunniylar, Suriyada esa shialar ham, alaviylar ham, druzlar ham bor. “Bizning hayotiy amaliyotimiz shundayki, biz ko‘p asrlar davomida o‘z zaminimizda birga yashaganmiz – sunniylar ham, shialar ham, nasroniylar ham. Falastinliklar muammosi e’tiqodiy kelishmovchiliklarda emas. Muammo shundaki, qiyinchiliklarimiz ildizi biz qidirgan joyda emas, balki ular ko‘rsatgan joyda ekanligiga bizni ishontirmoqchi bo‘lishadi. Uyimizga “Uyingiz yonyapti” degan plakat osib qo‘yishadi. Uyingizda yong‘in bo‘lyapti deb bizni ishontirishadi. Plakatni olib tashlang, yong‘in yo‘qligini ko‘rasiz”, – 49 yoshli Ziyat Said hech kim BMT ning qochqinlarni qaytarish to‘g‘risidagi 164-rezolyutsiyasini bekor qilmaganini eslatadi va aynan mana shu eng muhimi musulmonlarning bir-biri bilan kelisha olish qobiliyati yo‘q degan uydirmada emas.

Otlar vaqti

Suriyadagi falastinliklarning ko‘plab oilalari lagerlardan chiqib, katta obod uylarda yashamoqda, o‘z ishlariga ega. Yilqichi Abu Solih falastinlik. Ulkan bog‘ining o‘rtasiga kigizdan keng soyabon qurib bitkazilgan. Uning soyasida choy ichamiz. Sal narida sof arab zotli qora toychoq yugurib yuribdi.

Uning oilasi 1948-yilda Safaddan qochib chiqishgan. U muhojirlikda tug‘ilgan, Damashqda elektronika muhandisligi bo‘yicha tahsil olgan, Amirliklarda o‘z

mutaxassisligi bo‘yicha to‘rt yil ishlagan. Otasi vafot etgach, singillariga g‘amxo‘rlik qilish uchun qaytib kelgan. Ferma unga meros bo‘lib qoldi. To‘rt gektarlik olma bog‘i qurg‘oqchilik paytida nobud bo‘ldi. U yangi daraxtlar o‘tqazdi va otlarni parvarishladi, sayr qilish uchun ot klubini tashkil qildi.

Mijozlarining ko‘pchiligi boy odamlar. Ot sportida sharaflilik bor. Bu yerda restoran ham, mehmonxona ham yo‘q – faqat sport va ferma hududi bo‘ylab otda sayr qilish. Uning klubi ot sporti assosiatsiyasiga kiradi.

Haftada bir marta qochqinlar lageridan yetim bolalarni bu yerga olib kelib, ot minishni o‘rgatadi. “Sivilizatsion urushlar tugagach, hamma otlarga qaytadi, bolalar hozirdanoq o‘rgansin”, – deydi Abu Solih.

Uning qo‘lida ishlaydiganlarning barchasi falastinlik qochqinlar. Yoshlar otlarni parvarish qilishni o‘rganishmoqda, otxonada esa allaqachon 20 bosh ot. Murabbiy va bog‘bonlar bor.

Abu Solih foydaning bir qismini ta’lim dasturlariga ajratadi. Boshqa ishbilarmon va muvaffaqiyatli falastinliklar ham shunday yo‘l tutishadi. Qiziq: qanday ehson qilishadi? Banklarga ishonishmaydi. Shaxsan taniydigan odamlarga ishonishadi – ular o‘g‘irlashmaydi, behuda sarflashmaydi. Abu Solihning o‘zi ham ishchilari bilan teng ishlaydi, u ham oddiy kiyingan, boshqalar kabi ter to‘kadi.

Men ko‘rgan lagerlarda birorta ham daraxt yo‘q – u yerdagi tor hududlar uylar bilan band qilingan. Axir lagerning chegaralari aniqlangan, uni kengaytirish mumkin emas.

Fermada esa yashil krona daraxtlari shovullaydi, maysalar va lolalar ko‘kargan, suv shildiraydi, tutlar pishib etilgan. Engil shabada tetiklashtiradi. “Uyimizda shunday bo‘lgan”, deydi Abu Solih. U yerda Abu Solih hech qachon bo‘lmagan, lekin keksalarining hikoyalari orqali u joylarni biladi, tasavvur qila oladi. Uning otasi okkupatsiya oilasidan tortib olgan narsani qayta yaratish uchun og‘ir mehnat qilgan. Uning qalbi o‘sha yoqqa yo‘naltirilgan edi. Endi bolalarining yuragi o‘sha yoqqa talpinadi.

Hozirda Abu Solih qochqinlar lageridagi bolalar suzishni o‘rganishlari uchun basseyn qurish niyatida: “Urushlar tugagach, bolalar dengizda suzishlari va tog‘larda sayr qilishlari mumkin. Urush tugagunga qadar ular hamma narsani uddalashlari kerak”.

Muhandislar bor, bankirlar yo‘q

Suriyaning katta Xon al-Shayx lageri 18 ming kishini sig‘dira oladi. Undan Jo‘lon tepaliklari ko‘rinib turadi: aksariyat lager aholisining etib bo‘lmas vatani tog‘lar ortida, Tiveriyada.

Bu yerda hammasi unchalik ham g‘amgin emas. Hatto ichimlik suvi olinadigan quduq ham bor. To‘g‘ri, uning suvi etarli emas. Shu sababdan maishiy ehtiyojlar uchun suvni sotib olishga to‘g‘ri keladi.

Lager chegarasi qurib qolgan daryo o‘zani bo‘ylab cho‘zilgan. Daryo tubiga chiqindi tashlangan.

“Daryo qurib qolgan – tog‘lardagi barcha suv Isroilga yo‘naltirilgan”, – deb tushuntiradi yonimda turgan qiz, jazirama quyoshdan soyaga yashirinishga shoshilib. Daryoga qochqinlarning yaqinlashishiga ruxsat berilmagan, garchi uning quruq o‘zani endi shovullab oqmasa ham.

BMT bu yerda maktab va poliklinika qurdi. Hamma bolalar ta’limga jalb qilingan.

Lager oqsoqoli yosh yigit Ayham Avad. U shu yerda tish texnigi bo‘lib ishlaydi. Uning butun oilasi Kanadada yashaydi, har yili kelishadi, u ketmadi – shunday qilsa vataniga yaqinroq bo‘ladi. Ayxam hech qachon borib ko‘rmagan joy, uning vatani bu yerdan deyarli ko‘rinib turadi – u o‘sha erda, Jo‘lan tepaliklari ortida.

Lagerda hech kim hech qanday nafaqa olmaydi. Ayhamning so‘zlariga ko‘ra, BMT ba’zan guruch va yog‘ bilan yordam beradi, kompyuter sinfi qurib bergan. Hozir Yevropa Ittifoqi yangi kanalizatsiya qurishni boshladi. To‘g‘ri, ish sekin ketyapti.

Lagerda politsiya bor-yo‘qligi bilan qiziqaman. “Barcha lagerlar o‘zini o‘zi boshqaradi. Suriya politsiyasi bu yerga rasman kirmaydi, buning keragi ham yo‘q. Axir lagerlarda jinoyatchilik yo‘q-da. Oilalar bu ba’zan 100 erkak degani, ijtimoiy hayotga ularning o‘zlari rahbarlik qiladi. Avvalo biz nima qilish kerakligini birgalikda hal qilamiz. Echim yo‘llarini izlaymiz. Biz o‘zimizni o‘zimiz boshqarishga o‘rganib qolganmiz. Axir falastinliklar o‘z vatanlarida ham shunday yashaganlar”.

“Falastinliklar orasida eng ko‘pi o‘qituvchilar, shifokorlar va muhandislardir. Ammo falastinlik bankirlar bo‘lmaydi, – deb kuladi Ayham. – Prezident Asadning shifokori falastinlik, odamlarimiz oyna zavodi qurgan, uchuvchi, harbiy, Damashq kutubxonasi direktori falastinlik. Ular yuqori cho‘qqilarga ko‘tarilgan. Lagerlarda bolalar uchun maydoncha qurishga joy yo‘q. Falastinliklarning yarmi esa 15 yoshgacha bo‘lgan bolalardir”.

Qiziqaman: agar falastinlik bolalarning maydonchalari va bog‘lari, ota-onalarining villalari va hisob-varaqlari bo‘lganida, ular o‘zlarining yo‘qotilgan vatanlarini ko‘rish uchun ufqqa qarashni to‘xtatgan bo‘larmidilar?

“Bizning yo‘limiz kurash yo‘lidir. Biz uni tanladik. Ha, bizni o‘ldirishyapti, lekin qo‘rqishga vaqtimiz yo‘q, oldinga yurishimiz kerak”.

Nima ham derdik? Hayot go‘zal va unda o‘zing uchun eng katta foyda bilan yashab qolishing kerakmi? Biqiq Sovet Ittifoqidan surgun qilingan va AQSHda muvaffaqiyat qozongan shoir Iosif Brodskiy o‘zi haqida shunday yozgan edi: “Surgunning achchiq nonini edim”. Isroilga ko‘chib kelgan millionlab yahudiylar – o‘z uylari va bog‘laridan haydab solingan, o‘z maskanlarini sog‘inib qo‘msayotgan odamlarni tushunishlari qiyin.

Taqiqlangan kasblar ro‘yxati

Suriyada falastinliklar teng huquqli bo‘lsa, Livanda ular davlat tomonidan ko‘plab huquqlardan mahrum etilgan. Garchi u yerda ham, bu yerda ham odamlarning falastinliklarga munosabati do‘stona bo‘lsa-da.

Livandagi eng katta Falastin lageri Burj al-Barajna, Bayrutdagi shialarning Dahiya tumanidan o‘tadigan yo‘lga yaqin hududda joylashgan. Dahiya – ko‘p qavatli osmono‘par kvartal, Burj al-Barajna – esa kulbalar labirinti.

Dahiyani 2006-yilgi urush paytida Isroil har kuni bombardimon qilgandi. U yerda 200 dan ortiq ko‘p qavatli uylar vayron bo‘lgan o‘sha paytda. Bomba zarbalari Dahiyani Burj al-Barajnadan ajratib turgan ko‘priklar va estakadalarni vayron qildi. O‘sha urushning dastlabki kunlarida jahon axborot agentliklari Isroilning Burj al-Barajnani bombardimon qilayotgani haqida xabar berishdi, chunki u yerda “Hizbulloh” etakchisining bunkeri bor emush…

O‘sha kunlarda Dahiya ko‘chalarida yurganimda dunyo agentliklari Bayrut kimsasiz bo‘lib qolganini, uning sahro ko‘chalaridan hatto Livan armiyasi ham yurishga jur’at eta olmayotganini xabar qilishgandi. Aslida Dahiya ko‘chalari odamga to‘la bo‘lib, jumladan bolali oilalar ham bor edi. Falastinliklar lagerida ham jonlanish hukm surardi.

Bu yerda bunkerlar yo‘q. 2006-yilgi urush paytida Falastin lageriga mo‘jiza bo‘lib birorta ham bomba tushmagan. Ammo uning hamma devorlari oldingi urush o‘qlari bilan ilma-teshik qilib tashlangan. O‘shanda Isroil hijolat bo‘lmasdan shaharni bombardimon qilgandi. Livan ma’lumotlariga ko‘ra, 50 mingga yaqin odam halok bo‘lgan. 1982-yilda ikki oy davomida Burj al-Barajna qattiq blokada ostida qolgan. Ko‘plab bolalar va ayollar halok bo‘lgan, odamlar o‘t-o‘lan va tuproq eyishgan, ammo taslim bo‘lishmadi. Ushbu qamal oqibatlari xotirasiga BMT 4 iyun – Urushda halok bo‘layotgan begunoh bolalar xalqaro kunini ta’sis etgan edi.

Devordagi yoriqlarni ta’mirlashga odamlarda pul yo‘q.

1982-yil avgust oyida Isroil qamalni to‘xtatdi, sentyabr esa Isroil va livanlik maronit-falangistlar Sabra va Shatil Falastin lagerlarida tinch aholini, jumladan ayollar va bolalarni qirg‘in qildi.

Fikrimni tugatib qo‘yish uchun hali Burj al-Barajnaga qaytaman.

1952-yilda bu yerga Isroil bilan chegaradagi qishloqlardan quvib chiqarilgan 6 ming falastinlikni to‘plashdi. Bayrutning o‘sha paytdagi eng qashshoq chekkasida joylashishga ruxsat berilmaguncha, odamlar to‘rt yil davomida Livanda hech qaerdan boshpana topa olmadilar. Hozir bu yerda 20 ming aholi kun kechiradi.

Umuman olganda, Livanda mamlakat bo‘ylab sochib tashlangan 16 ta lagerda 450 mingga yaqin qochqin bor.

Burj al-Barajna lageriga kiraverishda Yosir Arofat, Shayx Ahmad Yosin va nasroniy Jorj Habashning portretlari osilgan.

Lager oliy organi Xalq Komiteti bo‘lib, bu komitetda barcha harakatlarning vakillari bor. Abu Voil bu qo‘mitaning boshlig‘i, u 1950-yilda quvg‘indan keyin tug‘ilgan.

“BMT ning 194-rezolyutsiyasiga ko‘ra, hokimiyat ko‘chib o‘tganlarga yer ajratishi kerak. To‘rt yil cho‘zildi. Keyin bir kvadrat kilometr – elektrsiz, suvsiz, kanalizatsiyasiz yer berishdi, – deydi Abu Voil. – Livanda falastinliklar uchun taqiqlangan 74 ta kasbdan iborat ro‘yxat mavjud. Agar lagerdan tashqarida vrach yoki injener bo‘lib ishlayotgan bo‘lsang, seni sudga berishadi. Lager ichida falastinliklar xohlagan kasbda ishlashi mumkin. Aslida bu lager ichida deyarli tekinga ishlash degani, chunki odamlarning moliyaviy imkoniyatlari juda cheklangan. Binolar stixiyali, texnik hisob-kitoblarsiz qurilgan. Bu yerda uzoq qolib ketamiz deb kim o‘ylabdi deysiz? Oilalar esa kengayib, ikkinchi, uchinchi qavatni qurmoqda. Livan davlati haligacha qochqinga, qochqinning o‘g‘liga, qochqinning nabirasiga faqat tug‘ilganlik va vafot etganlik to‘g‘risida guvohnoma beradi – Livan bundan boshqa majburiyatni zimmasiga olmagan. Falastinlik hatto vasiyatnoma ham qoldira olmaydi. O‘z uyini meros qilib ololmaydi. Odamlarning 60 foizi qashshoqlikda yashaydi. Bir oilaga oyiga 150 dollar to‘g‘ri keladi”.

Burj al-Barajna aholisining ko‘pchiligi Falastinning Jaliliyasidan.

Biz Xalq Komiteti joylashgan ikkinchi qavatda o‘tiribmiz.

Keksa-yu yosh odamlar to‘planishib, davra qurib o‘tirishadi. Stakanlarda yalpizli xushbo‘y choy keltiriladi.

Bir nuroniy otaxonning 13 nafar farzandi bor. Uning bolalari o‘z vatanlariga qaytib borgach, tinchlik uchun yahudiylar bilan yaqin aloqalarni o‘rnatishiga hech qanday qarshiligi yo‘q. “Islomni qabul qilgan har bir kishi qizimga uylanishi mumkin. Mayli yahudiy qiz mening o‘g‘limga turmushga chiqsin, biz uni soliha musulmon qilamiz. Biz yahudiylarga qarshi emasmiz. Falastinga ko‘chib kelgan millionlab sovet yahudiylari bizning muammolarimizning bir qismidir. Nega ularga qaytish mumkin-u, bizga mumkin emas? Siz Rossiyadansiz, mamlakatingizni tortib olsa bo‘ladimi? Nega bizdan tortib olish mumkin? Biz o‘tmishga chuqur kirib borishni istamaymiz, u o‘tib ketdi, biz hozirgi zamonda oqilona echim topishni istaymiz. BMT tomonidan qabul qilingan qochqinlarning o‘z erlariga qaytishini kafolatlaydigan rezolyutsiyasi bor, lekin bizni o‘z vatanimizga qaytarishmayapti”.

“Agar falastinlik erkak livanlik ayolga uylansa, bir yildan so‘ng Livan fuqaroligini oladi. Lekin bunday nikoh kamdan-kam uchraydi. Assimilatsiya muammosi bizni bezovta qilmaydi. Barcha falastinliklar o‘zlarini Falastinning bir qismi deb his qilishadi. Biz uylanishning ham foydali tomonlarini olamiz: biz boshqa xalqlarga falastinliklarning boshiga tushgan kulfat haqida gapiramiz. Falastin va livanliklar yaqinlashuvi muammolarni yarmiga osonlashtiradi. “Livanliklar bizga Abbosdan[45] ko‘ra ko‘proq yordam bermoqda, garchi u kelishuv imzolanishi bilanoq Livandagi barcha qochqinlar Falastinga birinchi bo‘lib qaytishini e’lon qilgan bo‘lsa ham”, deydi ko‘zoynak taqqan keksa falastinlik. Bu yerda barcha muzokaralarning ikir-chikirlari ikki hissa e’tibor bilan kuzatib boriladi. Va ular haqida televideniya xabar qilganidan ko‘ra ko‘proq ma’lumotga ega.

Livanda falastinliklarga oson emas. 200 ming nafari Ko‘rfaz mamlakatlarida ishlaydi. Oila a’zolari uyda qoladi.

[45] Mahmud Abbos – Yosir Arofat vafotidan keyingi Falastin prezidenti.

Ko‘chalar o‘rta asr shaharlaridagi kabi: bu devorlarga atigi 60 yil bo‘lsa-da, ikki kishi bir-biriga halaqit bermasdan o‘tolmaydi. Hamma yoqda sim to‘plari va rezina quvurlar osilib yotibdi – bu yerda suv va elektr shunday o‘tkazilgan. Boshqachasiga iloj yo‘q, qazishni boshlading, uy qulaydi. Agar qaerdadir uylar qulatilsa va joy ochilsa, u yerda darhol bolalar guruhlarini uchratasiz.

Chegara ko‘chasidagi tosh yo‘lning o‘rtasida bolalar futbol o‘ynashadi, onda-sonda o‘tadigan mashinalarga epchillik bilan chap berishadi. Harakat tig‘iz bo‘lgan oddiy kunlarda bu yerda o‘ynab bo‘lmaydi. Yigitcha koptok o‘ynamoqda. Bolachalar bekinmachoq o‘ynashyapti. Falastinlik Visam ularga konfet uchun ozgina pul beradi. Zumrashalar guruhini shamol uchurganday bo‘ladi. Bir daqiqadan keyin qaytib kelishdi. Hammasining qo‘lida muzqaymoq bor edi.

Dugonalar kelishyapti: biri ro‘mol o‘ragan, ikkinchisi sochlarini yoyib olgan. Falastinliklar orasida kiyinishga nisbatan xotirjam munosabatda bo‘lishadi. Maktabning ochiq eshigidan sinf xonalari ko‘rinib turibdi. U yerda qizg‘in muhokama bo‘lmoqda, bolalar kompyuter atrofida to‘planishgan, kichkintoylar nimadir yasashmoqda.

Lagerga kiraverishda Falastin harakatlarining bayroqlari va tug‘lari o‘rnatilgan. Devorlarning yuza qismiga qahramonlarning fotosuratlari va Al-Aqso – Quddusdagi masjidning rasmlari osilgan bo‘lib, Quddusga hozirgi lager aholisidan hech kim, hech qachon qadam bosmagan.

Karikaturachi jarroh

Mashhur falastinlik rassom, siyosiy karikaturalar muallifi doktor Alaa Allagta, nega Falastin hayotining barcha jabhalari, jumladan, san’atga ham bunchalik siyosiy tus berilganligi to‘g‘risidagi savolga o‘z hayot yo‘liga asoslanib javob beradi.

U 15 yoshida okkupantlar mavzusida karikatura chizgani uchun isroillik askarlar barmoqlarini majag‘lab tashlaganidayoq san’atga bo‘lgan huquqini himoya qilishga bel bog‘lagan edi.

Doktor Alaa kelib chiqishi G‘azo sektoridan. U 1972-yilda tug‘ilgan, ma’lumoti bo‘yicha shifokor. Qatar, Ummon va Saudiya Arabistonidagi to‘rtta kundalik gazeta, shuningdek, G‘azodagi yagona kundalik nashr bilan hamkorlik qiladi. 2014-yilda arab karikaturalari tanlovida ikkinchi sovrinni qo‘lga kiritdi. Hozir Bahraynda yashaydi, jarroh-kosmetolog bo‘lib ishlaydi. U falastinlik qochqin.

U Quddusga ham, Xevronga ham, Nablusga ham, G‘azoga ham borolmaydi. G‘azo qamalda, Misr tepasiga As-Sisi kelishi bilan bu qamal Sinayga ham tarqaldi.

“Rasm chizishni bolaligimdan boshlaganman. 10 yoshimda men ko‘ngil ochish uchun rasm chizardim. Universitetda yashab qolish uchun rasm chizdim. Endi esa rasm chizish uchun yashayapman. Hozir G‘azo sektorida har kuni chiqadigan yagona gazetada karikaturachi bo‘lib ishlayman. Men 18 yoshimda maktabni tugatib G‘azodan ketganman, lekin G‘azoga ko‘p marta borganman – u yerda ota-onam yashaydi.

Hozir u yerga hech kim bora olmaydi. As-Sisi to‘ntarishidan oldin Falastin hujjatlariga ega bo‘lgan falastinliklar uchun bu imkonli edi. Oilam G‘azo ichidagi qochqin maqomida. Bizning shahrimiz Al-Falujja deb atalardi. 1948-yildan keyin oilam ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi. Endi bu shahar nomi o‘zgartirilib, Kiryat-Gat deb ataladi. U yerda Falastinga tegishli hamma narsa vayron qilingan. Faqat bir necha uy va eski masjid qolgan. Mening onam juda badavlat oiladan bo‘lib, ko‘plab erlari, bog‘lari, uylari bor edi. Biz bularning barchasini yo‘qotdik. Mening oilam G‘azoda o‘nlab yillardan beri ijarada yashaydi, biz bor narsamizdan mahrum bo‘ldik. Qarindosh-urug‘larimdan birortasi, tug‘ilib o‘sgan joylarini borib ko‘rib kelolmaydi. Men oilaviy uyimizni hech qachon ko‘rmaganman. Meni va menga o‘xshagan qochqinlarni bu mamlakatga qo‘yishmaydi. Ruminiya fuqaroligiga ega bo‘lgan bir hamkasbim Falujjaga tashrif buyurib, bu jannatmakon joy ekanligini aytdi, falastinlik esa unga hatto qaray olmaydi”.

Mashhur falastinlik karikaturachi Naji al-Aliy haqida so‘rayman. U 1960-yillarda befarq dunyoga orqa o‘girgan o‘n yoshli bola ko‘rinishidagi Falastin obrazini

yaratgandi. Hech qachon ulg‘aymaydigan bola. Falastin fojiasiga dunyoning befarqligi – shu mavzuda ijod qiladigan barcha rassomlarda asosiy o‘rinda turadimi?

“Naji al-Alining o‘ldirilganini bilsangiz kerak[46]. Mening asosiy missiyam – umid baxsh etish. Bilasizmi, tunning eng qorong‘i payti tongdan darak beradi. Biz hozir shu davrda yashayapmiz. Tong otadi – lekin hozir juda qorong‘i. Biroq biz umidimizni uzmaymiz. O‘z erkini qaytarib olishga intiladigan odamlar har doim umidini saqlab qolishi kerak. Agar uni yo‘qotsalar, o‘z muammolarining quliga aylanadilar. Biz sabr-toqat, umid va ozodlikka bo‘lgan intilishni saqlab qolishimiz kerak”.

Doktor Alaadan qanday qilib rassom bo‘lganini so‘zlab berishini so‘rayman.

“Men bolaligimdan san’atni sevardim va u bilan bog‘liq bo‘lishni juda xohlardim. 1990-yillarda hali bunchalik ko‘p axborot resurslari va aloqa vositalari yo‘q edi. Maktabni a’lo baholarga tugatishga muvaffaq bo‘ldim. Bizda eng yaxshi kasb shifokor degan stereotip aylanib yuradi. Ota-onamni xafa qilmaslik uchun tibbiyotga hujjat topshirdim, Ruminiyaga shifokorlikka o‘qishga ketdim. Ammo ichimda ko‘ngil to‘lmaslik unsurlari to‘planib borardi. Hamma pulim bo‘yoq, qalam va qog‘ozga ketardi. Biror hududdan chiroyli manzil topishim bilanoq juda ko‘p manzaralar chizardim.

Yevropaga o‘qishga borganimda u yerda san’at juda yuqori baholanishini tushundim – bolaligim davridagi bizning dunyomizdagidek emas. Hatto ma’ruza darslarida ham rasm chizardim. Mashg‘ulot tugashi bilan rasm tayyor bo‘lardi. Professorlar va talabalar mening imzoli sharjim[47] kimga nasib etishi masalasida musobaqa qilishardi. Universitetdan so‘ng menda fayllar bilan tasdiqlangan rezyume borligini anglab etdim – bu sharjlarni o‘rtoqlarim yig‘ib borishgan. Miyamda bir hamkasbim aytgan ibora muhrlanib qoldi: “Alaa, sen boshqa yo‘ldan ketishing kerak

[46] Rassom Naji al-Ali 1987-yilda Londonda “Mossad” agenti Ismoil Sovan tomonidan o‘ldirilgan edi.

[47] Sharj – san’at va adabiyotda biror shaxsning yuzi yoki hodisani tasvirlashda haqiqatga to‘g’ri kelmaydigan mubolag’a bo‘lib, karikaturaning bir turidir. U satirik yoki xushfe’l-yumoristik tarzda ifodalangan tasvir hisoblanadi.

edi”. Lekin men institutni bitirdim, uyga qaytib tahririyatlar bilan yozisha boshladim va birdan akademik ma’lumot olgan rassomlardan sira qolishmasligimni anglab etdim”.

Ezib tashlangan qo‘llar to‘g‘risida so‘rayman, bu qanday sodir bo‘ldi.

“1988-yilda birinchi intifada boshlanganida 15 yoshda edim va men Isroilga qarshi o‘z noroziligimni bildirmoqchi bo‘ldim. Devorlarga rasm chizardim. Jazolash tadbirlarining ilhomchisi bo‘lgan Shamirni masxara qilardim. Isroilliklar meni tutib olib, ko‘chada ota-onamning ko‘z o‘ngida, boshqa rasm chiza olmasligim uchun mixli tayoq bilan barmoqlarimni sindirib tashlashdi. Ular, ota-onam mendan havotirlanib, boshqa rasm chizishimga yo‘l qo‘ymasligi uchun shunday namoyishkorona jazolashgan. Shunday qilib, ushbu bolalarcha rasmlar ularda shunchalik asabiylik tug‘dirishini tushundim, ular meni bo‘lajak terrorchi sifatida ko‘rishgan. Va men qaror qildimki, agar bu rasmlar okkupantlar uchun shunchalik og‘riqli bo‘lsa, demak, davom etishim kerak. Kasalxonada qo‘llarimni tikib qo‘yishdi, asab tolalari shikastlanmagan ekan. Shuni aytishim kerakki, menga unchalik yaxshi plastik jarroh nasib etmadi – chandiqlar hali ham ko‘rinib turibdi. O‘zim o‘qiyotganimda qo‘llarimni yaxshiroq tikishim mumkinligini tushungandim. Bu ham san’at, bunda ham iqtidor talab etiladi. Plastik jarrohlik eng ko‘p haq to‘lanadigan sohalardan biri. Lekin men karikaturaga berilib ketdim.

Jarrohlik sinflaridagi mashg‘ulotlarda ezilib ketardim, faqat rasm chizish stoliga qaytishni kutardim. Men vaqtni his qilmasdim, tun bo‘yi rasm chizardim. Men o‘z mutaxassisligimni butunlay tashlab qo‘yganim yo‘q: kerak bo‘lganda shifokorlik bilan shug‘ullnayapman, lekin rasm chizish – bu eng muhimi. Qaerda bo‘lmay jarrohlik bo‘yicha bepul maslahat beraman”.

Nima uchun falastinliklarning barcha karikaturasi siyosiy ekanini tushuntirib berishini so‘rayman.

“Biz falastinliklarmiz, siyosat hayotimizning barcha tirqishlariga kirib boradi. Biz nima qilmaylik, qaerda yashamaylik, nima bilan shug‘ullanmaylik, siyosat bizni

quvib etadi. Hatto shifokor xonasida ham. Shuning uchun karikaturalarimning aksariyati siyosiy. Men Falastin, arab va jahon siyosati haqida qarashlarga egaman”.

Oslodagi kelishuvlarga qanday munosabatda ekanini so‘rayman.

“Oslodagi kelishuv majburiyatlarining Falastin xalqiga tegishli qismi minimal darajada ham bajarilmayapti. shu paytgacha bu kelishuvlardan falastinliklar hech qanday foyda ko‘rmadi, xalqning azob-uqubatlari faqat ko‘paydi, Isroilning noqonuniy aholi punktlari ko‘paymoqda, tinch falastinliklarni o‘ldirish tobora oshib bormoqda, falastinliklarni uylaridan va yerlaridan haydab chiqarish, yurtimizni yahudiylashtirish avj olmoqda”.

Ommaviy axborot vositalarida Falastin fraksiyalari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, jumladan Oslo kelishuvi masalasida ham umumiy yondashuv yo‘qligi to‘g‘risida ko‘p gapirilishini, falastinliklar esa birdam ekanligi haqida gapirayotganini suhbatdoshimga eslataman.

“Men Falastin ko‘chasining og‘rig‘ini ifoda etaman. Men oddiy falastinlik nimadan aziyat chekayotgani, nimani xohlayotgani haqida gapiryapman. Men yer yuzidagi har qanday inson kabi falastinlik ham xavfsiz hayot va o‘z uyiga ega bo‘lishni xohlashi haqida gapiryapman. Men har qanday inson kabi falastinlik ham qarshilik ko‘rsatish huquqiga ega ekanligi haqida gapiryapman. Bu huquq dunyoning barcha dinlari va barcha xalqaro qonunlar bilan kafolatlanadi. Men siyosiy arboblarning suratini chizmayman, ularni ulug‘lamayman va masxara qilmayman. Men o‘zimni u yoki bu partiyaviy mansublikka qamab qo‘ya olmayman. Men har bir xonadonga kirib borishni va har bir qalbga ta’sir qilishni istayman. Shuning uchun men qandaydir partiya emas, har bir falastinlik tushunishi mumkin bo‘lgan narsa haqida gapiraman.

Isroil bilan tinchlik muzokaralari hech qanday natijaga olib kelmadi – bu Falastin xalqining umumiy qarashidir. Qarshilik ko‘rsatish – falastinliklar huquqini himoya qilishning yagona yo‘li. 1991-yildagi Madrid va Oslo[48] kelishuvlari Falastin xalqiga

[48] Madrid va Oslo – ikkita maxfiy muzokara joyi.

hech narsa bermadi. Muzokaralar hech qanday natija bermaydi, ular cheksiz davom etmoqda. Kim mavhum natijalarga ham rozi bo‘lishi mumkin? Bombardimon qilinayotgan Falastin xalqi qarshilik ko‘rsatayapti va boshqa xalqlar tajribasidan, xususan, rus inqilobi va boshqa qo‘zg‘olonlar tajribasidan foydalanyapti. Biz jahon tajribasidan xulosa va saboq chiqarishga harakat qilyapmiz. Mening miltig‘im – mening qalamimdir”.

QUDDUS

Agar seni unutsam, Quddus

Qo‘lingizda Quddusdagi Falastin kulfatlarining faqirona lug‘ati turibdi. Bu mushkul mutolaa. Uning oxirida yorug‘lik ko‘rinmaydi. Jilla qursa, bu dunyoga taalluqli qismida.

Ertaga nima bo‘lishini hech kim bilmaydi. Ha albatta, hech bir odam bunday bilimga ega emas, ammo Isroilning qurollangan aholisi – qotillik, o‘g‘irlash, tiriklayin yoqib yuborish, uylarni vayron qilish, bolalarni hibsga olish va boshqa hujumlarni isroilcha tinchlik dekoratsiyalari fonida falastinliklar ustida amalga oshirmoqda.

Falastinliklar o‘z yo‘llarini yupunlikda bosib o‘tmoqdalar.

Ularning dushmanlari o‘z farovonliklarini tom ma’noda Falastin uylarining xarobalari, Falastin umidlarining vayronalari ustiga qurishga harakat qilmoqdalar.

Bu qum ustida uy qurishdan ham ishonchsizroqdir.

Men bu yerda turli odamlarning hikoyalarini to‘pladim.

Hikoyalardagi har bir kishining hayoti – Quddusdagi Falastin hayotining bir aspektini ochib beradi.

Bu achchiq hikoyalar.

Men bu hapdorini chiroyli syujet yoki hammasi yaxshi bo‘ladi, degan tez aytish bilan shirin qilmoqchi emasman.

Quddus muammolariga kirib borar ekansiz, hech kimga yaxshilik bo‘lmasligini aniq tushunasiz. Ehtimol, shunday davom etaversa butun insoniyatga, aynan shunday yaxshi bo‘lmasligidan hushyor tortish uchun, bu shahar yangi azobu dardlar bilan to‘ldirilayotgandir. Bu azoblarni na sayyohlik formatiga, na Muqaddas zaminning ko‘plab mehmonlari go‘l-soddalik bilan, Qiyomat kuni haqidagi fikrlardan

yashirinishga urinib “Lexaim![49]” xitoblari bilan abadiy dikkillab o‘ynash formatiga tushirish mumkin emas.

Yahudiylar va sionistlar Quddusi haqida ko‘plab kitoblar yozilgan. Falastinliklar Quddusi haqida esa kitoblar kam. Rus tilida esa bunday kitoblar yo‘q.

Ko‘pchilik Quddusga kelib, falastinliklardan jirkanib yuz o‘girishadi: ularning kvartallarida chiqindilar ko‘p. Ba’zida falastinliklar uylari atrofida sayr qilayotgan, bezor qilib yuboradigan mehmonlarni unchalik xushmuomalalik bilan qarshi olmaydi. Mehmonlar – falastinliklarning ziyoratgohlari, uylari va yerlarini har soniyada o‘g‘irlab boradigan mexanizmning tishli g‘ildiragi ekanliklari hayollariga ham kelmaydi.

Taqrizchilarim va muharrirlarim ushbu kitobdan adoyi tamom bo‘ldi. Xuddi shunday, ushbu kulfatlarga to‘la hikoyalardan men ham ezilib ketdim.

Yaratgan bu hikoyalarni yozishni nima uchun menga yuklaganini bilmayman. Kirib tin olishga umid beradigan xona eshigining kaliti mavjud emasdek go‘yo.

Quddusda har bir tosh va har bir buta: kutma, tin olishga imkon berilmaydi, deydi.

Suhbatdoshlarimning ko‘pchiligi uy-joyidan ayriladi. Ularning yerini, suvini, hujjatlarini, sog‘lig‘ini, erkini, Falastinini, bolalarini hatto ota-bobolarining qabrlarini o‘g‘irlashadi.

Ba’zilar onasi, bolasi va xotinidan ayriladi. Boshqalarini esa hatto huquq deb atashga til bormaydigan oddiy narsalardan, masalan, o‘z uyining tomini ta’mirlash imkoniyatidan mahrum qilishadi.

Ba’zilarining hayoti o‘g‘irlanadi.

O‘g‘irlashga kuchi etmaydigan narsa – bu falastincha matonatdir. Vaholanki, bu yerda dushmanning malayi yoki ayg‘oqchisi bo‘lsang, qalbingni butunlay yo‘qotasan, qoldiqsiz yo‘qotasan, pushaymon bo‘lish huquqisiz yo‘qotasan va bu jarayon Quddusda aniq namoyon bo‘ladi.

[49] Lexaim – so‘zi ibroniy tilidan taxminan “hayot uchun!” degan ma’noni anglatadi va qadah so‘zi sifatida ishlatiladi.

Tavba qilmagan xoin – Iudaning tarixi joniga qasd qilish bilan Quddusda yakunlangani bejiz emas. Iuda ham qonunga rioya qilinishini, hech kim hokimiyat, intizom, farovonlik va taraqqiyotga qarshi shakkoklik qilishga jur'at etmasligini ta'minlashga intilgan edi.

Men faqat guvohlik bermoqdaman xolos.

Menda bu muammolarni qanday hal qilish bo‘yicha reja ham yo‘q.

Bo‘layotgan voqealarga mening shaxsiy aloqadorligim yo‘q.

Men bu odamlarga yordam berishga ojizligimdan chidab bo‘lmas og‘riqni his qilyapman. Zotan, odamlarda u yerda ham, bu yerda ham og‘riqni o‘lchash va baholash uchun vositalar mavjud emas.

Barcha xalqaro rejalar, yo‘l xaritalari, kvartet majlislari yoki maxfiy muzokaralar qandaydir ma'no kasb etishiga ishonchim komil emas.

Muammoni hal qilishga turli darajada jalb qilingan xalqaro amaldorlar bilan muloqot qilish tajribam shuni ko‘rsatadiki, ular vaziyatni nazorat qilayotgandek ko‘rinish uchun navbatchi iboralarni aytishdan nariga o‘tishmaydi.

Hokimiyatga burkangan bonzlar, xalqaro kuzatuvchilar, zamonaviy fariseylar va kitobdorlar orasida Quddusdagi hamma narsa inson aqli bilan emas, balki Yaratganning rejasi bilan sodir bo‘layotganini tan olishga tayyor bo‘lganlar kam. Zotan Xudo aynan shu yerda kimnidir sinayapti, chiniqtiryapti; kimnidir halokatga tayyorlamoqda.

Bu kitobcha esa o‘quvchiga – bildirish xatidir.

Qabul qilganingiz haqida imzo cheking, endi siz ogoh qilingansiz.

Qiyomatni kutayotgan shahar

Falastinliklar bu shaharni Al-Quds deb atashadi. Ruschasiga esa uni Ierusalim deb ataymiz.

Men bu yerda ko‘p marta bo‘lganman. Boshqa hech qachon bu joylarga kelmayman. Toki okkupatsiyada ekan, kelmasligim aniq.

Bu shahar adolatni talab qiladi, ammo minglab sayyohlar qulog‘i tom bitgandek shahar go‘zalliklari fonida o‘zlarini suratga oladi.

O‘tgan asrlar davomida ko‘pchilik – o‘rta asr ziyoratchilari, rus rohiblaridan tortib Mark Tven va Ivan Buningacha Quddus haqida sayohatnomalar qoldirgan. Bu toshlar ustida bir paytlar payg‘ambarlar kezganini, endi esa o‘zlari Parvardigorning irodasiga quloq tutmay, Yaratuvchining maqsadini anglamasdan tentirayotganiga hayratlanishdan ko‘pchiligi qochib qutila olmagan.

Bu yerda nafaqat biz, balki butun dunyodan kelgan harbiy muhbirlar ishlashardi. Tan olishimiz kerakki, bizning umumiy ishimiz muvaffaqiyatsiz yakunlandi.

Quddus, uning o‘tmishi yoki buguni haqidagi har qanday gap g‘azab to‘lqinini keltirib chiqaradi. Yagona qarash yo‘q. Va, aftidan, bunday qarashni shakllantirish imkonsiz. Hali hech kim – falastinliklar, isroilliklar, akademik tarixchilar, G‘arb arxeologlari yoki mahalliy qazuvchilar bu shaharning tarixini achchiqlanmaydigan tarzda aytib bera olmagan.

Quddusda inson aqli etmaydigan bir sir bor.

Hech bir shaharga dunyoning bu qadar rashkli e’tibori qaratilmagan.

Bu hodisaning ratsional izohi mavjud emas.

Darsliklarda Falastin qadimgi savdo yo‘llarida joylashganligiga ishora qilinadi, ammo dunyoda savdo yo‘llari juda ko‘p va ularning hech biri bunday doimiy shafqatsizlik ob’ektiga aylanmagan.

Isroilliklar va ularning lobbistlari hamma gap global antisemitizm va Isroil yutuqlariga hasaddan boshqa narsada emasligiga ishonishadi.

Boshqalarning fikricha, hamma gap diniy keskinlashuvda. Axir, Quddus uch dinni jamlagan shahar, hamma gap mutaassiblikda, degan siyqasi chiqqan ibora ham bor-ku.

Xaritadagi bu nuqtaga nafaqat musulmonlar, nasroniylar, yahudiylarning, balki so‘llar va o‘nglar, konservatorlar va liberallar, demokratlar, monarxistlar hamda anarxistlarning ham e’tibori qaratilgan.

Bu yerdagi tinchlikni parchalab, karaxt qilib qo‘yadigan har qanday voqea katta siyosatning diqqat markazida bo‘ladi.

Dunyo tarixi bu yerdan emas – balki ming kilometr Sharqroqda boshlangan.

Jamiyki va’dalarga qaraganda u shu yerda tugaydi.

Tarix ila Geografiya

Al-Quds, eski Quddus – kichik shahar. Hududi bir kvadrat kilometrdan kamroq.

Bu tog‘li shahar. Qishda hatto qor ham yog‘adi. Yozda esa Muqaddas zaminning boshqa joylaridagidek jazirama bo‘lmaydi.

Falastin geografiyasi to‘g‘risida ham, Muqaddas Zamin geografiyasi to‘g‘risida ham yakdil qarorga kelib bo‘lmaydi.

Ko‘pchilik oddiygina qilib, bu joyni Odam Atodan boshlab tarix sizib chiqqan makon deb hisoblaydi.

Muqaddas tarix, akademik tarixdan farq qiladi. Xristianlar, yahudiylar va musulmonlarning muqaddas geografiyasi ham bir-biridan keskin farqlanadi. Ularni birlashtirish ancha qiyin.

Falastinliklar va yahudiylarning o‘tmishni ko‘rishi konfliktli va turlicha. Bu nafaqat 1948-yil voqealariga, balki qadimgi davrlarga ham tegishli.

Bu konsepsiyalarni murosaga keltirish mumkin emas. Ob’ektivlikka erishib bo‘lmaydi.

Shunga qaramay, Muqaddas zamindagi voqealarning ma’lum ketma-ketligini ozmi-ko‘pmi tasvirlaydigan ba’zi faktlar to‘plami mavjud.

Miloddan avvalgi IV ming yillikda Suriyadan dengiz sohiligacha bo‘lgan yerlar Xanaan yerlari bo‘lgan. Miloddan avvalgi XVI asrdan XIV asrning oxirigacha uni fir’avnlar va ko‘chmanchilarning semit qabilalari bosib olgan. Miloddan avvalgi XIV asrda Falastin filistiminlar – ya’ni “dengiz xalqlari” tomonidan o‘zlashtirilgan.

Falastinliklar o‘zlarini xanaan va filistimliklardan kelib chiqqan deb hisoblashadi.

Yahudiylar bu yerga miloddan avvalgi XII asrda kelishgan. Taxminan miloddan avvalgi 1000-yilda shoh Dovud va uning o‘g‘li Sulaymon davri boshlangan. Miloddan avvalgi 930-yilda shohlik Isroil va yahudiyaga bo‘linib ketdi.

Ossuriyaliklar Falastinga 722-yilda hujum qildilar.

Miloddan avvalgi 586-yilda Bobil podshosi Navuxodonosor Quddusni bosib oldi.

Eron shohi Kir miloddan avvalgi 538-yilda Quddusni egalladi.

Miloddan avvalgi 333-yilda Falastinni Aleksandr Makedonskiy bosib oldi. Miloddan avvalgi 167-yilgacha bu yerda ellinizm davri podsholari hukmronlik qilgan.

Miloddan avvalgi 63-yilda Falastin Rimning yahudiya viloyatiga aylandi. 40-yilda forslar bosqin uyushtirishdi, ammo rimliklar boshqaruvni qaytarib olishdi va miloddan avvalgi 37-yilda Irodni shoh qilib ko‘tarishdi.

Milodiy 70-yilda Tit va Vespasian qo‘shinlari Quddusni vayron qilishdi. Falastin avvaliga Rim, so‘ngra Vizantiya boshqaruvi ostida bo‘ldi. 614-629-yillarda Quddusni forslar egalladi.

638-yilda shaharga xalifa Umar ibn al-Xattob qo‘shinlari kiradi. Falastinda besh yarim asrlik musulmonlar hukmronligi boshlandi.

Salibchilarning hujumi ostida shahar 1099-yilda taslim bo‘ldi. Quddusning salibchilar tomonidan okkupatsiyasi 88 yil davom etdi. Uni 1187-yilda Salohiddin ozod qilgan.

1229-yilda Fridrix II Gogenshtaufen Quddusga qisqa muddatga keldi.

1517-yildan boshlab 400 yil davomida Falastin Usmoniylar imperiyasi tarkibida bo‘ldi.

1917-yilda Quddusni inglizlar bosib oldi va 1947-yilgacha, BMT ushbu hududni arablar va yahudiylar o‘rtasida taqsimlashga qaror qilgunga qadar o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Quddus alohida xalqaro maqomga ega bo‘lishi kerak edi.

1948-yildan boshlab Quddus – G‘arbiy Quddus *(Isroil)* va Sharqiy Quddus *(Iordaniya)* qismlarga bo‘lindi.

1967-yilda Isroil butun Quddusni va Iordan daryosining G‘arbiy qirg‘og‘ini okkupatsiya qildi.

1988-yilda Jazoirda poytaxti Quddus bo‘lgan Falastin e’lon qilindi.

1994-yilda G‘arbiy Sohil va G‘azo sektorida, poytaxti Quddus bo‘lgan Falastin milliy avtonomiyasi tashkil etildi. Quddus okkupatsiya ostida bo‘lganligi sababli Falastin ma’muriyati dastlab G‘azoda, keyin esa Ramallohda joylashtirildi.

Falastin 2012-yilda BMTda kuzatuvchi mamlakat maqomini oldi.

Falastinliklarni quvg‘in qilish 1948-yildan boshlangan, unda 750 mingga yaqin kishi uy-joylari va yerlaridan ayrilgan. Yana 330 mingga yaqini 1967-yilda quvg‘in qilindi. Falastinlik qochqinlarning umumiy soni bugungi kunda 4,5 milliondan ortiq kishini tashkil etadi.

2002-yilda Isroil Ramallohdan, 2005-yilda esa G‘azo sektoridan o‘zining aholi punktlarini olib chiqib ketdi.

2000-yildan beri Isroil hukumati Quddusni falastinsizlashtirish siyosatini olib bormoqda va Iordan daryosining G‘arbiy qirg‘og‘ida aholi punktlarini faol ravishda qurmoqda.

Isroilning poytaxti rasman Tel-Aviv. Ammo Isroil dunyo uning poytaxti Quddus deb tan olishini va barcha davlat muassasalarini u yerga ko‘chirishni talab qilmoqda. Dunyo esa buni tan olmayapti.

Dunyo Sharqiy Quddus Falastinning poytaxti deb hisoblaydi. Ammo u yerda hech qanday Falastin idoralari mavjud emas.

Isroil G‘arbiy Quddusni falastinliklardan astoydil tozaladi va endi Sharqiy Quddusni ulardan tozalamoqda.

Quddusda Falastin bayrog‘ini hech qaerda ko‘rmaysiz – u taqiqlangan. Isroilning falastinliklardan tortib olgan har qanday uyi Isroil bayroqlari bilan bezatilgan.

Muqaddas zaminda qadimgi yahudiylarning hech qanday arxeologik izlari yo‘q. Topishga muvaffaq bo‘lgan eng qadimgi ma’lumot shoh Irod davriga tegishli.

Quddus va atrofdagi boshqa eski shaharlarning qiyofasi asosan musulmonlar tomonidan yaratilgan. Nasroniylar hukmronligi belgilari, nasroniy ibodatxonalari va salibchilar davrida qurilgan qal'alar bilan ko'zga tashlanadi. Qolgan hammasi Islom madaniyati durdonalaridir. Masalan, Quddus devorlari, uning qadimiy mahallalari Salohiddin va Sulaymon Qonuniy sa'y-harakatlari bilan barpo etilgan. Bu devorlar ortidagi uylarda 1967-yilda o'z huquqlari va fuqaroligini yo'qotgan bo'lsa-da, falastinlik oilalar asrlar davomida yashab kelmoqda.

Quddus yer yuzidagi eng muqaddas shahar va eng paradoksal mamlakatning shafqatsiz haqiqatini namoyon qilayotgan maskan bo'lib, bu joylarga ko'chib kelgan migrantlar – go'yo ushbu mamlakat ularga tegishli bo'lgani uchun, asrlar davomida shu yerlarda yashab kelayotgan odamlarni surgun qilish lozimligiga, so'nggi 70 yil davomida o'zlarini va dunyoni ishontirishga harakat qilmoqdalar.

O'g'rilar tortib olishga muvaffaq bo'lgan har bir qarich yerning nomini o'zgartiradilar. Shunday qilib, ular falastinliklar haqidagi xotiralarni ham o'chirmoqdalar.

Bularning barchasini chet elliklar tushunishi qiyin: falastinliklarning Falastinga bo'lgan qat'iyati, ularning Al-Aqso va Al-Qudsga sadoqati, kuchlilar haqiqatiga qarshi turishi, bolalar va ayollar ustidan o'tishga tayyor bo'lgan shafqatsiz mashina oldida ularning chorasiz qarshiligidir. Agar ular qarshilik ko'rsatishga jur'at etsa, bu mashina ularni ayamaydi.

Falastinliklar chidashyapti, lekin chekinishmayapti. Ular kuch to'plab, norozilik namoyishiga chiqishmoqda.

Ularning barcha oyoqqa turishlari sezilarli natijalarni berdi, garchi ko'plab zamondoshlar bunday faoliyatni umrni behuda sarflash, o'zlaridan bir necha barobar ustun bo'lgan kuchga bema'ni qarshilik ko'rsatish deb hisoblashsa-da.

Filister[50] doimo farovonlikni yoqlaydigan ko‘plab dalillarni tayyorlab qo‘yadi: nega endi falastinliklar okkupatsiya ostida bo‘lsa-da, ma’lum darajada qulaylikda yashamasliklari kerak? Nima uchun yoshlik va hayotni boy berib, qandaydir mavhum erkinlikka jon-jahdi bilan va mantiqsiz intilishlari lozim?

Ko‘pchilik shunday fikr yuritadi. Ammo falastinliklar orasida kollaboratsionistlar mashhur emas.

1987-yilda boshlangan birinchi intifadadan so‘ng Falastin muxtoriyati tashkil topdi.

2000-yilgi ikkinchi intifadadan so‘ng Isroil aholi punktlarini G‘azo sektoridan olib chiqdi.

2015-yilning yozida Falastin butunlay yolg‘izlikda uchinchi intifadani boshladi.

2017-yilning yozida Quddus falastinliklari Al-Aqso himoyasiga turib berishdi.

Intifada – umidsizlikka qarshi dori, 2015-yil

Ba’zilar buni terakt va qirg‘in desa, boshqalar qo‘zg‘olon va uchinchi intifada deb atashadi. Unisi ham, bunisi ham – mubolag‘a. Axir AQSH balansida turgan Isroilning armiyasi, tanklari, samolyotlari, dronlari, blokpostlari, safarbar qilingan va qurollangan aholisini – iroda va muqovamatdan boshqa hech narsasi bo‘lmagan falastinliklar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Qo‘llarini ko‘tarib turgan qiz va besh yoshli bola haqiqiy terrorchi ekaniga, Isroil dunyoni ishontirishga harakat qilmoqda.

Isroil nuqtai nazari bo‘yicha, arablar bu hududlardan daf bo‘lishi kerak. Armiyaga ham, qo‘lbola raketalardan tashqari qurol-yaroqqa ham, moddiy va siyosiy qo‘llab-quvvatlovga ham ega bo‘lmagan falastinliklar o‘zlarida mavjud bo‘lgan usullar – bo‘ysunmaslik, Al-Aqso masjidi atrofidagi jonli zanjirlar, toshlar bilan qarshilik ko‘rsatmoqda.

[50] Filister – tor dunyoqarashli, kundalik ikr-chikrlarga o‘ralib qolgan odamning salbiy nomlanishi; o‘ziga bino qo‘ygan, ikkiyuzlamachi, munofiqona xatti-harakatlari bilan ajralib turadigan johil oddiy odam.

Isroil nuqtai nazari bo‘yicha har qanday qarshilik ko‘rsatish – terrorizmdir.

Hatto rasmlar ham – terrorizm, rassom esa terrorchidir.

Isroil falastinliklarni hech narsadan hech narsa yo‘q, isyon ko‘tarib qolgan ruhiy kasallar sifatida ko‘rsatishga harakat qilmoqda. Umumiy tendensiya esa shaffof: falastinliklar Al-Aqso masjidini himoya qilmoqda, Isroil esa Quddusni falastinliklardan tozalamoqda, G‘arbiy sohildagi falastinliklarni o‘ldirmoqda va ularga hujum qilmoqda.

Isroil 2006-yildan beri qamalda bo‘lgan G‘azoni yo‘l-yo‘lakay bombardimon qilmoqda.

Bombardimonlarga javoban falastinlik o‘smirlar norozilik namoyishlariga chiqmoqda.

Isroil esa bombalashning yangi seriyalari bilan javob bermoqda.

Aksariyat ommaviy axborot vositalari bu voqealarni Falastinning motivatsiyalanmagan agressiyasi sifatida ta’riflamoqda.

Reportajlarda nomi yo‘q falastinliklar – yoshlar, bolalar, ayollar va erkaklar – go‘yo hech qanday sababsiz Isroilning tinch fuqarolari va chegarachilariga hujum qilayotgani aks ettiriladi.

Isroil shunday davlatki, uning chegarasi istalgan joyda – masjid oldida, ko‘cha o‘rtasida, mahallada yoki bolalar bog‘chasida paydo bo‘lib qolishi mumkin.

Tiriklayin yoqish

Tun qorong‘isida Molotov kokteylidan foydalanib, bir oilaning shunchaki yoqib yuborilishi 2015-yildagi Falastin ko‘tarilishining boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi. Terisining yarmidan ko‘pi kuyib ketgan to‘rt yoshli Ahmad tirik qolgan edi o‘shanda.

Yong‘in chiqarishda gumon qilingan ko‘chkindilarni qo‘yib yuborishdi. Keyinroq neofashistik tashkilotlarga a’zo bo‘lgan ba’zi odamlarni hibsga olib, odatda falastinliklarga qo‘llaniladigan qiynoqlarga duchor qilishdi.

Falastin rahbari Mahmud Abbos vazminlikka chaqirdi, HAMAS matbuot kotibi Hussam Badran “bu jinoyat – okkupatsion askarlar va ko‘chkindilarni hamma joyda qonuniy nishonga aylantirganini”– e’lon qildi.

2015-yil 31-iyul kuni kechqurun 30 yoshli Sa’d o‘g‘illari va 26 yoshli rafiqasi Rixam bilan Nablus yaqinidagi Duma qishlog‘ida bobosi Muhammadnikida mehmon bo‘lishdi. Yarim kechaga yaqin yoshlar to‘rt yashar Ahmadni yotqizish va bir yarim yashar Alini ovqatlantirish uchun uylariga ketishadi.

Ali sutini oxirigacha ichishga ulgurmadi. Bu shisha olovdan omon qoldi. Uni yong‘indan keyin olingan suratlarda ko‘rish mumkin.

Ko‘p o‘tmay, Riham bobosining oldiga qaytib bordi va tungi soat 1:30 da yana uyiga qaytdi, singlisi esa uni kuzatishga chiqdi. Ular uy oldida 20 daqiqacha suhbatlashib turishdi.

Singlisi ketganidan 13 daqiqa o‘tgach, ko‘chkindilar yotoqxonaning derazasini sindirib, yonuvchi aralashma solingan shishalarni uloqtirishadi. Keyinchalik tergov materiallaridan aniqlanishicha, bu fosfor va selitra aralashmasi ekan.

Ahmad bu paytda otasining pinjiga kirib uxlar, Ali esa o‘z karavotida yotardi.

Uyda olov ko‘tarildi.

Sa’d va Rixam bolalarni qutqarishga harakat qilishdi, ularning kiyimlari yonayotgan edi. Sa’d bir zumda mash’alaga aylandi, ammo Ahmadni olovli do‘zaxdan uloqtirishga ulgurdi va o‘zi zo‘rg‘a chiqib oldi. Riham Alining oldiga yugurdi, lekin tutunda hech narsani ko‘rolmay, faqat ko‘rpani olib chiqdi … go‘daksiz.

Sa’d va Riham qattiq kuyishgan, dod-faryod ko‘tarib, yordam so‘rashardi...

Keyinchalik ularning qo‘shnisi Ibrohim qichqiriqni eshitib yugurib kelganini va erda yotgan Sa’d va Rihamning tepasida turgan niqobli ko‘chkindilar ularni kaltaklaganini … aytadi. Keyin yondiruvchi aralashma sepib, yana yoqib yuborishgan.

Qo‘shnisi yordamga intiladi, odamlar yugurib kelishganda, ko‘chkindilar allaqachon g‘oyib bo‘lgan, uy esa olov ichida edi. Olov balandliga 5 metrdan yuqoriga ko‘tarilgan...

Sa’d bilan Rihamni Nablusga, kasalxonaga olib ketishadi. Yo‘lda ketar ekanlar ular faqat farzandlarini so‘rar edi.

Odamlar Alini olib chiqishga harakat qilishdi, ammo buning iloji bo‘lmadi: uydagi barcha jihozlar – televizor, muzlatgich, konditsioner portlardi. Birinchi o‘t o‘chirish mashinasi etib keldi. Keyin ikkinchisi... Ammo bolani qutqarib qolishning iloji yo‘q edi...

O‘t o‘chiruvchilar Alining oldiga etib kelishganda dahshatli manzarani ko‘rishdi – jasadning uchdan bir qismi yonib ketgandi.

Kasalxonada shifokor Ahmadning ahvoli eng og‘iri ekanligini aytdi. Uning terisining 63 foizi kuygan va o‘pkasi tutunga to‘lgan edi. Ota-onalarida esa terining 90% kuyishi qayd etilgan.

Keyinchalik vertolyot: Sa’d va Rihamni “Sorok” kasalxonasiga, Ahmadni esa Tel-Avivdagi Tel-Ashomer kasalxonasiga olib ketdi. Qarindoshlar ularning oldiga qo‘yilmayotgandi: falastinliklar Isroilga o‘tish uchun yozma ruxsatsiz blokpostlardan o‘ta olmaydi.

Sa’d 8-avgustda, to‘yning bir yilligida vafot etdi.

Riham esa 6-sentyabrda o‘z tug‘ilgan kunida vafot etdi.

Dafn marosimida Rihamning o‘quvchisi uyning kuygan devoriga: “Men sizni sevaman, ustozim”, deb yozib qo‘ydi.

Ahmad terini ko‘chirib o‘tkazish operatsiyalarini boshidan o‘tkazdi. Shifokorlar uning kamida sakkiz yil davolanishi kerakligini aytishdi.

Qarindoshlarga uni ko‘rish uchun bir kunga ruxsat berildi, biroq ular blokpostda bir necha soat ushlab turildi.

Jinoyatchilarni qidirishga kelsak, Isroil maxsus xizmatlari yong‘indan yarim soat o‘tgach, uyga etib borgan. Ular uchun Falastin hududiga kirish har doim ochiq.

Bir necha oy o‘tgach, jamoatchilik fikri bosimi ostida ko‘chkindilarga o‘t qo‘yish ayblovi qo‘yildi, bu esa Isroil tarixida kuzatilmagan holat edi.

Maxsus xizmatlar va politsiya barcha dalillarni to‘pladi. 17 nafar ko‘chkindilarga ayblov e’lon qilindi. Lekin shu bilan tergov deyarli tugadi.

Hozirda tergov faqat bir kishini ayblamoqda, 16 kishi aybsiz bo‘lib chiqdi.

Armiya boshqa ishtirokchilarni hibsga ololmasligini aytdi, chunki bu millatchi guruhlarga mahsus odamlari kiritilgan emish, agar ularni hibsga olsa o‘zlarining josuslik tarmog‘ini oshkor qilishi mumkin ekan.

Al-Lot shahrida o‘tkazilgan sudda oila ikki ayblanuvchini ko‘rdi: biri jinoyatda, ikkinchisi ishtirokchilikda ayblanayotgandi. Ular *(va keng ko‘lamli qo‘llab-quvvatlash guruhi)* jabrlanuvchilar ustidan kulishardi va uyalmasdan falastinliklarni haqorat qilishardi. Sudya esa, Davabshelar oilasi sudlanuvchilar va ularning advokatlarini fashistlar va terrorchilar deb atashda davom etsalar, falastinliklar ustidan kulib, haqorat qilayotganlarni emas, Davabshelar oilasini sud zalidan chiqarib yuborish bilan tahdid qiladi.

Ko‘chkindilar bu paytda sud binosi oldida: “Biz uch kishini o‘ldirdik, qolganlarini ham so‘yib tashlaymiz”, deb qichqirishardi. Ular Muhammad payg‘ambarni haqorat qilardilar, kulardilar, falastinliklarga bu yerda *(Isroilda)* hech kim ularni himoya qilmasligini tushuntirardilar. Qonundan himoya kutmaslikni ham.

2016-yil mart oyida ko‘chkindilar yagona guvoh – Ibrohimning uyini yoqib yuborishadi, uning qo‘shnilari o‘zini va xotinini yong‘indan arang qutqarib qolishadi. Endilikda qishloq aholisi ketma-ketlik bilan tunda navbatchilik qilmoqda, barcha xonadonlarning deraza va eshiklariga panjaralar o‘rnatilgan.

Ko‘chkindilar qishloqni bo‘shatishni allaqachan maqsad qilib qo‘yishgan. Mazkur qishloq Iordan vodiysida, Isroil himoya chegaralarining birinchi chizig‘i deb hisoblanadigan G‘arbiy sohil hududida joylashgan. Bu chiziq butun G‘arbiy sohil hududining uchdan bir qismini tashkil qiladi, aslida esa Isroil tomonidan o‘g‘irlangan desa ham bo‘ladi. Yahudiylar uni falastinliklardan tozalab, u yerda asosiy eksport mahsuloti – xurmo hosilini yetishtirishmoqda, bu shunchalik muhim mahsulotki, uni hatto neftga tenglashtirishadi.

Do‘konlardan Isroil xurmosini sotib olayotganingizda, bu xurmoning narxi – yoqib yuborilgan Sa’d va Riham hamda chaqaloq Ali ekanligini unutmang.

Isroil faollari o‘z fuqarolarini katta miqdordagi mablag‘ ehson qilishga chaqirib, butun dunyoga Isroilda nasistlar soni juda kam va ularning bu yerdagi ulushi arzimas ekanini, aksincha, ko‘pchilik isroilliklar ekanligini ko‘rsatish maqsadida kameralar oldida bu mablag‘ni oilaga topshirishni rejalashtirdi.

Ular 150 ming dollardan ortiq pul to‘pladilar. Oilaga esa Ahmadning bobosini qishloqdan shifoxonaga o‘z mashinalarida har kuni olib borib turishni taklif etishdi. Ammo Ahmadning bobosi bu yordamni qabul qilishdan bosh tortdi. Shundan keyin unga va kichkintoy Ahmadning amakisi da’vogar Nosir Muhammad Hasanga bosimning yangi bosqichi boshlashdi.

Nosirning ishonchi komilki, Isroil nima qilib bo‘lsa-da, oilaga tovon pulini majburlab oldirish niyatida, bu esa ishni yopish va dunyo afkor ommasiga tovon pulini olganlarga birdamlik ko‘rsatishning hojati yo‘q degan manzarani hosil qilishga yordam beradi.

“Ular bu vaziyatdan chiqish uchun milliardlab pul to‘lashga tayyor. Agar lozim topsak, o‘zimiz jinoyatchilarni sudga beramiz va kompensatsiya olamiz. Ularning qonuniga ko‘ra, da’vo kiritishimiz uchun bizda yana 23 yil vaqt bor”, – deydi Nosir.

“Biz falastinliklarmiz. Bizda faqat bitta yo‘l bor – ozodlik va mustaqillik. Va biz tez orada qorong‘ilik tarqalishini his qilyapmiz. Biz kaft mixdan kuchliligiga, qosh qilichni enga olishiga ishonamiz. G‘alabamiz esa sabr-toqatimizga bog‘liq. Bizni butun dunyodagi odamlar qo‘llab-quvvatlamoqda”, – deydi Nosir Hasan.

Oilaning qo‘llab-quvvatlovi bor. Oradan bir yil o‘tgach, ular Makkani ziyorat qilishdi. 2016-yil yanvar oyida esa jahon futboli yulduzi Krishtianu Ronaldu va Madridning “Real” jamoasi Ahmadni Ispaniyaga taklif qilib, u bilan uchrashdi.

Isroilda ko‘chkindilarning agressivligini ko‘pincha qandaydir ultra fundamentalistlarning nazoratsiz energiyasi sifatida namoyon qilishadi. Aslida esa ular aktivligining katta qismi armiya va maxsus xizmatlar himoyasi ostida kechadi. Shuning

uchun ham ularning qiliqlari aksariyat hollarda hatto ramziy qo‘lga olish bilan ham tugamaydi. Shu bilan birga, ko‘chkindilar falastinlik bolalar va ayollarni kaltaklashi, o‘g‘irlashi, o‘ldirishi, bog‘lari va mol-mulkni yoqib yuborishi mumkin. Armiya esa bu harakatlardan Falastin yerlarini tortib olish va chegaralarni siljitish uchun muvaffaqiyatli foydalanmoqda.

Falastinliklarda armiya ham, o‘zini himoya qilish kuchlari ham yo‘q, G‘arbiy sohilda Isroil armiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan reydlarda Falastin politsiyasi ular bilan hech qachon to‘qnashuvga bormaydi.

Kfar-Duma qishlog‘ida ko‘chkindilar ilgari ham zaytun daraxtlarini qo‘porib tashlar, mashinalarga o‘t qo‘yishar, toshbo‘ron qilishardi. Ammo ahvol odamlarni tiriklayin yoqib yuborishgacha borib etmagandi.

Isroil matbuoti, albatta, ko‘chkindilar tomonida. Bundan tashqari, telbavor shiorlari va hammani yoqib yuborish haqidagi va’dalari bilan sud oldida navbatchilik qilgan qo‘llab-quvvatlash guruhlari ommaviy axborot vositalarida kun qahramonlari sifatida taqdim etildi.

Sud jarayonida Isroil OAV lari Davabshe oilasining terrorizmdan jabr ko‘rganligi rad etilganini va tovon puli berilmasligini da’vo qilishdi. Chunki yahudiy terrori degan tushuncha mohiyatan mavjud emas. Shu bilan birga tergov qonunchiligi buzilib, qo‘lga olingan ko‘chkindilar qiynoqqa solinganini, aslida jinoyat sodir qilmagan[51] insonlar hibsga olingani iddao qilindi.

Ahvol shu darajaga borib etdiki, matbuot falastinliklar o‘zlariga o‘zlari o‘t qo‘yib yuborganliklari va umuman, ular bir-birlariga qabilaviy va qo‘shnichilik adovati tufayli tinimsiz o‘t qo‘yishlari haqida yoza boshladi.

Falastinliklarga tegishli hamma narsani tushuntirishda klanlar o‘rtasidagi urush haqidagi cho‘pchakni Isroilda chet ellik mehmonlarga gapirishni yaxshi ko‘rishadi.

[51] 2020-yilda ko‘chkindilardan biri ushbu ish bo‘yicha to‘rtta umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan. Uning shikoyatlari rad etildi.

Ular yovvoyi xalq, bir-birlari bilan kelisha olmaydilar, Isroil ular bilan qanday kelisha olardi...

Nosir Hasanning fikricha, o‘t qo‘yish bilan bog‘liq barcha ishni “Shabak” maxsus xizmati mohirona tashkil etgan va boshqargan bo‘lishi ehtimoli yuqori, chunki ko‘chkindilar qanchalik nosog‘lom bo‘lmasin, ular tunda ishonchli himoyasiz Falastin qishlog‘iga borishga jur’at eta olmagan bo‘lardi.

Isroil Obama ma’muriyati tomonidan jiddiy bosimga duch kelmoqda, u doimiy ravishda Isroil aholi punktlarini kengaytirish faoliyatini to‘xtatishni talab qilmoqda. Isroil AQSHning harbiy subsidiyalariga juda bog‘liq bo‘lganligi sababli Tel-Aviv Oq uyning qat’iyatini e’tiborsiz qoldira olmaydi.

Armiya va dunyoviy amaldorlar buyruq bo‘yicha bir ovozdan fashistlar va terrorchilarga la’nat yog‘dira boshlaganida qishloq aholisi hayratdan yoqa ushladilar.

Umuman olganda, adolat tuyg‘usi uzoqqa cho‘zilmadi.

Odil sudlov bo‘layotganini simulyatsiya qilish biron bir natija bermadi. Ayblanuvchilar ozod qilindi. Ish esa mohiyatan to‘xtatilgan. Guvoh Ibrohimning uyini yoqib yuborish fakti bo‘yicha boshlangan tergov darhol tugatildi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2015-yilda isroillik ko‘chkindilarning falastinliklarga 120 ta hujumi qayd etilgan.

Falastinliklarning ushbu hujumlar yuzasidan Isroil politsiyasiga bergan shikoyatlarining 92,6 foizi javobsiz qoldirilgan.

Al-Aqso olov ichida

Namoyishlar, tosh otishlar va umumiy eskalatsiya darhol boshlandi.

Isroil armiyasi (falastinliklarda armiya yo‘q – G‘arbiy sohilda ham, G‘azoda ham) nafaqat ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz bilan javob berdi, balki falastinliklar uchun eng ta’sirli joyga – Al-Aqsoga zarba berishdi.

Sentyabr oyida Isroil armiyasi falastinliklarni masjidga kirishini to‘sib qo‘ydi va uni o‘qqa tutdi. O‘qqa tutilgandan keyin masjidda yong‘in chiqdi. Natijada armiya 50

yoshgacha bo‘lgan falastinlik ayol va erkaklarga masjid hududiga kirishni taqiqlab qo‘yishdi.

Nega ko‘chkindilar va armiyaga emas, falastinliklarga kirish taqiqlangan? Ritorik savol.

2014-yildan beri isroillik ko‘chkindilar masjid majmualariga maqsadli ravishda ramziy tashriflar amalga oshirmoqdalar.

Ushbu tashriflar jadalligi ortib bormoqda. Tashrifni amalga oshirayotgan ko‘chkindilar bir necha kishidan bir necha o‘n kishigacha bo‘lishi mumkin. Ba’zan ularga qandaydir vazir yoki ravvin boshchilik qiladi. Oyoq kiyimlarini echib, Qubbatul Qoya masjidini aylanib chiqadilar. Ba’zida ular masjid ichiga kirishga harakat qilishadi, yarim asr oldin isroillik repatriant masjidni yoqib yuborishga uringanidan keyin yahudiylarning masjidga kirishi taqiqlangan.

Falastinning Al-Aqso hududida milisiyasi ham qo‘riqchilari ham yo‘q. Butun hudud Isroil harbiylari tomonidan qo‘riqlanadi.

Agar falastinliklar uchun ma’lum bir kunda majmuaga kirish taqiqlangan bo‘lsa *(taqiq hech qanday tushuntirishsiz e’lon qilinishi mumkin)*, ko‘chkindilar uchun esa kirish eshigi ochiq va ular bu yerga marosim rituallari uchun o‘zlari bilan sharob olib kelishi ham mumkin.

Bu safar ko‘chkindilarning faolligi 2015-yil 23-sentyabrdagi Yom-kipur diniy bayramiga to‘g‘ri keldi.

Butun maydon olib qo‘yilishi, masjidlar buzib tashlanishi va bo‘shagan maydonda yangi yahudiy ibodatxonasi qurilishi kerak, deb hisoblaydigan radikal fundamentalistlar guruhlari mavjud. Masjidga yahudiylar doimiy kirishlari uchun uni ikkiga bo‘lishni targ‘ib qilayotgan guruhlar ham bor.

Isroil rasmiylari Al-Aqso atrofidagi status-kvoni saqlab qolish tarafdori ekanini ta’kidlashadi.

Falastinliklar ko‘chkindilarning bunday aksiyalarga bo‘lgan huquqini rad etib, buni Xevron *(Al-Xalil)* da bo‘lgani kabi masjidlarni bo‘lib tashlashga tayyorgarlik deb

hisoblamoqda. Falastinliklarning fikricha: masjidning bo‘linishi, falastinliklar uchun, jumladan, Ramazon oyida o‘tish taqiqlarining kuchayishi, Al-Aqsodagi ko‘p kunlik harbiy amaliyotlar, otishmalar va masjidlarga o‘t qo‘yish – bularning barchasi falastinliklarni Quddusdan siqib chiqarish va masjid al-Haromni qo‘shib olishga qaratilgan davlat strategiyasining bosqichlaridan biridir.

Falastinliklarda Al-Aqsoni himoya qilish uchun juda kam imkoniyat qolgan.

Armiya Al-Aqso masjidini blokada qilayotganda ichkarida qolgan odamlar hujumni toshlar bilan to‘xtatishga harakat qilishdi. Ularda boshqa hech narsa yo‘q.

Masjidga 50 yoshga to‘lmagan ayollar va erkaklarning kirishi taqiqlanganda, oilalar ko‘chaga chiqib, Al-Aqso devorlarining perimetri bo‘ylab imkonli bo‘lgan joylarda tirik zanjir vujudga keltirishdi, chunki ba’zi tumanlar armiya tomonidan blokirovka qilingan.

Al-Aqsoga kira olmaydigan boshqa odamlar esa ajratuvchi devor yonida norozilik bildirishdi.

Isroilda yashovchi falastinliklar 2015-yilning kuzida Isroilda taqiqlangan bayroq ostida 10 ming kishilik namoyishga chiqishdi.

Qo‘zg‘olon?

Media nuqtai nazaridan o‘smirlarning qurollangan harbiylarga tosh otishi mavzusi allaqachon o‘z kunini yashab bo‘lgan ko‘rinadi. Tankka qarshi tosh otgan bola siymosi, devsifat Goliafga qarshi chiqqan cho‘pon Dovud haqidagi Injil syujeti bilan juda aniq bog‘lanadi.

Shuni aytish kerakki, Isroilning o‘zida, uning xorijdagi faol tarafdorlaridan farqli o‘laroq, har qanday eskalatsiya sarosima va qo‘rquvni keltirib chiqaradi. Sodir bo‘layotgan voqealarda jumboqlar juda ko‘p.

Sobiq harbiy xizmatchilar, ravvin Eytam Xenkin va uning rafiqasi Naoma G‘arbiy sohil orqali o‘tib, Neriya qishlog‘iga ketayotganlarida 1 oktyabr kuni o‘ldiriladi. Hujum uyushtirganlar, ularning to‘rt farzandiga tegmagan.

Bu qotillikka javoban Eski shahar va Al-Aqsoga falastinliklarning kirishi taqiqlandi, voqea joyida hibsga olish va tartibsiz jazolashlar to‘lqini boshlanib ketdi.

Bu voqeadan keyin pichoq bilan ommaviy hujum qilish holatlari ko‘paydi.

Falastinliklarning fikricha, aksariyat hollarda Isroil tomoni bu hujumlar haqida yolg‘on gapirmoqda. Aksariyat muxbirlar odamni o‘ldirib, jasadning qo‘liga pichoq tutqazish sahnalarini mediya mavzusiga aylantiradilar. Qiynoqlar va qamoqxona azoblarini boshdan kechirgan ba’zi falastinlik o‘smirlar esa kameralar oldida pichoq ko‘tarib yugurib, maxfiy xizmatlar bilan hamkorlik qilishga majbur bo‘layotgani ham sir emas.

Shu bilan birga falastinliklar o‘zlarini boshi berk ko‘chaga kirib qogan deb hisoblaydi – ularda himoyalanish uchun boshqa vosita qolmagan.

Ammo pichoqlar intifadasi mavzusida ko‘p narsa tushunarsiz bo‘lib qolmoqda. Avvalo, nima uchun bolalar va qizlar pichoq bilan qurollangan? Nima uchun ravvinlar hujum ob’ekti bo‘lmoqda?

Falastinliklarni jazolash bilan bog‘liq dahshatli holatlari ham bor.

13 yoshli Ahmad Mansara mashina bilan urib ketilgan, uning 14 yoshli akasi Muhammad o‘ldirilgan.

Avtovokzalda 18 yoshli Xodil al-Gashlyamunga bir guruh harbiylar hujum qilgan. U pichoq bilan turibdi, lekin hech kimga hujum qilmagan. Nima uchun unga qarata o‘t ochilgani noma’lum.

Isroilda sudsiz jazolash aktlari boshlanib ketdi.

Boshqa sirli syujetlar ham bor. Masalan, videoda bir kishi Isroil harbiylari orasida o‘tirib, keyin ularga hujum qilgani aks etgan. Bu voqea Falastin terrori sifatida ham ko‘rsatilmoqda.

Armiya o‘smirlar va bolalarni ovlashning yangi bir turini kashf etdi.

Isroil harbiylari gospitallarga bostirib kirmoqda. Xevrondagi Falastin shifoxonasiga bir guruh askarlar Falastin kiyimini kiyib kelishdi. Askarlardan biri hatto

homilador falastinlik ayol kabi yasanib olgan. Ular gospitalda otishma uyushtirib, bir bemorni o‘ldirgan, ikkinchisini yarador qilgan.

Boshqa shifoxonalarga askarlar bostirib kirib, bemorlarning kasallik tarixini talab qilishadi. Agar namoyishlarni tarqatish paytida yarador bo‘lgan falastinlik davolanayotgan bo‘lsa, uni hibsga olishadi.

Falastinliklar kiyimini kiyish amaliyoti, hayotga to‘liq kirib keldi: kundalik ust-boshdagi, arafatka kiygan maxsus xizmat xodimlari o‘smirlar guruhlari bilan aralashib, Isroil armiyasiga tosh otgan, bu esa xavfsizlik kuchlarining javob reaksiyasiga sabab bo‘lgan, so‘ngra falastinliklarni tanlab ushlab, kaltaklab, hibsga olish holatlari qayd etilgan.

Qonunsizlik to‘ri

Isroil hukumati qulay fursatdan foydalanib, pichoqbozlikda ayblanganlar uyini zudlik bilan buzishga kirishdi. Boshqacha aytganda, Isroil pichoqlar intifadasidan o‘zining asosiy vazifasi – Falastinni falastinsizlashtirish maqsadida foydalanmoqda.

Bosh vazir Netanyaxu to‘rtlik *(AQSH, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va BMT)* ni Tel-Avivga rejalashtirilgan navbatdagi tashrifini noma’lum muddatga kechiktirishga ko‘ndirdi. Tashrif 2015-yil 13-oktyabrga belgilangan edi. Bahona juda ishonarli – xavfsizlikka tahdid. Ushbu to‘rtlik ortiqcha afsuslanmay, tashrifni bekor qildi.

Siyosiy kelishuv jarayonining foydali bo‘lganligi haqidagi gap so‘lar allaqachon hammani zeriktirib qo‘ygan. Har qanday darajadagi arbobning bayonoti faqat so‘zlar; ramzlar esa shunchaki ramzlar bo‘lib qolaveradi.

Musulmon arboblari Falastin mavzusida sukut saqlashni afzal ko‘rishadi. Qolaversa, yahudiylar Aqsoda ibodat qilishga haqli, deganlari ham topildi.

2015-yil sentyabr oyida BMT binosida Falastin bayrog‘i ko‘tarildi. Mahmud Abbos Bosh Assambleyada Isroil Falastin yerlarida o‘z aholi punktlarini qurishni to‘xtatmaguncha va mahbuslarni ozod qilmaguncha, Oslo kelishuvlariga ortiq rioya qilmasligini aytdi.

Shunga qaramay, Isroil aholi punktlarini qurish va falastinliklarning uylarini buzishda davom etmoqda, qamoqxonalar esa yangi mahbuslar bilan to‘ldirilmoqda.

Ammo Isroil o‘z harakatlarining samaradorligini saqlab qolayotgan bo‘lsa-da, peshqadam axborot nashrlarining birinchi qatorlardan g‘oyib bo‘layotgani ham ko‘zga tashlanadi – dunyo Suriya bilan band[52]. Bundan tashqari, Isroilning bu mavzudagi fikri bilan hech kim qiziqmaydi, garchi vaqti-vaqti bilan uning armiyasi ma’lum nishonlar va odamlarga zarbalar berib tursa-da, Netanyaxu esa eskicha tarzda dunyoni Eron tahdidi bilan qo‘rqitishda davom etmoqda.

Butun dunyo Isroildan charchadi, shunday bo‘lsa-da, u dunyoga haqiqiy terrorchilar tosh va pichoq ko‘targan falastinlik bolalar ekanini aytib, o‘zining foydaliligini eslatishga behuda urinmoqda.

Nakba shu yerdan boshlandi

Falastinning eng mashhur Deyr-Yasin qishlog‘i yaqinidan har bir sayyoh va ziyoratchi o‘tadi. U Tel-Aviv aeroportidan Quddusga borish yo‘lda joylashgan. Lekin gidlar qishloq haqida gapirishmaydi.

Deyr-Yasin qishlog‘ining shon-shuhrati fojialidir.

1948-yilning 9-aprel kuni bu yerda 254 nafar inson o‘ldirilgan. Bu qishloq endi hayotda ham, xaritada ham yo‘q.

Bu yerda Isroilning yuzlab aholi punktlaridan biri joylashgan. 2006-yildagi Livan urushi paytida men, Iordaniyaga ko‘p marta kelgan va nazorat-o‘tkazish punkti orqali Isroilga o‘tishga uringan Kanada fuqarosi, keksa falastinlik bilan Bayrutda tanishdim. Uning ota-onasi Deyr-Yasindan. U o‘zining qadrdon joylarini ko‘rish uchun kelgandi, nazarida bu joylarni oldin ko‘rmagan bo‘lsa-da tanib olardi. O‘sha paytda u buni uddalay olmadi.

[52] 2015-yilda shunday bo‘lgan edi. Keyin dunyo ISHID bilan ovora bo‘ldi. So‘ng Ukraina masalasi bilan. Mana endi butun dunyo nihoyat Yaqin Sharq bilan band. Buning ustiga, butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar ilgari hech qachon kuzatilmagan Falastin tomonida turishni namoyon etmoqda.

Uni tinglar ekanman, bu yerda sodir bo‘lgan voqealar tavsifi bitilgan taxtachalar qadalgan nafis xarobalar ko‘z oldimga kelardi. Isroilliklarning o‘z g‘alabalari geografiyasini belgilab qo‘yishga intilishlarini bilganim uchun xuddi shu yerda qandaydir yodgorlik topishim aniq deb o‘ylagandim. Axir aynan shu joyda falastinliklarning uylarini o‘zlari tark etishiga erishib, yangi ko‘chkindilar uchun joy bo‘shatish amaliyotini Isroil muvaffaqiyatli amalga oshirgandi.

Hammasi butunlay boshqacha bo‘lib chiqdi.

Quddusga kiraverishda o‘ng tomondagi tepaliklarda ko‘rimsiz yangi qurilgan ko‘p qavatli uylar jamlangan.

Yangi Isroil geografiyasida bu shunchaki Quddusning Xar-Nof tumani.

2014-yil 18-noyabrdan beri Xar-Nof tumani gidlar qiladigan nutq va tushuntirishning har qanday turi tarkibiga kiritilgan: G‘arb sayyohlari va ziyoratchilariga arab terrorchilari ibodatxonaga hujum qilib, to‘rt nafar ibodat qilayotgan kishini bolta bilan chopib tashlagani, shulardan biri kasalxonada vafot etgani batafsil tasvirlanadi. Shu bilan birga, gidlar bu joyning arabcha nomini tilga olishdan qochishadi.

1948-yil 9-aprelda ushbu qishloq Nakbaning ramziga aylandi. Nakba “falokat” degan ma’noni anglatadi, falastinliklar o‘zlarining majburiy ko‘chirilishini shunday atashadi. Deyr-Yasin qirg‘ini haqidagi xabar 40 kun ichida butun Falastin qishloqlariga etib bordi va ilgari bunday asossiz yovuzliklarni eshitmagan qurolsiz xalq o‘z yerlaridan chiqib, uzoqlashishni boshladi.

“Nakba” tushunchasi 1948-yilda 750 ming falastinliklarning quvilishi haqida kitob yozgan suriyalik tarixchi *(pravoslav)* Konstantin Zureyk tufayli paydo bo‘lgan.

Har yili 15-may kuni butun dunyo bo‘ylab falastinliklar ushbu sanani bir daqiqalik sukut bilan yodga olishadi. Ular tark etgan va hozirda ko‘p qismi vayron qilingan Falastin uylarining kalitlari Nakbaning ramziga aylandi. Kalit – ularning qaytishiga umid ramzi. Faqat ramz, chunki Falastinning 400 dan ortiq qishloqlari butunlay vayron bo‘lgan va endi bu kalitlar bilan ochiladigan eshiklar yo‘q.

“Nakba” so‘zi Isroilda taqiqlangan, u darsliklarda yo‘q, uni ommaviy nutqlarda, eslatmalarda va shiorlarda ishlatish mumkin emas. Falastin maktab darsliklarida Nakba haqida ham, quvg‘in haqida ham, Deyr-Yasin haqida ham hech qanday eslatma yo‘q.

Isroilning qo‘li qaerga etsa, shu yergacha hamma narsani senzura qilishga harakat qiladi. Masalan, maktab darsliklarigacha.

Falastinliklarning qochoqlar xalqiga aylanishi aynan shu qishloqdan boshlangan.

Tarixning paradoksi shundaki, Deyr-Yasin o‘ta tinch anklav bo‘lgan. Deyr-Yasin jamoasi qo‘shni yahudiy aholi punkti bilan sulh tuzgandi, uning aholisi okkupatsiyaga qarshi qo‘zg‘olonda qatnashmagan, yangi kelgan ko‘chkindilardan qo‘rqib qaergadir qochmoqchi emas edi.

Bu orada yahudiy faollarining Menaxem Begin *(1943-yilda Quddusdagi “Shoh Dovud” mehmonxonasida portlash uyushtirgan, “Irgun” otryadlari qo‘mondoni, Isroil Bosh vaziri, 1978-yilgi tinchlik bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori)* boshchiligidagi qurollangan otryadlari bu qishloqni bosib olishga qaror qildi.

Ular qishloqqa kirib, turar-joy binolarini granatalar bilan o‘qqa tutib, odamlarni o‘ldirishdi. 100 dan ortiq kishi qo‘lga olinib, otib tashlandi. Bir kunda 254 kishi, ya’ni aholisining taxminan uchdan bir qismi, asosan ayollar, bolalar va qariyalar o‘ldirilgan.

Qurbonlar dafn etilgan qabriston ham, masjid, maktab, uylar va qishloqning o‘zi ham yer yuzidan supurib tashlandi.

Falastinliklarning ishonchi komilki, qirg‘in – boshqa arablar o‘zlari qochib chiqishi va tozalash ishlari uchun ko‘p chiqim qilmaslik maqsadida puxta o‘ylangan dahshatga solish rejasi edi. Ma’lum ma’noda ularning rejasi amalga oshdi: 750 ming yoki o‘sha paytdagi falastinliklarning taxminan 80 foizi qochqinga aylandi.

Keyinchalik o‘z yerlariga qaytib kelishlariga ular yo‘l qo‘yishmadi. Uylar buzib tashlandi va ularning o‘rniga o‘nlab yillar davomida dindor ko‘chkindilar uchun imtiyozli narxlarda uy-joylar qurildi. Bu yerda ko‘plab sinagogalar, ta’lim muassasalari mavjud. Ko‘chalar sahroiy ko‘rinishda, ko‘chkindilar uchun yangi uylar barpo etishda G‘arbiy sohildan kelgan falastinliklar ishlaydi.

Hozir Deyr-Yasinda avvalgi falastinliklardan birortasi ham yashamaydi. U yerda umuman birorta falastinlik yashamaydi. Tepaliklar yonbag‘rida katta yo‘ldan bir necha eski imoratlarni ko‘rish mumkin, lekin ularning egalari allaqachon o‘zgarib bo‘lgan.

Biz bir yarim soat davomida Deyr-Yasin bo‘ylab yurib, Falastin mavjudligining hech bo‘lmaganda biror bir izini topishga intilamiz. Devor ortidagi daraxtlar orasidagi eng baland tepalikda yangi Isroil uslubidan yaqqol ajralib turadigan bir nechta qadimiy uylarni ko‘rish mumkin. Hech qanday lavha, hech qanday yodgorlik taxtasi yo‘q.

Yonbag‘irdan pastroqda ko‘chib kelganlarning bolalari uchun yangi qurilgan o‘quv muassasalari joylashgan.

Men mashinadan tushib, suratga ola boshlayman. Ruxsatnomam va akkreditatsiyam bor.

Bog‘cha qorovuli bolalarni suratga olayotganimni ko‘rib, yomg‘irda orqamdan yuguradi. Hujjatlarni ko‘rsatishni talab qiladi.

Uning yoshi 37 da, oilali, farzandi yo‘q. To‘pponchasini namoyish qiladi. U ko‘chkindi, dindor, kokilli va kipa bosh kiyimida. Kiyimining ustidan xizmat belgilari tushirilgan oq ko‘ylak kiygan. Bu to‘lachadan kelgan odam, yomg‘ir ostida hatto qimirlamay turibdi. Jurnalistik hujjatlarimni diqqat bilan ko‘zdan kechiradi. U meni hech bo‘lmaganda birorta bo‘lsa-da xonaga olib kirishni istamaydi: “Men buni qila olmayman, lekin biz daraxt soyasida gaplashishimiz mumkin”.

Daraxt yomg‘irdan himoya qilmaydi. Yon daftar ho‘l, kamera esa suvga to‘lib ketayozdi.

Vaqti-vaqti bilan ko‘chkindilar bolalarini maktabdan olib ketish uchun kelishadi. Moshinada kelgan ko‘chkindilar uzoq va no‘noqlik bilan buriladi, toshlarga tegib ketadi, boshqa mashinalarni bir amallab turtmasdan o‘tib oladi. Suhbatdoshimga mashinalarini joylashtirib olishlari uchun yordam berishni taklif qilaman. U malakasiz haydovchilarga ishora qila boshlaydi.

Ishchi, kipa va kombinezon kiyib keladi, u ham ko‘chkindi. Hujjatlarini ko‘rsatadi, qorovul uning maktabga kirishiga ruhsat beradi.

“Yo‘q, u siz bilan gaplasha olmaydi. Va u suratga ham tusholmaydi, chunki u printerlarni ta’mirlashi kerak va uning vaqti cheklangan”, – aftidan, qo‘riqchi jurnalist bilan suhbatlashish imkoniyatini hech kim bilan bo‘lishishni istamaydi.

Menga press-kartani qaytarib beradi. “Siz Rossiyadansiz. Mening katta bobolarim ham o‘sha erdan. Ular Amerikaga ketishgan, men esa shu yerda tug‘ildim”.

O‘zi haqida – o‘qishi, sport bilan shug‘ullanishi to‘g‘risida gapira boshlaydi. Menga noma’lum bo‘lgan meditatsiya texnikasini bilishini namoyish etib, qo‘llari bilan harakatlar bajaradi, bu masalada u yo murabbiy, yoki malakali ishtirokchi ekanini tushunish mumkin. O‘z vaznini va qancha vazn tashlaganini aytadi. U o‘z vaznidan mamnun. Xullas, navqiron yigit. Bajonidil savollarga javob berishga tayyor.

– Siz bu yerga qotillik tufayli keldingizmi?

– Ha. Lekin, nega mening hujjatlarimni tekshiryapsiz?

– Arablarning moshinada yurib, suratga olishi shubhali edi.

Ma’lum bo‘lishicha, u mening fotoapparatimga emas, kelgan mashinamga e’tibor qaratgan. Oyna yomg‘ir bilan yuvilayotgan bo‘lsa-da, haydovchining falastinlik ekanini aniqlagan.

– Men arab emasman.

– Bunisi o‘sha paytda aniq emas edi. Keyin esa kechqurun yutubda qandaydir yolg‘on videoni ko‘rgan bo‘lardik.

– Men eski uylarni suratga olayotgandim.

– Bularning hammasi bu yerda emas, pastdagi sinagogada ro‘y bergan.

– O‘shanda bu yerda sinagoga bormidi?

– Albatta, axir bularning hammasi yaqinda, ikki terrorchi shuncha ko‘p aholini o‘ldirganda sodir bo‘lgan-ku.

– Men 1948-yil haqida so‘ramoqchi edim.

– A-a-a...

Suhbatdoshimning hafsalasi pir bo‘ldi. Lekin qaddini rostlab, uzoqdan boshlaydi.

– Mark Tven – shunday Amerika yozuvchisi bo‘lgan.

– Bilaman. Biz uni maktabda o‘qiganmiz.

– Uning Isroil bo‘ylab sayohati haqidagi yozuvlarini o‘qiganmisiz?

– O‘qiganman, faqat maktabda emas. Menimcha, Mark Tven bu joyni Isroil emas, Muqaddas zamin deb atagan, lekin u ateist bo‘lgan, qisqasi bu yer unga yoqmagan.

Mark Tvenning ocherklarini o‘qiganligim fakti uni xushyor tortirmaydi. Uning nazarida men qandaydir boshqacha o‘qigan va noto‘g‘ri e’tibor bergan ekanman.

– Mark Tvenning aytishicha, bu yerlar bo‘m-bo‘sh cho‘l yerlar edi. Shaharlarda kimlardir yashardi, lekin umuman olganda hamma yoq bo‘m-bo‘sh edi. Arablar bu yerda yashaganmiz, deb yolg‘on gapiradilar. Ular o‘zi umuman juda ko‘p yolg‘on gapirishadi.

– O‘sha paytlarda umuman bu yerlarda odam ancha kam bo‘lgan.

– Mark Tvenning aytishicha, bu yerda hammasi bo‘lib 15 ming kishi yashagan.

– Menimcha, noto‘g‘ri eshitdim shekilli.

– Mark Tven Deyr-Yasin haqida gapirganmi shunda? Eslay olmayman. Aynan mana shu joyda shuncha odam yashaganmi shunda? Ancha kam bo‘lgan, nimalar deyapsiz?

– Yo‘q, umuman hammasi bo‘lib – arablar, yahudiylar, nasroniylar, butun territoriyadagilarning hammasi bo‘lib 15 ming. Ko‘pi bilan 20 ming.

Bu ko‘chkindi bilan bahslashish ahmoqlik. Mark Tven bunday narsa yozmagan.

Yaxshisi, shunchaki eshitish kerak. Mark Tvenni Isroilda tez-tez eslashadi. Shunday taassurot uyg‘onadiki, bu yerda har qanday patriot o‘zining diniy, dunyoviy va kelib chiqish mamlakatiga tuzatishlar kiritgan holda doimiy takrorlaydigan, qandaydir qayta ishlangan matni bor.

U Mark Tvenni yana bir bor o‘z uslubida hikoya qiladi. Aftidan, u bir xil gapni uzoqroq va qayta-qayta gapirsam, ishonarli eshitiladi deb o‘ylaydi shekilli.

Aftidan, bu qo‘lyozmalar falastinliklar bilan g‘oyibona tinimsiz munozaraning o‘tkir burchagiga aylanib qolganga o‘xshaydi. Agar siz XI asr va undan keyin Muqaddas zaminga borgan va uni batafsil tasvirlagan rus ziyoratchilarining yozuvlarini keltira boshlasangiz, isroilliklar bundan g‘azablanishadi va buni antisemitlarning navbatdagi hiyla-nayrangi deb hisoblashadi. Axir barcha pravoslavlar hech bo‘lmaganda qalbida – antisemit. Negadir ularga shunday tuyuladi. Shuning uchun ular qandaydir rohiblar bu yerlarda sayohat qilib, ko‘plab samimiy arablarni ko‘rgani haqidagi cho‘pchaklarni to‘qib chiqarishgan deb o‘ylashadi.

Yomg‘irda turibman, lekin gapini bo‘lmayman.

Suhbatdoshim to‘satdan Irod davriga sakrab o‘tadi.

“Biz bu yerda yahudiylar yashagani va ular qanday yashagani haqida ko‘plab dalillar, arxeologik ma’lumotlarni topdik. Ko‘p tangalar topildi”.

Chet elliklar uchun yaratilgan hikoya shablonida, agar tafsilotlarni bilmasangiz va masalaga qiziqmasangiz, shu joyda alamli bir bo‘shliq bor. Garchi isroillik arxeologlar ularni tinimsiz izlayotgan bo‘lsa-da, Iroddan oldingi yahudiylarning bu yerda yashaganligi haqida tan olingan arxeologik izlar yo‘q. Ba’zan yahudiycha ism yozilgan idish topiladi, lekin tez orada bu qalbaki ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Suhbatdoshim sionizm asoschisi Gerslni biroz eslaydi, keyin qirg‘inlar mavzusiga o‘tadi.

U arablarning yuz yil oldin Falastinga ko‘chib kelayotgan yevropalik yahudiylar sonining ortib borishiga qarshi tabiiy noroziligini nazarda tutmoqda. Yevropalik ko‘chkindi yahudiylar arablar o‘rganib qolgan oz sonli tinch va uzoq yillar qo‘shni bo‘lib yashagan yahudiylardan butunlay farq qilardi. Bu g‘alati kelgindilar yahudiy natsional sosializmini qurish uchun bo‘m-bo‘sh yerga kelganliklariga ishonishardi.

O‘z ideallari uchun ular yer va uylarni sotib olishar, misli ko‘rilmagan yangi tartiblarni joriy etishar va falastinliklarning hech biri tasavvuriga ham sig‘dira olmaydigan masshtabdagi fitna tahdidni olib kelayotgan edi. Olti yil davomida butun

dunyo *(arablar ishtirok etmagan)* jahon urushiga g‘arq bo‘ldi, ularning barcha hududlari mustaqil davlatlar emas, balki G‘arb mustamlakalari edi.

O‘sha urush natijasida g‘oliblar yangi chegaralarni chizib oldilar. Muqaddas zaminning taqdiri ham g‘oliblar tomonidan hal qilindi, ular bu yerda Yevropa yahudiylari uchun Injildan olingan Isroil nomi bilan yangi davlat tashkil etishni rejalashtirdilar.

– Keling, 1948-yilga o‘taylik.

U xolokostdan uch yil o‘tar-o‘tmas “barcha arab mamlakatlari yosh Isroilni yo‘q qilmoqchi bo‘lgani” haqidagi hikoyani boshlaydi, Isroil armiyasining jasoratini tasvirlashga kirishadi, ular uch kun ichida butun Sinayni egallashga muvaffaq bo‘lganini, Go‘yoki Qohirani olishiga ozgina qolganini aytadi.

So‘z oqimi tugamaydi. Aslida har qanday propagandist shunday yo‘l tutadi. Boshqa joylarda bo‘lgani kabi Isroilda ham, aqli xiralikning bunday shakli tarixning tom ma’noda buzib ko‘rsatilishiga olib keladi.

– Xo‘sh, 1948-yilda bu yerda nima bo‘lgan edi?

– Aynan mana shu qishloqdami? Hammasi juda oddiy, – deb xo‘rsinadi suhbatdoshim. – Bu yerda juda yaxshi qurollangan arablar yashagan. Ularning otryadlari Quddus yahudiylariga tinimsiz hujum qilardi. Bu qishloqdagi va qo‘shni qishloqdagilariga ham. Shunday qilib, ajoyib kunlarning birida Isroilning ikkita otryadi ularga javob qaytarib, masalani hal qilishni rejalashtiradi. Ular qishloqqa yaqinlashib, uni o‘qqa tutishadi. Arablar bu yerda 500 ta ayol va bolalar o‘ldirilganini da’vo qilishadi, ammo yahudiylar rahmdil odamlar, ular arablar kabi shunchaki g‘azabdan odam o‘ldirishmaydi, ular kelib, sinagogada erkaklarni o‘ldirishgani kabi.

– Deyr-Yasinda 254 kishi o‘ldirilgan.

– Nari borsa 50 ta. Ular yolg‘on gapirishadi. Bu kichkina qishloqda shuncha odam bo‘lishi mumkinmi?

Suhbatdoshim uchun o‘ldirilgan 500 va 50 ta falastinlik o‘rtasida farq yo‘q.

Kichkina qishloq o‘rnida ko‘p ming kishilik aholi punkti qad ko‘tarilgan. Uning maydoni anchagina keng, buning ustiga Falastin qishlog‘ining o‘zi ham kichkina emas, buning ustiga yana uning erkaklari Quddusdagi osoyishtalikni buzishga qodir bo‘lgan shiddatli bo‘lsa.

– Tushuning axir, urush paytida odamlar halok bo‘ladi. Ular tinch aholi ortiga yashirinadi. Qishloqqa zarba berildi va masala hal qilindi. Hech kim ayollar va bolalarni o‘ldirishni xohlamagan, ular shunchaki o‘z erkaklarining harakatlariga javob qaytarilishi mumkinligini tushunishmayotgandi. Arablarning ko‘pchiligi shunchaki qochib ketishgan, o‘ldirilmagan.

U yana g‘olibona Isroil armiyasi mavzusiga o‘tadi.

– Arablarning uylari qaerda?

– Ular yo‘q. Hammasi keyin qurilgan. Ular uylarini tashlab qochib ketishdi.

Falastinliklarning uylari bor: ularga yaqinlashish mumkin emas, chunki ular panjaralar bilan o‘ralgan. Endi bu yerda ruhiy kasalliklar shifoxonasi qurilgan. Yana bir nechta uzoqdagi uylarni trassadan turib ko‘rish mumkin. Qo‘shni qishloqlardan ham bir nechta uylar qolgan, asosan, ko‘chkindilar hali o‘z kvartallarini qurmagan yonbag‘irlarda.

Deyr-Yasinda birorta ham falastinlik yo‘q. Xaritada bu qishloqning nomi ham yo‘q, arabcha nomlarning aksariyati yahudiycha nom bilan almashtirilgan. Amaliyot shunday.

– Bu yerdagilar 1948-yilgi qirg‘indan xabardormi?

– Sizga voqealar qanday yuz berganini aytib berdim-ku. Bu qirg‘in emas, bu agressiyaga javob. Ular tushunishdi va ketishdi.

Suhbatimiz yana aylanma bo‘ylab boshiga qaytadi. O‘sha odam qorovul bo‘lib ishlaydigan maktabda o‘qiydigan bolalar uyma-uy tarqaladi. Biz turar ekanmiz, birorta bola o‘zi piyoda mustaqil ketmaydi.

Men ruhiy kasallar shifoxonasini suratga olaman – u yerda arab bemorlar yo‘q. Ahyon-ahyonda uchrab qoladigan yo‘lovchilardan faqat dindor yahudiylar, shlyapali,

boshiga xuddi dushdagidek maxsus qalpoqcha kiygan ravvinlar uchraydi. Ular savollarga e’tibor qaratishmaydi va shoshilmay uzoqlashishadi. Ba’zida ular o‘zlarini suratga olayotganlarga imo-ishoralar bilan e’tiroz bildirishadi, lekin ko‘pincha buni payqashmaydi.

Ko‘p qavatli uylar atrofida bir necha qator panjaralar, murakkab tarkibli qulflar va kodlar tizimi mavjud.

Rastalardagi savdogarlar ham dindor yahudiylar. Ular ham suhbatga tayyor emas.

Biz arab uylarini topish uchun yo‘l yuramiz va yana yo‘l yuramiz, trassadan ularni ko‘rish mumkin bo‘lsa-da, ichki ko‘chalardan topib borish amrimahol. Deyr-Yasin haqidagi savollarga esa yo‘lovchilar shunchaki javob berishmaydi.

Faqat qurilishda ishlayotgan falastinlik ishchilargina suhbat uchun bajonidil rozi bo‘lishdi. Ular bu yerga G‘arbiy sohildan vaxta usulida ishlash uchun kelishadi, bunga ruxsatnomalari bor, Falastin avtonomiyasida ish yo‘qligi uchun ishida mustahkam turishadi. Hammasining ismi Muhammad. Ular o‘zlarining haqiqiy ismlarini aytishsa, muammolar boshlanishidan, ruxsatnoma va ishini yo‘qotishdan qo‘rqishadi.

Ular ham qaerdadir bir nechta falastinliklarning uylari saqlanib qolganini eshitishgan, lekin ularni ko‘rishga borishmagan. Uydan ishga, ishdan ijara uyiga. Ahyon-ahyonda uyga borib keladi.

Agar falastinlik odam yahudiy manzilgohlari bo‘ylab maqsadsiz kezib yursa, u shubha uyg‘otadi. Men va hamrohlarim kabi.

Sinagogada qotillik sodir bo‘lganda ko‘pchilik quruvchilar ketishdi va ishidan mahrum bo‘lishdi. Ularning o‘rniga boshqalarni ishga olishdi, ishsizlik ko‘p, ish taklifi esa kam. Ishlayotganlar sinchiklab tekshiriladi: ularning ota-bobolari bu yerlardan bo‘lmasligi kerak.

Ajdod ildizlari Deyr-Yasinga borib taqaladigan falastinliklar bu yerga kela olmaydi, hatto chet elda yashasa ham – shunchaki ular Isroilga kiritilmaydi.

2014-yilning noyabrida ko‘chkindilar o‘ldirilgan sinagoga yirik ishbilarmonlik markazining bir qismidir. Suratga olar ekanman, qo‘riqchi kelib, qurbonlar va qotillarning jasadlari qaerda yotganini batafsil tushuntiradi.

Ushbu hujumning tarixida tushunarsiz narsalar ko‘p. Yahudiylar ham, falastinliklar ham bu voqea haqda shaxsiy suhbatlarda eslaganida, tafsilotlardan hayratda qolishadi.

Ular ikki falastinlik – Sharqiy Quddus chekkasidagi Jabal al-Muqkabendan bo‘lgan amakivachchalar, 21 yoshli Rasan Abu-Jamol va 27 yoshli Uday Abu-Jamol edi. Ular turli ma’lumotlarga ko‘ra, do‘kon yoki qahvaxonada ishlashardi. Isroil muassasalarida ishlaydiganlarning barchasi ko‘p bosqichli tekshiruvdan o‘tkaziladi, har biri kuzatib boriladi. Aka-ukalar esa pichoqlarni olib, ko‘chaga chiqishadi, ibodatxonaga etib kelishadi va ibodatga ketayotganlarga oddiy oshxona pichoqlari bilan tashlanishadi. Ular o‘sha zahoti otib tashlangan. Ko‘plab kameralar shuningdek qo‘riqchilar va kuzatuvchilar mavjud bo‘lgan aholi punktida bu qanday sodir bo‘lishi mumkin?

O‘z qishlog‘ida ularga qahramon sifatida qarashadi. Ularning surati tushirilgan plakatlar barcha devorlarga yopishtirib tashlangan. Portretlar yirtiladi, lekin ular yana paydo bo‘ladi.

2014-yil dekabr oyining oxirida misli ko‘rilmagan va Isroil tushunchalari bo‘yicha kamdan-kam uchraydigan voqea sodir bo‘ldi – jasadlar dafn etish uchun qarindoshlariga topshirildi. Takror aytaman, hujum qilganlarning jasadlari. Bu oilaning uyi ham, sud qaroriga qaramay, Isroildagi odatiy amaliyotni chetlab o‘tib buldozerlar bilan vayron qilinmagan. Qotillik haqidagi reportajlarda Deyr-Yasin qishlog‘i tilga olinmaydi, faqat uning isroilcha nomi tilga olinadi.

Shunga qaramay, fakt faktligicha qolaveradi: bu hujum Nakba boshlangan, hozirda mavjud bo‘lmagan, ammo mashhur Deyr-Yasinda sodir bo‘lgan.

Muqaddas zamin jug‘rofiyasi bilan bog‘liq eng yangi tarix mana shunday tafsilotlarga ega. Unda ikkita xalq – inson imkoniyatlaridan qudratliroq nimaningdir asiriga aylangan.

Total militarizatsiya mamlakati

Falastin endi davlat deb ataladi. U BMTning kuzatuvchi maqomidagi a’zosi. Bu yurib borish, suzib borish yoki uchib borish mumkin bo‘lmagan yagona mamlakatdir. Yo‘l Isroil orqali o‘tadi.

Agar siz chet ellik bo‘lsangiz va Isroil chegarasida Falastinga ketayotganingizni aytsangiz, sizni o‘tkazishmaydi.

Agar siz Falastin tarafdori bo‘lsangiz, sizni shunchaki chiqarib haydab solish ehtimoli katta.

Agar siz musulmon bo‘lsangiz va sayyoh sifatida borishga qaror qilsangiz, chegarada muammolarga duch kelishingiz mumkin.

Agar siz jurnalist bo‘lib, hatto akkreditatsiyadan o‘tsangiz ham, sizni chegarada uzoq ushlab turishi, kelish yoki ketishda tintuv qilishi va hech qanday tushuntirishsiz kirishga ruhsat bermasligi mumkin. Yoki soatlab sumkangiz, kompyuteringiz, telefoningiz va kamerangizni titkilashi mumkin.

Mening omadim keldi.

Samolyot Moskvadan Tel-Avivga yarim tunda qo‘ndi. Pasport nazoratida vaqti-vaqti bilan goh unisini, goh bunisini sug‘urib olib, tekshirish uchun olib ketishardi. Bu odamlarning mantig‘ini tushunib bo‘lmaydi. Tushunishga arziydimi o‘zi?

Chegarachi Iroq va Livan vizalari bosilgan pasportimni aylantirib uzoq tekshirdi. Akkreditatsiyadan o‘tganligim to‘g‘risidagi tahririyatdan kelgan qog‘ozni takror o‘qib ko‘rdi. Uning ko‘zlarida har qanday qaror uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni istamayotganligi ko‘rinib turardi. U boshqa chegarachilarni chaqirdi va ular yana pasportimni ko‘zdan kechirishdi va qog‘ozlarni o‘qishardi.

Mendan tumonat odam intizor bo‘lib kutib o‘tirgan katalakday xonaga kirishimni so‘rashdi. Aytgan joyiga ketar ekanmiz, men Rossiya konsulligiga qo‘ng‘iroq qildim. Konsul javob berdi. Va bo‘layotgan voqealardan xabardor qilib turishni so‘radi.

Pulni almashtiradigan joy yo‘q. Ovqat va suv solingan apparat kartochkalarni qabul qilmasdi.

Apparat yonida ikki yapon mudrab o‘tirar, bu paytda ular 14 soatdan beri nimanidir kutayotgan edi.

Yaponlar uyg‘onib, o‘zlarining buterbrodlarini eyishga kirishib ketdilar. Ular Isroilga sayyoh sifatida kelishgan va ilk marta bu mashaqqatli joyga tashrif buyurishni rejalashtirishgan. Ular yaponlarga xos bo‘lmagan baland ovozda Isroil xavfsizlik tizimini maqtashardi. Ular o‘z shaxsiyatlarida shubhali nimadir bo‘lishi mumkinligiga hayron edilar. Biz taqdirning o‘zgaruvchanligi haqida suhbatlashdik. Men ularga Isroil samolyotlarini egallab olgan Yaponiya Qizil Armiyasi haqida eslatishni istamadim. Chegarachilar bu mavzu tarixini bilmaydi, yaponlarga esa qiyinchilik va muammo kerak emas edi.

Qarorni kutayotganlar orasida ozmi-ko‘pmi tushunarli shaxslar ham bor edi.

Kipriklari o‘lchamsiz buralgan zaporojelik qiz shunchaki dam olgani ketayotgan edi. Yigiti bilan. Bu uning yigiti emas, shunchaki do‘sti. Bu yerda hammasi ravshan, savollar yo‘q.

Rostovlik rus ayol, aftidan, shu yerda qolib, qo‘shimcha ishlarda ishlash niyatida edi. Endi u aeroport kamerasida o‘tirib, samolyotni uch kun kutishi kerak – boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar yo‘q. Ro‘parada onasini ko‘rgani kelgan bir guruh moldavanlar... Onasi Isroilda xizmatkor bo‘lib ishlaydi.

Hammasi – deportatsiyaga.

Noma’lum sabablarga ko‘ra, Afonadan kelgan *(poslushnik)* provaslav dindoriga Muqaddas zaminga kirishga ruxsat berilmadi. U Gretsiyada monastirda yashaydi. Shunday bo‘lsa-da, uning Londonda yashash guvohnomasi bor. 2009-yilda uni Isroilga

qo‘yishmadi va besh yilga bunday imkoniyatdan mahrum qilishdi. Taqiq muddati o‘tgan edi. Endi uni Muqaddas zaminga tashrif buyurishdan yana mahrum qilishgan.

Deportatsiya uchun nomzodlarga mo‘ljallangan qo‘radagi odamlarning aksariyati charchagan, uxlashni xohlashardi. Ko‘pchilik, lekin hammasi emas. Faollikka to‘la, jussasi kichik, ozg‘in, simobdek harakatchan londonlik arab kimgadir tinimsiz qo‘ng‘iroq qilar va xuddi birja savdosida qatnashayotgandek uzoq suhbatlashardi. “Ularning nazarida men mafiozlarga o‘xshayman”, – deb kuldi u. Arab bu yerda 10 soatdan beri o‘tiribdi.

Gollandiyadan kelgan qizni o‘tkazishmasdi: uning aybi Tehronda tug‘ilgani edi. U menga hatto, o‘zini musulmon deb hisoblamasligini aytdi...

Gollandiyalik qiz londonlik arab bilan zerikarli suhbat qurishardi. “Bu vaqt ichida biz turmush qurib, bola-chaqa orttirib, bir-birimizdan zerikib ham bo‘lardik”, – deb qah-qah otib kulardi arab yigit.

Ikkovini ham o‘tkazib yuborishdi. Arab negadir xayrlashish uchun menga ikkita muzdek barmog‘ini uzatdi... Mana endi nima uchun uning tinim bilmay harakatlanish sababini tushundim – u shunchaki sovqotgan edi. Ular endi pasport nazoratiga alohida-alohida ketishardi.

Yahudiy tilida so‘zlashuvchi bir to‘da yahudiylarni kiritmadilar...

Deportatsiya qilish uchun ajratilganlarni chekishga olib chiqishardi. Qolganlarga har to‘rt soatda buterbrod va suv berishardi.

Meni so‘roqqa chaqirishdi. Stulga o‘tirmasimdan Rossiya konsuli kelib qoldi. Eslatib o‘taman: vaqt yarim kechadan o‘tgan edi. Butun so‘roq davomida konsul mening yonimda turdi.

Isroil xavfsizlik tizimining professionalligi haqidagi gap so‘lar – afsona. Ular keraksiz odamlarni so‘roqqa tortadi, kerakli narsani so‘ramaydi va malakali so‘roq qilishmaydi.

Ko‘zoynakli yigit kompyuter oldida o‘tirardi. U o‘zini tanishtirmadi. Pasport, jurnalistlik guvohnomamni qo‘lida aylantirib, redaksiyadan kelgan qog‘ozlarni va akkreditatsiya to‘g‘risidagi xatni qayta-qayta o‘qirdi.

Konsul kelganida uning asabiylashgani ko‘rinib turardi. U men Rossiyadan, ya’ni Isroilning asosiy ittifoqchisi bo‘lgan davlatdan kelganim uchun bosim ostida edi. Tekshiruvni olib borayotgan yigit bularning hammasi uning smenasida sodir bo‘layotganidan asabiylashardi.

U jurnalistlarning kimligini va nima uchun mavhum joylarga borishini aniq bilmasdi. Iroqda saylovlar o‘tkazilishi xayoliga ham kelmagan. Bu saylovlarni kimdir yoritayotganidan hayratda. Uning miyasida qotib qolgan eslatmalarda hamon yer yuzidagi eng xavfli joylar – Suriya va Iroq. Urush zonasi yoki partizan otryadlari emas, balki butun bir mamlakat xavfli.

U qarindoshlarim, uyali aloqa vositalarim va pochta manzilim bilan qiziqdi. Javob bergim kelmasdi.

– Siz yashirayotgan nimadir bormi?

– Siz shaxsiy savollar beryapsiz. Bu yerga esa ish bilan keldim.

Shunda u mendan Iroqdan tashqari yana qaysi mamlakatlarda ishlaganimni so‘rashga qaror qildi. Men sanay boshladim. Livanni tilga olganimda uning ko‘zlari ayanchli boqa boshladi. Eronda, Pokistonda va Afg‘onistonda deyishim bilan uning bardoshi tugadi.

– Bo‘ldi, etarli boshqa sanamang!

– Ishonchingiz komilmi?

– Ha-ha!

Lekin qiziquvchanlik baribir rahbariyat ko‘rsatmalaridan ustun keldi. Aftidan, u geografiya sohasidagi bilimlarini kengaytirishga qaror qilgan bo‘lsa kerak:

– Iroqning qaysi shaharlarida bo‘ldingiz? Uni qo‘rqitish istagim bor albatta. Lekin men komandirovkaga borishim kerak-ku.

Ma’nosiz so‘roq tugadi. Nimadir o‘z qo‘lim bilan yozib berishimni so‘rashdi – aftidan, grafologik ekspertiza o‘tkazmoqchi, psixotipni tahlil qilish uchun. Isroil xavfsizlik ilm-fani yana nimalargacha etib borgan ekan-a?

Konsul bilan birga tor va qorong‘i xonaga qaytdik.

Ushlab turilganlarning hech biriga o‘z davlatidan diplomatlar kelmadi, konsul esa ertalabgacha men bilan shu yerda o‘tirdi. Konsulning chegarachilarga qilgan barcha murojaatlariga javoban ular go‘yoki javob berishi kerak bo‘lgan mas’ullarning telefon raqamlarini berishdi. U qo‘ng‘iroq qilardi, uni yana o‘ziga o‘xshagan hech narsani hal qilmaydigan boshqa odamlarga yo‘naltirishardi.

Vaqti-vaqti bilan chegarachilar xonasiga kirardim. Hujjatlarni qachon qaytarib berishi bilan qiziqardim. Ular qaror qabul qilishni boshliqlarga qoldirish uchun tong otishini kutishayotgani aniq edi.

Bittasi besh daqiqa yoki yarim soatdan keyin menga pasportimni qaytarib berishni va’da qildi va bu qayta qayta takrorlanardi. Boshqasi kula-kula, o‘n soatdan keyin ham, o‘n besh soatdan keyin ham berishlari mumkin, deb qo‘shib qo‘yardi... Uchinchisi kelib, sekingina: “Tez orada”, deb ketardi.

Hamkasblarimning tajribasidan bilaman: bu keng tarqalgan taktika. Jurnalistni asabiy holatda ushlab turish kerak, lekin u qaynab ketmasligi uchun ba’zan tez orada ozodlikka chiqishini va’da qilish lozim.

Zerikkanimdan faqat Isroilda jurnalistlarni chegarada tintuv qilishlari, keyin esa o‘z mamlakatlarining dunyodagi imiji unchalik yaxshi emasligidan hayratlanishlari haqida gap ochdim. Chegarachilar o‘zlarini oqlay boshlashdi va shu zahotiyoq oqko‘ngillik va demokratizm namoyon qilishni boshlashdi...

Vaqti-vaqti bilan telefonimga qo‘ng‘iroqlar bo‘lib turdi. Men ataylab baland ovozda “janjal”, “ovoza qilish”, “Gaares[53]” so‘zlarini talaffuz qilardim... Chegarachilar bu gaplarga quloq solishar, qayoqqadir ketishar, kimgadir qo‘ng‘iroq qilishardi.

[53] “Gaaretz” yoki “Ha-Aretz” – Isroilning eng qadimgi kundalik gazetasi bo‘lib, ibroniy va ingliz tillarida nashr etiladi. Dastlab u “Hadshot ha-aretz” deb nomlangan edi.

Ertalab soat sakkizlarda pasportimni keltirishdi: Isroilga xush kelibsiz. Koʻpgina mamlakatlarda muammo chiqaradigan Isroil muhri bilan pasportni bulgʻamaslik uchun kirish kvitansiyasi alohida qogʻozda beriladi.

Konsul meni taksiga oʻtqazdi, biz xayrlashdik. Rostini aytsam, uning kechasi bilan yonimda oʻtirib chiqishi katta jasorat edi.

Aeroportda falastinlik taksichilarni uchratmaysiz. Meni olib ketishga tayyorligini bildirgan isroillik taksichi men borishim kerak boʻlgan mehmonxonani juda yaxshi bilishini aytib, qasam ichdi.

Quddusga boradigan yoʻlda qor quyardi va bu yerda boʻron deb hisoblanadigan narsa boshlandi. Qish butun tarovati bilan koʻrinardi.

Etib borganimizda, taksi haydovchisi shaharning Sharqiy qismidagi Falastin mehmonxonasiga kelayotganimni tushunib qoldi, garchi men taksiga chiqishdan oldin manzilni bir necha bor eslatgan boʻlsam ham. U asabiylasha boshladi, qayoqqa borishini bilmay koʻchalarda adashib yurdi va gʻazablana boshladi:

– Bu yerda faqat arablar! – deb asabiylashardi.

– Unday boʻlsa, manzilni kimdandir soʻrang.

U qoʻrqoqlik qilayotgani aniq koʻrinardi, lekin iloji yoʻq edi – toʻxtab hijobli qizdan soʻradi. U qaerga burilishimiz kerakligini koʻrsatdi. Ammo taksichi arablarni soʻkib, mahalla boʻylab tinimsiz aylanardi. U har bir aylangani uchun hisoblagichdagiga qaraganda ikki baravar koʻp pulni surbetlarcha talab qilardi. Savdolashdik.

Mehmonxona sovuq. Tashqarida – qish. Men Al-Qudsdaman. Telefonlarim ishlamayapti. Men bu yerda deyarli oʻn yildan beri boʻlmaganman.

Kalandiya

“Sen Kalandiyani koʻrganmisan? Yoʻq? Sen buni koʻrishing kerak”, – tanishim bilan ertalab soat sakkizda oʻsha erda uchrashishga kelishib olamiz.

Kalandiya – bu Gʻarbiy sohilga kirish uchun chegara oʻtish joyi.

Agar Damashq darvozasi oldida taksi to‘xtatib, “Kalandiya” degan mo‘jizali so‘zni aytsangiz, falastinlik taksi haydovchisi bir xo‘rsinib, qayta so‘rab oladi: siz aniq o‘sha yoqqa ketyapsizmi?

Diplomatlar, jurnalistlar, missiya xodimlari va ziyoratchilar uchun boshqa bir blokpost bor. Ammo falastinlik nimani his qilayotganini tushunishni istasangiz, Kalandiyaga boring.

Eski shahardan tushgan yo‘l tobora torayib boradi. Obod binolar kamayib, chiqindi borgan sari ko‘payadi. Yon tomondan esa tepasiga tikanli sim o‘ramlari tortilgan, cheksiz va umidsiz kulrang beton devor qad rostlay boshlaydi.

Devor ortida – G‘arbiy sohil; okkupatsiya qilingan hudud, Falastin davlati. Yoki Falastin muxtoriyati. Nima desangiz deng, lekin bu yerda Falastin ham, davlat ham, muxtoriyat ham yo‘q. Birorta falastinlik Iordan daryosiga yaqinlasha olmaydi *(Iordanning bu qirg‘og‘i g‘arbiy hisoblanadi).*

Okkupatsiya qilingan hudud – bu eng aniq nom. Okkupatsiya devorning ikki tarafida *(Sharqiy Quddus va G‘arbiy sohil)* ham amalda.

Beton devorda olti metrli temir darvoza bor. Videokamera qarshisida qo‘lida sumka ko‘targan falastinlik bola qimirlamay turibdi. U tik turar ekan, qaerdadir uzoqda o‘tirgan isroillik qo‘riqchi kamera orqali uning yuzini o‘rganadi. Xavfsiz joyda yashirinib olib, hamma narsani nazorat qilish – bu Isroil xavfsizlik tiziminng usuli. Uzoqdagi bunkerida u bolani ro‘yxatlar bilan solishtiradi. Shunday qilib, darvoza asta-sekin qo‘zg‘alishni boshlaydi, bola esa shoshilmay ochilayotgan tirqish tomon yuradi. U shoshmasdan harakat qilishi kerak, aks holda shubha tug‘diradi, bunday holda unga hamma narsa bo‘lishi mumkin. Buni har bir falastinlik bola biladi. Nihoyat u o‘tib ketadi. Darvoza sekin yopiladi.

Bola o‘z vataniga o‘ta oldi.

Bolaning o‘z vatanining u qismidan yana bu qismiga o‘tishi bundan-da qiyin bo‘ladi.

Bir muncha vaqt o‘tib, o‘sha darvoza oldiga Isroil harbiy jip mashinasi keladi. Uni ham o‘rganishadi – biroq bunga sumka ko‘targan bolaga qaraganda ancha kam vaqt ketadi va o‘tkazib yuborishadi.

Isroil armiyasi istalgan vaqtda okkupatsiya qilingan hududga kirishi, ko‘chani to‘sib qo‘yishi, kvartalni blokirovka qilishi, hech qanday buyruqsiz har qanday hibsni amalga oshirishi, Isroil o‘z xavfsizligiga tahdid deb topgan har qanday odamni olib ketishi va xohlagancha sudsiz va tergovsiz qamoqda ushlab turishi mumkin. Istagan odamni o‘ldirishi mumkin. Uyni buzib tashlashi mumkin.

Kalandiya blokposti – bu yag‘ir va ko‘rimsiz, qorishib yotgan nazorat-o‘tkazish punktlarining uyumidir.

Isroil tomonida temir to‘siqlarga velosiped va motosikllar – Quddusga o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lgan baxtli odamlarning transporti tirkab qo‘yilgan. Agar velosiped yoki motosiklda o‘tmoqchi bo‘lsangiz, tekshiruv xuddi mashinada o‘tayotgandek vaqt oladi.

Biroq bu tomonga o‘tish imkoniyati deyilganda, har qaysi kunda ko‘chaga chiqib, velosipedga o‘tirib – maktabga, universitetga, kasalxonaga yoki ishga borish mumkinligini anglatmaydi. Isroil istalgan kun va soatda ogohlantirishsiz o‘tish joyini xohlagancha yopishi mumkin.

Mashinada yo‘lga chiqqanlar ba’zan 40 daqiqa, ba’zan yarim kun navbatda turishga mahkum.

Bu joyni, tor yo‘laklar, turniketlar va aylanma o‘tkazish eshiklaridan iborat labirint deyish mumkin. G‘arbiy sohilga nazorat-o‘tkazish punktidan piyoda yoki mashinada o‘tish oson – hech kim hech narsani tekshirmaydi. Agar shu kuni rejim kuchaytirilmasa albatta.

O‘tishing bilan, toptalgan balchiq, yuzlab mashinalar, tog‘-tog‘ chiqindi orasida qolasan.

Devor keng shosseni ikki ensiz yo‘lakka ajratgan. 1967-yilgi ishg‘oldan oldin bu yerda gavjum ko‘cha bor edi. Falastin do‘konlari endi abadiy yopilgan: devor

koʻtarilishi bilan savdo-sotiq ham tugadi. Aslida hayot ham tugadi: bu yerdan chiqindi olib ketilmaydi va eski mashinalarning ulkan qabristoni bor. Qahvaxonalar, doʻkonlar, arab banklari yopiq – faqat Isroil banklari ishlashi mumkin. Ammo Quddusdagi kabi pullik avtoturargohlar tashkil etilgan. Falastin bayroqlari, gulchambarlar osib qoʻyilgan va hatto allaqachon koʻrimsiz xolga kelgan Rojdestvo archasi ham turibdi.

Falastin bayrogʻi Isroilda taqiqlangan. Uning tasviri tushirilgan nishonni taqib yurolmaysiz. Uni mashinangizdagi oynaga osib qoʻyolmaysiz. Agar bayroqning rasmini chizishsa, uni ustidan boʻyab qoʻyishadi.

Falastin tomondagi devor graffiti, chaqiriqlar va shiorlar bilan bezatilgan. Janubiy afrika respublikasidan kelgan faol, chizilgan graffiti ustidan Falastin xalqiga bir kilometrlik murojaatnoma yozgan. Devorning Isroil tomonidagi qismida birorta ham rasm yoʻq – turmaga xos toza kulrang yuza.

Gʻarbiy sohildan chiqish joyida temirdan yasalgan bir necha kir skameykalar qoʻyilgan iflos angarga kirishingiz kerak. Agar keng elkali odam oʻtmoqchi boʻlsa, faqat yon tomoni bilan oʻtishi mumkin boʻlgan panjarali tor yoʻlak. Velosiped bilan bu yerga kelib boʻlmaydi.

Sukunatli navbat. Koʻrinmas operator uch-toʻrttadan odamni shunday oʻtkazadiki, kimdir bir muddat temir aylanma eshik ichida qamalib qoladi. Va u yerda besh-oʻn daqiqa turadi. Ammo koʻrinmas operator kimnidir sinchkovlik bilan tekshirishni lozim topsa, bir soat ham turib qolishi mumkin.

Palto, kamar, poyabzalni echish kerak. Shu yerda falastinliklar nima uchun kedalarni juda yaxshi koʻrishlari tushunarli boʻladi: ularni echish shart emas. Kedalarda zararli hech narsa olib kirish mumkin emas, deb ishonishsa kerak.

Hech qanday bir martalik baxilalar koʻzda tutilmagan, iflos beton polda yalangoyoq yurish kerak.

Panjaralar va ikkita oʻq oʻtkazmaydigan oyna ortida isroillik harbiylar oʻtiribdi. Semiz ayol oʻz postida uxlayapti. Pasportni bu yerdagi hamma narsa kabi iflos, temir toʻsiq bilan ajratilgan tirqishdan uzatishingiz kerak. Ozgʻingina isroillik askar Rossiya

pasportiga sarosima bilan qaraydi. Keyin uni o‘rganishni va ma’lumotlarni kompyuterga kiritishni boshlaydi.

Umuman olganda, askar Tel-Avivdan uchib ketayotganimda aeroportda men bilan sodir bo‘lishi kutiladigan muammolarni qayd etardi, u yerda har bir kishidan: “Siz Falastin hududlarida bo‘ldingizmi?” deb so‘rashadi.

Mashinada chiqib ketish uchun uzun navbatda turib kutish kerak. Blokpostda avtomobil ko‘zdan kechiriladi va pasportlar yana tekshiriladi. Har qanday odamni tortib olishlari, hibs qilishi, ko‘p soatlab ushlab turishlari, noma’lum tomonga olib ketishlari mumkin.

Shunday bo‘lsa-da Quddusdagi falastinliklar G‘arbiy sohilga borishni yaxshi ko‘rishadi. Bu yerda ular to‘yintirilmagan va qat’iy dozalangan erkinlik havosidan nafas olishlari mumkin. G‘arbiy sohildagi falastinliklar esa Al-Aqsoga borishni orzu qilishadi.

Ba’zan ular oilalari bilan kelishadi – ko‘chalarda sayr qilishadi, qahvaxonalarda o‘tirishadi, kechki ovqatni tanovul qilishadi. Menga o‘rmon orqali o‘tadigan chiroyli yo‘lni ko‘rsatishdi va u yerda siz bir lahza bo‘lsa-da okkupatsiyadan oldin Falastin qanchalik go‘zal bo‘lganini his qilishingiz mumkin. Bu uzoqqa cho‘zilmaydigan tuyg‘u. Qarshingda Isroil nazorat-o‘tkazish punkti juda tez qad rostlay boshlaydi.

Falastinlik – bu hukm

Biz kimsasiz, qor bilan qoplangan Quddus bo‘ylab uzoq aylanamiz. Abdulla ismli maktab o‘qituvchisi Quddusdagi oilalarning turli taqdiri haqida hikoya qiladi. Hamma hikoyalar g‘amgin: o‘ldirilgan, tilka-pora qilingan, quvg‘in qilingan va xo‘rlanganlar haqida.

Mashinalarning rezinasi yozgi, tepaliklar tik, ko‘chalar tor. Mashinamiz yuztuban yuradi, Abdulla esa kulib: “Hechqisi yo‘q, men yaxshi haydovchiman”, – deydi.

U tor ko‘chada mashinasini mohirlik bilan joylashtiradi va biz zinapoyadan ikkinchi qavatga ota-onasining uyiga ko‘tarilamiz.

Katta oila – uch opa-singil va bir uka shu yerda yashab qolishdi, qolganlari tarqalib ketishdi. Hammasining bolasi bor. Otasi bu yerlarga kelolmaydi – u sobiq mahbus, ko‘p yillardan beri quvg‘inda yashaydi.

“Otam bu uyni 22 yil oldin 19 kunda qurgan. Vaqtida ulgurmasang, ular kelib hammayoqni vayron qiladi. Avval qaror chiqarishadi, keyin jarima, keyin buldozer. Endi esa qurilishga umuman ruxsat berishmayapti”, – deydi Abdulla.

“Ular” – bu Isroil armiyasi.

Uy bino qilish degani mana bunday bo‘lgan: oilaning ko‘p asrlar davomida kichkina uyi bo‘lgan. U nasldan-naslga o‘tgan, chunki barcha oilaviy munosabatlar shariat tomonidan tartibga solingan. Oila o‘sib keng palak yozib borgan. 1967-yildan boshlab oilalarning kengayish va tarqalishi mumkin bo‘lmay qoldi, shariat me’yorlari esa okkupatsion rejim tomonidan hujjatlar, ro‘yxatdan o‘tish va soliq to‘lashni talab qilish orqali bekor qilindi.

Katta dunyoda hujjatlashtirish, ro‘yxatga olish, soliq to‘lash kabi ishlar sivilizatsiya belgisi hisoblanadi. Falastinliklar uchun esa ushbu yutuqlar zulmga aylanadi, chunki ularga ro‘yxatdan o‘tishga ruxsat berilmaydi, hujjatlar taqdim etilmaydi yoki ularni berish cho‘ziladi, bu vaqtda esa ularning uy-joyi, u yerda yashashi va o‘z erida bo‘lishining o‘zi ham noqonuniy deb topiladi va jarimalar yog‘iladi.

Lekin o‘sha paytlarda eski devorlarning ustiga yangi qavat qurish mumkin edi. Abdullaning otasi o‘z uyini kengaytirdi: ikkinchi qavatda beshta kichik xona qurdi.

1994-yilda ularning otasi hibsga olingan. Tintuv boshlandi. Lekin o‘shanda otamga hech bir ayb qo‘yisha olmagan. U: “Tintuv qilmoqchi bo‘lsangiz, qo‘shimcha qurilishga ruxsat bering”, – degandi[54].

[54] Uyning xonalari ko‘proq bo‘lganda balki “maqsadingizga” etardingiz ma’nosidagi kesatiq.

“Otamning barcha do‘stlarining oilalari shunchaki haydaldi, ularning uylari esa 20 yilga qulflab tashlandi. Bittasining uyini, o‘g‘li uchun yaqinda ochib berishdi”.

Hammani qiynash, bir kishiga engillik berish – bu ham metod, deb tushuntiradi Abdulla. Qo‘shnilar gumon qila boshlashi uchun: nega bunga ruxsat berishdi? U rejimga qanday xizmat ko‘rsatdi? Falastinliklarni urishtirish, ularda qarindoshiga, qo‘shnisiga ishonchsizlik uyg‘otish uchun – sinalgan amaliyot. Abdulla afsus bilan ta’kidlaydiki, bunday metod ish beradi.

Uyni bitirar-bitirmas otasiga 22 yillik qamoq jazosi beriladi. 17 yilini o‘tirdi, Shalit almashinuvi bo‘yicha ozodlikka chiqgan *(2011-yilda AQSH bosimi ostida Isroil o‘z armiyasining asirga tushgan zobitini bir yarim ming mahbusga almashtirgan).* Abdullaning otasi aktivist bo‘lgan, harbiy harakatlarda qatnashmagan. 1974-yilda to‘rt yil, 1985-yilda bir yil qamoqda o‘tirgan. Agar sudlanganlik holati mavjud bo‘lsa, bunday shaxs har qanday qulay vaziyatda hech qanday dalillarsiz terrorizmda ayblanishi mumkin. Besh nafar isroillik harbiyni olib kelishadi va ular ayb e’lon qilish uchun qancha kerak bo‘lsa, shuncha guvohlik berishi mumkin.

Endi otasi chet elda yashaydi, uyiga kela olmaydi.

“Eski shahar huvillab qolgan. Ilgari qishloqdan odamlar kelib, ijaraga turishardi. Endi buning iloji yo‘q. Odamlar Quddusda bo‘lish huquqini ololmaydilar, Quddus aholisining esa bu yerda mehnat qilish imkoniyati yo‘q”. Gaplashib o‘tirganimizda Abdullaning o‘rtoqlari kirib qolishdi.

Har birining tarixi o‘xshash. Isroillik ko‘chkindilarda qiziqish uyg‘otgan ba’zilarining uylariga muntazam ravishda ochiq chek bilan tashrif buyuriladi. Qog‘ozga eng fantastik narxni yozish mumkin – ko‘chkindilar istalgan narxga uy sotib olishni taklif qilishadi. Ular yana bir falastinlik o‘z oilasi bilan joyidan qo‘zg‘alib, butunlay bu yerlardan ketishi uchun etarlicha pul taklif qilishi mumkin.

“Kasal yoki kambag‘al odamlar, agar ularga yordam beradigan boshqa falastinlik oilani topa olmasalar, rozi bo‘lishga majbur. Ammo uyni qonun bo‘yicha falastinlikka o‘tkazib berish ham juda qiyin”.

Agar yashash uchun mablag‘i bo‘lmagan kambag‘al oila uzoq vaqt davomida o‘jarlik qilsa, ertami-kechmi bunday uyga egalik qilish masalalariga kuch bilan bosim o‘tkaza boshlaydi.

“Quddus aholisi – faqat ular. Yaxudiylar shunday deb o‘ylashadi. 1967-yildan beri Quddusda ko‘plab ko‘chkindilar paydo bo‘ldi. Ko‘pchiligi umuman ivritda gapirmaydi, lekin barcha huquqlar ular uchun”, – deb xo‘rsinadi Abdulla.

U o‘qituvchilik va ijtimoiy ish yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oldi va bolalar bog‘chasini tashkil qildi. Uning singlisi biolog, Nablusda o‘qiydi. U Falastin maktablari uchun sog‘liqni saqlash asoslarini o‘qitish assosiatsiyasini tuzdi.

Abdulla menga hujjatlarini ko‘rsatdi. Uning fuqaroligi bo‘lmagan shaxs uchun beriladigan ID (shaxsni tasdiqlovchi hujjat) raqami bor. Bunday hujjat bilan Quddusda yashash mumkin.

“Xuddi grin-karta kabi. Ammo barcha soliqlarni Isroilga to‘layman - uy, sug‘urta, mashina uchun”, – deya tushuntiradi Abdulla. U va uning butun oilasi Quddusning tub aholisidir. Ammo ular bu yerda vaqtincha – migrantlar kabi yashaydilar.

Masalan, uyi uchun u 1200 shekel *(300 dollardan sal ko‘proq)* to‘laydi, jami kishi boshiga yiliga 1-2 ming dollar to‘lanadi.

Quddusda falastinlik ko‘pi bilan 2 ming shekel *(500 dollar)* ishlab topishi mumkin, oy oxirigacha hech narsa qolmaydi. Agar kvartira ijaraga olsangiz, barcha maosh faqat ijaraga ketadi – kvartira ijaraga olish esa taxminan bir oylik maoshga teng.

“Biz hamma narsa uchun pul to‘laymiz: yo‘llar, maktablar lekin bu pullar biz uchun emas, shaharning biz yashayotgan qismi uchun emas”, – deydi u. Quddus bo‘ylab yurar ekansiz, bu chegaralar ko‘zga tashlanadi.

Isroilliklar o‘zlarida qanchalik toza, falastinliklarda esa qanchalik iflos ekanligi haqida mulohaza yuritishni yaxshi ko‘rishadi. Ammo ta’mirlash va qurilish qoidalarini falastinliklar emas, ular o‘rnatgan. Falastinliklar uchun esa – faqat taqiqlar.

ID raqamingiz bo‘lmasa, aeroportga kirish mumkin emas. U bilan aeroportga kirishingiz mumkin, lekin uchib keta olmaysiz – buning uchun qizil pasport kerak, qizil pasportni esa Isroil beradi. Va ushbu Isroil tomonidan berilgan pasport egasining millati “iordan” ekanligi ko‘rsatiladi. “Falastin” degan millat mavjud emas.

“Turkiyada shunday pasportni ko‘rsataman – u bilan meni o‘tkazishadi. Qarindoshlarni ko‘rish uchun keldim desam, ikki hafta muhlat berishadi. Har bir vizaga sug‘urta bilan birga 50 dollar to‘lanadi”, – Abdulla uchun ota-onasi bilan uchrashish shunchaga tushadi.

Ba’zi falastinliklarda Iordaniya pasporti bor, u bilan sayohat qilish osonroq.

“ID bilan Vifleem, Ramallohga, G‘arbiy sohilga borishimiz mumkin. G‘arbiy sohildagi falastinlik chiqib ketish va qaytib kelish imkoniyati yo‘q, chet elga keta olmaydi”, – deb talqin qiladi Abdulla.

G‘arbiy sohilda yashovchi har bir inson har qanday safarga – qarindoshlarinikiga, kasalxonaga borish uchun maxsus ruxsatnoma olishi kerak.

Falastinliklar uchun barcha ruxsatnomalar ko‘plab cheklovlarga ega. Masalan, faqat uylangan bo‘lsa va 35 yoshdan keyin mehnat qilishi mumkin. Quddusda uy qurish huquqi 100 ming dollar turadi – faqat qurilish qilish uchun ruxsatnoma olish. Abdulla ushbu hujjatni olish uchun yillar davomida kutgan, lekin natija bo‘lmagan oilalarni sanab o‘tadi.

Quddusda, deydi Abdulloh, ID raqamiga ega 350 ming falastinlik bor, ammo ularning aksariyati Quddusda emas, balki G‘arbiy sohilda yashaydi, chunki u yerda yashash arzonroq va nisbatan tinchroq. Va bu noqonuniy hisoblanadi.

Uning uyidan hisoblasangiz, ajratib turuvchi devorgacha 5 kilometr.

Qudduslik yigit uchun Ramallohda yashovchi qizga uylanish o‘ta muammo. Xotini u bilan Quddusga kelolmaydi. Bolalar uchun ruxsat olish kerak bo‘ladi.

“Qudduslik yigitning G‘arbiy sohildagi qizga uylanganidan ko‘ra, Iordaniyadan uylanishi osonroq. Axir u Ramallohlik bo‘lsa ID berilmaydi, ID bo‘lmasa umuman hech narsa qila olmaysan”, – deydi Abdulla. Qudduslik kishi uchun ko‘plab cheklovlar

mavjud. Agar Quddusni yetti yilga tark etsangiz ID dan mahrum bo‘lasiz. G‘arbiy sohilda Isroil ID raqami bilan noqonuniy yashaydigan har bir kishi Isroilda barcha soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashi shart, aks holda ID raqamidan mahrum bo‘ladi.

Quddusda falastinlik – bu hukm. Bu hukm kutmagan joyingda oldingdan chiqadi.

Abdulla traktorda ishlagan tanishi haqida shunday dedi: “U 18 yoshda edi, Quddusdagi sanoat zonasida ishlardi. Bir kuni tasodifan yo‘lga chiqib ketib, piyodani turtib yubordi. Ko‘chkindilar unga tosh ota boshlashdi. Yigit ulardan qochishga urinib, mashinalar va bo‘sh avtobusni shikastladi. Traktorda qo‘lini ko‘tarib tik o‘tirgan bo‘lsa-da politsiyachi unga qarata o‘q uza boshladi. Uni shunchaki o‘ldirishdi”.

Qo‘lini ko‘tarib turgan o‘smirni toshbo‘ron qilish va otib tashlash har bir mamlakatda ham jasorat namunasi bo‘lavermaydi. Isroilda esa traktorda mashinalarni shikastlagan falastinlik bu – terrorchi va u o‘limga loyiq, uni otib o‘ldirganlar esa terrorizmga qarshi kurashuvchi hisoblanadi.

Abdulloh ko‘chkindilar nafaqat falastinliklarga hujum qilgan, balki onasidan chaqalog‘ini o‘g‘irlashga urinish voqeasini esga oladi. Faqat ayolning qichqira boshlashi va odamlar yugurib kelgani uni qutqarib qolgan. U 2014-yilning dahshatli yozi haqida gapirib berdi, o‘shanda avval noma’lum shaxslar isroillik o‘smirlarni o‘g‘irlab ketadi va o‘ldirishadi, keyin esa isroillik snayperlar falastinliklarni otib tashlaydi.

“Ular Al-Aqsoni Ramazon oyida falastinliklar uchun yopishadi, ammo ko‘chkindilar uchun ochishadi, – deb davom etadi suhbatdoshim. – Iuda Glek ismli ravvin, ko‘chkindilarni masjidga kirishga da’vat etadi. Falastinlik unga o‘q uzib, yarador qiladi va qochib qutuladi. Armiya Quddusdagi uning uyiga keladi va askarlar uni tomga quvib haydab chiqadi. U: “Alloh-u akbar!” deydi. Askarlar uni o‘qlar bilan ilma-teshik qilishadi va uning o‘zi o‘q uzganini e’lon qilishdi. Unga 30 ta o‘q sanchildi. U 30 yoshdan sal oshgan, uylanmagan edi. Uni sudsiz va tergovsiz o‘ldirishgan. Endi esa uning ota-onasi yashayotgan uyini buzishga xabarnoma berishdi.

Ularga farqi yo‘q: qonun bo‘yichami, yoki qonundan tashqarida. Falastinlik masalasida nima qilsang qilaver – hech narsa bo‘lmaydi. Bu yigit juda katta oiladan va ularning uyi shu paytgacha buzilmadi, chunki hamma uning bu askarlarga hech narsa qilmoqchi emasligini bilardi. Uning otasi sudga borishga qaror qildi. Hozircha echim yo‘q”.

Umuman, bunday echim bo‘lishi mumkinmi?

Agar falastinlikka nisbatan har qanday taqiq qo‘yish mumkin bo‘lsa, hatto uyni ta’mirlash va masjidga borish masalasida ham taqiqlar qo‘yilgan bo‘lsa, echimni qaerdan izlash kerak? Agar ularning har qanday noroziligi terror akti sifati qaralayotgan bo‘lsa?

Har qanday xalqqa ozodligi uchun kurashishga huquq berilgan. Faqat falastinlik bu huquqdan apriori mahrum: tosh va o‘q otish haqida gapirmasa ham bo‘ladi, uning hatto so‘zi ham, ishi ham, – bu shunchaki terrorizmdir.

“Men Arofatni ko‘rganman”

Quddusda hech qanday Falastin partiyalari va guruhlari yo‘q – ularning faoliyati taqiqlangan. Barcha liderlari yo o‘ldirilgan, yo qamoqda. Uyga Falastin bayrog‘ini osib qo‘yish mumkin emas. Devorga mashhur falastinlikning portretini chizib bo‘lmaydi. Ammo har bir oilaning va har bir falastinlikning o‘zi – bu muqovamat yilnomasidir. Har kim qo‘lidan kelgancha qarshilik ko‘rsatishga hissa qo‘shadi.

Ziyod al-Hammuriy G‘azoda tug‘ilgan, ammo uning oilasi Xevron (Al-Xalil, G‘arbiy sohil) dan. 1997-yildan beri u okkupatsiya ostidagi falastinliklarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari bo‘yicha hisobotlarni tuzish bilan shug‘ullanadi.

“Buni xalqaro hamjamiyat tushunishi juda qiyin. Ular buning tagiga etolmayapti”, – deb aniqlik kiritadi Ziyod al-Hammuriy.

Shuning uchun u hisobotlarda har bir falastinlik bilan nima sodir bo‘layotganini tushuntirishga harakat qilmoqda. Aynan uning tarjimai holi so‘nggi 70 yil ichida falastinliklar boshidan kechirgan qiyinchiliklarning illyustratsiyasidir.

Uning otasi Falastin ozodlik tashkiloti *(FOT)* a’zosi edi. O‘sha paytlarda FOT bilan aloqada bo‘lish falastinlik uchun sharaf edi. FOT Isroilga va Isroil bilan ochiq yoki yashirin kelishuvlarga erishgan arab hukumatlariga qarshi haqiqiy, mubolag‘asiz, partizan urushini olib borardi.

Arofat vafot etgach, u Isroilda qo‘rquv uyg‘otmaydigan bo‘ldi. Demak, endi o‘sha kunlar haqida hikoya qilish mumkin.

“Arofat bizning uyimizda bo‘lgan. 1967-yilda, urushdan bir necha oy o‘tgach, Arafotning quroli otamning ofisida yotardi”.

Uning otasi Xevron va Nablusda o‘qituvchi bo‘lib, G‘azoda esa vazirlikda ishlagan. Keyinchalik Qatarga ketib, yana dars berishga qaytdi. O‘shanda u o‘z ishini yo‘lga qo‘ydi – qishloq xo‘jaligi fermasini ochdi. Ammo u Qatardan qochishga majbur bo‘ldi – u namoyishlar uyushtirdi, namoyishlardan birida uning do‘sti o‘ldirildi va otasining Dohada qolish xavfli bo‘lib qoldi.

Oila Falastinga qaytib keldi. Falastinliklar o‘z yerlarini qismlarga ajratmaydi, ular vatanining qaeri bo‘lmasin, Falastin deb atashadi, garchi o‘sha paytlarda G‘arbiy sohil Iordaniya nazoratida, G‘azo esa Misr nazorati ostida bo‘lgan esada.

“Otam Xevrondan G‘azoga kelgan, u aktivist edi. Shuning uchun ham o‘sha erda tug‘ilganman. Keyin Qatarga ketdik. U yerda maktabga bordim. Boshlang‘ich maktabdagi ustozim Abu Mazen bo‘lgan. 1965-yilda biz Ramallohga qaytdik, u yerda men maktabni tugatdim”, – deb eslaydi Ziyod.

Hozir u Quddusda yashaydi. Tabiiyki, Sharqiy Quddusda. G‘arbiy Quddusda falastinliklar yo‘q.

Uning Eski shaharda ofisi bor. Stol ustida qog‘ozlar, dokladlar, hisobotlar uyumi. Eski shaharda ofisga ega bo‘lish ham o‘ziga yarasha missiyadir, chunki falastinliklar G‘arbiy sohilda yashashga majbur bo‘lgan oilalarning Quddusdagi uyiga bo‘lgan huquqini shunday qo‘llab-quvvatlab turadilar, chunki bu oilalarning o‘zlari bunga imkonli emas.

“1967-yilgi urush eslayman. O‘shanda biz Iordaniya boshqaruvi ostida yashardik. Men 14 yoshda edim. Urushdan keyin esa okkupatsiya boshlandi”.

Bu qimtinib aytilgan so‘zlar zamirida Falastin tarixining dramasi yotibdi. Isroil G‘arbiy sohil va Quddusni okkupatsiya qilganda Iordaniya bu hududlardan voz kechdi. Yuz minglab qochqinlar o‘z uylarini tark etib, qaytib kela olmadilar. Shu yerda qolganlar, ayniqsa, o‘smirlar qarshilik ko‘rsatishga harakat qilishdi. Isroil harbiylariga tosh otishardi, ularni hibsga olib, qamab qo‘yishardi.

1969-yilda u birinchi marta akasi bilan qamoqqa tushdi. Ziyod 16 yoshda edi. “Aniq esimda yo‘q, olti yoki sakkiz oy o‘tirdik”.

Ziyod al-Hammuriyning fikricha, bugungi kunda qanchalik dahshatli eshitilmasin, Quddusdagi falastinliklarning ahvoli G‘azo sektoridagidan ham yomonroq: “Hukumat odamlar (falastinliklar) Quddusni tark etishi uchun hamma narsani qilmoqda – jismoniy va ruhiy bosim o‘tkazmoqda. Yashirin vositalar mavjud – masalan soliq. Quddusdagi falastinliklarning 80 foizi qashshoqlik chegarasida yashaydi”.

U Isroil tadqiqot manbalariga asoslanib, falastinliklar isroilliklarga qaraganda o‘rtacha 10 yil kamroq yashashi haqidagi hisobotini keltiradi: “Biz sug‘urta uchun isroilliklar kabi pul to‘laymiz, lekin biz ular bilan bir xil tibbiy xizmat ololmaymiz”

Quddusdagi falastinliklar hamma narsa uchun pul to‘lashadi, lekin hayotning hech bir sohasida isroilliklar oladigan narsani olishmaydi. Aslida aynan shu narsa aparteid deb ataladi – o‘tmishdagi sovet propagandasining kulgili va chang- g‘uborga botggan so‘zi. Isroilda aparteid mavjud, u qonuniylashtirilgan. Falastinliklar bunga ko‘nib ketishmadi, qarshilik ko‘rsatmoqda. Bugungi dunyo esa har qanday qarshilikni terrorizm deb atamoqda. Isroil bu yerga sivilizatsiya olib kelganiga ishonadi. Kimki sivilizatsiyaga qarshilik ko‘rsatayotgansa bo‘lsa, demak u – terrorchi...

Ziyodning eslatishicha, 1948-yildan beri qurolsiz aholiga hujumlar va bir qator terror harakatlaridan keyin falastinliklarning aksariyati mamlakatni tark etgan.

Ammo surgunda ham falastinliklarning hayoti engillashmadi. Masalan, 1991-yilda turli ma’lumotlarga ko‘ra 400 000 dan 600 000 gacha falastinlik Quvaytni tark etishga majbur bo‘lgan.

“Quvaytda ularni Saddamning josuslari deb hisoblashardi. Saddam davrida Iroqda falastinliklar bepul o‘qirdi. Ular orasida do‘stlarim ko‘p. Saddamni hokimiyatdan ag‘darishgandan keyin, ular uchun Iroqdagi hayot ham dahshatli tus oldi”, – deb ta’kidlaydi Ziyod.

Quddusda sodir bo‘layotgan voqealarni, butun dunyo shunchaki ko‘rishni istamayotgan fojia deb hisoblaydi Ziyod.

“1967-yilda Sharqiy Quddusda yahudiylar yo‘q edi – birorta ham. Endi bu yerda 210 ming ko‘chkindi bor. Ular bizning uylarimizni va yerlarimizni tortib olishdi. 1948-yilda G‘arbiy Quddusning ko‘pchiligi falastinliklar edi – hozir u yerda bir yoki ikkita oila qolgan. Men u yerda yashaydigan, turmushga chiqmagan bir qizni bilaman. G‘arbiy Quddus falastinliklardan tozalangan. Ular Sharqiy Quddusni ham shunday qilishni istaydilar”.

Ziyod al-Hammuriyning fikricha, bu ongli ravishda olib borilayotgan siyosat bo‘lib, uni aslida hech kim yashirayotgani ham yo‘q: “Falastinliklardagi tug‘ilish isroilliklarga qaraganda yuqori. Ularda demografik muammo bor, immigrantlar oqimi kamaygan, ko‘pchilik umuman ko‘chib ketmoqda. Shuning uchun ular falastinliklarni Isroildan siqib chiqarish niyatida”.

Majburiy chiqarib yuborish to‘xtovsiz davom etmoqda: har kuni u yoki bu falastinlik oilani uyidan, eridan, hujjatlaridan mahrum qilishmoqda.

“Odamlarni ko‘chirish va ularni ko‘chkindilar bilan almashtirish rejasi bor. Buning uchun oddiy vositalardan foydalaniladi: ular falastinliklarga ko‘plab mayda muammolarni yuzaga keltirishadi, ushbu mayda muammolar jamlanganda har bir alohida oila uchun ulkan muammoga aylanadi”.

Qiyinchiliklar ko‘chkisi nimadan yasalgan? Jarimalar, sudlar, uy va yer hujjatlarini tan olmaslik, uyni ta’mirlashni taqiqlash, mulkni rasmiylashtirishdan bosh

tortish, do‘konlar, restoranlar, savdo-sotiqni siqib chiqarish, maktab qurishni taqiqlash, ko‘chkindilarning falastinliklarga hujumlari, bolalarni hibsga olish, sudlardagi adolatsizlik – bu sanab o‘tilganlar kundalik hayot tarkibiy qismining kichik bir bo‘lagidir.

“Muammo ularning xalqida. Ular biz bilan yonma-yon yashaydilar, lekin o‘z insoniyligi nimaga aylanib yuorayotganini ko‘rmaydilar. 1982-yilda Tel-Avivda urushga qarshi 500 ming kishilik namoyish bo‘lib o‘tgandi. 2008-yilda esa bor-yo‘g‘i 10 ming kishi chiqdi ...”

Uning fikricha, Isroil tomonidan davlat va jamiyat tamoyiliga aylantirilgan o‘ziga xos shafqatsizlik, o‘nlab yillar davomida shunchaki Falastin xalqini yaratmagan. U shikoyat qilmaydigan, dunyodan hech narsa so‘ramaydigan va undan hech narsa kutmaydigan xalqni yaratdi. Agar kimdir bu dunyoda, Soljenisinning qamoqxona uchun shakllantirgan tamoyili bo‘yicha yashayotgan bo‘lsa, bu falastinliklardir: *kutma, qo‘rqma, so‘rama.*

Ziyod NBC tomonidan suratga olingan G‘azodan Quddusga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir soatda etib borish mumkin bo‘lsa-da, uch kun davomida yolg‘iz, kattalarsiz aylanma yo‘l bilan borgan bolalar haqidagi filmni eslaydi: “Ular juda horg‘in edi. Ular tunni aeroportda o‘tkazishadi. Lekin ular kameraga qarab jilmayib turishardi”.

“Allohu akbar” – bu kriminal

Quddusda yashovchi falastinlik qiz Latifa Abdul Latif 24 yoshda, u matematika o‘qituvchisi. U bolaligidan Al-Aqso masjidiga ibodat qilish uchun borardi. Latifa Al-Aqso hududida isroillik ko‘chkindilarni ko‘rganda “Allohu Akbar” so‘zlarini aytgani uchun Isroil maxsus xizmatlari 2014-yil noyabr oyidan unga masjidga yaqinlashishni taqiqlab qo‘ydi. Uning Isroil oldida boshqa hech qanday aybi yo‘q.

Juma va shanbadan tashqari har kuni Quddusning Eski shahar maydonida, ikkita masjid – Al-Aqso va Qoya gumbazi joylashgan hududda qarshilik ko‘rsatishning to‘lik dramatizmi sodir bo‘ladi. Musulmon ayollarning to‘dalari soqchilar va muxbirlar

qurshovidagi yalangoyoq erkaklar guruhlarini ko‘zlab, yugurishadi va bir ovozdan atigi ikkita so‘zni aytishadi: “Alloh-u Akbar!” Ularning yo‘lida Isroil askarlari turadi. Ularning yahudiylarga yaqinlashish niyati ham yo‘q. Ko‘chkindilar qo‘rqa-pisa maydonni aylanib o‘tishadi. Qizlarni esa ro‘yxatga va suratga olishadi, ba’zilarini esa hibsga olishadi va bu yerga kelishini sud orqali taqiqlashadi.

Bundan nima ma’no bor? Ular ham, bular ham nimani xohlaydi?

Ko‘chkindilar nimasi bilan xalaqit berayapti deysizmi? Ular bu yerda yursa nima bo‘libdi?

Zero, masjidlarga kirish ularga taqiqlangan. Ularga masjidlarda ibodat qilish ham rasman mumkin emas – ibodat kitoblari, diniy yozuv o‘ramlari va boshqa atributlarni bu yerga olib kirmaslik uchun isroillik qo‘riqchilar ularni tintuv qilishadi.

Falastinliklar esa ko‘chkindilar bu yerga bejiz kelmayotganiga ishonishadi.

Ularning fikricha, nisbatan tajovuzkor isroilliklarning tashriflari Isroil hukumati rejasining bir qismi bo‘lib, u avval yahudiylarga ibodat soatlarini ajratish, keyin ular uchun maydonning bir qismini chegaralash, so‘ngra masjidlarni vayron qilish va bu yerda Uchinchi ibodatxonani qurish uchun musulmonlarni bu yerdan butunlay haydab chiqarish niyatida.

Bu shunchaki gazak olgan tasavvurning mevasi bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin ko‘plab masjidlar falastinliklardan aynan shu tarzda, bosim o‘tkazuvchi ko‘chkindilar yordamida tortib olingan. Masalan, Al-Xaliladagi Ibrohim masjidi ikki qismga bo‘lingan, bir qismida sinagoga qurilgan. Vifleemdagi Rohiliy masjidi, Siondagi al-Daudiy oilasi masjidi va boshqalar to‘liq yahudiylar qo‘liga o‘tgan.

Eski shahardagi kichik hovlida Al-Aqso masjidi darvozasi yaqinida bir nechta ayol ziyoratgohni himoya qilish uchun plakatlar osib qo‘yishdi. Ular erta tongdan beri shu yerda. Buterbrodlar bilan qorin to‘qlashadi. Ularga Al-Aqsoga kirish taqiqlangan. Soat 11:30 da yaqin oradagi armiya qo‘rg‘oniga borib, imkoniyatga qarab: yomg‘ir yoki qor yog‘masa, joynamozlarini to‘shab, namoz o‘qib, ertagacha uy-uylariga tarqaladilar.

Latifa Abdul Latif isroillik ko‘chkindilarning Al-Aqso masjidiga tashrif buyurishiga qarshilik ko‘rsatib norozilik namoyishlariga chiqayotgan o‘nlab musulmon ayollaridan biri.

Falastinliklar Al-Aqsoni himoya qilish uchun turli jamg‘armalar va guruhlar tuzadilar – rasmiylar esa turli bahonalar bilan ularni ketma-ket yopadilar. Bu ayollar faqat blokpost yaqinida jamlanganini bildirishadi xolos, ularning boshqa hech qanday birlashmalari mavjud emas.

Latifaga uch oy, boshqalarga yarim yilga taqiq qo‘yildi. Ba’zilarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatini olib qo‘yishgan, bu hujjatsiz falastinlik Quddusda bir qadam ham yura olmaydi, boshqalari uy qamog‘iga hukm qilindi.

Ko‘pchilik musulmonlar “Al-Aqso” nomini eshitib va suratini ko‘rib, darhol asosiy ziyoratgoh qaerda-yu, ikkinchi darajali ziyoratgoh qaerdaligini qat’iy aniqlashtirishga kirishib ketadilar.

Falastinliklar esa Quddusning Eski shahridagi butun majmuani, ikkita masjid – Al-Aqso va Qoya gumbazi joylashgan butun maydonni muhofaza qilmoqda. Va qisqagina qilib: “Biz Al-Aqsoni muhofaza qilyapmiz”, deydilar.

Maydonning o‘zi esa majmua ishlari bo‘yicha maxsus qo‘mita – vaqf boshqaruvida. Biroq barcha darvozalar Isroil armiyasi tomonidan nazorat qilinadi. Armiya va maxsus xizmatlar u yerga to‘siqsiz kirib, har kuni barcha binolarni, shu jumladan, masjidlarni ham tintuv qiladi, falastinliklarni qo‘lga olish va hibsga olish tadbirlarini o‘tkazishadi. Falastin politsiyasi bu yerda umuman yo‘q, garchi rasman, BMT qaroriga ko‘ra, Sharqiy Quddus Falastin muxtoriyati yurisdiksiyasida bo‘lsa ham.

Bu shunchaki diniy asoslardagi mojaro emas – unga siyosatchilar, tarixchilar va hatto arxeologlar ham qo‘shilib ketishgan.

Al-Aqso Islomda Makka va Madinadan keyin uchinchi muqaddas joy hisoblanadi. Musulmonlar Iso payg‘ambarning ikkinchi qaytishi aynan shu yerda sodir bo‘lishiga ishonishadi.

Yahudiylar esa Qoya gumbazi masjidi yahudiylarning Sulaymon ibodatxonasi o‘rnida qurilgan deb hisoblaydilar. Ular Ibrohim payg‘ambar Ishoq ismli to‘ng‘ich o‘g‘lini aynan shu yerda qurbonlik qilmoqchi bo‘lganiga aminlar. Ular bu tog‘ni Ibodatxona tog‘i deb atashadi *(falastinliklar bu so‘zni hech qachon ishlatishmaydi)*. Ular Qo‘rqinchli sud *(qiyomat)* faqat yahudiylar uchun va Mashiah kelgandan keyin bo‘lishiga ishonadi.

Musulmonlar “Ibodatxona tog‘i” nomiga qarshi, chunki ular yahudiylarning ibodatxonasi bu yerda joylashganini rad etishadi. Ularning fikricha, Ibrohimning to‘ng‘ich o‘g‘li Ishoq emas, Ismoil bo‘lib, uni Quddusda emas, balki Makkada qurbonlik qilishi kerak edi, buni islom diniga e’tiqod qiluvchi va hajga borishga tayyorgarlik ko‘rayotgan har bir kishi biladi.

Musulmonlar yahudiylarning bu majmuaga bo‘lgan da’volarini qabul qilmaydilar va ularni fundamentalist ko‘chkindilar kuchi bilan davlat tomonidan amalga oshirilayotgan navbatdagi, yerlarni egallash bilan bog‘liq tadbirlar deb hisoblaydilar. Isroilning ulkan arxeologik tadqiqotlariga qaramay, bu joyda Sulaymon ibodatxonasi bo‘lganligini ko‘rsatadigan birorta ham artefakt topilmaganligini musulmonlar, ko‘plab olimlar, arxeologlar va so‘l isroilliklar ta’kidlab kelmoqdalar. Shu bilan birga podsho Iroddan oldin Muqaddas zaminda yahudiylar bo‘lganligini tasdiqlovchi birorta arxeologik dalillar topilmagan.

Arablar masjidni ta’mirlayotganda isroilliklar hech narsa topib olmasliklari uchun kechalari bilan yer ostidagi tuproq va tarixiy topilmalarni chiqindixonaga tashlashgan – deb yangrovchi cho‘pchakka, mutloq jiddiylik bilan meni ishontirishga harakat qilgan yahudiylarni bilaman ...

Muqovamatning ko‘p qatlamli ba’zisi mana shunday. Qarshilik ko‘rsatish – oddiy hayotning fikr yuritish mumkin bo‘lgan barcha yo‘nalishlari bo‘yicha, ba’zan chet eldan nazar tashlaydigan inson uchun tushunish qiyin bo‘lgan yozilgan va yozilmagan qoidalar bo‘yicha kuchlarning zo‘riqishi bilan sodir bo‘ladi.

Falastinliklarda masjidlarni qo‘riqlash uchun hech qanday qurolli kuchi yo‘q. Sharqiy Quddusdagi falastinliklar guruhlarga a’zo emas, ularda qurolga va qurollanish uchun imkoniyati yo‘q. Ko‘chkindi yoki askarga tosh otmoqchi bo‘lgan har qanday erkak terrorchi sifatida yillab hibsga olinadi.

Ayollar protesti – falastinliklar uchun oxirgi imkoniyatdir. Tom ma’noda.

Uning mazmuni quyidagicha.

Masjid atrofida aylanib yurgan isroillik ko‘chkindi va ularning qo‘riqchilarini ko‘rishlari bilanoq ayollar birgalikda “Allohu Akbar”, degan kalimani aytadilar.

Isroil armiyasi va maxsus xizmatlari ko‘chkindilarning bu yerga ibodat anjomlarisiz kelishini hushyorlik bilan kuzatib boradi. Shuningdek, ular ayollarning ko‘chkindilarga yaqinlashmasligini nazorat qilishadi. Ular bu ayollarni suratga va videoga olishadi, ular esa yuzlarini yopishga harakat qilishadi, agarda ularning shaxsi aniqlansa, bu yerga kirish taqiqlanadi.

2014-yilning yozida norozilik namoyishlarida o‘smirlar ham, erkaklar ham qatnashgan. Lekin ular bilan hisoblashib o‘tirmasdilar – hibsga olib, kaltakladilar. 2014-yil oktyabr oyida Isroil hukumati 50 yoshgacha bo‘lgan barcha erkaklar va ayollarga Al-Aqsoga kirishni taqiqlaganidan so‘ng ayollar so‘z kuchi bilan norozilik bildira boshladi.

Mana shunday g‘oyaviy va diniy qarama-qarshilik bu yerda sodir bo‘lmoqda va 2014-yil noyabr oyidan boshlab u keskin tus oldi.

Yakshanbadan payshanbagacha soat 7:30 dan yahudiylar, nasroniylar va sayyohlar uchun Mag‘rib darvozalari ochiladi. Ushbu darvozalarga Yig‘i devorining o‘ng tomonidagi blokpostdan ancha xunuk yog‘och pandus orqali o‘tiladi.

Musulmonlar uchun bir nechta boshqa darvozalar ochilgan. Musulmon inson musulmon bo‘lmagan do‘sti bilan bir darvozadan kira olmaydi.

Juma va shanba kunlari faqat musulmonlarga o‘tishga ruxsat beriladi. Mag‘rib darvozalari shu kunlarda yopiq.

Masjidlarga faqat musulmonlar kirishi mumkin – bunday qoida 1969-yilda avstraliyalik fundamentalist, xristian cherkovi a’zosi Al-Aqsoga o‘t qo‘yishi bilan bog‘liq mashhur voqeadan keyin amalga kiritilgan.

Shu bilan birga har kuni kechqurun Isroil askarlari barcha binolarni tintuv qiladi – bu ziyoratchilar tunashi taqiqlangan yer yuzidagi yagona masjiddir.

Juma va shanbadan tashqari har kuni erta tongdan bu yerga guruh-guruh bo‘lib ko‘chkindilar kelishadi. Ular poyabzallarini echib, Qoya gumbazi masjidini aylanib chiqadilar. Ular eramizning I asrida rimliklar tomonidan vayron qilingan yahudiy ibodatxonasi Qoya gumbazi masjidi o‘rnida bo‘lgan deb hisoblashadi. Ular qoyani “haramlar harami” deb atashgan va u yerga faqat bosh ruhoniylar kirishi mumkin bo‘lgan joy deb hisoblashadi.

Ko‘chkindilarning bu yerga tashrifi, musulmonlar nuqtai nazaridan, ataylab qo‘zg‘atuvchi xususiyatga ega. Ayniqsa, 50 yoshga to‘lmagan musulmonlarning majmuaga kirishi taqiqlangani Ramazon oyida jiddiy noroziliklarga sabab bo‘ldi. Ko‘chkindilar bu yerga ibodatxona marosimi sharobini olib kelib, uni shu yerda icha boshlaganlari yanada ko‘proq g‘azabga sabab bo‘ldi. Vaqti-vaqti bilan musulmonlarning masjidga o‘tishi umuman to‘sib qo‘yiladi.

Bo‘lajak bosh vazir Sharon 2000-yilning kuzida Al-Aqsoga ko‘chkindilar bilan birga ibodat qilish uchun keldi, natijada Falastin qo‘zg‘oloni boshlandi.

Musulmonlarning fikricha, ko‘chkindilarning marosim harakatlari va ibodat qilishga urinishlari ko‘plab masjidlar kabi musulmonlar uchun eng muhim ziyoratgohni bosib olishga qaratilgan siyosiy rejaning bir qismidir. YUsuf dafn etilgan Nablusdagi masjidni nazorat ostiga olish uchun o‘ziga xos kampaniya ketmoqda[55].

“Ayollar uyg‘ondi. Biz ko‘pchilikmiz. Oramizda kimgadir taqiqlansa, boshqa birimiz kelamiz”, – deydi Latifa.

[55]Yahudiylar shunday deb hisoblaydilar. Musulmonlar esa Nablus masjidida faqat ramziy qabr borligini, uning o‘zi esa Xevronda dafn etilganini ta’kidlaydilar.

U Isroil armiyasi masjidlar hududida “Allohu Akbar” so‘zlari uchun ta’qib qilayotganidan g‘azabda.

Uning eslatishicha, bu so‘zlar bilan azon – namozga chaqiruv boshlanadi, uni Isroilda ham bir necha bor taqiqlash yoki ovozini pasaytirishga urinishgan.

“Bu so‘zlar “Alloh buyukdir” degan ma’noni anglatadi. Bu so‘zlarni aytganlik uchun nimaga asoslanib jazo tayinlanadi? Undan keyin nima bo‘ladi? Ular allaqachon 50 yoshgacha bo‘lgan erkaklarga har qanday masjidga borishni taqiqlamoqda. Ular ayollarning bu yerga kelishini taqiqlagan”, – deya hayratlanadi Latifa.

Ayollarga nisbatan alohida sinchkovlik shundaki, aynan ularning kirish joyida shaxsini tasdiqlovchi hujjatini olib qo‘yishadi, uni qaytarib bermasliklari yoki istalganini ushlab qolishlari mumkin.

“Agar juma kuni akam bilan ibodatga borsam, faqat mening guvohnomamni olib qo‘yishadi”, – deydi Latifa.

Ayollarning Xudo haqida guvohlik bergani uchun politsiya tomonidan ta’qib qilinishi uni g‘azablantiradi.

“Necha marta shunday bo‘lgan: men darvoza qo‘riqchilariga yaqinlashar ekanman, ular allaqachon mening ismimni va hatto qaerda yashashimni ham bilishadi. Bu menga tahdidmi? Ular biz haqimizdagi hamma ma’lumotga ega ekanligini namoyish qilishadi”, – deydi qiz.

“Biz har kuni kelamiz va kirish eshigi oldida o‘tiramiz. Hech narsa meni to‘xtata olmaydi. Ular bizni qo‘rqadi deb o‘ylashadi, lekin bizning ular oldida qo‘rquvimiz yo‘q”, – deydi u.

Qizning otasi kitob do‘koni egasi. Yoshligida u ham qarshilik ko‘rsatishda qatnashib, 13 yil Isroil qamoqxonasida o‘tirgan. Uning onasi Orient House *(“Sharq uyi” - madaniy uyushmasi)* da kotiba bo‘lib ishlagan. Akasi arxitektor va IT sohasi mutaxassisi.

“Ota-onam bizni to‘xtatishadi, ularning bor-yo‘g‘i bizmiz – men va akam. Ammo yoshlar endi tahqirlashlarga chidashni istamaydi”, – deydi Latifa.

“Besh-yil ichida ular 50 nafar ayolga masjidga kirishni taqiqlab qo‘yishdi. Bu noqonuniy. Norozilik bildirish uchun kelgan barcha ayollar kaltaklangan, hibsga olingan”, – deya davom etadi u.

Uning ta’kidlashicha, ayollar taqiq haqidagi hujjatlarni imzolashga rozilik bermaslikka harakat qilishadi, garchi bu yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lsa ham.

“Agar imzolashdan bosh tortsang, seni Ramliga – Tel-Avivdagi qamoqxonaga jo‘natishadi, sud qilishadi va taqiq muddati berishadi”, – deydi qiz.

Ko‘chkindilarning tashrif buyurishiga qarshi tizimli noroziliklar 2011-yilda boshlangan.

Latifa bolaligidan Al-Aqsoga ibodat qilish uchun kelgan va bu huquqdan qanday asoslarda mahrum qilinganini tushunmaydi.

“Bu yerda ko‘chkindilar ibodat qilishadi va sharob ichishadi – ular buni ikki yoki uch marta qilishgan, lekin bu ularga hech qanday oqibat keltirib chiqarmagan. Qonun hamma uchun barobar emas. Armiya har doim ular tomonida”, – Latifa, Ariel Sharon 2000-yilda Al-Aqsoga tashrif buyurganida, ikkinchi intifada yoki Al-Aqso intifadasi boshlanganini eslatadi. Shu voqeadan keyin bir muncha vaqt davomida ko‘chkindilarning bu yerga kelishi taqiqlandi. Endilikda ko‘chkindilarning tashriflari qayta tiklanib, muntazam ko‘rinish hosil qildi.

“Biz Al-Aqso musulmonlar uchun ekaniga, Iso Masih Quddusga yana kelishiga ishonamiz. Men hech qanday dinga qarshi emasman. Muhammad payg‘ambar yahudiylar bilan do‘stlik aloqalarida bo‘lgan. Biz har bir dinning o‘z ko‘rsatmalari bo‘lishini tushunamiz, ammo biz ko‘chkindilarning Al-Aqsoni vayron qilish va bu yerda Sulaymon ibodatxonasini qurish rejasiga qarshimiz”, – deydi Latifa.

Uning ta’kidlashicha, nasroniylar bilan musulmonlar o‘rtasida hech qanday murakkabliklar vujudga kelmaydi.

Qizning eslashicha, 2014-yildagi 51 kunlik urush paytida G‘azo nasroniylari ko‘plab masjidlar bombardimon qilingani sababli musulmonlarni o‘z cherkovlariga ibodat qilishlik uchun taklif qilishgan.

U falastinlik nasroniy Ramazon oyida ko‘chalarda yurib, musulmonlarga kechasi iftorlik haqida eslatish majburiyatini o‘z zimmasiga olgani haqida hikoya qiladi.

“Nasroniy, pravoslav ko‘chalarda yurib: “Musulmonlar, uxlamanglar!” – deb qichqirardi. Munosabatlarimiz qandayligini tushunyapsizmi?” – deydi u.

“Bunday misollar juda ko‘p. Masalan, Quddusdagi Qayta tirilish ibodatxonasining kalitlari ko‘p asrlardan beri musulmonlar qo‘lida saqlanadi”, – deb eslatadi Latifa.

U musulmonlarning ziyoratgohlariga bunday bostirib kirishni qabul qila olmaydi: “Musulmonlar boshqa dinlarga nisbatan nozik munosabatda bo‘lishadi. Misol uchun, xalifa Umar Quddusga kelganida musulmonlar uni masjidga aylantirib qo‘ymasliklari uchun Qayta tirilish ibodatxonasi ichida ataylab ibodat qilmagan”.

Latifa VII asrda Umar Quddusni zabt etgan vaqtdagi voqealarni eslatadi.

Uning fikricha, ko‘chkindilar keyinchalik egallab olish uchun bu yerga ataylab ibodat qilish uchun kelishadi. Yahudiylar chindan ibodat qilayotganiga Latifa ishonadi: “Ko‘chkindilar masjid hovlisida poyabzallarini echishadi, nimanidir shivirlashadi, Qoya gumbazi tomon ta’zim qilishadi va hatto ketayotganda ham unga orqa o‘girmay, orqaga tisarilishadi, chunki ular o‘z ibodatxonalarini aynan shu yerda joylashgan deb hisoblaydi”.

Yahudiy bo‘lganliklari uchun biz ularga qarshi emasmiz. Ular ko‘chkindilar va bizning erimizni, uylarimizni tortib olib, Al-Aqsoga egalik qilishni istayotganligi uchun biz ularga qarshimiz”, – deya xulosa qiladi Latifa.

Uning so‘zlariga ko‘ra musulmonlar sayyohlarning tashrif buyurishiga qarshi e’tiroz bildirmaydilar, chunki sayyohlar ibodat qilmaydilar va hech narsani egallab olmoqchi emaslar.

U telefonida yangiliklarni koʻradi: “Mana hozir Al-Aqso ma’muriyatida jamoatchilik bilan aloqalar uchun mas’ul boʻlganlardan biri hibsga olinibdi”.

“Biz tosh otishga qarshimiz. Bundan hech narsa oʻzgarmaydi, faqat yomonlashadi. Biz tinch norozilik namoyishi tarafdorimiz”, – deb hisoblaydi qiz.

Ayollar blokpostga qarab ketishyapti.

Askarlar yonidan gid bilan amerikalik sayyohlar oʻtmoqda. Askarlar bilan quvnoq suhbatlashib, ular bilan suratga tusha boshlaydilar. Bu orada yoʻlboshi oʻz-oʻziga yoki musulmon ayollarga qarata bu Ibodatxona togʻi – Uchinchi ibodatxona togʻi ekanligi haqida uzuq-yuluq gaplarni aytadi. Sayyohlar uning orqasidan ergashishadi.

Musulmon boʻlmagan odam Magʻrib koʻprigiga borishi uchun ramkali statsionar blokpostni chetlab oʻtishi, sumkasini koʻrsatishi, toʻliq Yigʻi devorini yoqalab oʻtishi kerak. Yana bir blokpost. Askarlar pasport soʻrashadi, sumkani yana bir bor koʻzdan kechirishadi va boshlaridagi roʻmolga ishonchsizlik bilan qarashadi: “Musulmon emasmisiz? Nasroniymi? Oʻting. Pichoq yoʻqmi?”

Ancha xunuklashib qolgan yogʻoch koʻprik shu yerdan boshlanadi. Undan oʻtsangiz devor yonida ibodat qilayotgan yahudiylarni koʻrish mumkin.

Mana Magʻrib darvozasi.

Al-Aqso maydonida u yer-bu yerda ayollar va erkaklar davra qurib oʻtirishibdi. Qur’on tilovat qilinadi. Ba’zi joylarda qariyalar alohida oʻtirishibdi. Hammasi boshlariga arafatka yopingan. Ruhoniy semirib ketgan mushuklarga emish beradi.

Hamma joyda Isroil armiyasi askarlari aylanib yuribdi, rasiya orqali, ba’zan ancha baland ovozda gaplashishadi. Gidlar bilan sayyohlar toʻdasi masjidlar haqida past ovozda gaplashishadi. Masjidlarning ichiga sayyohlar qachon kirishi mumkinligi koʻrsatilgan eski, yarim yamoq taxtachalar mavjud. 1969-yildan beri ular almashtirilmagan.

Uzoqdan ayollarning zoʻrgʻa quloqqa chalinadigan ovozi eshitiladi: – Allohu akbar! Ovozlar koʻtariladi.

Yaqinroq boraman. Ro‘mol o‘ragan qizlar yuzlarini berkitib, qayoqqadir shoshilishadi. Ularning yo‘lida armiya askarlari paydo bo‘ladi, rasiyalar baland ovozda ishlaydi.

“Ko‘chkindilar, ko‘chkindilar, ana ular”, – deyishadi odamlar past ovozda.

Keksalar qimir etmay, ko‘zlarini Qur’ondan uzmaydilar.

20 metrcha narida ikkita ko‘chkindi shoshilmay kelyapti. Qo‘llar cho‘ntakda. Qizlarni ko‘ribmi, yo harbiylarning ko‘rsatmasi bilanmi, yo‘lni o‘zgartirib, masjiddan uzoqlashadi. Biri poyabzalda, ikkinchisi oq paypoqda. Paypoqning tagcharmi qora. U oq plitalar yotqizilgan maydon bo‘ylab yuradi, hatto ko‘lmaklarni aylanib o‘tishga ham urinmaydi. Ularning atrofida qo‘riqchilar bor, ular ham ko‘chkindilardan. Vaqti-vaqti bilan qadamlarini sekinlatib, bir-birlariga nimadir deyishadi. Bu yurishni kameraga olayotgan ko‘chkindilar ham bir vaqtning o‘zida qadamlarini sekinlashtiradilar.

Qizlar ularga aniq etib ololmayapti. Aytishlaricha, ularni allaqachon qo‘lga olishgan.

“Bugun ko‘chkindilar kam. Ba’zan 30 kishilik guruh bo‘lib kelishadi[56]. Armiya doim ular tomonda”, – deydi falastinlik qariya.

Qizlar ovozi tindi. Lekin erkaklarning ovozi tobora aniqroq eshitila boshladi: – Alloh-u akbar!

Quddusda yashovchi yoshi tufayli bu masjidlarga tez-tez kirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan falastinlik Abdulloh, shunday tushuntiradi: “O‘zimizga va boshqalarga dalda berishimiz kerak bo‘lganda, qo‘rqqanimizda yoki yomon ahvolda bo‘lganimizda, o‘limga tayyor bo‘lganimizda, o‘zimizga eng asosiy narsani eslatishimiz kerak bo‘lganda, biz “Alloh-u Akbar!” so‘zlari bilan Parvardigorni eslaymiz. Bu so‘zlar boshqalar uchun tahdid solmaydi. Lekin ular negadir bu so‘zlardan qo‘rqishadi”.

Abdullohning aytishicha, ertami-kechmi Isroil masjidni tortib olib, uni vayron qiladi. Sionistlarning Eski shahardagi har bir toshga, har bir uyga tish-tirnog‘i bilan

[56] 2023-yilga kelib 200 va 300 nafar ko‘chkindi ham kela boshladi.

yopishib, o‘ljasini butunlay qo‘lga kiritmaguncha qo‘yib yubormasliklarini u juda yaxshi biladi. “Nima ham qilardik, Xudoning xohishi shunday bo‘lsa, biz Al-Aqsodan ayrilamiz. Biz esa to ular hammamizni o‘ldirmagunlaricha, so‘nggi daqiqagacha o‘sha yerga kelib, ibodat qilaveramiz. Men buni bilaman. Va men tayyorman”, – deydi Abdulloh.

Quddusni falastinliklardan tozalash

Quddusdagi falastinlikning hayoti – bu o‘z eri va uyi uchun litsenziya olish, tom va devorlarni ta’mirlash ilinjida o‘z huquqini himoya qilishga sarflangan yillardir. Uying yo‘qmi – Qudduslik bo‘lishni to‘xtatasan.

Uzoqdagi sokin va go‘zal olamda yashovchi insonga, taraqqiyparvar Isroil hukumati – terrorchilarning turar joylari bilan bir qatorda xaroba uylarni ham buzib tashlayotgandek tuyuladi. Unisi ham, bunisi ham mutlaqo oqilona va qonuniydek go‘yo. Biroq uylarni buzish Quddusni falastinsizlashtirish siyosatining bir bosqichidir.

Falastinliklardan tozalash qanday ketayotgani haqida oddiy falastinliklar misolida aytib beraman.

Quddusning Eski shahar qismidagi Al-Aqso masjidi yaqinidagi Bob Xotta tumanida joylashgan mustahkam, qadimiy qurilmalar. Tashqi ko‘rinishidan boshqalaridan farq qilmaydi.

Uy egasining ismi Xolid Arofat Shuaykiy. Uning oilalari bor edi. Ulardan ikkitasi bu yerda ortiq qololmaydi.

Samer Shaker 11 ta oila a’zosi bilan poli qulagan xonada yashagan. Ahmad Shuaykiy sakkiz farzandi va butun oilasi bilan pastda yashagan – uning shifti qulab tushgan. Bir kun oldin yomg‘ir, namlik va eskirish tufayli bu uyning tomlari qulab tushdi. Tasodif tufayligina hech kim halok bo‘lmadi. Tashqaridan qarasang, huddi oddiy bir maishiy masalaga o‘xshaydi.

Uy atrofida odamlar to‘planib turibdi. Jurnalistlar kelishgan.

Uy egasi ichkariga taklif qiladi. Yo‘lak bo‘ylab yurishda, devorlarga yaqin bo‘lishga harakat qilish kerak. U yerda yurish haqiqatan ham xavfli. Yon tomonga bir qadam qo‘ysangiz, poldagi teshikdan pastga tushib ketishingiz yoki boshingizga tomning bir bo‘lagi qulashi mumkin. Munitsipalitet xodimlari ertalab uyda qolishni taqiqlovchi tasmalarni tortishdi – mana shu munitsipalitetning bu odamlarga bergan yordamining hammasi.

“Uyni ta’mirlamoqchi bo‘lganimda munitsipalitet ruxsat bermadi”, – deydi uy egasi. Uning tushuntirishicha, agar u yoki uyda yashovchilardan kimdir biror narsani ta’mirlashni boshlasa, unga jarima solishadi.

“Ular bizga ta’mirlashni taqiqlamoqda. Uy mustahkam edi. Ammo vaqt o‘tishi bilan hamma narsa, hatto shunday mustahkam inshoot ham eskiradi”, – deydi u. “Ular” – deyilayotganda munitsipalitet nazarda tutiladi.

“Bu faqat bizning shaxsiy muammomiz emas – balki butun shahardagi uylar shu ahvolda. Ayniqsa, Al-Aqso yaqinida”, – deb aniqlik kiritadi Xolid.

Bu oilalarning omadi keldi – ularni vaqtincha mehmonxonaga ko‘chirishdi, ular uchun Falastin muxtoriyati ma’murlari pul to‘lashadi, garchi Quddusda bu hokimiyatning birorta idorasi yo‘q va ularning bu yerda bo‘lishi taqiqlangan bo‘lsa ham. Shahar Isroil tomonidan boshqariladi *(yoki Isroilning okkupatsiyasi ostida. Atamalar, falastinlik yoki isroillik gapirishiga qarab ishlatiladi).*

BMT Quddusning okkupatsiya qilingan qismi maqomini tan olganligi sababli vaziyat unchalik umidsiz emas. Agar masalaga nekbinlik bilan qaralsa, albatta. Falastinliklar esa hamma narsaga shunday qarashadi.

Xolid istiqbolni tasvirlaydi: uy BMTga tegishli qo‘mitalar ishtirokida ta’mirlanadi, ammo avval BMT vakillari munitsipalitetdan ta’mirlash uchun ruxsat olishi kerak. Bu tez bitadigan ish emas.

Xolid o‘ylanib qoladi: “Bunga qancha vaqt ketishi noma’lum. Umid qilamanki, oylar va yillar emas... Ta’mirlashning o‘zini tezda qilamiz. Asosiysi – ruxsatnoma”.

Falastinlik inson munitsipalitet oldida hech kim. Agar u va uning muammosi uchun BMT iltimosnoma kiritsagina, unga tom, shift, devorlar, eshik va derazalarni ta’mirlashga ruxsat berilishini kutish mumkin. Keyin BMT oilaga ta’mirlash uchun to‘lov ajratishi kerak bo‘ladi – bunday pul har qanday oilada ham bo‘lavermaydi. Ruxsatnomalar va hujjatlar aylanishi tugagach, butun oila boshqa ishlarni chetga surib, uy-joyni ta’mirlashga kirishadi. Buni ham tezroq qilish kerak – aks holda ruxsatnomani bekor qilishlari mumkin.

“Agar yahudiy oilasi jabr ko‘rganida, ular ertasiga Eski shaharda yangi uy-joyga ega bo‘lishardi va bir oydan so‘ng bu uyi ham ta’mirlangan bo‘lardi”, – deydi Xolid.

Ehtimol, isroilliklarning do‘stlari va qarindoshlari oddiy falastinlik nimalarni boshdan kechirishini bilmas. Qayoqdan bilishsin? Axir, isroillik hech qachon bunga o‘xshash holatni boshdan kechirmaydi.

Aholining fikricha, bunday cho‘kishlarga nafaqat vaqt, qor va yomg‘ir, balki Isroil hukumati ko‘p yillar davomida Al-Aqso yaqinida olib borgan qazishmalar ham sabab bo‘lgan, buning natijasida o‘nlab yillar davomida ta’mirtalab uylarning poydevorlari cho‘kib borgan.

Isroil rasmiylari bunga javoban Al-Aqso ostida yer qaziyotgan falastinliklarning o‘zlari ekanini aytmoqda. Ahvolning bu darajada yomon bo‘lishiga ularning o‘zlari aybdor deyishadi.

Qanday bo‘lmasin, falastinliklar Quddusdagi uylarini yo‘qotmoqda, lekin bu jarayonga qarshi turishga harakat qilmoqda. Imkoniyatlari unchalik ko‘p emas.

Quddusning Eski shahridagi qadimiy Al-Xanin bozorini aylanib o‘tsangiz, chiroyli ko‘chalar tobora torayib boradi va yorilib ketgan devorlarga tiralgan zanglagan temir ustunlar bilan to‘sib tashlangan uylarga to‘satdan ko‘zingiz tushadi.

Burchakda – al-Iromiy xonasiga olib boradigan chayqaladigan qorong‘i tik zinapoya. Eshikni Loay Soblabann ochadi. U 22 yoshda, olti farzand va ota-onasi bo‘lgan oilada Loay yagona boquvchi hisoblanadi. Farzandlarining kenjasi olti yoshda.

“Otam kasal, u zarba olgan. Men katta farzandman. Yahudiylar restoranida ishlayman. Arablarda ish yo‘q”, – deydi yigit. Uning aytishicha, falastinlik ishbilarmonlarning ishlari shunchalik yomonki, ular odam yollab ishlata olmaydi.

Ularning kvartirasi yuqorida, bozorning shundoqqina tepasida joylashgan. Bu hukmron balandlik. Pastda butun kommuna bo‘ylab faqat ikkita falastinlik oila o‘z uylarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Atrofdagi boshqa binolar ko‘chkindilar tomonidan egallab olingan.

“Hammasi men tug‘ilmasimdan oldin boshlangan. Arab qo‘shnilarimiz ishsiz qoldi, soliq to‘lay olmadi, qarzlari ko‘payib ketdi. Ular pul topish uchun ketishgan, qaytib kelishganida esa uylari egallab olinganini ko‘rishdi”, – deya tushuntirdi Loay.

“Ertalab jurnalistlar kelishdi – uyimizning shifti qulab tushdi, munitsipalitet esa ta’mirlashni taqiqlab qo‘ygan”, – deydi u.

Ko‘chkindilar o‘z binolarini ta’mirlash ishlarini amalga oshirishgan. Ular shu yerda yashashadi, diniy maktabi ham bor. Shanba. Eshiklar lang ochiq.

Loay tomga chiqishni taklif qiladi. Shu zahoti qurollangan ko‘chkindi paydo bo‘ladi va bizni diqqat bilan kuzatadi.

Bozor tomi ustida baland bino qad ko‘tarib turibdi – bu Soblabannlar oilasining xonadoni.

“Bizning uyimiz eng yuqori nuqtada. Uyimizdan hammasi ko‘rinib turadi, shuning uchun ular uyimizni tortib olishmoqchi. Ko‘chkindilar onam va bolalarni kaltaklashgan. Bizni doimiy ravishda provokatsiya qilishadi, devorlarga tahdid so‘zlar yozishadi”, – deydi Loay.

Ko‘chkindilar tomda bolalar uchun maydoncha jihozlashgan, u yerga arab bolalari kirishi taqiqlangan. Yaxshiyamki, u yerda yahudiylar egallab olgan barcha joylarda bo‘lgani kabi nazorat-o‘tkazish punkti yo‘q, buning uchun joy ham yo‘q, hozircha topilmayapti. Ammo ko‘chkindilar qurollangan, falastinliklar esa yo‘q. Shuning uchun ko‘chkindilar falastinlik bolalarni shunchaki tomga qo‘yishmaydi. Bozor tepasidagi kichik masjid temir panjara bilan o‘ralib ikki eshikdan biri yopilgan.

Bozorning havo o‘tkazish quvurlarida ko‘chkindilarning velosipedlari qor, yomg‘ir va issiqdan himoyalash uchun joylashtirilgan. Bu xavfsizlik qoidalari bilan taqiqlangan, ammo ushbu qoidalar ko‘chkindilarga taalluqli emas.

Loayning fikricha, ko‘chkindilar ustidan politsiyaga shikoyat qilish befoyda.

“Ular bu yerda juda ko‘p, ular hamma joyda bor, hatto yer ostida ham o‘zlariga uy qurib olishgan. Ular istalgan narsani qurishlari mumkin, garchi bu taqiqlangan bo‘lsa-da, ular hatto qurilishlarini kengaytirishi ham mumkin. Pastki qavatdagi arab oilasi uchun butun boshli ko‘chani yopib qo‘yishdi, – ular endi qo‘shnilari tomidan o‘z uylariga tushib borishi kerak bo‘lishin aytib, Loay tor zinapoyani ko‘rsatadi.

“Mening oilam bu uyda katta bobom kelib joylashgan davrdan beri yashab keladi. Ko‘chkindilar esa butun dunyodan kelib, uylarimizni tortib olishmoqda”, – u ko‘plab xayriyachilar falastinliklar uchun pul yig‘ayotganidan hayratda, ammo hech narsa qila olishmayapti: Falastin uchun yig‘ilgan pullar bilan bu masalani hal qilib bo‘lmaydi.

Eski shahar tashqarisida ham ahvol bundan oson emas.

Quddus chekkasidagi chiroyli tepalik Jabal Al-Muqqabinda daraxtlar bilan o‘ralgan Falastin uyi ajralib turadi. Uning orqasida ko‘p qavatli qurilish – ko‘chkindilar uchun uy qurilmoqda. Agar atrofga qarasangiz, tevarakdagi hamma tepaliklar ana shunday ko‘p qavatli uylar bilan egallab olingan.

Uy egasining ismi Xolid Rabaya, u 51 yoshda, konditsioner ustasi. Uning olti nafar farzandi bor. U bilan birga uyda otasi o‘z oilasi bilan va amakisi bolalari bilan – jami 24 kishi yashagan.

Ularning hammasi shu yerda, shu zaminda tug‘ilgan. Uyning eng eski qismi uchun ularning qo‘lida 1943-yilda Britaniya bergan litsenziyasi bor edi[57]. Yer uchastkasi shu odamlarga tegishli. 15 yil oldin ular kattarib ketayotgan oilaga yashash joyi bo‘lishi uchun uylarini kengaytirdilar.

[57] Falastin 1918 yildan 1948 yilgacha Britaniya mandati ostida bo‘lgan.

O‘tgan asrning 70-yillarida ulardan yuqorida joylashgan tepalikdagi falastinlik qo‘shnilari o‘z bog‘larini ko‘chkindilarga sotdilar. Bundan besh yil oldin bu yerda ko‘p qavatli uylar qurilishi boshlangan edi. Falastinliklar norozilik bildira boshladi va qurilish ishlari to‘xtatildi. Ammo bir yil oldin qurilish qayta tiklandi. Quruvchilar qo‘shnilarning yo‘lini to‘sib qo‘yishdi, unga qurilish chiqindilarini tashlashdi, devorni qaerga o‘rnatishlarini belgilab olishdi, ushbu devorning chegaralarini ko‘rsangiz, Falastin yerlarini yana tortib olganligini ko‘rishingiz mumkin.

Qurilish ko‘plab muammolarni keltirib chiqarmoqda: daraxtlar singan, yo‘llar vayron bo‘lgan, bolalar ustiga qurilish chiqindilari tushmoqda.

“2014-yil mart oyida bizga uyimizni – ya’ni, barcha yangi qurilgan qo‘shimcha binolarni buzishni buyurishdi. Sababi bizda ularga litsenziya yo‘q ekan. Biz munitsipalitetga 80 ming shekel jarima to‘ladik va litsenziya olish uchun advokat yolladik, ammo litsenziya berish o‘rniga uyimizni buzib tashlashdi. Eski Britaniya mandati davridagi uyini saqlab qolish mumkin, o‘z erimizdagi barcha yangi qurilgan qo‘shimcha binolarni esa buzib tashlashimiz kerak. Buzib tashlangan uyning sakkiz kishisi endi ikki xonada yashamoqda. Oshxona hammaga bitta, yuvinish xonasi ham”, – deydi Xolid.

Uyni buzish uchun oila yana 20 ming shekel to‘ladi.

Devor xarobalarini plyonka bilan yopib qo‘yishdi.

“Yog‘in suvlari uyni to‘ldiryapti. Munitsipalitet tomni ta’mirlamasligimiz uchun aylanib yurib, suratga olishadi”, – deydi Xolidning rafiqasi.

“Biz echimni faqat Xudodan kutamiz. Biz bu yerdan ketmaymiz, bir xonada bo‘lsa ham shu yerda yashaymiz. Agar biz ketsak, yahudiylar bu yerni egallab olishadi, biz esa umuman bu yerda yashash huquqidan mahrum bo‘lamiz”, – deb gapni ilib ketadi Xolid.

Bu yer – deyilganda Falastin nazarda tutilmoqda.

“Ilgari ular bizni sotib olishga harakat qilishardi. Ko‘chkindilar va munitsipalitetdan amaldorlar kelib, pul taklif qilishardi. Endi esa bizni qiynashyapti, shunday qilsak bu yerlardan ketadi deb o‘ylashyapti”, – deya xo‘rsinadi oila boshlig‘i.

Oila ko‘p yillar davomida hamma narsani qonuniy hal qilishga harakat qildi, ammo munitsipalitet ularga litsenziya va qurilish huquqini berishni rad etdi.

“Ular bizga litsenziya berishmadi, bu yerda hamma narsani biz uchun o‘zlari qurib bermoqchi ekanligini aytishdi, lekin bu shunchaki gap. Ularning fikricha, falastinliklar bu yerda umuman qolishga haqli emas”, – deydi Xolid.

Boshqacha aytganda, munitsipalitet falastinlik uy egalari ularga pul to‘lashini, ular esa qurilish ishlarini olib borishni xohlagan. Ammo munitsipalitet belgilagan narx haddan tashqari yuqori. “Ular faqatgina bizdan bir million shekel so‘rashdi. Falastinliklar to‘lovi bilan bu yerda barcha infratuzilmani qurish uchun ularga jami 20 million shekel kerak ekan. Ularga ma’lum bir summa emas, balki butun boshli bank kerak!

Munitsipalitet, ko‘chkindilarga atab qurilgan uy-joylar hududini obodonlashtirish uchun falastinlik oilalardan pul undirishni nazarda tutmoqda. Falastinlik oilalar bu hududda qolish-qolmasligi esa katta savol ostida.

Xolidning tushuntirishicha, dastlab ko‘chkindilar ushbu bir qarich erda to‘rtta uy qurishni rejalashtirgan, ammo puli etmagan.

“Ko‘chkindilarning allaqachon erimizga bo‘lgan rejalari bor, shuning uchun amaldorlar bizga hech qachon litsenziya bermaydi”, – deydi Xolid ishonch bilan.

Bayt Xanin kommunasi Katta Quddus, ya’ni Isroil boshqaruvi ostidagi hududda joylashgan.

2013-yil fevral oyida buldozerlar to‘rtta oilaning uyini buzib tashladi, ushbu uchastka hozirda qurilish chiqindilari bilan to‘ldirib tashlangan. Chiqindidardan tozalangan maydonchalarda, qor va yomg‘ir ostida muzlatgichlar va mebel qoldiqlari turibdi, ularni vayronalar ostidan chiqarib olishga muvaffaq bo‘lishgan. Uchta oila ijaraga chiqib ketgan, to‘rtinchisi shu yerda qolgan.

Muhammad Solih 55 yoshda. U yuk tashish dispetcheri edi. 2004-yildan beri oyoqlari va beli bilan bog‘liq muammolar tufayli ishlamaydi. Oilani ikki katta o‘g‘il boqadi. Uning jami bo‘lib sakkiz nafar farzandi bor.

Nega aynan uning uyi buzilgani sabablarini bilmaydi.

“Hamma qo‘shnilarda ham uy uchun litsenziya yo‘q, lekin aynan bizning uyimizni buzishdi. Hokimiyat qo‘shnilarim mening ustimdan gap tashigan deb shubhalanishimni xohladi. Ammo shu narsa ayonki, bizning uyimiz Quddusda ular vayron qilgan 25 ming uydan biri xolos”.

Muhammad litsenziyani qo‘lga kirita olmasligiga ishonadi. “Men buning ustida ishlayapman”, – deydi hazillashib va litsenziya narxi kvadrat metr uchun 1200 shekel ekanligini ta’kidlaydi.

Uyini buzishdan oldin unga 20 ming shekel jarima kelgan – u buni to‘lay olmagan.

“Litsenziyani qanday to‘lashim mumkin?” – deya hitob qiladi oila boshlig‘i.

Uning fikricha, munitsipalitet falastinliklarga ruxsat bermaslik uchun qurilish rejasini ataylab kechiktirgan. Hozirda reja tuzilgan.

“Mening farzandlarim namoyishda qatnashgani uchun uy vayron qilinganidan keyin yana ikki marta hibsga olindi, o‘shanda Muhammad Abu Xdayr[58] o‘ldirilgan edi”, – deydi suhbatdoshim.

Uning o‘rtancha farzandlari uy qamog‘ida edi – biri sakkiz oy, ikkinchisi bir yil va ikki oy.

“Yashash juda qiyin. Hech kim hech qanday sharoitni hisobga olmaydi. Men Quddusdan chiqib ketishdan, devor ortiga o‘tib, u yerda ijaraga turishdan bosh tortdim. Kim devor ortiga o‘tsa, u endi Qudduslik emas va odamlar bunday ko‘chib o‘tishdan qo‘rqishadi, – deydi Muhammad. – Isroil rejasi shunday: ular falastinliklarni Quddusdan tashqariga uloqtirib tashlamoqchi”.

[58] 2014-yilning yozida yahudiy ko‘chkindilar tomonidan tiriklayin yondirib o‘ldirilgan falastinlik o‘smir.

Uning ota-onasi, ikki ukasi va bir o‘g‘lining qismati shunday bo‘ldi: ular Quddusdan quvildi va endi Ramalloh yaqinidagi Samiramisda yashaydilar: “Ammo Samiramis Isroil ham, okkupatsiyadagi G‘arbiy sohil ham emas. U yerda hech qanday xizmat ko‘rsatilmaydi, umuman hech narsa yo‘q, chiqindi tozalanmaydi. Ajoyib kunlarning birida ularga shunday deyishadi: siz devor orqasidasiz, siz G‘arbiy sohildansiz, yo‘qoling”.

“Men falastinlikman, Falastinning istalgan qismida yashash huquqiga egaman, ammo Isroil hukumati imkon qadar ko‘proq falastinliklarni Falastin muxtoriyatiga haydab chiqarmoqchi. Men bu yerni sotib, xohlagan joyimga borishim mumkin – bu qimmatbaho er. Lekin men shu yerda qolaman. G‘arbiy sohildagi munitsipalitetga ruxsatnoma uchun 150 ming shekel to‘la va istagan uyingni qur. Ammo men Quddusdan ketishni, Quddus falastinliklarsiz qolishini istamayman, istamayman”, – deydi Muhammad.

Muhammad yoshligida FATH ga yaqin edi. 1978-yilda u ikki oyga hibsga olindi, ammo hech qanday ayb topa olmadi.

“Men nima to‘g‘ri bo‘lsa, shuni qilaman. Hozir esa o‘z erimda qolish to‘g‘ri”, – deydi u.

Uning barcha farzandlari yig‘ilib, suratga tushishini so‘rayman. Yuqoridan, biz o‘tirgan vaqtinchalik uyning temir shiftidan vaqti-vaqti bilan ustimizga suv tomchilab turadi. Uni artib qo‘yishadi, lekin tez orada hammasi takrorlanadi. Bu yerdagi mebellar nam, biz esa gaplashib o‘tirar ekanmiz, kiyimlar ham nam tortadi.

“Men hech qanday partiyaga mansub emasman. Menda Quddus masalasida g‘oyam bor: agar uni hamma qabul qilsa, partiyalarga hojat qolmaydi”, – deydi Muhammad.

G‘oya shunday.

Quddusda ID *(ya’ni vaqtinchalik yashash guvohnomasi)* ga ega falastinliklar soni 200 mingdan ortiq *(munitsipalitet ma’lumotlariga ko‘ra – 270 ming, Falastin tashkilotlari ma’lumotlariga ko‘ra – 350 ming).*

Ularning 100 ming nafari ayollar va bolalar bo‘lib, ular ishlamaydi.

100 ming kishi ishlaydi.

Muhammadning fikriga ko‘ra, agar har bir kishi kuniga hech bo‘lmaganda bir shekel bersa, Quddusdagi Falastin jamiyati kuniga 100 ming shekelga ega bo‘ladi. Agar oyiga hech bo‘lmaganda 20 kun shu miqdorda pul yig‘ilsa, oyiga 2 million shekel bo‘ladi va odamlarga nima kerak va nima imkonli bo‘lsa yordam berish mumkin.

Muhammadning fikricha, bu falastinliklarni qutqarishi mumkin edi: “Kuniga bir shekel – bu imkonli bo‘lgan summa, bu sigaret narxi va Quddusda hatto ishsizlar ham shuncha pulni xayriya qilishlari mumkin. Ular uylarimizni buzishga tayyorgarlik ko‘rishganda, biz buni oldindan ko‘rib, muhtojlar uchun to‘lashimiz mumkin”.

U o‘z g‘oyasini odamlar bilan o‘rtoqlashdi va ko‘pchilik bu g‘oya ish berishi mumkinligini aytdi.

“Isroil bizga bunday qilishga ruxsat bermaydi. Falastin hukumati ham buni amalga oshirishga tayyor emas. Bir o‘zim buni amalga oshira olmayman, bir guruh odam kerak bo‘ladi. Bechoralar xayr-ehson haqida tinimsiz eshitishadi, lekin hammasi qayoqqa ketyapti? Abbosning vazirlari bir hafta shu yerda men bilan yashashlarini istardim”, – Muhammad namlik yig‘ilayotgan shiftga qaraydi.

Hozirda uning oilasi kirib olgan vaqtinchalik uy va vagoncha Isroil nuqtai nazaridan noqonuniy hisoblanadi. “Ular buni istalgan vaqtda buzib tashlashi mumkin. Lekin biz hammasini qaytadan quramiz va hech qaerga ketmaymiz”, – deydi oila boshlig‘i.

“Albatta, men elektr uchun to‘layman, aks holda bizni uzib qo‘yishadi. Mana endi bir oy bo‘ldi elektr tiklanganiga, bir yil umuman elektrsiz yashadik”, – deb hitob qiladi oila boshlig‘i.

Ularda suv yo‘q, qo‘shnilardan olishadi.

2003-yilgacha oila ijarada turardi, bu qimmat va mos keladigan uyni topish qiyin. 2003-yilda esa uy qurishga qaror qilishdi. Shunday qilib, uchta oila bilan birgalikda

ular o‘n yil davomida qurilish bilan shug‘ullandi. Qurulish tugashi bilan uyni buzib tashlashdi.

Uylari buzilgan kunni ular hech qachon unutishmaydi.

“Qancha askar keldi? So‘ramang, ular bu yerda hamma joyni bosib ketishgandi. Armiya, politsiya, itlar... Bir kunda buzib tashlashdi. Bolalarim maktabda, xotinim Quddusda, men ham qaerdadir edim, to‘rt oiladan uch ayol, shu jumladan, qizim ham uy ichida edi. Hech qanday hujjat ko‘rsatishmadi, hatto biz bilan gaplashmadilar ham. Soat 8:30 dan 15:00 gacha bu yerda hamma narsani vayron qilishdi. Narsalarni yig‘ishtirishga bir daqiqa ham vaqt berishmadi, hatto u yerga kirishga ham ruxsat berishmadi. Hamma narsani uloqtirib tashlashdi va hech narsani yig‘ishga qo‘yishmadi.

Shu paytgacha uyni buzishni asoslaydigan hech qanday hujjat ko‘rmadik. Sud bo‘ldi, biz hech narsa qo‘limizdan kelmadi, iltimosnoma kirita olmadik, chunki ular bizning uyimizni buzish uchun pul sarflagani sababli allaqachon jarimaga tortilgan edik. Nima uchun biz ularga buning uchun pul to‘lashimiz kerak? Bir necha marta sudga bordik – hammasi befoyda”, – deydi Muhammad.

Oilalar qurilishni boshlaganida qurilish va uy rejasi keyinchalik tayyor bo‘ladi va litsenziya uchun pul to‘lashimiz mumkin deb o‘ylashgan. Lekin chuchvarani xom sanashgan ekan. Bu beparvolik yoki qonunga rioya qilmaslik emas – bu shunchaki tabiiy hol.

Nabiralardan biri uyg‘onib yig‘laydi. Muhammadning tushuntirishicha, bolaning ota-onasi Makkada, hozircha bu nabirasi ularning oilasida yashaydi.

Muhammadning o‘zi 1979-yilda otasi bilan Makkada umrada bo‘lgan. U Hajga borishni orzu qiladi: “Bizda prezident Mahmud Abbosdan Hajga borish taklifi bor edi, ammo Isroil jarimalardan qarzimiz tufayli bizga ruxsat bermadi”.

Xuddi shu sababga ko‘ra, u mashina hayday olmaydi – uning litsenziyasi uzaytirib berilmayapti. “Ishga kirsam, bu pullarni oyligimdan ushlab qolishadi”, – deydi oila boshlig‘i. U eng ko‘pi bilan oyiga 5 ming shekel, ya’ni yiliga 60 ming ish haqi olishi mumkin.

Uning tushuntirishicha, isroilliklar uchun litsenziya narxi ham shunday, ammo ularga fondlar yordam beradi. Ular yakka tartibda uy qurmaydilar – posyolkalar quradilar, ularning ko‘pchiligi bo‘sh turibdi.

Muhammadning aytishicha, falastinliklarga tegishli uy-joylarni buzish siyosati har doim bo‘lgan, ammo u 2012-yildan beri rejali tus oldi. 2012-yilda 80 ta uy buzib tashlandi, yana 20 tasini buzish uchun xabarnoma berilgan. Ularniki bilan birga, masalan, bir oyda yana 13 ta uy vayron qilindi.

“Uy buzilgandan ikki oy o‘tib, qizim turmushga chiqdi. Men uni xarobazorda – kelinlik libosida, kuyov bilan birga turmushga chiqishini talab qildim. To‘y shunday o‘tdi”, – deydi Muhammad oilaviy suratlarni ko‘rsatib.

Yig‘i devori sening uyingga o‘zi kelganda

Quddusdagi Eski shaharda yashovchi falastinlik Xader ash-Shixabiy 38 yoshda. Uning katta oilasi bor, Xaderga tegishli uy Al-Aqso masjidi yonida joylashgan – shunchalik yaqinki, xuddi hovlining o‘zida azon aytilayotgandek tuyuladi.

15 yil oldin uy hovlisidagi uning devorini “Kichik yig‘i devori” deb e’lon qilishdi. Endi esa ko‘plab isroillik ko‘chkindilar ibodat qilish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning derazasi oldida yig‘ilishadi.

Uning besh nafar farzandi bor. Kichik qizi uy ichkarisidan otasining oldiga chiqib, nimalar haqida gaplashayotganimizni eshitmoqchi bo‘ladi. Falastinlik bolalar yurishni va gapirishni boshlashdan oldin siyosatga sho‘ng‘ishadi, chunki falastinlikning tug‘ilishidan to o‘limigacha, maktabdagi baholaridan to jarima to‘lagunicha bo‘lgan butun hayoti – siyosatdir.

“Hujjatlarga ko‘ra, mening ajdodlarim shu uyda 1692-yildan beri yashaydi. Bizda Usmonlilar davriga oid ushbu sana bilan turar joy mulkining bir qismiga tegishli hujjatlar saqlanadi. Bizda 1717-yilda butun mulkimizga tegishli bo‘lgan hujjatlar ham bor, o‘shanda butun uy qayta qurilgan edi”, – deydi Xader.

Uning ota-bobolari Masjidul Aqsoda imom bo‘lishgan.

“Mening katta bobom Al-Aqsoning qozisi bo‘lib, islomiy sudga mas’ul bo‘lgan. Bu barcha ma’lumotlarni tekshirib chiqqan tarixchilarimiz tomonidan ham tasdiqlangan” – deydi Xader.

Uning so‘zlariga ko‘ra, Quddusdagi har bir oiladan bir kishi albatta Al-Aqsoda ishlagan: kimdir bog‘bon bo‘lgan, kimlardir suv, chiroq, tozalash, yangilash va ta’mirlash uchun mas’ul bo‘lgan. Kasblar ko‘p.

Uning tushuntirishicha, hatto uning familiyasi ham oilaning ziyoratgohga aloqadorligini ko‘rsatadi: “Al-Aqso bilan bog‘liq har bir oila nomi -biy qo‘shimchasi bilan tugallanadi”.

Uning oilasida Muhammad payg‘ambarning sochlari saqlanadigan xonaning kaliti bor. Uning eshiklari faqat Ramazon oyida ochiladi.

Xader Italiyada kutubxona hujjatlarini restavratsiya qilish bo‘yicha tahsil olgan va Al-Aqsodagi hujjatlarni restavratsiya qilish laboratoriyasida ishlaydi. Bu uning asosiy ishi. Tushlikdan so‘ng esa musulmon madaniyatiga oid hujjatlar saqlanadigan eng qadimgi Xolidiya kutubxonasida ishlaydi.

Quddusdagi falastinlik odam hayotining barcha mashaqqatlarini uning hayotidan xuddi ensiklopediyadan o‘rgangandek o‘rganish mumkin.

Garchi uning oilasi bu shaharda va bu mamlakatda ko‘p asrlardan beri yashab kelayotganini tasdiqlovchi uy hujjatlariga ega bo‘lsa-da, Xader hech bir mamlakat fuqarosi emas.

Hujjatlardan esa uning moviy rangli ID raqami bor. Ushbu hujjat bo‘yicha har qanday blokpost uni fuqaro sifatida emas, balki Sharqiy Quddusdan bo‘lgan falastinlik sifatida aniqlaydi, garchi ID larda “millati” ustuni endi yo‘q.

Italiyaga o‘qishga borish uchun Isroilning chet el pasportini olishi kerak edi. Hujjatda esa Xader Iordaniya fuqarosi ekanligi yozilgan.

U ham barcha falastinliklar kabi *(isroilliklardan farqli o‘laroq)* Yevropaga borish uchun viza olishi kerak. Har bir elchixonada va har bir Yevropa davlatining

chegarasida u Isroil tomonidan berilgan hujjatda nima uchun Iordaniya fuqarosi deb yozilganiga tushuntirish berishiga to‘g‘ri keldi.

U farzandlariga Iordaniya pasportini to‘g‘irlab bergan, chunki bu ularning yo‘lini biroz engillashtiradi. Bu uning oilasi uchun qimmatga tushmaydi – bunday pasport 50 dinor (70 dollar) turadi, ammo pasport ularning Quddusdagi hayotini engillashtiradi.

Bu uyda uning 80 nafar qarindoshi, 22 ta oila istiqomat qiladi. Ularning hammasi uchun 100 ta kichik xona bor.

Uy uchun u Isroilga yiliga 9 ming shekel *(2300 dollardan ortiq)* soliq, sug‘urta uchun yiliga 400 shekel va yana ming shekel boshqa to‘lovlar to‘laydi.

“Agar siz majburiy to‘lovlardan birini to‘lamasangiz, unda sizda katta muammolar paydo bo‘ladi: ID kartangizni olib qo‘yishadi, uyingizdan ayrilasiz, Quddusda va umuman devor ichida yashay olmaysiz”, – deydi Xader.

“Devor ichida” deganda Isroil hududini G‘arbiy sohil va G‘azodan ajratib turuvchi xavfsizlik devori nazarda tutilgan. Isroilda o‘z mulkiga ega bo‘lmagan yoki uni yo‘qotgan falastinliklar devor ortiga surgun qilinadi.

Qadimgi uy asrlarga bardosh berishi ko‘zlansa-da, baribir ta’mirlash talab etiladi.

Quddusdagi aksariyat falastinliklar uchun o‘z uyini ta’mirlash amalga oshmaydigan orzudir. Xader 2004-yilda bunday ruxsatni olishga muvaffaq bo‘ldi va ta’mirlash ishlarini amalga oshirdi. Bu uning uyi Falastin xayriya tashkiloti ro‘yxatida turgani va Al-Aqso hududida joylashganligi, bundan tashqari, uning jarima va to‘lov qarzlari yo‘qligi sababli imkonli bo‘ldi.

“Har kuni munitsipalitetdan reviziya bilan kelib, bu yerda nimalarni ta’mirlayotganimizni ko‘rishardi”, – deydi Xader.

“Men oiladagi kenjasiman. Bir akam vafot etgan, qolgan uchtasi Eski shahar tashqarisida yashaydi. Bu kenjatoy otasinikida yashaydi, degan qoidaga asoslanib qilinmadi, vaziyat shunay bo‘lib qoldi.

Kichik yig‘i devorining paydo bo‘lishi uning oilasi uchun muammo bo‘ldi.

“Og‘ir, lekin biz ko‘nikib ketganmiz, – deydi u. – Biz bu devorni Al-Aqso devorining bir qismi deb hisoblaymiz. Bu yerda yahudiylar hech qachon ibodat qilishmagan. Ular bu yerga birinchi marta 1983-yilda kela boshlagan. Nima bo‘layotganini tushunmasdik. Bu bir necha kishining xususiy tashabbusi edi”.

Uning qarindoshlari nega politsiya va sudlarga murojaat qilmagani haqidagi savolga u falastinlik uchun bunday qilish umuman ma’noga ega emasligini, ammo chet elliklar bunday narsalarni tushunishi qiyinligini aytadi: “Isroil qonuni menga qarshi, har doim ular tarafida. Agar men ko‘chkindilar bilan muammoga duch kelsam va politsiyaga qo‘ng‘iroq qilsam, sud qarori har safar ularning foydasiga chiqariladi”.

2000-yildan keyin uning hovlisida Yig‘i devorining bir bo‘lagi – Kichik devor topilgani haqida gapira boshlashdi.

“Ikki oy oldin yangi lavhalar osib qo‘yishdi, ular bu yerda o‘sha devorni topishgan va uni qadimgi yahudiy joyi deb atashgan. Knessetda Ash-Shixabiy, ya’ni bizning familiyamiz nomi bilan atalgan kvartal o‘sha qadimiy yahudiy joyi deb e’lon qilindi. Biz esa buni musulmonlar kvartaliga noqonuniy bostirib kirish deb hisoblaymiz”, – deydi ishonch bilan Xader.

“Yahudiylar bu yerni anchadan beri sotib olishmoqchi. 1983-yilda otamning oldiga to‘ldirilmagan chek bilan kelishdi va uyimizni sotib olish uchun har qanday summani yozib berishni taklif qilishdi. Otam ko‘nmadi. Nima qilib bo‘lsa ham, shu yerda bo‘lamiz. Ular bu uyni har qanday pul evaziga olishmoqchi, ammo biz sotilmaymiz”, – deya davom etadi Xader.

Uning tushuntirishicha, bu yerlar go‘yoki Isroil davlati tomonidan rasmiy ziyoratgoh deb hisoblanmaydi. Rasmiylarning ta’kidlashicha, bu xususiy tashabbus. Ammo meriya falastinliklarga bosim o‘tkazdi, qurilish narvonlarini olib tashlashni talab qildi va ularni olib tashladi. Endi bu yerda politsiya to‘siqlari bor. Ibodat paytida yahudiylarni armiya qo‘riqlamaydi, lekin ular xususiy qo‘riqchilar nazorati ostida bo‘ladi. Bu joylar ham sayyohlar uchun mo‘ljallangan dasturlarga kiritilgan.

Umuman, Quddusda, hech qanday shaxsiy peshlavha osish mumkin bo‘lmagan joyda, qanday qilib to‘satdan “Kichik yig‘i devori” degan yozuv paydo bo‘ladi? Xaderning fikricha, bu falastinliklarga bosim o‘tkazishning odatiy shakli: avval tashabbuskor ko‘chkindilar, keyin esa davlat keladi.

“Bizga meriyadan ko‘p marta infratuzilmani ta’mirlash, quvurlarni almashtirish va hokazo takliflar bilan kelishdi. Ular hech qachon ma’lum bir maqsadlarni ko‘zlamasdan bunday xizmatlarni falastinliklarga taklif qilishmaydi. Biz rad etib kelamiz, chunki ular keyinchalik har qanday bahona bilan uyimizni tortib olish yoki yo‘limizni to‘sib qo‘yish uchun nimadir qilishadi”, – deydi Xader.

Uning eslashicha, 1990-yilda bu yerda ibodat qilayotganlardan biri uning oldiga kelib, oyiga 6 ming shekel evaziga yahudiylarning ibodati tugagandan keyin chiqindini yig‘ishtirib, uning o‘zini qo‘riqlashni taklif qilgan. “Men rad etdim. Uyimga chaqirilmagan mehmon bo‘lib kirgan yahudiyga yordam berishni istamayman. Bundan tashqari, uning maqsadi nima ekanligini juda yaxshi bilaman: bu yerda umuman bo‘lmasligim kerak”, – deydi Xader.

“Juma va shanba kunlari bu yerda odam ko‘p bo‘ladi, uch marta ibodat qilishadi. Xotin-qizlarimiz va bolalarimizning o‘tishi qiyin, ular orasidan o‘tishga majburmiz. Agar falastinliklardan kimdir telefonda gaplashsa, unga hushtak chalishadi, – deya davom etadi Xader. – Har xil voqealar bo‘lib turadi, lekin biz buni ko‘nglimizga yaqin olmaymiz. Ibodat qilishmoqchimi, qilishsin.

Men o‘zimni umuman emin-erkin his qilmayman. Falastinliklar va yahudiylar o‘rtasida to‘qnashuvlar bo‘lib turadigan Quddusda, hatto o‘z hovlimiz orqali uyga qaytayotganimizda ham xavfsiz emasmiz. O‘zimni qanday his qilishim mumkin? Men doimiy ravishda uyim va butun oilamning xavfsizligi haqida qayg‘uraman”, – deydi Xader.

Uning qarashlari odatda BMT minbaridan, turli siyosiy va tinchlikparvar forumlarda aytiladigan va hech qachon amalga oshmaydigan fikrlarga yaqin: “Men Quddusda uchta din teng qabul qilinishi va tan olinishi kerak, Quddus butun dunyoga

namuna bo‘lishi kerak deb hisoblayman, lekin biz bu haqiqatdan qanchalik uzoq ekanligimizni o‘z tanamizda his qilamiz. Gap Quddusni kim nazorat qilishi haqida emas, balki kim va qanday qilib bir-birini hurmat qilishni boshlashi haqida.

Yahudiylarning ibodat qilish huquqini hurmat qilaman. Lekin ular ham odobli bo‘lishlari kerak, toki uchta din yonma-yon yashasin. Musulmonlar va nasroniylar bir-biri bilan tinch-totuv yashamoqda”, – deb hisoblaydi Xader.

“Muammo mening uyimga kirib keldi. Uyim to‘satdan to‘qnashuv boshlanishi mumkin bo‘lgan joyga aylandi. Menga istalgan vaqtda bu bizga tegishli kirish joyi deb aytishlari va ko‘chani yopib qo‘yishlari mumkin. Ko‘pchilikda shunday bo‘ldi. Lekin bu mening uyim bo‘sag‘asi, shundan keyin ularni qanday hurmat qilishim mumkin?” – hayron bo‘ladi Xader.

Hovlisida to‘satdan yahudiylarning qadimiy Yig‘i devori paydo bo‘lgan, gumbaz shiftli va tor zinapoyali bu qadimiy uy nafaqat alohida olingan bir oilaning tashvishiga aylandi. U bugungi kunda isroilliklar bilan muqaddas joylarni qanday chegaralash bo‘yicha muzokaralarning to‘rtta asosiy nuqtasidan biriga aylandi. Al-Aqso bo‘yicha muzokaralar hal qilib bo‘lmaydigan muammo. Bu mo‘‘jazgina hovli bo‘yicha muzokaralar ham boshi berk ko‘chaga kirib qoladiganga o‘xshaydi.

Shoh Dovud nomi ila tozalash

Al-Aqso atrofidagi har bir uy uchun kurash ketmoqda. Agar bu kvartal Silvan deb nomlanishda davom etsa, unda falastinliklarning bu yerda qolish imkoniyati bor. Agar shoh Dovud nomi g‘alaba qozonsa, unda hech qanday imkoniyat yo‘q.

Agar siz Quddus falastinliklari hayotidagi dramatizm haqida hech narsa bilishni istamasangiz, Muqaddas zaminga o‘nlab marta tashrif buyursangiz ham hech narsaning mohiyatiga eta olmaysiz. Aksariyat gidlar Quddus haqida shunday hikoya qilishadiki, go‘yo bu yerda falastinliklar umuman yo‘qdek, bor bo‘lsa ham, bu shunchaki umumiy manzaraning achinarli bir bo‘lagi.

Agarda siz Quddusdagi Falastin hayotining o‘ziga xos xususiyatlari haqida bilmoqchi bo‘lsangiz, uzoqqa borishning hojati yo‘q: Silvan kvartali Al-Aqso masjidining shundoqqina etagida joylashgan.

Isroil butun Quddus kabi bu kvartalni ham 1967-yilda okkupatsiya qilgan. Bu joyni ular Dovud kvartali deb ataydilar va shaharning eng qadimgi qismi deb hisoblaydilar. Isroilliklar uchun Dovud kvartali ular yashamoqchi va muzey qurmoqchi bo‘lgan identiklikning muhim plasdarmidir. Falastinliklar uchun Silvan kvartali ularning mavjudlik bastioni bo‘lib, ular ushbu hududni qurolsiz va hech qanday yordamsiz himoya qiladilar. Ularning fikricha, agar falastinliklar Silvandan g‘oyib bo‘lishsa, Quddusdan ham g‘oyib bo‘lishadi. Shuning uchun ham bu yerda ko‘p yillardan buyon doimiy zo‘riqish mavjud. Falastinliklar shoh Dovudga qarshi emaslar, uni payg‘ambar sifatida ulug‘laydilar. Isroil ularni Dovud nomi bilan siqib chiqarayotganiga qarshi.

Bolalar markazi direktori Javad Siam 46 yoshda. Uning ota-bobolari shu kommunada yashab o‘tganlar.

Bolalar markazi shunchaki bolalar san’at bilan shug‘ullanadigan klub emas. Bu Silvan mudofaasining o‘ziga xos strategik nuqtasi. Agar bolani markazga olib kelishsa, u endi ko‘chada tentirab yurmaydi va isroillik askarlarga tosh otmaydi, u rasm chizishni, qo‘shiq aytishni, filmlar suratga olishni, bayramlar uyushtirishni, idish-tovoq yasashni o‘rganadi. Unda jamoada ishlash ko‘nikmasi shakllanadi va turli kasblarni egallaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bolalar markazini yopishga urinishlar ko‘p bo‘ldi: hamisha bilimli va tartibli uyushgan odamlar bilan kurashish qiyinroq.

Javod bilan yomg‘irda ko‘chada ketyapmiz. Bu Al-Aqsoga qaragan chiroyli ko‘cha, chiroyli uylar, tosh yotqizilgan ko‘chadan oqib o‘tadigan ariqlar.

Uning uyi darvozasi oldida isroillik ayol moshinasini joylashtiradi – bu yerda to‘xtash mumkin emas. Javod qo‘llarini artistlarcha silkitadi. Ayol taqiqlovchi belgiga ham, Javodga ham e’tibor bermay, telefonda gaplashishda davom etadi.

Yo‘lovchi falastinliklar, bolalardan tortib qariyalargacha, ba’zilari Javod bilan bir-ikki og‘iz so‘z alamashadi, ba’zilari mutoyiba qilishadi.

U har bir uchragan odam va har bir uy haqida hikoya qiladi, odamlar ham, uylar ham dramatik o‘tmishga ega: “2007-yildan 2012-yilgacha Silvanda doimiy to‘qnashuvlar bo‘lib turardi. Isroilliklar iloji boricha ko‘proq erkaklarni hibsga olishni istardi, shunda ularni ishsiz qoldirish va hamma narsani tanazzulga yuz burishini ta’minlash mumkin edi. Biz barcha soliqlarni to‘laymiz, lekin bunga javoban faqat uylarimizni buzish haqida buyruq olamiz. Bizga o‘z uyimizda biror narsani ta’mirlash taqiqlangan. Ko‘pchilikning o‘z uyiga mulk huquqini beradigan hujjati yo‘q. Quddus okkupatsiya qilingandan keyin 1967-yildan beri atigi 30 ta xonadonga bunday hujjatlar berildi”.

Javodning o‘zi 2007-yildan beri 42 marta hibsga olingan. 14 yoshida u besh oy uy qamog‘ida bo‘lgan. Birinchi intifadadan keyin u bir necha oy qamoqda o‘tirdi.

“Men kichik bir misol, boshqa odamlar esa yillab o‘tiradi, keyin ularni chiqarib yuborishadi. Oxirgi oylarda biror kun yo‘qki, ular kimnidir hibsga olishmagan bo‘lsa”, – deydi u.

Silvanda 15 yoshli Muslim Ode yashaydi, u 15 marta, matbuot xodimlari bilan har bir uchrashuvdan keyin ham hibsga olingan. Men ham u bilan uchrashmoqchiman, muammo shundaki, o‘smir bilan ko‘rishsang, uni yana qamab qo‘yishadi. Javod mening oldimda uning ota-onasiga qo‘ng‘iroq qiladi, lekin ular hozircha uchrashuvni kechiktirishni so‘rashadi. Ularning o‘g‘li avvalgi hibsdan keyin zo‘rg‘a o‘ziga kelgan.

Markazda bolalarga qarshi jinoyatlar solnomasini yuritmoqda, hibsga olishlar haqida film suratga olindi.

“Hibsga olishni har doim ham armiya amalga oshirmaydi. Ba’zida bolalarni ko‘chkindilar o‘g‘irlab ketishadi. Biz bu holatlarni hujjatlashtirishga harakat qilamiz. Bolalarni qiynashadi, zo‘rlashadi. Biz o‘z hisobotlarimizda zo‘ravonlik faktlari haqidagi ma’lumotlarni e’lon qila olmaymiz, lekin bir oila o‘zlariga tegishli

ma’lumotlarni ochiqlashni talab qildi va bu holat bizning hisobotlarimizda bor”, – deydi Javod.

Butun kvartalni kecha-yu kunduz ishlaydigan kameralar egallaganini tushunish kerak. Har qanday hodisa hujjatlashtirilgan, ayniqsa odam o‘g‘irlash. O‘g‘rilarni aniqlash hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi, lekin bunga erishish qiyin. Javod shubha qilmaydi: armiya doim ular tomonda ekanini ko‘chkindilar bilishadi.

“Men Germaniyada yashaganman, u yerda ham nasistlar bor edi, xuddi shunday qarashlar va usullarga ega bo‘lgan – mana bu ko‘chkindilarga o‘xshagan”, –deydi Javod. U to‘qqiz yil davomida Germaniya va Turkiyada “ijtimoiy ish xodimi” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olgan.

Uning xotini serb, to‘qqiz va o‘n yoshli qizi hamda o‘g‘li bor. Besh yil oldin xotinini bolalari bilan birga mamlakatdan chiqarib yuborishdi. Unga kirish endi yopiq, garchi u yashash uchun vaqtinchalik ruxsat olgan bo‘lsa ham.

“Xotinim uch kunda qaytib kelishi kerak edi. Endi u bu yerga kelolmaydi, men esa ishim borligi va meni qaytib kiritmasligi xavfi sababli oilam oldiga bora olmayman. Ular Germaniyada, men esa bu yerdaman”, – Javod Falastin hayotining nozik jihatlarini anglab yetish mushkulligini tushunadi.

Bo‘lib tashlangan oilalar – Falastin hayoti uchun norma, uning yana bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Falastinliklar orasida Quddusdagilarining ahvoli eng og‘iridir. Odamlar o‘z ismlarini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilishga jur’at etgan holatni topish qiyin – bunga javoban ularni faqat yangi to‘siqlar, mulk va hujjatlar bilan bog‘liq muammolar kutib turadi.

Javodga do‘sti qo‘ng‘iroq qiladi. Javod menga do‘stining tarixini so‘zlab beradi: do‘stining o‘zi Quddusdan, xotini esa Xevronlik *(Al-Xalil, G‘arbiy sohil)*. Ular Quddusda birga yashay olmaydilar, chunki uning xotiniga hech qachon ruxsat berilmaydi. Xevronda yashash ham imkonsiz: ish yo‘q, agar u yerga ketganingni bilib qolishsa, Quddusdagi uyingdan mahrum qilishadi. Endi barcha muammolar ustiga yangisi qo‘shildi – uni hibs qilib, mashinasini olib ketishdi.

O‘rtamiyona odam tasavvuridagi oddiy hodisa, Falastinlik uchun hayotini izdan chiqaradigan oqibatlarga olib keladi.

“Agar men G‘arbiy sohildan odam olib kelsam, meni jarimaga tortishadi va mashinamni olib qo‘yishadi. Akasini, xotinini yoki jurnalistni G‘arbiy sohildan mashinada olib kelgani uchun qamoqxonada o‘tirishadi”, – deydi Javod.

G‘arbiy sohildagi falastinlik Isroilga kelishi uchun u qaysi soatlar orasida, qaysi binoda bo‘lishi lozimligi ko‘rsatilgan hujjat talab etiladi. Aytaylik, u kasalxonada bo‘lishga ruxsat olgan bo‘lsa, qo‘shni uydagi qarindoshi xonadoniga borishga haqqi yo‘q. Suv harid qilish uchun do‘konga chiqishga ham haqqi yo‘q.

Javod nima sababdan ko‘chkindilar, armiya va hokimiyat uchun kvartalda bolalar markazining faoliyat yuritishi nomaqbul ekanligini tushunadi.

“Biz bolalarni band qilamiz, ularni ko‘chadan olib kelamiz, ularni uyushtiramiz, bolalar tanlovlarini o‘tkazamiz, qo‘shiqlar, raqslarni o‘rgatamiz, marshlar, oromgohlar tashkil qilamiz, bolalar she’r yozadi, rasm chizadi – bularning barchasi uchun bizni yopmoqchi bo‘lishadi”, – deydi Javod. Uning so‘zlariga ko‘ra, markazga bir necha bor armiya hujum uyushtirgan.

Na Silvanda, na Quddusda hech qanday Falastin idoralari, politsiyasi, meriyasi – hech narsa yo‘q, garchi rasman, BMT qaroriga ko‘ra, Sharqiy Quddus Falastin avtonomiyasi hisoblansada. Shunday ekan, bolalar markazi kvartalda yagona, norasmiy o‘zini o‘zi tashkil qilgan markaz hisoblanadi.

Qudduslik falastinliklar qila oladigan yagona narsa – o‘z-o‘zini tashkil qilish va repressiyalarga tayyor bo‘lishdir.

Javod o‘z kvartali bo‘yicha batafsil statistika yuritgan: Silvandagi falastinliklarning 65 foizi uyi buzilishi haqida rasmiy idoralardan xabarnoma olgan.

Uning tushuntirishicha, 1967-yilgacha qurilgan uylarning barcha birinchi qavatlari falastinliklarga tegishli. Falastinliklar uchun bu yerda har qanday qurilish ishlarini olib borish taqiqlangan – uyning ustiga qavat ko‘tarish, ta’mirlash,

kengaytirish mumkin emas. Javodning so‘zlariga ko‘ra, kvartalda ko‘chkindilar bosib olgan Falastin binolari o‘rnida qurigan uylardan boshqa birorta yangi uy yo‘q.

“Men ikki yil oldin besh marta uyimning buzilishi haqida ogohlantirish olganman”, – deydi Javod. Hozircha uyi turibdi. Ammo ertami-kechmi uni buzib tashlashadi, chunki hokimiyatning bu qaroriga falastinlik da’vo kiritib sudda yutib chiqish uchun real imkoniyatga ega emas.

Agar uyni buzish haqida buyruq olinsa va uni o‘zingiz buzmasangiz, jarimaga tortilasiz. Keyin esa jarima oshib boradimi yoki to‘langanmi, farqi yo‘q: qoida tariqasida, armiya buldozerlari baribir keladi – va uyingiz endi yo‘q.

Uylar buzib tashlangan joylarda arxeologik qazishmalar olib borilib, tarixiy bog‘lar yaratilmoqda – devor tirqishidan qazilmani ko‘rish mumkin. Falastinlik arxeologlarni esa qazishmalarga qo‘yishmaydi.

Isroilda arxeologiya propagandaning eng muhim qismi bo‘lib, armiya propagandasidan keyingi o‘rinda turadi. Isroil arxeologiyasining vazifasi qadimgi yahudiylarning Quddusda bo‘lganligini isbotlovchi artefaktlarni topishdir. Hozircha maqtanadigan biron narsasi yo‘q.

Javod Siam Silvanda tug‘ilgan va uning 93 yoshli katta bobosi ham shu yerda tug‘ilgan. Qarindosh-urug‘larining qanchasini eslasa – hammasi shu erlik. “Ammo onamning uyini ko‘chkindilar tortib olishdi, – deydi Javod g‘amginlik bilan. – Buvim 1991-yilda vafot etgan. Ayollar mayitni yuvib ulgurmasdan bir arab ayol bolalari soniga qarab ettita bo‘sh qog‘oz ko‘tarib kelib, ayollardan mayitning ustini yopib, har bir qog‘ozga imzo o‘rniga marhuma buvimning barmoq izini qo‘yishni so‘radi. U bizga mulk huquqini himoya qilishda shunday yordam berishga va’da berdi, – deydi Javod. – Nima uchun? Buvimning olti farzandi Falastindan tashqarida yashagan. Agar men mulkimni yo‘qotsam, meni avtomatik ravishda mamlakatdan uloqtirib yuborishadi va boshqa bu yerga kiritishmaydi. Isroilda shunday qonun bor. Biz, Quddusdagi falastinliklar, vaqtinchalik yashovchilarmiz. Bizning boshqa maqomimiz yo‘q. Agar biz vaqtinchalik yashovchi maqomini yo‘qotsak, u holda mening mulkim musodara

to‘g‘risidagi qonun doirasiga tushib qoladi va ko‘chkindilar qo‘liga o‘tadi. Uni istalgan sabab bilan yo‘qotib qo‘yish mumkin”, – deya tushuntiradi u.

O‘shanda ularning oldiga bir falastinlik qo‘shnisi kelgani uchun unga ishonishgan. Ammo u firibgar bo‘lib chiqdi: u barcha ulushlarni isroillik ko‘chkindilarga sotgan, go‘yo bu mulkni topshirish akti edi.

Shunday qilib, uch yil o‘tgach, 1994-yilda ko‘chkindilar bu uyni olib qo‘yishdi.

“Biz sudga bordik, sud jarayonida bu firibgarlik ekani tezda isbotlandi: hujjat qalbaki edi. Ammo ko‘chkindilar hali ham o‘sha erda – ular uyni o‘nlab mulkdorlarga zanjir bo‘ylab tezda qayta sotishgan, bunday biznes ularda yo‘lga qo‘yilgan, ular uchun yuzlab fondlar ishlaydi. Shunday qilib, sudga uy egasini chaqirganlarida, uni bir necha marta sotib yuborgan bo‘lib chiqadi. Oxirini topolmaysiz. Uy bizniki, lekin uni qaytarish uchun o‘nlab-yillar kerak bo‘ladi”, – deydi bolalar markazi direktori.

Javod uyga egalik qilish bilan bog‘liq ko‘plab qonunlarni sanab o‘tadi: “Sen uyda yashashing kerak, ketolmaysan: agar bir necha yil kelmasang, katta muammolar boshlanadi, chegarada esa hamma qog‘ozlar joyida bo‘lsa ham, hech qanday qarzlar, kechiktirilgan to‘lovlar bo‘lmasa ham, seni oddiygina kiritmasliklari mumkin”.

Ma’lum bo‘lishicha, firibgar har bir qalbaki hujjatni isroillik ko‘chkindilarga 30 ming dollardan sotgan: “O‘shandan beri u bu yerda boshqa paydo bo‘lmadi. Yoki ko‘rinishini o‘zgartirgan. Bunday pulga plastik operatsiya qilsa ham bo‘ladi”.

Javodning fikricha, suhbat oxirida qandaydir quvnoq ohang kerak. Bo‘lmasa hammasi juda og‘riqli va nursiz ko‘rinadi.

U o‘z markazidagi bolalar suratga olgan filmni ko‘rsatadi. Bu rang-barang, energiya va ijobiylikka to‘la video bo‘lib, unda o‘g‘il bolalar rep aytadi, qizlar esa she’r o‘qiydi. Biz uni tomosha qilar ekanmiz, Javod bu bolalar va kattalarning barchasi qanday va qachon hibsga olinganini sanab o‘tadi. Ularning hech biri tosh otmagan, qurollanmagan, siyosatga aralashmagan.

Quddusdagi falastinlik uchun bu yerda qolish, qanchalik g‘alati tuyulmasin, kundalik kurash, siyosat va jonfidolikni anglatadi. Garchi Javod buni shunchaki hayot deb hisoblasa-da: “Quddusdagi har bir falastinlikning hayoti aynan shunday o‘tadi”.

Falastin-nasroniylar missiyasi

Biz xristian kvartalidagi pravoslav-falastinlik Iliya yuritadigan do‘kon oldida turibmiz. Muzqaymoq eyish, qahva ichish va har xil mayda-chuydalar sotib olish mumkin bo‘lgan do‘kon.

Bu do‘konning ochilganiga 200 yildan oshgan. Iliya 57 yoshda, uning ikkita farzandi bor. U yaqin atrofda yashaydi.

Yaqinda politsiya kelib, uning do‘koni va qo‘shnisining eshik va derazalari ustidagi soyabonlarni olib tashladi.

“Ular buni ko‘chkindilarning topshirig‘i bilan qilishdi. Chunki ko‘chkindilar do‘konga yaqin uyni kimdandir tortib olishgan va ko‘chaning barcha qismi ko‘rinib turishini ta’minlash uchun kameralarni to‘sadigan hamma narsani oldirib tashlash ilinjida.

Bizning soyabonlarimiz esa ularga xalaqit beryapti, – Iliya kameralarni ko‘rsatdi. Agar diqqat bilan qarasangiz, ular deyarli hamma burchaklarda bor – kichigidan tortib kattasigacha.

Ularning hammasi ishlayapti. Har birini askarlar kuzatib turishibdi, bunga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Qaysi biri oldin paydo bo‘lgani bilan qiziqaman: kameralarmi yoki soyabonlar? Albatta, soyabonlar. Aslini olganda, kamera soyabonlarni sindirishga hojat qolmaydigan tarzda osib qo‘yilishi mumkin edi-ku.

“Kameraning bu yerga o‘rnatilganiga yetti yil bo‘ldi. Ilgari ularga hech narsa xalaqit bermasdi”, – Iliyaning ishonchi komilki, – bu falastinliklarga doimiy muammo tug‘dirish strategiyaning bir qismi. Kichik, lekin davomiy noqulayliklar.

“Menga soyabonni buzish haqidagi habarnoma berishdi. Jarima yozishmadi”, – deya quvonchi bilan o‘rtoqlashadi Iliya. Jarima yozib berishlari ham, sudga chaqirishlari ham mumkin edi. Ammo falastinliklar qilishi mumkin bo‘lgan ishlar haqida gapirmaslikni afzal ko‘rishadi.

“Ularda “ G‘azoga bor” degan so‘kish mavjud. Bu xuddi “do‘zaxga bor” degan qarg‘ishga o‘xshaydi, – Iliya kameraga ma’noli qarab qo‘ydi. Bizni eshitishyaptimi, yoki yo‘q?

Biz gaplashib turganimizda, qo‘shnilar kelib qolishdi. Tariq – falastinlik katolik. Yoshi 30 da, uch nafar farzandi bor. U ham fuqaro emas. U ham faqat Isroil ID raqamiga ega. Ya’ni, Quddusda tug‘ilib o‘sgan – otasi, bobosi, bobosining otasi shu shaharning fuqarosi bo‘lgan – lekin Tariq bu shaharning vaqtincha yashovchisi.

Besh yil oldin u uyi buzib tashlanishi kerakligi haqida sud qarorini olgan. U shosha-pisha uyini cherkovga topshirdi – cherkov mulkini hokimiyatning tortib olishi qiyinroq. Hech bo‘lmaganda, buni yashirincha yopiq amalga oshirishi qiyin.

“O‘shandan beri ko‘chkindilar kelib, uy uchun uch million dollar taklif qilishdi. Ammo bu cherkov mulki ekanini bilgach, kelmay qo‘yishdi”, – Tariq jilmayadi.

“Biz ham musulmonlar kabi falastinliklarmiz. Bizning ham muammolarimiz aynan bir xil. Musulmonlar Al-Aqsoga kiritilmaydi. Biz Pasxa shanbasida ibodatxonaga bora olmaymiz – u Quddusdagi Qayta tirilish ibodatxonasini nazarda tutyapti. – Bizga ruxsat berilmagan. Biz uchun barcha o‘tish joylari yopiq. Shu tariqa boshqa narsalarda ham taqiqlar bir xil”.

Tariq tanishini chaqirdi, u Yonimizga keldi.

Jorj ham falastinlik katolik. U ham 30 yoshda. Uning ham uch nafar farzandi bor. Ular Tariq bilan mehmonxonada ishlashadi. Jorj ota-onasi bilan eski oilaviy uyda yashardi, ular uyini kengaytirgan edi.

“2001-yilda qo‘shimcha qurilmalarni buzish to‘g‘risida ko‘rsatma berishda. Biz qurgan hamma narsani o‘zimiz buzdik”, – deb xo‘rsinadi Jorj. Aks holda armiyaning “xizmati” uchun haq to‘lashga to‘g‘ri kelardi.

“Hozir biz eski va kichkina uyda yashayapmiz. Bizda bitta xona, ota-onamizniki ham bitta. Bizning oilamiz bu kvartalda 400 yildan ortiq vaqtdan beri yashaydi. Ungacha ota-bobolarimiz Eski shaharda, boshqa uyda yashaganlar”, – deydi u. Falastinliklarda hammasi hujjatlashtirilgan. Aks holda yashab qololmaysiz.

“Hammaning o‘z missiyasi bor. Hayotimiz og‘ir. Lekin iloj qancha? Biz hammamiz falastinlikmiz. Bizga qarshi esa ko‘chkindilar va armiya. Ular bizni farqlashmaydi, ajratishmaydi. Ularga baribir. Biz ham xuddi shunday blokpostlar orqali harakatlanamiz. Bizni ham xuddi shunday tintuv qilishadi, hibsga olishadi, uylarimizni tortib olishadi”.

Jorj qanday qilib Germaniyaga borib kelganini hikoya qiladi: “Bu oson emas. Ko‘p hujjatlar kerak. Juda ko‘p”.

Jorj bosimning barcha turlarini sanab o‘tadi. Shu bilan birga falastin-nasroniylarda, ayniqsa, katoliklarga munosabatning yana bir nozik jihat bor: “Ular sizga, farzandlaringizga, ota-onangizga bosim o‘tkazadi. Bu bosimlarning barchasi falastin-nasroniylar Isroil pasportini olishini ta’minlash uchun amalga oshiriladi. Nima maqsadda? Ular oxir-oqibat musulmonlarni siqib chiqarmoqchi, nasroniylarga pasport tarqatmoqchi va BMTga: qarang, Quddusda falastinliklar yo‘q, faqat isroilliklar bor, demoqchi. Lekin bizning ahvolimizga Isroil pasportining bor-yo‘qligi ta’sir qilmaydi. Sen ular uchun baribir falastinliksan”.

Jorj Quddusga kelgan sayyohlarning hech narsadan xabari yo‘qligiga hayratga tushishdan charchamaydi. Ular bu yerdan ketayotib ham vaziyatdan habarsiz: “Hatto arab kanallari ham Falastin haqida yolg‘on gapiryapti. Biz bo‘linganmiz, shuning uchun kuchimiz yo‘q. Isroil nazdida biz hammamiz – arabmiz. G‘alaba qilmoqchi bo‘lsang, dushmanga bir ko‘z bilan qarashni o‘rganishing kerak”.

Har safar falastin-nasroniylar bilan suhbatlashar ekansiz, nima uchun aynan nasroniylar qurolli qarshilikni boshlaganini tushunasiz. Darhaqiqat, islom – bu tinchlik dinidir. Yovuzlik bu qadar aql bovar qilmaydigan, ayyor va shafqatsiz bo‘lishiga musulmonlar oxirigacha ishonmaydilar. Musulmonlar bu yovuzlikning insofga

kelishiga imkon berishadi, nasroniylar esa Masihning: “Men tinchlik emas, qilich keltirdim”, – degan so‘zlarini yodda tutishadi.

Biz kameralar tagida uzoq turib gaplashdik.

Birdan kichik maydondan bir to‘da bolalar yugurib chiqishdi. Birmuncha vaqt ular bir-birlari bilan tortishayotgandek tasavvur uyg‘otishdi. Shunda yigitlardan biri epchillik qilib, ko‘zimizga qalampirli gaz purkadi.

Suhbatdoshlarim hayron qolishdi – ilgari bu yerda bunaqasi bo‘lmagan, bolalar ham mahalliy emasdi. Ular bir-birlariga hech narsa deyishmas, hammasi bizning Yonimizdan so‘zsiz, jimgina o‘tayotgan edi.

Falastinlik bolalar janjallashmaydi, ayniqsa, mushtlashuvda gaz ishlatmaydi. Madaniy kontekst bunga yo‘l qo‘ymaydi.

Ushbu mizanssenani butun mahalla kuzatib turardi. Biz xayrlashib tarqaldik, ko‘chalarni aylanib chiqdik. O‘n daqiqadan so‘ng qaytib kelganimizda bolalar ham, ularning izi ham yo‘qolgan edi.

Hammasi oddiy: o‘smirlarga bizni qo‘rqitish, suhbatimizni to‘xtatish topshirilgan, shuning uchun ularni qalampirli gaz bilan yuborishgan.

Har yili Isroil 700 ga yaqin bolani hibsga oladi. Alohida hosildor yillari undan ham ko‘p bo‘ladi. Ularning bir qismini qiynoqlar va va’dalar bilan mana shunday mayda topshiriqlarni bajarishga majbur qilishadi. Va ulardan ba’zilari josus bo‘ladilar, afsus.

“Tashqi ko‘rinishga qarab, odam haqida hech qachon hech narsa aytib bo‘lmaydi. U ibodat qiladi, u xushmuomala, mehribon, keyin ma’lum bo‘ladiki, u bolaligidan ular uchun ishlaydi”, – dedi achchiqlanib, falastinliklardan biri bu voqeani aytib berganimda.

Biz nasroniylar mahallasi ko‘chalari bo‘ylab yo‘lga tushdik.

Isroil bayroqlari osilgan baland uy. Ro‘parasida katolik ibodatxonasi. Zinapoyada bir xristian ayol turibdi va men suratga olar ekanman, u bu uyning tarixini so‘zlab beradi: “Besh yil oldin falastinlik oila uni ko‘chkindilarga sotdi. Cherkov sotib

olishni taklif qildi, lekin ular cherkov taklif qilgan pulni kam ko‘rishdi. Ko‘chkindilar esa ko‘p berishdi. Uy egalari pulni olib, Amerikaga ketishdi. Falastinliklarning uyini buzib, mana buni qurishdi. Omadimiz bor ekan – bu yerda yaxshi odamlar yashaydi. Dindor. Shifokorlar asosan. Ular yahudiy ekstremisti bo‘lmasa-da, falastinliklar ko‘chkindilarni Falastin kasalxonalariga ishga qo‘ymaydi. Ular arablar bilan ishlaydi. Lekin ular bo‘lmasa, boshqalar joylashardi. Bu ularning emas, uyni sotganlarning aybi.

Falastinliklarning missiyasi – nima bo‘lganda ham Quddusda qolishdir.

Bu qiyin missiya. Bu yerda shunday deyishadi. Eshik oldiga kipa kiygan bir juft yahudiy keldi. Garchi bu yerga tez-tez kelib turishsa-da, ular ayol bilan ham, biz bilan ham salomlashmadi. Qo‘ng‘iroq chalishdi. Lekin ularga eshikni hech kim ochmadi. Ular tezda jo‘nab ketishdi.

Ularning ham missiyasi bor – yaxshilarida ham, uncha yaxshi emaslarida ham – hammasi uchun umumiy ...

Tovuq solig‘i

Eski shaharda savdo-sotiqni ushlab turish falastinliklarning bu yerda o‘z ishtirokini saqlab qolishdagi asosiy vazifasi deyish mumkin. Savdo bo‘lmasa, falastinliklar ham bo‘lmaydi. Ularning do‘konlarini yo‘q qilish – bu yerda har bir kishiga ta’sir qiladigan, sekinlik bilan, ammo uzluksiz falastinsizlashtirishning yana bir qismidir.

Quddusga kelgan sayyoh ziyoratgohlar yonida esdalik sovg‘alari bilan yaxshi savdo bo‘layotganini ko‘radi va 30 yil oldin esa bu yerda yashash uchun hamma narsani sotib olish mumkin bo‘lgan do‘konlardan iborat tirik shahar bo‘lganini o‘ylamaydi. Sayyoh falastinlikka ota-bobolaridan qolgan do‘konchani saqlab qolish uchun nimalarni boshidan kechirayotganini sayyoh bilmaydi.

Dushanba kunlari oziq-ovqat do‘konlari yopiq. Lekin men bu yerga har kuni kelaman, boshqa kunlari na savdo-sotiq, na xaridor bo‘ladi.

“Bizning savdomiz so‘nib boryapti”, – Muhammad Sharif 52 yoshda, 12 nafar farzandi bor. Uning velosiped do‘koni Al-Aqso masjidi yonida joylashgan. Ertalab soat 4 da odamlar tongdagi ibodatga ketayotganda ochadi. Atrofda ikkitadan boshqa hamma do‘konlar yopiq.

Savdo-sotiq musulmonlar uchun xayrli va savobli ish hisoblanadi. Zero, Muhammad payg‘ambar ham Qur’on nozil bo‘lishidan oldin tijorat bilan shug‘ullanganlar.

Falastinlik uchun savdo-sotiq oddiy mashg‘ulot emas, balki umumiy ishning eng muhim elementidir.

“Aeroportda gidlar sayyohlarni kimdan sotib olish va kimdan sotib olmaslik masalasida ogohlantiradi. Ilgari kundalik hayot uchun hamma narsani, hatto daftarlar, ruchkalar, kiyim-kechak va sumkalarni ham Eski shahardan sotib olishardi, endi esa mashinani bu yerga qo‘yib bo‘lmaydi, hamma ham bu yerga kela olmaydi, ayniqsa, oilasi uchun biror narsa sotib ololmaydi”, – deydi Muhammad.

U bilan do‘konda o‘g‘li Ahmad savdo qiladi, otasiga yordam beradi.

“Bizda velosiped ehtiyot qismlari do‘koni bor. O‘g‘lim ilgari tanishlarinikida qo‘shimcha pul ishlardi, lekin ularning do‘koni yopildi. O‘sib-ulg‘aysa xuddi shunday do‘kon ochaman deb orzu qilardi. Velosiped, ayniqsa, Eski shaharda xaridorgir mahsulot bo‘lib, ehtiyot qismlari ham, mayda ta’mirlash ishlari ham doimo zarur. Lekin yopildi”, – deydi u afsus bilan.

“Ko‘pchilikda ish yo‘q. Ish yo‘q bo‘lsa, do‘konni ushlab turish, mol sotib olish uchun pul ham yo‘q. Isroil barcha savdomizni Eski shahardan tashqariga chiqarib tashlash uchun harakat qilmoqda – bu shunday siyosat”, – deya davom etadi Muhammad.

U do‘koni uchun oyiga 500 shekel soliq to‘lashi kerak.

“Lekin bizda buncha pul yo‘q, ko‘pchilik to‘lay olmaydi. Qarang, yopiq do‘konlarning uzluksiz qatorlarini”, – Muhammad savdoni to‘xtatishga majbur bo‘lgan qo‘shnilarining ismlarini aytib o‘tadi.

Uning oilasi tarixi Al-Qudsdagi barcha falastinlik uchun xosdir. Uning o‘zi 1967-yilda G‘arbiy sohil Isroil tomonidan okkupatsiya qilinishidan oldin Al-Xalilda tug‘ilgan. O‘shanda Al-Xalil ham, Quddus ham Iordaniya boshqaruvi ostida edi.

Uning xotini Quddusdan.

Demak, uning omadi bor ekan, u Quddusning vaqtinchalik yashovchisi va bu yerda bo‘lib turishga huquqi bor. SHaharda qolish uchun ruxsatnomaning muddati, faqat to‘lovlari joyida bo‘lgan davrgacha.

“ID raqam berishlari uchun hamma narsani, hatto elektr energiyasi uchun cheklarni ham yiliga bir marta tasdiqlatishim kerak”, – deydi u.

Agar savdo-sotiq barbod bo‘lsa, soliq va to‘lovlarni to‘lay olmaydi, shunda o‘zi ham, oilasi ham Quddusda yashash huquqidan mahrum bo‘ladi. Shu jumladan, shahar fuqarosi bo‘lgan xotini ham yashash huquqini yo‘qotadi.

“Mening oilam endi G‘arbiy sohil va Quddus o‘rtasida bo‘lingan. Qizi G‘arbiy sohilga turmushga chiqqan. Qizim bu yerga kela olmaydi”, – deydi Muhammad.

Uning rafiqasi sakkiz yil davomida maktabda farrosh bo‘lib ishlagan, hozirda u 12 farzandning onasi bo‘lib, qo‘shimcha ish qilishga kuchi etmaydi. “Shunday ekan, faqat men ishlayman”, – deb tushuntiradi Muhammad.

Hamma qatori u ham pul topish uchun har qanday imkoniyatni izlaydi. Masalan, mashinada yurish taqiqlangan Eski shaharning tor ko‘chalarida boshqa savdogarlarning yukini tashish mumkin bo‘lgan aravachasi bor. Aravachaga ruxsatnoma olish kerak, buning uchun ham pul to‘lash kerak, uni olish oson emas. Muhammadda bunday hujjat yo‘q. Uni olish foydasiz, chunki pul topish mumkin bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq to‘lashga to‘g‘ri keladi, chunki savdo-sotiq orqaga ketmoqda, demak, tovar olib kelish haqidagi iltimoslar ham kamayib boradi. Bu ishga umid qilishning hojati yo‘q. Aravani yashirib qo‘yadigan joy ham yo‘q.

“Agar bizning aravamizni ko‘rib qolishsa, jarimaga tortishadi, chunki mening ruxsatnomam yo‘q. Ko‘chalar juda gavjum, men esa yuklarim bilan xalaqit beryapman

deb hisoblashadi. Lekin Eski shaharga boshqacha yo‘l bilan mol olib borib bo‘lmaydi – mashina o‘tmaydi”, – deydi Muhammad.

“Hamma narsa uchun ruxsatnoma kerak – hatto tuya va tovuq uchun ham”, – deb kuladi u. Va bu hech qanday kesatiq gap emas.

Bolalari allaqachan qamoq nimaligini yaxshi bilishadi: “Etti yashar bolasini uch yil oldin qamoqqa olishgan. Uyga kelib, uni so‘roq qila boshlashdi, menga va onasiga so‘roq paytida u bilan birga bo‘lishni taqiqlashdi. U esa a’lochi o‘quvchi edi. Ular o‘g‘limdan ko‘chada kim tosh otganini bilmoqchi bo‘lishdi”, – deydi Muhammad. “Ular” – bu Isroil armiyasidir.

Ahmad o‘g‘illar ichida kattasi. U 16 yoshda, maktab o‘quvchisi. “Qo‘l bilan ishlashni (*hunar)* o‘rganish kerak, mexanik bo‘lmoqchiman”, – deydi u.

Otasi biroz uzoqlashgach, Ahmad uning og‘ir kasal ekanligini aytadi: “O‘pkasining mazasi yo‘q, uni davolash uchun maxsus yordam to‘lovini amalga oshirishim kerak, shuning uchun men o‘qishim va oilamni boqishim lozim”.

Uning aytishicha, yaqinda opasi turmushga chiqadi. U 18 yoshda. Yana bir singlisi esa 15 yarim yoshda allaqachon turmushga chiqqan.

O‘zi uylanishni xayoliga ham keltirmaydi.

“Uylanish uchun pulimiz yo‘q, oilamizga, ota-onamizga qarashimiz kerak. Ammo men uylanish uchun zarur bo‘ladigan oltinni xarid qilishimga pul yig‘ishni boshladim”, – Ahmad, nikohdan o‘tish uchun mahr – kelinga sovg‘a uchun pul yig‘ish kerakligini tushuntiradi. Shariat bo‘yicha shunday qilish kerak.

Ahmad tushkunlikka tushmaydi: “Menda ID bor. G‘arbiy Quddusga ish izlab bordim. Men hozircha bir haftada 250 shekel ishlab topa oldim. Men yana bir falastinlik nasroniyning restoranini sakkiz soat tozalab, kuniga 250 shekelga ishlaganman. Ammo Eski shaharda hamma narsa to‘xtab qoldi – turist yo‘q, ish yo‘q, pul yo‘q”.

“Otamga qaraganda menga shaxsiy guvohnomam bilan blokpostlardan o‘tish ancha osonroq, chunki unda ID emas vaqtinchalik ruxsatnoma bor”, – Ahmad o‘z

hujjatlarini ko‘rsatadi va men Quddusdagi falastinliklar uchun pasport tizimining tushunish qiyin bo‘lgan nozik jihatlarini anglashga harakat qilaman.

Uning hayotida, yosh bo‘lishiga qaramay, uncha-muncha katta odam ham boshidan kechirolmaydigan voqealar ko‘p bo‘lgan. 16 yillik hayoti davomida uni yetti marta hibsga olishgan.

“Birinchi marta tepalikda gulxan yoqishgani uchun hibsga olishdi. Politsiyaning aytishicha biz tosh otmoqchi bo‘lganimiz. 12 nafar bolani 15 soat davomida bitta kamerada ushlab turishdi, hojatxonaga borishga ruxsat berishmadi, paketlar tarqatishdi – bir amallaysanlar deyishdi”, – deydi Ahmad.

“Men yahudiy do‘stlari bo‘lgan hech kimni bilmayman”

Usoma Maatuk 51 yoshda, uning 5 nafar farzandi bor. U Quddusda tug‘ilgan.

“Men Eski shaharda tug‘ilganman. Biz Shafad kvartalida, Bayt Xanin yaqinida yashaymiz. Bizning uyimiz bor. Uyimiz uchun yiliga 13 ming shekel soliq to‘lash kerak. Bu biz uchun katta mablag‘. Soliq to‘lash uchun ishlayapmiz”, – deydi Usoma.

U ukalari bilan birga go‘sht do‘konida ishlaydi.

“U bizga otamizdan qolgan. Do‘kon uchun oyiga 300 shekel to‘lash kerak. Bir qarang, bozor bo‘m-bo‘sh. 30 yil oldin esa bu yerda odamlar gavjum bo‘lardi. Aynan mana shuni Al-Qudsning falastinliklardan tozalanishi deyiladi. Mana, siz bu jarayonni jonli kuzatayapsiz”, – deydi Usoma.

Har bir oilada Falastinga tegilshi umumiy muammosidan tashqari o‘zining shaxsiy muammolari ham bor. Ko‘pincha ular qarindoshlardan birortasining sog‘lig‘i bilan bog‘liq bo‘ladi. Salomatlik esa falastinlik uchun qimmatbaho hashamatdir.

“Mening farzandim 10 yoshda, u qandli diabetga chalingan. Tibbiy sug‘urta orqali ming shekel beriladi, bu uning ta’minoti uchun oz bo‘lsa-da yordam”, – deydi Usoma.

Uning butun oilasidan faqat akasi hibsga olingan – 1980-yillarning oxirida birinchi intifada paytida askarlarga tosh otgani uchun qamalgan. O‘shanda u sakkiz yil o‘tirgandi.

“Qarindoshlarimizdan boshqa hech kim qamoqda bo‘lmadi”, – deydi Usoma. Aytish mumkinki, baxtli va omadlilar oilasi. Odatda bolalar va kattalarning aksariyati qamoq tajribasiga ega.

“Biz vaziyat o‘zgarishiga umid qilamiz. Qanday o‘zgarish bo‘lishi mumkinligini bilmayman, lekin umid so‘nmagan. Bu yerda hech bir narsa bizning hukmimiz ostida emas, bizning qo‘limizda emas. Siyosat bilan shug‘ullanish u yoqda tursin, tirikchiligimizni zo‘rg‘a ta’minlayapmiz. Biz bitta davlatni xohlaymizmi yoki ikkita, deb so‘raysizmi? Biz buni hal qila olmaymiz. Biz, albatta, bitta Falastin davlati tarafdorimiz”, – deydi Usoma.

Ikki davlat g‘oyasi falastinliklar uchun o‘likdek tuyuladi. Axir G‘azo G‘arbiy sohildan uzilib qolgan, u bilan hech qanday aloqa yo‘q. G‘arbiy sohil esa bir-biridan Isroil blokpostlari bilan ajratilgan ko‘plab kichik sektorlardan iborat bo‘lib, uning ichida bir qishloqdan ikkinchisiga o‘tish ba’zan falastinlikning Vifleemdan Quddusga kelishi kabi qiyin.

Usoma Isroil hali tashkil etilmagan davrlarni, to‘g‘rirog‘i, bobolarining hikoyalaridan bilganlarini eslaydi: “Yahudiylar bu yerda bo‘lgan, ular Falastinda kamchilik bo‘lib yashagan, ular hech kimga zarar etkazmagan, yerlarni tortib olmagan, hech narsani okkupatsiya qilmagan, ozchilik bo‘lgan”.

“Mening yahudiy do‘stlarim yo‘q va yahudiylardan do‘stlari bo‘lgan hech kimni bilmayman”, – deydi Usoma. Seni uy-joyingdan, yer-suvingdan mahrum qilib, bolalaringni hibsga olganlar bilan qanday do‘stlashish mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi.

“Bu yerga ekstremist-ko‘chkindilar keldi, muammolarimiz shundan keyin boshlangan, Neturey karta[59] esa har doim falastinliklar tarafida bo‘lgan”, – deydi Usoma.

Do‘kon nima bo‘lganda ham oilaga qandaydir bo‘lsa-da daromad keltiradi: agar omadli kelsa, oyiga 2 ming shekel ishlab topishga muvaffaq bo‘linadi.

Uning do‘konida yangi emas, muzlatilgan go‘sht bilan savdo qilinadi.

“Bu go‘sht – halol, Braziliyadan keltirilgan, – deydi Usoma o‘zining kamtarona zaxirasini ko‘rsatib. U endi yangi so‘yilgan go‘sht savdosi yo‘qligidan afsuslanadi. Peshtaxtada faqat kechgacha sotishga ulguradiganlari turadi. – Dushanba kunlari kamdan-kam odam savdo qiladi, bizda esa muzlatgich bor, demak, zaxiramiz bor. Ko‘pchilik Isroilning muzlatilgan go‘shti bilan savdo qiladi, yangi go‘sht faqat G‘arbiy sohilda bor, lekin u yerdan hech narsa olib kirish mumkin emas. Shuning uchun Quddusda muzlatilgan go‘sht sotamiz”.

BMT tomonidan tasdiqlangan rejaga ko‘ra, G‘arbiy sohil va Sharqiy Quddus Falastin avtonomiyasi hududi hisoblanadi. Ammo Isroil butun Quddusni o‘ziniki deb biladi. G‘arbiy sohildan bu yerga biror narsa keltirishni taqiqlaydi.

“Yahudiylar mol so‘yishganda Allohning ismini tilga olishadi, shuning uchun biz uni eyishimiz mumkin”, – deydi Usoma, falastinliklar nima uchun Isroil mahsulotlarini sotishi va sotib olishini tushuntirishga urinib. To‘g‘risini aytganda, ular ilojsiz ahvolda: hatto import mahsulotlarni ham o‘rtakash isroil savdogarlardan olishadi.

Uning rastasi, Quddus Iordaniya boshqaruvida bo‘lgan davrda savdoni yo‘lga qo‘ygan bobosidan qolgan. U paytlarda faqat yangi go‘sht sotishardi: ertalabdan so‘yib, sotgani olib borishardi, kechga borib esa to‘liq sotib bo‘lishardi.

U okkupatsiya boshlangandan keyin Quddusda do‘kon yoki uy sotib olishga muvaffaq bo‘lgan birorta falastinlikni bilmaydi. Ammo ko‘pchilik mulkini yo‘qotdi.

[59] Neturey karta – yahudiylikdagi Isroilni tan olmaydigan yo‘nalish.

Eski savdo koʻchalari boʻylab yurishning oʻzi kifoya, koʻchkindilar tomonidan turar joyga aylantirilgan oldingi doʻkonlarni topish mumkin.

Koʻchkindilar Eski shaharda tortib olgan binolarni adashtirib boʻlmaydi – bunday uylarning har birida Isroil bayrogʻi osilgan. Ba'zan butun boshli gulchambar oʻrnatilgan.

"Ha, uylari va doʻkonlarini noilojlikdan sotadiganlar ham bor. Yoki ochkoʻzlikdan. Ular katta pul olishadi va odatda butunlay bu yerlardan ketishadi. Axir ular Quddusda oʻzlari uchun hech qanday yangi narsa sotib ololmaydilar – na doʻkon, na uy. Bunday falastinliklar bor. Ammo ular haqida nima deyish mumkin", – deb qovogʻini soladi Usoma.

Yigʻi devoriga oʻtish joyiga yaqin erda noodatiy sovgʻalar rastasi oldida toʻxtayman. Bino boshqa barcha Falastin uylari bilan bir xil uslubda qurilgan. Lekin bu yerning egasi falastinlik emas, isroillik.

Atrofdagi Falastin rastalarining aksariyati yopiq.

Xoʻjayin endigina oʻz savdosini ochdi. Uning qoʻlida Isroilning katta bayrogʻi bor, uning mahsulotlari assortimenti Falastin savdogarlarnikidan farq qiladi: u faqat Isroilga aloqador narsalarni sotadi.

Doʻkonni qachon, qanday va qanchaga sotib olgani, savdosi yurishgan-yurishmagani haqida gapirishni istamaydi. Lekin bu yer yahudiylar yurti ekanini bajonidil gapiradi. U sayyohlarni suvenirlarni tomosha qilishga taklif qilayotgan gidlar bilan salomlashadi.

Falastin savdosini izlab, ozmi-koʻpmi gavjum koʻchalarga boraman.

Katta paketlar koʻtargan xaridor yaqinlashadi. Uni bu yerda hamma taniydi, u restoran egasi. Uning ismi Xarut, yoshi 50 da va u arman. Xarut Eski shaharda, armanlar kvartalida yashaydi. Uning ishlari yomon emas, bobolari Quddusga 100 yil oldin kelishgan.

"Bobolari bu yerga turklardan qochib kelishgan. Genotsid haqida eshitganmisiz?" – deb soʻraydi Xarut.

Uning ikki farzandi bor.

O‘zi armiyada xizmat qilmagan, lekin kenja o‘g‘li va nabiralari armiyaga borishiga umid qiladi.

Butun mamlakat bo‘ylab armiyaga borishga tayyor bo‘lgan 800 ga yaqin yahudiy bo‘lmagan odamlar: druzlar, badaviylar, armanlar, cherkaslar... yig‘ilmoqda.

U ko‘p yillardan beri taniydigan falastinliklar bilan birga turib, farzandlari Isroil armiyasida xizmat qilishini xohlashini muhokama qiladi, lekin Falastinliklar bu gaplarni e’tiborga olmaydi. Nima ham desin? Butun umring davomida bizdan go‘sht sotib olasan, sening nevaralaring bizning nevaralarimizni hibsga oladimi – deb aytmaysan-ku. Bu odobdan emas-ku...

Darvoqe, falastinliklarni armiyaga olishmaydi, faqat badaviylar bundan mustasno (Isroilda ularni arablardan ajratishgan, falastinliklar bunday bo‘linishni tan olishmaydi).

“Biz, nasroniylar, qaysarni qaysar, Xudoni esa Xudo deb hisoblaymiz. Falastinliklar yaxshi odamlar. Lekin biz o‘zimizni islom mutaassiblaridan himoya qilishimiz kerak. Biz qo‘rqamiz. Qarang, ular Suriyada, Fransiyada nima qilishyapti”, – deydi Xarut.

U Fransiyadagi islom aqidaparastlari Quddusdagi armanlarga qanday tahdid qilishi mumkinligini oqilona tushuntirib berolmadi.

Xarut suhbatni Quddusdagi nasroniylar soni tobora kamayib borayotganiga qaratadi: “Nasroniylar aholining 20 foizini tashkil etar edi, hozir esa bir foizdan ham kamayib ketdi”.

Ammo bu mavzu ham uning fikridan qandaydir so‘nib boradi, chunki nima uchun birdan nasroniylar shunchalik kamayib ketgani tushunarsiz va bunga kim aybdorligini qidirish esa xavfli. Agar nevaralaring Isroil armiyasida xizmat qilishini istasang, bunday savolni bermaganing ma’qul.

“Biz ularning tomog‘idagi qurbaqa bo‘lamiz”

Quddusda falastinlik oshpaz bo‘lish ham qiyin. SHahardagi eng qadimgi restoran uning restoranidir. U ham yopilish chegarasida faoliyat yurityapti. Uning xo‘jayini jahon ziyorati va turizmi markazi bo‘lgan shaharda muvaffaqiyat qozonmaslikning iloji bo‘lmagan restoranni qanday usullar bilan xonavayron qilish mumkinligi haqida gapiradi.

Quddusdagi eng qadimgi shirinlik do‘koni va uning qoshidagi restoran egasining ismi G‘oziy Shahin. Yoshi 40 da, olti nafar farzandi bor.

U Yaqin Sharqdagi mashhur inson, uning oilasi, restorani va shirinliklari ham. Uning restorani nafaqat sayyohlik kataloglari va yo‘l haritalariga kiritilgani uchun, balki falastinliklar butun mintaqa bo‘ylab yashagani uchun ham ular aloqalarni, xotiralarni saqlab qolishadi, ko‘plab oilalar tom ma’noda mamlakatlar bo‘ylab tarqalib ketgan, ammo ba’zi qarindoshlar deyarli 70 yil davomida ko‘rishmagan bo‘lsa-da, aloqalar saqlanib qolgan. Uning xo‘jaligiga oid hujjatlar 300 yoshda. U 300 yil oldin ham mavjud bo‘lgan, ammo hozirgi hukumat juda yaxshi ko‘radigan hujjatlarsiz.

Eski restoran o‘zining hashamati va dabdabasi bilan hayratga solmaydi – bu biluvchi, qadrlovchilar uchun juda kamtarona muassasa. Bu joy yevropalik turistlar uchun emas. Ziyoratchilarni ham bu yerga olib kelishmaydi – bunga o‘xshagan, chindan Quddusga oid joylariga borish uchun Eski shaharni juda yaxshi bilish, falastinlik bo‘lish yoki falastinliklar bilan muloqot qilish kerak bo‘ladi.

Biz o‘sha tahlikasiz davrlardan qolgan eski fotosuratlarni tomosha qilmoqdamiz. O‘shanda ular restoranni ushlab turish, qudrati ortib borayotgan dushmandan mudofaalanishning so‘ngi chizig‘idagi jasoratga teng bo‘lishini xayollariga ham keltirmagan edilar.

G‘oziyning aytishicha, bir vaqtlar otasining qo‘lida suriyalik bir kishi ishlagan. Bobolari kabi otasi ham oilaning har bir a’zosiga oilaviy oshpazlik sirlarini, jumladan, go‘shtni kesishning o‘ziga xos usulini o‘rgatgan. Keyin bu odam Suriyaga qaytib ketdi va aloqalar uzildi.

G‘oziy esa yo‘li tushib, bir kuni Bayrutda bo‘lganida ovqatlangani emakxonaga kiradi. Ofisiantlar bilan suhbatlashib qoladi. Ular nafaqat uni falastinlik deb ta’riflashdi, balki uning oilasini ham aytishdi. Ma’lum bo‘lishicha, uning otasi qo‘lida ishlagan o‘sha suriyalik taom tayyorlash sirlarini aytib, tajribasini o‘rgatgan va Quddusdagi mashhur restoran haqida batafsil ma’lumot bergan. Bu quvonchli suhbatlar avjida Bayrut restoranining xo‘jayini ham kirib keldi. Tabiiyki, G‘oziydan kechki ovqat uchun pul olishni qat’iyan rad etishdi.

Shuni tushunish kerakki, bugungi kunda Quddusdagi kam sonli falastinliklar chet elga chiqishi mumkin, chunki qaytishga ruxsat berilmaslik ehtimoli yuqori. Livan, Suriya, Iroq, Yevropa, AQSH, Kanada, Rossiya, Ukraina, Belarusiyadan kelgan falastinlik qochqinlar, shuningdek, livanliklar, suriyaliklar, iordaniyaliklar, iroqliklar Quddusga tashrif buyura olmaydi. Ularni bu yerga shunchaki qo‘yishmaydi.

Chetdan turib kuzatuvchilar: qo‘ying-e, qo‘yilmasin degan rasmiy qonun yo‘q-ku, hujjat yo‘q-ku, deyishadi. Isroilda donishmandlarimizning hatto tushiga ham kirmagan ko‘p voqealar sodir bo‘lmoqda. chegarada nafaqat kiritmasligi, balki bu odamni xavfsizlikka tahdid deb hibsga olishlari va qamoqda saqlashlari mumkin.

Shunday qilib, bu hikoya nafaqat Yaqin Sharqdagi aloqalarning mustahkamligi va ularning bugungi chegaralardan ham kuchliroq ekanligi haqida. Bu, shuningdek, Falastindan tashqaridagi odamlar Quddusdan kelgan har bir falastinlikni qahramon sifatida qabul qilishlari, ayniqsa, uning mashhur va qadimiy restorani bo‘lsa, yanada ko‘proq hurmat ko‘rsatishlari haqidagi hikoyadir.

Butun dunyo falastinliklarini minglab rishtalar bog‘lab turadi va bu aloqalar na pul bilan, na dunyoning kuchli kishilari qo‘llab-quvvatlashi bilan mustahkamlanadi. Barcha aloqalar uzilgandek, uylar va do‘konlar tortib olingandek, zaytun daraxtlari va bog‘lar kesilgandek, quduqlar va buloqlar ko‘mib tashlangandek, faollar hibsga olingandek, partizanlar o‘ldirilgandek tuyuladi – lekin falastinliklar baribir qarshilik ko‘rsatmoqda – har bir falastinlik o‘zining kichik tepaligi mudofaasini saqlamoqda. Qo‘lidan kelgancha.

G‘oziy Al-Aqso masjidi yonida yashaydi. Restoranda bolaligidan beri ishlaydi. Uning ham muammolari bor: “Ko‘chkindilar kelib, stollarni ag‘darib tashlashadi. Ayniqsa, Ramazon oyida shunday qilishni yaxshi ko‘rishadi. Bezorilar hokimiyat himoyasi ostida ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Bu joyda kameralar etarlicha, istagan odamni topish mumkin aslida. Lekin bu kelgindilarni hech qachon qidirishmaydi”.

U 1995-yilda ko‘chkindilar Eski shahardagi bozorga bomba tashlaganini hotirlaydi.

“O‘shanda 15 kishi yaralangan, bir kishi halok bo‘lgandi. Hech kimni qidirishmadi, sud qilishmadi ham. Ko‘chkindilar nima qilishmasin, ular aybdor bo‘lmaydi”, – deydi G‘oziy.

“Ko‘chkindilar odamlarga hujum qilishadi, o‘tkinchilarga tegajog‘lik qilishadi, ustingizga qandaydir suyuqlik sepishi mumkin. Ular savdogarlardan sabzavot o‘g‘irlashadi. Haqorat yog‘diradilar, dahshatli so‘zlar aytadilar”, – G‘oziy bu so‘zlarni takrorlashni istamaydi.

“Politsiya kameralarda bularning barchasini kuzatib turadi. Agar ular ko‘chkindilarga biror narsa tahdid solishi mumkin deb hisoblasalar, tezda paydo bo‘lishadi va shunchaki ularni olib ketishadi, bu ko‘chkindilar uchun hech qanday oqibat keltirib chiqarmaydi. Falastinliklarni hech kim himoya qilmaydi”, – deydi G‘oziy.

Quddusdagi falastinliklar qurolsiz. Ularda hech qanday o‘z-o‘zini mudofaa qilish otryadlari yo‘q, faqat hech iloj qolmaganda mushtlarini ishga solishi mumkin.

G‘oziy shunday bir voqeani eslaydi: “Bittasini urishga to‘g‘ri kelgandi. O‘g‘limni yahudiylar kvartaliga nonga yubordim. Ko‘chkindilar uni o‘rab olishgan, tutib olib kaltaklashgan, orqasidan quvishgan. Ular o‘zlari bilan olib yuradigan maxsus yog‘och kastetlar bilan urishgan.

O‘g‘limni ta’qib qilishayotganini ko‘rganimda o‘g‘limni kaltaklashdan to‘xtatish uchun bittasini urishga majbur bo‘ldim. U politsiya chaqirdi. Meni hibsga

olishdi va 15 sutkaga uy qamog‘iga hukm qilishdi. Kameralarda kim kimga hujum qilganini bemalol topib ko‘rish mumkin bo‘lsa-da, unga esa hech qanday chora ko‘rishmadi, hujumda ishtirok etgan boshqalari singari”, – deydi G‘oziy.

Agar kameralar bo‘lmaganida, G‘oziy 15 kun emas, balki 15 yil sudsiz o‘tirgan bo‘lardi, chunki falastinlik hokimiyat nuqtai nazaridan apriori aybdor, agar buning ustiga yahudiyni urgan bo‘lsa, yana ham ko‘proq aybdor.

“Biz ko‘chkindilar bilan aloqa qilmaslikka harakat qilamiz, umuman aloqa qilmaymiz. Biz bu davlat uchun tabiiy yolg‘onchimiz, ko‘chkindilar esa har doim haq”, – G‘oziy ko‘p marta kuzatgan taassurotlarimni baham ko‘rganimda, hayratga tushishim sabablarini tushuntiradi: falastinliklar ko‘chalarda bir-birlari bilan samimiy salomlashadilar, bir-ikki og‘iz shirin so‘z aytib qo‘yishadi, agar ko‘chkindilar yonidan o‘tib ketishsa, ular xuddi yo‘qdek payqashmaydi.

“Ilgari yahudiylar Eski shaharda bunchalik emin-erkin yurishmasdi. Endi esa ular bu yerda ko‘p uylarni egallab olishdi. Ko‘chkindilarni har bir burchakda politsiya qo‘riqlaydi. Ular o‘zlarini to‘liq xavfsiz his qilishadi, kunning istalgan vaqtida yurishadi”, – deya tushuntiradi G‘oziy.

Aksariyat falastinliklar singari uning Isroil qamoqxonasi bilan tanishuvi bolaligida sodir bo‘lgan: “Birinchi intifada paytida ular hammani yoppasiga, qarab o‘tirmasdan hibsga olishdi. O‘shanda 15 yoshda edim. Ushlashdi, uch kun so‘roq qilishdi.

Isroilda o‘smirlarni so‘roq qilish va qiynoqqa solish odatiy holdir. Agar hech qanday sabab bo‘lmasa, ular shunchaki kichkina egilgan stulga bog‘lab qo‘yiladi, ko‘zlari bog‘lanadi, soatlar va kunlar davomida muvozanatni saqlashga majbur qilinadi. Agar asos topilsa, masalan, tosh otgan bo‘lsa, bu so‘roqlar haftalab davom etishi mumkin. Tok bilan qiynashi, quloqni qomatga keltiruvchi musiqa bilan azoblashi, kartserda saqlashlari mumkin. Maqsadi: irodasini sindirish va maxsus xizmatlar foydasiga ishlashga, topshiriqlarni bajarishga, xabar etkazib turishga majbur qilish. Har qanday bolada ham bunday ruhiy kuch bo‘lavermaydi. Bir yarim va uch

yoshli bolalarni ham hibsga olish holatlari bo‘lgan, ammo bu asosan 10 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalardir. Bolalar va o‘smirlar oldiga na qarindoshlari, na advokatlar qo‘yiladi.

Maxsus xizmatlar va armiya nafaqat Quddusda hibsga oladi. Agar ular, masalan, falonchi Quddusda tosh otgan, hibsga olingan va hamkorlikka imzo chekib, keyin G‘arbiy sohilda qarindoshinikiga qochib ketgani haqida ma’lumot olgan bo‘lsa, istalgan vaqtda Falastin hududiga bostirib kirib, u yerda istalgan odamni – erkak, ayol, bolani qo‘lga olishi mumkin.

Shunday ekan, falastinlik bolalarga maxsus xizmat changalidan omon qolish oson emas. Lekin matonatli bo‘lish yo‘rgakdalik vaqtidan o‘rgatiladi, busiz iloji yo‘q.

“Ko‘rdingizmi, bozor bo‘m-bo‘sh”, – deydi G‘oziy. Uning restorani atrofidagi qator yopiq do‘konlarni ko‘rsatib.

“Ramazon oyida qandaydir jonlanishni kuzatish mumkin. Bu ahvol borgan sari yomonlashib bormoqda. Vaziyat nolda emas – minusda. Ish yo‘q, savdo yo‘q. Biron narsaga to‘lash uchun pul ham yo‘q”, – hukm o‘qilgan, deydi mashhur restoran egasi.

“Biz 2014-yilning aprel oyida bank hisobini muzlatib qo‘ydik. Endi men sudga murojaat qildim, qarzim bor, u o‘sib boryapti. Agar hal qilish yo‘lini topmasam, do‘konimni ham, restoranimni ham tortib olishlari mumkin. Biz uy chiqimlarini to‘lay olmaymiz. Uyni ham tortib olishadi, garchi hujjatlarimiz bo‘lsa ham. Bizni Quddusdan butunlay badarg‘a qilishadi. Bu yerda esa o‘zlari uchun nimadir qilishadi. Al-Qudsdagi har bir falastinlikning shunday muammosi bor”, – deydi G‘oziy.

Quddusda birorta arab banki ishlamaydi. Agar falastinliklarga yordam beradigan biron bir jamg‘arma pul yig‘ib, hisobiga o‘tkazsa ham, Isroil banklari buni rad etishi yoki hisobni muzlatib qo‘yishi, shunchaki pulni yo‘qotib yuborishi mumkin. YOrdam kerakli odamlarga etib bormaydi.

“Biz harakat qilyapmiz, lekin ish yo‘q, – g‘amgin jilmayadi G‘oziy. – Qarzlarimiz foizi oshib boryapti. Oxir-oqibat bizni qamoqqa tiqishadi va hamma narsamizni tortib olishadi. Soliq yig‘uvchilar kelishi bilan hamma do‘konlarini yopadi.

Uch-to‘rt kunda bir marta ular kelishadi. Ular oldingi haftaning yakshanba, chorshanba, payshanba kunlari kelishgandi”.

Quddusda soliq yig‘uvchilar haqidagi bu so‘zlar dahshatli eshitiladi. Injilni bir marta bo‘lsa-da ochgan odam Iso davrida bu yerdagi amaldorlarga nisbatan qanday alohida munosabat bo‘lganini ta’kidlamasligi mumkin emas edi. Iso soliq yig‘uvchilarga murojaat qilib, ularni tavba qilishga chaqirgani bekorga emas. Mitar (*soliq yig‘uvchi amaldor)* – davlatning shunday maxsus uzun qo‘liki, u hammaning bo‘g‘zidan tutib turadi. Havoriy Pavel soliqchi edi, keyinchalik qattiqqo‘lligi va kasbida chuqurlashib ketgani uchun tavba qilgan. Mana hozir ham pushaymon bo‘lmagan mitarlar har bir falastinlikning bo‘g‘zidan ushlab turibdi.

Muqaddas zaminda davr o‘tsa ham o‘zgarmaydigan arxetiplar bor.

“Ular barcha do‘konlarni aynan shunday bosim ostida yopmoqchi. Hech kim tirik qolish haqida o‘ylamaydi, iymon keltirgan so‘nggi narsasi haqida o‘ylaydi. Alloh bizning xaloskorimizdir. Boshqa hech kim bizni qutqara olmaydi. Biz tinchlik uchun ibodat qilamiz. Biz tinch-totuv yashashga, o‘zimizni yaxshi his qilishga umid qilamiz. Ammo hammasi boshqa tomonga ketayotganini ko‘rib turibsiz”, – deydi G‘oziy.

“Otamning yahudiylar kvartali yaqinida yana bir do‘koni bor edi. Uning oldiga ko‘chkindilar ochiq chek bilan kelishib – istagan summangni yoz deyishgan. Otam rad etgan. Shunda ular eshiklarni temir bo‘laklari bilan mixlab, sudga borishdi. Ko‘chkindilarning qo‘lida do‘kon ularga tegishli ekanligi haqida soxta hujjatlar bor edi. Otam do‘konning haqiqiy egasi ekanligini isbotladi. O‘limidan oldin otam do‘konni boshqa falastinlik oilaga hujjatlashtirib o‘tkazib berdi. Hozircha do‘kon ularda. Ular halol odamlar, ular ko‘chkindilarning provokatsiyasiga uchmaydi”, – deydi G‘oziy.

U shunday tushuntiradi: “Bu odamlar uyni ko‘chkindilarga sotishni o‘ylamaydilar, lekin hamkorlik qiluvchi falastinliklar bor, ular yomon yo‘l tutishadi – bunday takliflarga rozi bo‘lishadi. Halol oilalar esa bor kuchi bilan uy va do‘konlarni saqlab qolishga harakat qiladi. Ammo ko‘ryapsizmi, bu qanchalik qiyin”.

“Ko‘chkindilarning rejasi bor – do‘konlarimiz va restoranlarimiz tomida turar joylar qurish. Bizni ishlashga qo‘yishmaydi, hammasini yuqoridan nazorat qilishadi. Bunday aholi punktlari allaqachon mavjud”, – deydi G‘oziy.

Haqiqatan ham, bozor tomiga chiqsangiz, u yerda juda katta yahudiylar turar joylari bor.

“Ular Eski shahardagi uchta bozor ustiga shunday turar joyni qurishni rejalashtirgan. Bu ular o‘ylab topgan murakkab tizim hisoblanadi. Ularning Eski shahardan tashqarida, Sharqiy Quddusda ham katta rejalari bor”, – deya tushuntiradi G‘oziy.

“Biz shu yerdamiz va hech kimdan qo‘rqmaymiz. Biz kimgadir qarshi emasmiz, lekin bizning ustimizga okkupatsiya bilan kelmasin. Yahudiylar istagan joyida va hech qanday muammosiz yashashni xohlashadi – mayli, qanday yashasangiz ham, odamlar kabi yashang, okkupantlar kabi emas. Quddus – bizning yuragimiz, Falastinning yuragi. Biz hammani tinchlik bilan taklif qilamiz. Ular bizdan hamma narsani aldov va kuch bilan tortib olmaguncha shunday bo‘lgan”, – deydi G‘oziy.

“Biz ularning bo‘g‘zida qurbaqa bo‘lamiz, ular bo‘g‘ilib o‘lishadi. Ota-bobolarimiz shunday deyishgan”, – deb G‘oziy meni o‘zining restoranchasini ko‘rsatishga olib boradi. Oddiy stollar, plastmassa stullar, arzon dasturxonlar, lekin hammasi toza va ozoda.

Devorlarda otasi va bobosining suratlari, uy hujjatlarining nusxalari osig‘liq.

Biz xayrlashamiz. Agar qachondir okkupatsiyadan so‘ng bu yerga qaytib kelsam, bu tabassumli odam meni bu yerda kutib oladimi, yo‘qmi, kim biladi deysiz? Yaqin Sharqda pazandalik sirlari bilan mashhur bo‘lgan uning oilasini yana ko‘ramanmi? Yoki ko‘chkindilar bosib olgan Eski shaharning barcha uylaridagi kabi bu yerda ham Isroil bayrog‘i osilib turadimi?

Ha aytgancha, okkupatsiyadan keyin hammasi boshqacha bo‘ladi...

Maktabda nimani o‘qitishmaydi?

Maktab ta’limidan ko‘ra nisbatan tinchroq va odatiyroq yana nima bo‘lishi mumkin? Ammo Quddusdagi falastinliklar uchun emas.

Men Falastin ta’lim segmenti uchun mas’ul bo‘lgan odam bilan suhbatga kelganimda meni Isroil tomonidan yuborilgan josus emasligimni yana bir necha bor tekshirishdi. Bu sohada band bo‘lganlarning hech biri Isroil ta’lim vazirligining maxsus ruxsatisiz jurnalistlar bilan gaplasha olmaydi. Buning uchun oddiy akkreditatsiya etarli emas. Falastinlik jurnalistlar uchun ruxsatnoma olish imkonsiz, xorijliklar uchun esa juda muammoli.

Yo‘qotadigan narsasi qolmaganlardan tashqari – maktab direktorlari, o‘qituvchilar, ta’lim mutasaddilari hammasi gapirishdan qo‘rqardi.

Hech qanday suratga olish, hech qanday ismni qayd etish yo‘q.

“Tushuning, masala ta’limda emas – Falastin hukumatiga Quddusda ishlashga hech qanday ruxsat berilmagan”, – deb tushuntiradi Falastin maktablari uchun mas’ul bo‘lgan ayol.

Ya’ni, rasmiy olib qarasangiz: Sharqiy Quddus bor, jumladan, BMT ga ko‘ra, falastinliklar, falastinlik bolalar ham bor, lekin falastin ta’lim tizimi yo‘q.

“Shuning uchun biz o‘z qo‘mitamizni tuzdik. Bizda yetimlar uchun maktablar bor. Vaqf maktablari bor. Xususiy maktablar bor. Bu juda qiyin ish. Bizga hech kim yordam bermaydi, faqat to‘sqinlik qilishadi. Ramallohda Falastin ta’lim vazirligi bor, lekin ushbu vazirlik bu yerda hech narsa qila olmaydi”, – deydi men bilan suhbatlashayotgan ayol.

Biz uning mo‘‘jazgina xonasida o‘tiribmiz, u darsliklar, xaritalar, rasmlarni ko‘rsatadi va Isroilning Falastin ta’lim tizimiga bosimining o‘ziga xos xususiyatlarini bosqichma-bosqich tushuntiradi.

1967-yilgi ishg‘oldan oldin Quddus va G‘arbiy sohildagi barcha maktablar Iordaniya tasarrufida edi. 1967-yilda Isroil Falastinni qo‘shimcha ravishda okkupatsiya qilgandan keyin barcha maktablar uning nazoratiga o‘tdi. G‘arbiy sohilda 1994-yilda

Falastin muxtoriyati tashkil etilganidan beri ta’lim Falastin rahbariyati tomonidan boshqariladi. Quddusda hamon hamma narsa Isroil tomonidan boshqariladi. Xususiy maktablar ochila boshladi, ammo u yerda ta’lim olish qimmat, hamma ham bunga imkonli emas va bu ta’lim muassasalari boshqalari kabi Isroilning sinchikov nazorati ostida.

G‘arazli vasiylik har qadamda sezilib turadi.

“Darsliklarni Ramallohdan Quddusga olib kelish mumkin emas. Ular bepul, ularni Falastin vazirligi chop etadi va butun dunyodagi kabi maktablarga bepul tarqatadi. Bu kitoblarda chek bo‘lmaydi. Ammo Isroilda hech bir yukni G‘arbiy sohildan cheksiz Quddusga olib o‘tilishi mumkin emas. Bu yopiq halqa”, – deydi suhbatdoshim.

Ba’zan maktablar uchun ayrim kitoblarni olib kelishni rasmiylashtirishga muvaffaq bo‘lamiz. Yuk qachon etib kelishini esa prognoz qilish befoyda. Kitoblar normal holatda etib borishiga umid qilish – ikki karra befoyda. “Kitoblar iflos, yirtilgan holda keladi”, – deydi u.

Bunday xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilib yutib chiqolmaysiz, hatto uni yutib chiqishga muvaffaq bo‘linganda ham tovon to‘lashga erishib bo‘lmaydi, chunki armiyaning har qanday xatti-harakati uchun temir izoh bor: yuk xavf tug‘dirishi mumkin, tamom. Kitoblarni yirtib, tuproqqa qorishtirishning nima keragi bor, degan savollar mutasaddilarning kulgisini qistatadi.

“Biz ham, bolalarimiz ham, maktablarimiz ham Quddusda nomaqbulmiz. 1984-yildan boshlab, 1967-yildan keyin Quddusda qolgan aholi uchun ID karta berish bekor qilindi. 14 084 ta karta esa yo‘qolgan”, – deydi ayol. Bu odamlar va ularning avlodlari o‘z mulkidan, eridan, bu yerda yashash u yoqda tursin, hatto bu yerga kelish huquqidan ham abadiy mahrum bo‘lmoqda.

Isroilning Falastin hayoti har qanday sohasiga, ayniqsa, ta’lim sohasiga g‘arazli homiyligi falastinliklarni bu yerlardan siqib chiqarishga qaratilgan. Bu ko‘p bosqichli va puxta o‘ylangan reja.

Aynan shuning uchun maktablarda ta’mirlash, binolarni kengaytirish, qavatlarni qo‘shimcha qurish, yangi binolar qurish, sport maydonchalarini jihozlash taqiqlanadi. Falastinliklarga yangi maktab qurish uchun ijaraga yer olishning iloji yo‘q. Maktab uchun qandaydir binoni ijaraga olish ham.

Isroil senzurasi darsliklar ustida ham o‘rnatilgan. “Darsliklarimizda Falastin bayrog‘i, Isroil askarining har qanday tasviri, Qur’ondan keltirilgan iboralar va iqtiboslar o‘chiriladi. Okkupatsiya va muqovamat haqida, hibsga olishlar va qamoqxonalardagi mahbuslar to‘g‘risida gapirish mumkin emas,” – suhbatdoshim taqiqlangan narsalarning uzun ro‘yxatini sanab o‘tadi.

Quddusdagi maktabda tahsil olayotgan falastinlik o‘quvchi – o‘tmish, partiya va harakatlar, muqovamat va uning qahramonlari haqida hech narsa bilish imkoniyatiga ega emas. U Falastin ramzlarini taqishi, o‘z uyida Falastin bayrog‘ini osib qo‘yishi mumkin emas. Maktabda ham bunaqa bayroq yo‘q. Sharqiy Quddus de-yure Isroilning emas, Falastin davlatining bir qismi bo‘lishiga qaramay, bularning barchasi taqiqlangan.

Ota-onalar ko‘p narsa qilishga imkonlimi?

Elektronika do‘koni egasi Naxar Xalasex men bilan ta’lim mavzusida nisbatan erkinroq muloqot qiladi. Uning olti nafar farzandi bor, sakkiz yildan buyon ota-onalar qo‘mitasiga a’zo bo‘lib, masalaning nozik jihatlarini o‘rganib chiqqan.

Vaqti-vaqti bilan do‘koniga xaridorlar kelib turishadi. Naxar ikki marta ibodat qilish uchun ketadi. Bolalari yugurib yurishadi, qo‘ni-qo‘shnilar kelib xabar olishadi.

Uning o‘zi yahudiy universitetida o‘qib diplom olgan, o‘zining texnik ma’lumotini yaxshi deb baholaydi. “Falastinlik uchun u yerga borish qimmat va qiyin, ammo ta’lim sifati yaxshi darajada”, – deb hisoblaydi Naxar.

U tushunarliroq bo‘lishi uchun sxemalar chizadi: gap faqat devor ichida, ya’ni Quddusda o‘qiydigan bolalar haqida ketmoqda. Axir devor ortida, ya’ni Falastinda o‘qiydiganlar ham bor-ku.

Eng og‘ir muammolar, kutilmaganda devor ortida, shu bilan birga G‘arbiy sohildan tashqarida qolib ketgan falastinliklarda. Bunday anklavlar, armiya va ko‘chkindilarning injiqligiga ko‘ra to‘satdan paydo bo‘ladi, ular butun Falastin kommunasini chegaralab qo‘yishi mumkin.

Biz Quddusning chekkasidagi go‘zal joyda suhbatlashyapmiz. Hamma yoqda tepaliklar, daraxtlar, Falastin uylari va ularga bostirib kelayotgan Isroil aholi punktlari.

“Bizning qishlog‘imizda 5 ming, Quddusda esa 87 ming bola bor”, – deydi Naxar.

U sxemada bu bolalar maktablar bo‘yicha qanday taqsimlanishini ko‘rsatadi: 50 % munisipal maktablarda o‘qiydi; 25 % – Isroil Ta’lim vazirligi tasarrufidagi xususiy maktablarda; 7% – vaqf maktablarida; 16% – xususiy maktablarda; 5% umuman maktabga bormaydi. Uning fikricha, mana shu 5 foiz maktabdan tashqarida qolayotgan bolalar masalasi asosiy muammo.

Bolalarning yarmi, maktablar uchun shartli ravishda moslashtirilgan xususiy ijara binolarida ta’lim oladi. “Hovli yo‘q, laboratoriya yo‘q, kutubxona yo‘q, isitish tizimi yo‘q, bir xonada har xil o‘qituvchilar har xil fanlardan dars beradi. O‘qituvchilar xonasi to‘lib toshgan, bir o‘quvchiga me’yor bo‘yicha 1,25 metr joy to‘g‘ri kelishi kerak. Bizning voqeligimiz esa – 25 kvadrat metrga 40 nafar o‘quvchi to‘g‘ri keladi”, – deydi Naxar.

U barcha yoshdagi o‘quvchilar bir maktabda jamlangani, qizlar uchun alohida sinflar ham, sport xonalari ham yo‘qligidan afsuslanadi.

Ha, falastinliklar dunyodagi eng o‘qimishli millatga aylanib, birinchi o‘rinni yahudiylar bilan bo‘lishib olishdi. Naxarning fikricha, bu birinchi o‘ringa qanday sharoitda, qanday sa’y-harakatlar bilan etib kelingani, shuningdek falastinlik bolalar ta’lim olmasligi uchun jiddiy intilayotgan rejimga qanday kuchli qarshilik ko‘rsatish orqali erishilayotganini dunyo bilishi kerak.

“Oslo kelishuvlaridan keyin Falastin ta’lim tizimi vujudga keldi, ammo Quddusda ta’lim to‘liq Isroil nazorati ostida. Bularning barchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri

ochiq amalga oshirilmaydi. Masalan, besh yil oldin falastinliklarning Isroil davlatiga nisbatan nafrat manbai sifatida ba’zi ta’lim punktlarini munitsipalitet chiqarib tashlashga qaror qildi”, – deydi Naxar.

“Biz Isroil meriga xat yozib, bu muammolarning barchasini sanab o‘tdik. 2014-yil 10 fevralda biz murojaat hujjatlarini jo‘natdik. – Naxar ularning xatida nimalar yozilganini sanab o‘tdi. – Qishlog‘imizda 60 ta sinf yetishmaydi. Maktablarga mablag‘ yo‘q. Direktorlar bilan moliyaviy muammolar bor – ular bolalarimizning pullarini o‘g‘irlashadi. Bolalar hech qanday aktiv ta’limga ega emas, buning uchun binolar ham, mablag‘ ham yo‘q. Maktab bilan qamrab olinmagan bolalar foizi yuqori. Boshlang‘ich maktabdan keyin o‘qishni davom ettirmaydigan bolalarning ulushi ham baland, ayniqsa, o‘g‘il bolalar, chunki ular ta’lim olib, hayotini o‘zgartirish istiqbollarini ko‘rmaydilar.

Maktablarimiz 20 yildan beri konfiskatsiya qilinmoqda, munitsipalitet esa falastinliklarning ta’limini kompensatsiya qilish uchun hech narsa qilmayapti. Qarang, tevarak-atrofda qancha bo‘sh yer bor, lekin u yer yashil hudud deb e’lon qilingani uchun qurilish qilishimiz taqiqlangan”, – deya do‘kon ayvoniga chiqamiz, u yerdan uylar chizig‘i ortidagi qiyaliklar ko‘rinadi. Falastin eri falastinliklarga tegishli emas, ular bu yerda o‘zlari uchun hech narsa qura olmaydilar.

“Ko‘rdingizmi, yer bor. Lekin ular bizga, u yerda bino qurish mumkin emas, bu ekologik yashil hudud, deb javob berishadi. Ya’ni bu ularning aholi punktlarini qurish uchun zaxira maydonlaridir. Ularga yashil hududda qurish mumkin, falastinliklarga esa – yo‘q”, – deydi Naxar.

“Qishloqlarimizda infratuzilma bilan bog‘liq o‘tkir muammolar juda ko‘p. Biz hech narsani rejalashtira olmaymiz, ko‘cha qurolmaymiz. Maktablar shosse bo‘ylab joylashgan bo‘lib, har kuni bolalar maktabdan qaytayotganda avtohalokatlar sodir bo‘ladi, – deydi u.

“Mening farzandlarim Isroil munitsipalitetidagi maktablarda o‘qiydi – bu 200 shekel *(50 dollar)* turadi. Xususiy maktablarda o‘qish ham 4 mingdan 7 ming

shekelgacha *(1000-1800 dollar)* turadi. Qo‘lidan kelgan ba’zilar bolalarini xususiy maktablarga berishadi. Ko‘pchilik munisipal maktablar yaxshi ta’lim berishiga ishonadi, ammo ular xususiy maktablar bilan hech qanaqasiga bellasha olmaydi”, – deydi do‘kon egasi.

Naxar o‘z qishlog‘idagi ota-onalar qo‘mitasi, o‘z farzandlarining sifatli ta’limi uchun kurashda katta yutuqlarga erishgan deb hisoblaydi: “Biz inqilob qildik. Biz 40 nafar o‘qituvchi va 10 nafar direktordan 5 nafarini almashtirishga erishdik – ularni ishdan bo‘shatishga va malakaliroq kadrlarni yollashga majbur qildik va shu bilan munisipal ta’limni qaysidir ma’noda xususiy ta’limga yaqinlashtirdik”.

Ta’lim sifatidagi farq juda oddiy o‘lchanadi: Naxarning so‘zlariga ko‘ra, xususiy maktab bitiruvchilarining 90 foizi universitetlarda o‘qiydi. Munitsipal maktablardagi o‘quvchilarning 70 foizi hatto yuqori sinflardagi o‘qishini davom ettirmaydi, oliy ta’lim haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

“Biz ko‘p mehnat qildik va ba’zi narsalarga erishdik. Bizda hozir o‘quvchilarning 40 foizi universitetlarga o‘qishga kirmayapti. Ammo yahudiy maktablarida bu atigi 4 foizni tashkil qiladi. Demak, bizning ta’limimiz birgina shu o‘lchov bo‘yicha ham o‘n baravar yomonroq”, – deb hisoblaydi Naxar.

Erkaklar maktabi

Quddus chekkasidagi Jabal Al-Muqqabenda joylashgan erkaklar maktablaridan birining devorida uning bitiruvchilari, 21 yoshli Rasan Abu-Jamol va 27 yoshli Uday Abu-Jamolning fotosuratlari yopishtirilgan plakatlar bor. Ular 2014-yilda Deyr-Yasin ibodatxonasiga tashrif buyuruvchilarga pichoq bilan hujum qilgan ikki falastinlikdir.

Plakatlar va graffitilarni suratga olishga urinayotganimda yuqori sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilar oldimga savollar bilan chiqishadi – bu yerda har qanday jurnalist shubhali. Falastinlik muxbir, takror aytaman, akkreditatsiya ololmaydi, akkreditatsiyasiz esa maktabga kelish mumkin emas. Isroil ta’lim vazirligining maxsus ruxsatnomasi ham kerak bo‘ladi.

Qiziquvchanlik ustunlik qiladi – o‘quvchilar rossiyalik jurnalist bilan suhbatlashishni xohlashadi.

Bu maktab munisipal va kambag‘al. Bu yerda anchadan beri ta’mirlash bo‘lmagan. Eski doskalar, eski partalar.

Direktor xonasida ko‘plab o‘qituvchilar yig‘ilgan. Kimdir chekadi – chekish bu yerda hech kimni xijolat qilmaydi.

Devorda suratlari osig‘liq aka-ukalar haqida gapirishni istamaydi – bu siyosat.

“Men siyosat haqida gapirmayman”, – direktorning birinchi gapi shu bo‘ldi.

Kundalik qiyinchiliklar haqida esa u gapirishga tayyor, garchi okkupatsion rejim bunday suhbatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi deb hisoblasa-da.

Direktor falastinliklar bolaligidan duch keladigan narsalarni sanab o‘tadi.

Bu binoda kichkintoylar ham, yuqori sinf o‘quvchilari ham o‘qiydi. Alohida bino qurishga qo‘yishmaydi.

Qo‘shni maktabda o‘g‘il bolalar ham, qizlar ham bir binoda o‘qiydi, bu falastinliklar uchun g‘ayritabiiy holat hisoblanadi. Lekin ularga ham ikkinchi binoni qurishga ruxsat berilmayapti.

Uchinchi maktabda giyohvand moddalar sotiladi va buni to‘xtatishning iloji yo‘q: maktablarning qo‘riqchilari yo‘q, Isroil politsiyasiga esa baribir, Quddusda Falastin politsiyasi mavjud emas.

Ushbu maktabda Isroil dasturi bo‘yicha emas, balki Falastin dasturi bo‘yicha, ammo senzura cheklovlari bilan o‘qitiladi.

Maktab 90-yillardan boshlab davlat tasarrufida emas.

Uch yillik o‘qish uchun ota-onalar har bir o‘quvchiga 300 shekel to‘laydilar. O‘qituvchilar etarli. O‘qituvchiga sertifikati va stajiga qarab maosh to‘lanadi. Sinf rahbari 4,5 ming shekel, ba’zi o‘qituvchilar 5 mingdan 13 ming shekelgacha maosh oladi.

“Bizning 20 yillik tajribamiz bor, ko‘plab doktorlar va nomdor bitiruvchilarimiz bor”, – deydi direktor.

Deyr-Yasinda hujum qilgan ikki aka-uka, okkupatsion hokimiyatning xohish-irodasidan qat’i nazar Falastin qarshilik ko‘rsatish martirologi ro‘yxatiga kiritilgan.

Ularning maktab devoriga osib qo‘yilgan suratlari, albatta, taqiqlangan, yirtib tashlanadi, lekin ular baribir paydo bo‘ladi.

Taqiqlar ro‘yxati nafaqat qarshilik ko‘rsatish, balki barcha Falastin narsalariga tegishli.

Falastin sharfi va butun dunyo arafatka deb biladigan Falastin ro‘molchasi taqiqlangan.

“Bizda forma yo‘q. Maktabga zarar keltiradigan narsani kiymaslik kerak”, – deydi direktor.

“Deyr-Yasin qishlog‘i tarixi, 1948-yilgi tarix – bularning barchasi dasturda yo‘q, ammo barcha falastinliklar bu haqda oilasi va internetdan biladi”, – deydi o‘qituvchi.

“Eng mashhur fanlar – ingliz tili va matematika”, – deya suhbatga qo‘shiladi direktor.

“Maktablar etarli emas. Bizga 15 ta sinf kerak, lekin qurishga ruxsat berishmayapti, yer yo‘q, qurishga ruxsat yo‘q. Biz keyinchalik ijaraga olishimiz mumkin bo‘lgan inshoot emas, aynan maktab binosini qurishimiz kerak.

Hatto yangi Falastin dasturi bo‘yicha ham biz faqat Isroil ta’lim vazirligidan darsliklar sotib olishimiz kerak, ular esa darsliklarda ko‘p narsani o‘zgartiradi. Bizda Ramallohdan birorta ham darslik yo‘q, ularni olib kirish taqiqlangan”, – deya davom etadi u.

Hukumatdan pul oladigan kompaniya o‘qituvchilarni ishga yollaydi – kadrlarni tanlash tizimi shunday.

Bu maktabda 700 nafar o‘quvchi tahsil olishi kerak, lekin sinflar 350 nafar o‘quvchiga etadi. Qolganlar boshqa maktablardan joy qidirishga majbur.

“Hamma soliq to‘laydi – bizga to‘lagan soliqlarimiz evaziga maktab qurib berishlari kerak, ular esa buni qilmaydi”, – deb tushuntirishadi o‘qituvchilar o‘z noroziliklarini.

“Bu yer ko‘chkindilarga yaqin – ular tajovuzkor va qurollangan, ularni armiya qo‘riqlaydi. Bolalarimiz tajovuzga javoban tosh otishadi. Lekin faqat bolalarimizni hibsga olishadi, ularga tegishmaydi. Isroil askarlari maktabga kirmaydi. Kimdir hibsga olinsa, bu maktabdan tashqarida bo‘ladi. Qonunga ko‘ra, men hibsga olingan bolalarga aloqador bo‘lolmayman – bu ota-onalar va advokatlarning ishi”, – deydi direktor.

Hibsga olingan bolalarga dahldor bo‘lish bu – vaziyatga qandaydir izoh berish, himoyasiga turish, maktabda bunday mavzularni ko‘tarishdir.

“Bizning o‘quv dargohimiz yaxshi maktablardan biri. Muhandislar, shifokorlar, muvaffaqiyatli odamlar ko‘plab yetishib chiqqan – talabalarimizning taxminan yarmi universitetga hujjat topshiradi. Maktabda dinni ham o‘rganishadi, bu yo‘nalishda o‘zim ham o‘qitaman”, – deya qo‘shimcha qiladi direktor.

Maktabda ibodat uchun xona yo‘q, uyda ibodat qilishadi. Hozir o‘quvchilar maktabda ertalab soat 8 dan 13:30 gacha bo‘lishadi. Direktorning aytishicha, Isroilning yangi dasturi bo‘yicha bolalarning maktabda bo‘lishi 15 soatgacha uzaytirilishi kerak.

Biz ketayotganimizda darvozadan tashqarida menga bunday maktablar uning rahbariyati uchun shunchaki biznes ekanligini tushuntirishdi. O‘qituvchilar – o‘rgatayotgandek, bolalar esa o‘rganayotgandek ko‘rinishadi.

Quddusdagi barchasida bo‘lmasa-da, ko‘pchilik maktablarda shunday. Isroil falastinliklar yashaydigan hamma joyda shunday bo‘lishini istaydi.

Biz kelajakni bilolmaymiz. Tarix boshqacha bo‘lganida nima bo‘lishini ham bilish imkoni yo‘q.

Agar falastinliklar boshiga mana shu kulfatlar yog‘ilmaganida, ehtimol, ular arab dunyosining shunchaki nomi chiqmagan qismi bo‘lib qolavergan bo‘lardi. Daraxtlar soyasida qahva ichib, zaytun terib, yevropalik sayyohlarning turli tillarda so‘zlashuvidan hayratlanib va har juma kuni Al-Quds, Al-Xalil, Nablus masjidlariga ibodatga borarmidik. Ammo falokatlar boshimizga quladi. Shu sababdan ular dunyodan hech narsa so‘ramaydigan va qurollangan dushman bilan yakkama-yakka qoladigan xalqqa aylandi.

Bu hududda hamma narsa avvalgidek: kichkina Dovud qo‘lida tosh bilan devsifat Goliafga qarshi.

Yakuniy qarormi?

BMT Bosh Assambleyasi 2014-yilni falastinliklar bilan birdamlik yili deb e’lon qildi.

Bu qaror Isroil rasmiylarining 25 ming falastinlikning uylarini buzib, 160 ming kishini ko‘chirib yuborish haqidagi qarorlarini e’lon qilish fonida qabul qilindi.

1967-yildan 2012-yilgacha 45 yil davomida Isroil hukumati G‘arbiy sohildagi falastinlikning 27 000 ta uyini buzib tashlagan. Ularning atigi 2 foizi xavfsizlik nuqtai nazaridan buzilgan.

Bu vaqt ichida G‘arbiy sohilda 200 ming kishi uchun noqonuniy yahudiy posyolkalari qurildi, 300 mingga yaqin falastinliklar esa quvib chiqarildi, ularning uylari vayron qilindi.

Isroil hukumati yana 25 ming uyni yo‘q qilishni rejalashtirmoqda. Rejalar shunchalik ulkanki, ularga ishonish qiyin. Ba’zan shunday hayolga ham borasan: bunday keng ko‘lamli yovuzlik rejalari, Falastin tub aholisining oddiy huquqlarining kundalik buzilishini yashirish uchun e’lon qilinadi.

Isroil aslida okkupatsiya qilgan va Falastin muxtoriyatiga u yerda hech bir rasmiy tuzilmalarga ega bo‘lishga ruxsat bermayotgan Sharqiy Quddusdagi vaziyat esa o‘ziga xosdir. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, shahardagi Falastin uylarining uchdan bir qismida Isroil ruxsatnomalari mavjud emas, shuning uchun 93 mingdan ortiq falastinlik ko‘chirib chiqarilish xavfi ostida.

Israeli Committee Against House Demolitions *(ICAHD)* ma’lumotlariga ko‘ra, Falastinliklarning qurilish qilish uchun ruxsat so‘rab yozgan xatlarining 94 foizi Isroil sudlari tomonidan rad etiladi yoki umuman ko‘rib chiqilmaydi. Ushbu tashkilot falastinliklarni siqib chiqarish harakatlarini Isroilning ongli siyosati deb hisoblaydi.

Hammasi rejadagidek ketmoqda: ular Quddusdagi falastinliklarning ulushini 36 foizdan 28 foizga tushirmoqchi.

Nega 30 yoki 25, yoki 20% gacha emas? Isroilda sonlarni o‘ziga xos tushunish mavjud. Aftidan, isroillik amaldorlar tugal bo‘lmagan raqamlar bilan asoslasa, ularning aytganlari ishonchlidek tuyuladi. Ularning ortida asrlarga mo‘ljallangan aniq strategiya turgandek tasavvur paydo bo‘ladi. Zotan Isroil statistikasining katta qismi maxfiy ekani hammaga ma’lum, aslida vaziyat qanday ekanini faqat boshliqlar biladi.

Bahona ham kerakmas

2013-yilning yozidan beri falastinlik Said Abu Sharqiya va uning oilasi chodirda yashamoqda. Ularning uyi qurilajak temir yo‘lga xalaqit berayogani uchun sud qaroriga ko‘ra buzilgan. Lekin shu kungacha bu temir yo‘lning loyihasi yo‘q.

Ularning uyiga buldozerlar yarim kechada kelgan, oilaga kerakli narsalarini olib chiqishi uchun bir necha daqiqa vaqt bergan. Ular sarosimada deyarli hech narsa olib chiqishga ulgurishmagan. Devorlar buzib tekislab tashlandi, daraxtlarni esa qo‘porib tashlashdi. Endi ular xarobada yashamoqda.

Umuman olganda, ularning omadi kelgan: hech kimni o‘ldirishmagan, hibsga olishmagan, haydab yuborishmagan, majburan olib ketishmagan va xavfsizlik devori ortiga uloqtirib tashlanmagan. Yig‘lab, eshikdan nari ketgisi kelmayotgan buvisini toshbo‘ron qilishmagan, itlarga talatishmagan. Uning yig‘isi ostida uyni butunlay buzib tashlagan, to‘yida sovg‘a qilingan tilla taqinchoqlari esa vayronalar ostida qolib ketgan.

Bu oilada hech kim terrorizmda ayblanmagan edi. Bu odamlar hech qanday partiyaga mansub emas. Ular Isroil fuqarolari va butun umr Isroil uchun mehnat qilishgan.

Oila boshlig‘i 1947-yilda Xayfada tug‘ilgan. Uning ota-onasi 1948-yilgi etnik tozalash paytida Vadi Ara qishlog‘idagi qarindoshlarinikiga qochib ketishgan. Ular keyinchalik Xayfadagi uylariga qayta olishmagan.

Isroildagi falastinliklar hayotining quyidagi nozik jihatini jimgina chetlab o‘tishni afzal ko‘riladi: urushlar, qo‘zg‘olonlar, tozalashlar paytida o‘z uyini tark etgan har bir falastinlik, kamdan-kam holatlarni hisobga olmaganda, o‘z uyiga qaytib kela olmaydi. Agar falastinlik oila Livan, Iordaniya, Suriya, G‘azo, Vifleem yoki Ierixonga qochib ketgan bo‘lsa, endi u hatto o‘zining eski uyiga nazar tashlashga ham haqqi yo‘q. O‘zining eski uyini shunchaki ko‘rib ketish uchun kelsa ham hibsga olinadi.

Said 14 yoshida o‘qishini davom ettirish uchun Quddusga keladi, payvandchi kasbi bo‘yicha o‘qidi, Xayfadagi port qurilishida ishladi, kibusalar qurdi.

1970-yillarda u uylandi va Falastin qishlog‘idan yer sotib oldi, u yerda hech kim qurilish uchun hech qanday ruxsatnoma bermagan va olmagan. Xotini bilan birga uy qurib, o‘nta farzandini voyaga etkazdi.

1980-yillardan beri u har yetti yilda bir marta noqonuniy qurilish uchun sudga chaqiruv qog‘ozi olgan, bir necha marta qamoqda o‘tirib chiqqan, o‘z uyini buzishdan bosh tortgani uchun juda katta jarimalar to‘lagan. Mana endi qonunga itoatkor fuqaro Saidning uyi endi yo‘q.

Agar odamni aybi bo‘lmasa ham qamab qo‘yishsa va u qo‘liga qurol olib qo‘zg‘olon ko‘tarmay qamoqda o‘tirsa, bu – qonunga itoat qiluvchi tinch odam deyiladi. Agar u isyon ko‘tarsa, uni terrorchi deb e’lon qilishadi. Oqibati esa bir xil: uy buziladi, oila ko‘chiriladi.

Chunki bu uyning egasi falastinlik . . .

Falastinliklar uylarini armiya buzadi. Ba’zi uylarni oila a’zolaridan biri terrorchi deb e’lon qilingani uchun buldozerlar bilan vayron qiladi. Bu namoyishda qatnashgan talaba qiz bo‘lishi mumkin. Yoki oilasining zaytun bog‘larini kesayotgan ko‘chkindilarga tosh otgan bola bo‘lishi ham mumkin. Ularni hibsga olishadi, uylarni esa buzishadi.

Nisbatan ommaviy amaliyot – hokimiyat noqonuniy yoki davlat manfaatlariga xalaqit beradigan deb e’lon qilgan uylarni buzish. Umuman olganda, Isroil har qanday Falastin uyi yoki qishlog‘ini noqonuniy deb e’lon qilishi mumkin.

Bunday yo‘q qilish amaliyotiga uchragan qishloqning to‘liq tarixi juda uzoq bo‘lishi mumkin, ammo u oddiy sxemaga asoslanadi: falastinlik qochqinlar xalaqit beradi, qishloq – harbiy ob’ekt deb e’lon qilinadi, yutish imkonsiz bo‘lgan sud jarayonlari boshlanadi, armiya keladi va falastinliklar quvib chiqariladi. Qarabsizki, ikki marta badarg‘a qilinganlar jamoasi paydo bo‘ladi.

Mulkka nisbatan hujjat muammosi sivilizatsion paradigma ildizlarida yashiringan. Bu yerda Isroil paydo bo‘lishidan oldin mulkni rasmiylashtirish tartibi va tamoyili boshqacha edi.

Isroilda hech kim maqsadini sir saqlamaydi – bu hududni falastinsizlashtirish, uni nomaqbul etnosdan tozalashdir.

Albatta, ushbu amaliyotni unikal deb bo‘lmaydi.

AQSH XIX asrda bu amaliyotni hindularda sinab ko‘rgan – hindular rezervatsiyalarga qamab qo‘yiladi va u yerda 95 foizi vafot etadi. Hindular qarshilik ko‘rsatishdan voz kechishdi, ichishni boshlashdi va nasroniylik dini, hindular dini va zulmga zo‘ravonlik bilan qarshilik ko‘rsatmaslik g‘oyalarining qorishmasidan paydo bo‘lgan qandaydir sinkretik e’tiqodni qabul qilishdi.

Din – Falastin qarshiligida ulkan rol o‘ynaydi, u safarbar qiladi, uyushtiradi, shaxsiyatni yetishdiradi. Shu bilan birga eng muhimi alkogolni istisno qiladi.

Hammasi oddiy.

Falastin-nasroniylari ommaviy ravishda ko‘chib ketmoqda. Falastinlik musulmonlar esa o‘z ahdida qat’iy turibdi.

G‘arbdagi aktivistlar esa falastinsizlashtirishga qarshi tinch norozilik namoyishlarida ishtirok etishga harakat qilmoqda. Falastinliklar bilan birga zaytun hosilini yig‘ishmoqda. Falastinliklarning uylari yonida tirik zanjir bo‘lib turishibdi.

Shunday uylardan birini himoya qilayotganda amerikalik Reychel Korri 2003-yilda halok bo‘ldi: armiya buldozeri shunchaki uning ustidan o‘tib ketdi. Isroil ommaviy axborot vositalari u tuproq rangi bilan bir xil bo‘lgani uchun buldozerchi uni payqamagani, bu o‘z joniga qasd qilish harakati bo‘lgani, u o‘zini yomon his qilgani va o‘zi buldozyer ostiga tushib ketganiga ommani ishontirishga harakat qiladi... Reychel yorug‘lik qaytargichli qizil kiyimda edi, buldozerchi esa o‘z ishini bajardi.

Falastinliklar uchun yangi uylar qurayotgan ishqibozlar ham bor. Ammo bularning barchasi odamlarni rejali ravishda siqib chiqarish oldida dengizidan bir tomchi.

Misol uchun, Quddusdagi Yig‘i devorini tomosha qilish uchun kelgan qaysi bir sayyoh: tor ko‘chalarga ega bo‘lgan o‘rta asrlarga oid bu shaharda bunday ulkan maydon qaerdan paydo bo‘lgan – deb savol beradimi? Ekskursovodning 1967-yilgacha bu yerda marokashliklar mahallasi bo‘lganligi haqidagi chala jon ishonarsiz so‘zlaridan keyin ham – bu odamlar shunchaki quvib chiqarilgan, ularning o‘nlab avlodlari o‘sgan uylarini vayron qilishgan – degan fikr kamdan-kam vujudga keladi.

Aksariyat falastinliklar qurgan binolari uchun G‘arb namunasidagi hujjatlarga ega emas. Axir ular Falastin qishloqlari va mahallalarida o‘zlarining urf-odatlari va jamoaviy hayot tarzi qoidalari asosida uylar qurganlar. Yaqin Sharqda G‘arbning byurokratik me’yorlari va ruxsatlar berish tizimi bo‘lmgan: odam yer sotib olardi, o‘z rejasini jamoat va qo‘shnilar bilan kelishib olardi va qurilish qilardi.

Endi Isroil hukumati buzish to‘g‘risida qaror yuboradi va uy buzib tashlanadi. Agar bu terrorchining uyi bo‘lsa, tayyorgarlik uchun bir necha daqiqa beriladi, tamom. Yoki berilmaydi. Agar bu shunchaki noqonuniy qurilish bo‘lsa, masala oylar va yillar davomida hal bo‘lmasligi mumkin, ammo ertami-kechmi buldozer baribir keladi.

O‘z uyiga bo‘lgan huquqni sudda himoya qilish falastinlik uchun imkonsidir. Sudlar deyarli hech qachon falastinliklar tarafini olmaydi. Uy suddan biror javob kelmasidan oldinroq ham buzib tashlanishi mumkin.

Nomaqbul fuqarolar

2013-yilning 11 oyi davomida Isroil hukumati hech qanday ogohlantirishsiz va ommaviy axborot vositalarida shov-shuv ko‘tarmasdan falastinliklarning 630 dan ortiq uyini buzib tashlashdi. Bundan tashqari, ular 1035 nafar falastinlikni majburan ko‘chirdi, ulardan 526 nafari bolalar.

Ayniqsa, Sharqiy Quddusdagi xavfsizlik devoridan tashqarida Ras Xamis va Ras SHahada hududida falastinliklar qurgan uylarga – Isroil fuqarolarining uyushtirgan hujumi voqeasi shov-shuvga sabab bo‘ldi. Avvaliga bu kommunalarni Quddusdan ajratib turuvchi devor noqonuniy ravishda qurildi *(BMT bunday ekspromtlarni tan olmaydi)*.

Kommunalarning maqomi noaniq bo‘lib qoldi: bu Isroil ham, Falastin muxtoriyati ham, Sharqiy Quddus ham emas. Birlashgan Quddus meriyasi *(Isroil, BMTdan farqli o‘laroq, falastinliklarning Quddusga, xususan, Sharqiy Quddusga bo‘lgan huquqlarini ham tan olmaydi)* besh yil davomida devor yonida qurilish ketayotganini payqamagan. Eng yaqin blokpostni yopib qo‘yigan va devor ortiga – ishga, bozorga, maktabga, universitetga, kasalxonaga borish uchun bu mahallalar aholisi katta aylanma yo‘lni bosib o‘tishi kerak edi. Bu yerda hech qanday shahar xizmati ishlamagan. Aholi chiqindilarni o‘zi yoqishiga to‘g‘ri kelgan, chunki bu yerga chiqindi tashuvchi mashinalar kelmagan.

2013-yil oktyabr oyida ushbu kommunalardagi 200 ta falastinlik uy-joylari noqonuniy qurilgani uchun buzilishi haqida ogohlantirish xatini olishgan. Ularda hukumat qarori ustidan sudga protest keltirish uchun bir oy vaqti bor edi. Endi bu uylar yo‘q qilingach, butun bir isroillik advokatlar guruhi chet el matbuotiga intervyu berib, hech qanday dahshatli narsa sodir bo‘lmayotgani, rasmiylar faqat falastinliklarni sudga olib kelishni xohlayotganini aytmoqda.

Bu voqea Isroildan tashqarida ham ommaga oshkor bo‘ldi, chunki dastlab ming nafar falastinlik ko‘chirilishi e’lon qilingan edi, ammo asta-sekin ko‘lam kengayib

bormoqda: endi 15 ming kishining uylarini buzish rejalashtirilgan. Shu bilan birga Isroil hukumati Sharqiy Quddusda yahudiylar uchun 1200 ta yangi uy qurish rejasi borligini e’lon qilishdi.

Bu voqea bilan bir vaqtda badaviylarni ko‘chirish bo‘yicha e’lon qilingan reja masalasida ham janjal ko‘tarildi. 2013-yilning kuzida Isroil hukumati badaviylar (bu o‘sha o‘sha falastinliklar, ammo Isroilda ular alohida toifaga ajratilgan) Negrlar sahrosida noqonuniy yashayotgani va ko‘chmanchilik qilayotganini e’lon qildi. Shuning uchun *(Isroil OAV ma’lumotlariga ko‘ra) 40 ming, (Falastin OAV ma’lumotlariga ko‘ra)* 80 ming badaviylar shimoldagi lagerga majburan ko‘chirilishi kerak. Badaviylarning sahrodagi chodirlari ham noqonuniy deb topildi.

Badaviylar g‘azablanib, Falastin bayroqlarini ko‘tarib, toshlar otib namoyishlar uyushtirdilar. Hokimiyat go‘yoki ko‘chirish g‘oyasidan voz kechgandek ko‘rindi, ammo 2013-yil dekabr oyida ma’lum bo‘lishicha, ular dastlabki rejadan faqat ko‘chirish ko‘lamini kengaytirish foydasiga voz kechishgan. Endi hukumat sahro badaviylardan tashqari Karmieldagi Ramiya qishlog‘idan badaviylarni ham majburiy ko‘chirmoqchi.

Rasmiylar majburiy ko‘chirish rejasini e’lon qilishi bilanoq Isroil ommaviy axborot vositalari darhol badaviylarga qarshi kampaniyani boshlab yubordi: ular har birida minglab quroli mavjud to‘dalar ekanligi, qaroqchilik, qurol-yarog‘ kontrabandasi bilan shug‘ullanishlari, harbiy ob’ektlarga josuslik qilishlari, Misrdagi musulmon birodarlari buyruqlarini bajarishlari va ular o‘z qudrati bo‘yicha Isroil armiyasiga deyarli tenglashishlari haqida xabarlar tarqatishdi.

Qochqinlar ishlab chiqarish fabrikasi

Isroilda Falastin qochqinlar lagerlarining mavjudligi va ularni xalqaro miqyosda qo‘llab-quvvatlash tamoyilini qoralashni yaxshi ko‘rishadi, shu bilan birga jamiyatga foyda keltirishi mumkin bo‘lgan falastinliklarni qochqin va uysizlarga aylantirish jarayonini to‘xtatishmaydi.

2013-yil may oyida armiya buldozerlari Sharqiy Quddusning Jabal Al-Muqabben kvartalidagi to‘rtta xususiy uyni buzib tashladi. Ulardan biri Abu al-Dabaat oilasiga tegishli edi.

Bu 480 kvadrat metr maydonga ega uch qavatli uy bo‘lib, unda uylangan bolalari uchun to‘rtta alohida kvartira mavjud edi. Ularning bobosi tomonidan 1930-yilda sotib olgan erdagi uy 1973-yilda qurib bitkazilgan. O‘shanda sud oilaning otasini ruxsatsiz qurilish qilgani uchun ikki yilga qamoq jazosiga hukm qilgan. Uyni likvidatsiya qilish paytida buzilishga qarshilik ko‘rsatgani uchun ushbu oilaga mansub uch nafar o‘smirni hibsga olishgan.

Jabrlanganlardan yana bittasi al-Qaq oilasi bo‘lib ular 2000-yilda uyini qurib bitkazgandi. 2002-yilda birinchi marta, buzishni o‘zlari amalga oshirish majburiyatini yuklovchi qarorni oldilar. Ular buni qilmagani uchun sud ularni 80 ming shekel *(21 800 dollar)* miqdorida jarimaga tortdi. Bu davrda oila qurilish uchun ruxsat olishiga urindilar, ammo behuda.

Shimoliy Quddusdagi “Shufat” Falastin qochqinlar lagerida Isroil hukumati noqonuniy qurilgan deb hisoblagan uyni buldozerlar bilan vayron qildi, garchi qochqinlar lagerlari maqomi to‘g‘risidagi xalqaro qonunlar bo‘yicha mamlakat hukumati eksterritorial bo‘lgan lagerlarga bostirib kirishi mumkin emas.

Xevron janubidagi “Al-Favar” qochqinlar lagerida askarlar Isroilning Maoun aholi punkti manfaatlarini ko‘zlab, buloqlarni yo‘q qildilar. Ko‘chkindilar o‘z chegaralarining janubi- g‘arbiy qismidagi hududlarni qo‘shib olishdi va armiya ularga falastinliklarning sug‘orish inshootlarini yo‘q qilishga yordam berdi. Falastinlik advokat Abdul Hodi Xantash ko‘p yillar davomida uylari vayron qilinayotgan, bog‘lari kesilayotgan vatandoshlarining huquqlarini himoya qilishga behuda urinib keladi. Ko‘chkindilar G‘arbiy sohilda bo‘lishi noqonuniy, lekin armiya ularning manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladi.

2000-yildan beri G‘arbiy sohildagi Xevron tog‘ligining janubidagi dehqonlarni ko‘chirilishi voqealari davom etmoqda. Ular bu yerda XIX asrdan beri g‘orlarda

yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib keladi. 1999-yilda armiya 12 ta qishloqdan 700 nafar falastinlikni quvib chiqardi. O‘shanda ular poligon hududida noqonuniy yashab kelayotgani bahonasi bilan majburiy ko‘chirilgan edi. Biroq poligon faoliyat ko‘rsatmadi va aholi o‘z uylariga qaytib kela boshladi. Shunday bo‘lsa-da elektr tortish, suv o‘tkazish, quduq qazish va hojatxona qurish taqiqlangan edi. 2012-yilda armiya bu yerda mashg‘ulotlarni qayta boshlab yubordi va sudlarda yana 12 ta aholi punktidan 8 tasini majburiy ko‘chirish bo‘yicha tortishuvlar boshlandi. Qarabsizki, 1200 ta falastinlik chorasizlik vaziyatida qoldi.

Vaqt kim uchun ishlayapti?

1947-yildan beri bir parcha hududda kechayotgan dramaning echimi yo‘qday ko‘rinadi. Isroilda xavfsizlik bilan bog‘liq har qanday ma’lumot maxfiylashtirilgan va armiya ishtirok etadigan har qanday narsa xavfsizlik masalasi hisoblanadi. Shu tariqa Falastin zaytunlari, uylari, yaylovlari, cho‘llari va qishloqlari Isroil davlati uchun hayotiy muhim xavfsizlik ob’ektlariga aylandi.

Isroil jamiyatida kichik so‘l guruhlar va katta bo‘lmagan yahudiy jamoalaridan tashqari Falastin muammosi bo‘yicha konsensus mavjud: falastinliklar yo‘q bo‘lishi kerak. Ammo uni hal qilish yo‘llari turlicha. Ba’zilar qimmatbaho xavfsizlik dasturlarini bekor qilishni va har bir falastinlik oilaga ketishlari uchun 250 ming dollar ko‘tarma pullarini to‘lashni taklif qiladi. Boshqalarning ishonch bildirishicha, armiya va yahudiy ko‘chkindilar asta-sekinlik bilan, ammo to‘g‘ri harakat qilishmoqda. Hukumat esa yildan-yilga isroilliklar uchun uylar qurish bo‘yicha pudratlar tarqatmoqda va falastinliklarning uylarini buzmoqda.

1948-yildan beri falastinliklar jiddiy o‘zgargan, ular endi Deyr-Yasin qishlog‘idagi vahshiyliklardan qo‘rqib qochayotgan dehqonlar emas. Ular siyosiy jihatdan jipslashgan, Sharqdagi eng ma’rifatli millatga aylandilar. Ularning siyosiy partiyalari bor. Va ular hech qachon o‘z uylarini tashlab ketmaslik kerakligi haqidagi saboqni mustahkam o‘zlashtirib olishdi.

Kimning qat’iyati ustun keladi, hali ko‘ramiz.

Eslatib o‘taman, Genri Kissinjer 2012-yilning kuzida 17 ta Amerika razvedkasining 80 sahifali hisobotini o‘rganib chiqqani haqida bayonot bergan edi. Va ushbu hisobotga ko‘ra, 2023-yildan keyin Isroilning mavjudligi nazarda tutilmaydi.

Yaqin Sharq dunyosi konstruktori Kissinjerning bunday shov-shuvli mavzuda nima uchun gapirganligining ko‘plab versiyalari mavjud. Umuman gapirganmidi o‘zi? Nima bo‘lganda ham, aynan o‘sha odam Isroil abadiy emasligi haqidagi sakramental iborani aytgan. 2023-yilda vafotidan oldin, u ushbu tuzilmaning hayotiyligiga ishonchsizlik bildirgandi.

G‘ARBIY SOHIL

“Isroil bu shaharni o‘ldirdi”

Falastinliklarning fikricha, hozirda Quddusda qo‘llanilayotgan falastinsizlashtirish siyosatining barcha usullari: Falastin hududida yahudiy aholi punktlarini yaratish, blokpostlar o‘rnatish, ziyoratgohlarni olib qo‘yish, odamlarni ish va oziq-ovqatdan mahrum qilish kabi ishlar, oldin Xevronda, ya’ni Al-Xalilda sinovdan o‘tkazilgan va u joylar o‘ziga xos sinov poligoniga aylangan.

Ya’ni, Quddusdagi hamma ishlar, Ibrohimning shahri Xevronda sinab ko‘rilgan uslub bo‘yicha amalga oshirilmoqda.

Quddusdan Xevrongacha atigi 30 kilometr yo‘l bosib o‘tiladi.

“Al-Qudsni yo‘qotganimiz kabi Ibrohim masjidini ham yo‘qotdik”, deydi Tag‘rid al-Mahidsab. U 40 yoshda, Xevronning Eski shahrida yashaydi va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanadi.

Quddusda u oxirgi marta 20 yil oldin bo‘lgan. U Quddusga boshqa bora olmadi: buning uchun ruxsatnoma kerak, falastinlik ayolga esa ruxsatnomani shunchaki berishmaydi.

Uning o‘z farzandlari yo‘q, lekin singlisining o‘nta farzandi bor. Ular bir oila bo‘lib, barcha qiyinchiliklarni baham ko‘rib yashaydilar. Qiyinchiliklar esa faqat ish va daromad yo‘qligi bilan bog‘liq emas.

Xevron falastinliklari uchun vaqt okkupatsiyadan oldingi va okkupatsiyadan keyingi, ya’ni 1967-yildan keyingi vaqtga bo‘lingan.

“Biz bu yerda hech narsani nazorat qilmaymiz. Yahudiy bayramlarida falastinliklar uchun nafaqat masjid, balki do‘kon va magazinlar ham yopiladi. Yo‘lak yopiq. Masjid darvozasini biz uchun xohlagan paytda yopib qo‘yishadi. Shunchaki blokpostni yopib qo‘yishadi, tamom. Ogohlantirishlarsiz, tushuntirishlarsiz”, – deydi Tag‘rid.

Bosqinchilar

Arabchada Al-Halil deyiladi. U Quddusdan besh yuz yoshga katta.

Xevron – bu Falastin, bu G‘arbiy sohil, bu avtonomiya – Isroil emas. Shaharda 180 mingga yaqin, atrofi bilan qo‘shib hisoblaganda esa yarim million aholi yashaydi. Men bu yerda birorta ham Falastin politsiyasi vakilini uchratmadim. Ammo 800 nafar ko‘chkindining uy-ro‘zg‘orini qo‘riqlaydigan Isroil armiyasi askarlari, blokpostlar va harbiy texnikalariga to‘lgan.

Bu yerda Ibrohim, uning o‘g‘li Is’hoq va nabirasi Ya’qub, shuningdek, ularning xotinlari Sora, Rivqo va Liya dafn etilgan uchta patriarxning *(Al-Haram)* mashhur qabri joylashgan. Musulmonlar Ibrohim, Is’hoq va Ya’qubni payg‘ambar deb ulug‘laydilar. Ularning qabrlari joylashgan g‘or ustida katta masjid qad ko‘tarib turibdi.

Yahudiylar uchun Xevron Quddusdan keyin ikkinchi muqaddas joy hisoblanadi.

1994-yilgacha masjidga kirish barchaga – musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar uchun erkin edi.

1994-yil 25 fevralda masjidga qurollangan ko‘chkindi – AQSH lik repatriant, shifokor Barux Gol’dshteyn bostirib kirdi va otishma amalga oshirdi: u 29 musulmonni o‘ldirdi va yana 150 kishini yarador qildi.

Shundan so‘ng masjid devor bilan ikki qismga – yahudiylar va musulmonlar uchun ajratildi. Ya’ni masjidning yarmi sinagogga aylantirildi. Bundan tashqari, ko‘chkindilar o‘zlari yahudiy kvartali deb ataydigan shaharning bir qismini egallab olishdi. Shahar yaqinida katta aholi punkti qad ko‘tardi, shaharning ulkan qismi esa shunchaki o‘lik xolga keldi.

Yahudiy kvartallarini va patriarxlar g‘orini Isroil armiyasi qo‘riqlaydi, shaharni kesib qo‘yadigan yigirmaga yaqin doimiy va vaqtinchalik blokpostlar mavjud. Muhofaza qilinadigan hududga falastinliklarning kirishi taqiqlangan.

Bir qabrning ikki tomoni

Masjidga yo‘l eski bozor orqali o‘tadi. Uning oxirida panjaralar, aylanma panjara eshiklar va Isroil blokposti joylashgan. Keyin esa sumkani ochish, telefon va barcha texnikani ko‘rsatish va hujjatlarni taqdim etish talab qilanadigan ikkinchi blokpost. Bu yerda istalgan falastinlikni qo‘lga olishlari mumkin.

2015-yil 25-sentyabr kuni intifada avjiga chiqqan paytda bu yerda 17 yoshli qiz Daniya Husayn Jihod Irshod otib o‘ldiriladi. Shunchaki unga o‘q uzishib, uning yoniga pichoq qo‘yishib, barcha ommaviy axborot vositalarida, go‘yoki u askarlarga hujum qilmoqchi bo‘lgani haqida bong urishadi. Tasodifan yaqin atrofda fotosuratchi bo‘lib qolgan va u sodir bo‘layotgan voqealarni tasvirga olib propagandani rad etish uchun tarmoqqa joylashtiradi. Qiz hech kimga tahdid qilmagan va yonida pichog‘i ham yo‘q edi...

Blokpostda bir nechta askar bor. Sumkamni tekshirishadi. “Siz bu yoqqa”.

Ular meni falastinliklar uchun masjidga kirish joyiga yo‘naltirishadi. Biroz narida yahudiylar va sayyohlar uchun sinagoga bor.

Musulmonlar uchun kirish joyi yon tomonda, ammo aynan masjidga ajratilgan hududda, ota-bobolar qabrlari bo‘lgan g‘or ustida ikkita quduq qolgan, ularga chiroqlar tushiriladi va xatlar tashlanadi. Uch qavatli panjara ortida narigi tomonda yahudiylar ibodat qilayotgani elas-elas ko‘rinadi.

Falastinlik ayol yahudiy va musulmon hududlarini ajratib turadigan katta qadimiy eshikning qulf teshigidan mo‘ralaydi va orqaga tisariladi: “U yerda ko‘z bor! U qarab turibdi...” U tomondan ham kimdir bu yerda nimalar bo‘layotganini kuzatishga urinadi.

Katta ibodatxona gilamlar bilan bezatilgan. Menga Gol’dshteyn qaerdan kirib kelganini, o‘lganlar va yaradorlar qaerda yotganini, uning o‘zini qaerda o‘ldirishganini ko‘rsatishadi.

“Shu paytgacha yahudiylar, garchi armiya ularga to‘sqinlik qilgan bo‘lsa-da masjidning istalgan joyida, istalgan vaqtda ibodat qilishardi. Aslida ularga masjidga

kelishlari taqiqlangan – biz emas, ularning o‘zlari taqiqlashgan. Gol’dshteyn kelib, otishma uyushtirdi va oqibatda ular masjidni egallab olishdi. Garchi u jinoyatchi bo‘lsada, Gol’dshteyn irodasi bajo keltirilgandek. Endi ular masjidni bo‘lib olishdi va o‘z ixtiyorlaridan kelib chiqib biz uchun masjidni xohlasa ochadi, xohlasa yopishadi. O‘zlari har doim ziyorat qilishlari mumkin, biz esa faqat ular ruxsat bergandagina”, – deydi masjidda tartibni nazorat qiluvchi keksa falastinlik.

“Biz bolalarimizni hech qaerga qo‘ymaymiz: Isroil askarlari bolalarni ushlaydi, so‘roq qiladi, tintuv o‘tkazadi. Agar bolaga biror narsa bo‘lsa, biz uni qidira olmaymiz, axir ularning blokpostlaridan o‘tishga haqqimiz yo‘q, – deb tushuntiradi nabiralari bilan kelgan falastinlik ayol. – Biz ko‘plab taqiqlar, kamsitishlardan aziyat chekamiz. Buni tushuntirish qiyin, bu bizning hayotimiz, bu har qadamda sodir bo‘ladi”.

Masjidning yahudiy qismiga o‘tish uchun, aftidan hech kim kirmaydigan, suvener sotiladigan yangi do‘konlar joylashgan ko‘chadan pastga tushish kerak, bir nechta isroillik askarlar zanjiri, harbiy texnika, shlagbaum yonidan o‘tish talab etiladi.

Bu yerda hech kim hech narsani tekshirmaydi, askarlar onda-sonda uchraydigan ko‘chkindilarga erinchoqlik bilan qarab qo‘yishadi. Falastinliklarning bu yerdan o‘tishi imkonsiz. yaqinlashishga bo‘lgan har qanday urinishda ular hibsga olinishi yoki shunchaki o‘ldirilishi mumkin.

Bog‘, zaytun, favvora, gullar bilan bezatilgan masjid xovlisi – yahudiylar qismida. Katta marmar ayvonli va chiroyli zinapoyali masjidning asosiy kirish eshigi ham shu yerda.

Qabr devori yonida shlyapa kiygan yolg‘iz yahudiy ibodat qilmoqda.

Masjidning asosiy kirish joyi faqat isroilliklar va sayyohlar uchun. Uchinchi kirish eshigi butunlay yopib tashlangan.

Zinapoya oldida shovqin-suron, kulgi, baland ovozda suhbatlar. Bular Isroilning bepul dasturi bo‘yicha kelayotgan amerikalik sayyohlardir.

Kirishda qurollangan ayol askar, bo‘shashgan holatda o‘tiribdi.

Uzun yubka kiyib, boshini yopib olgan birorta ayol yo‘q, ammo ba’zilari sochlarini yoyib, astoydil ibodat qilishadi. Ibodat qilayotganlar parda tortilgan bir necha xonalarga bo‘lingan.

Uning yonida stollar va rastalar joylashgan xona bo‘lib, u yerda ayniqsa shovqin-suronli: bu yerda ziyoratchilar guruhlari tamaddi qilishadi.

Mozordan chiqish joyida yahudiylarning bir nechta tez ovqatlanish rastalari joylashgan. Bu yerda ham ko‘p bolali ko‘chkindilarning bir necha oilasi muqimlashmoqda.

Ibrohim sho‘rvasi

Quyoshga to‘lib toshgan tongi shahar, kam sonli rastalar va magazinlar ishlab turibdi. Hamma yoqda Ibrohim sho‘rvasini olish uchun ketayotgan – chelak, termos, qozon, hatto choynak ko‘targan bolalar.

Muqaddas Kitobda aytilishicha, bir kuni Ibrohimning oldiga uchta yo‘lovchi kelgan, Ibrohim esa ularning qornini to‘ydirgan. Ilohiy tushunchaga ko‘ra, bu uch kishi farishta bo‘lgan. Pravoslavlikda aynan shu syujet Andrey Rublevning eng mashhur “Troitsa” deb nomlangan rus ikonasida tasvirlangan deb ishoniladi.

Ibrohimning mehmondo‘stligini eslab, har qanday muhtoj yoki yo‘lovchiga sho‘rva berish an’anasi shundan paydo bo‘lgan.

Masjid yaqinidagi ikki qavatli bino oldida chelak ko‘targan turli yoshdagi bolalar ko‘p. Meni bu yerga olib kelgan falastinlik ayollar bilan birga bozordan shunday chelaklardan bir nechtasini sotib oldik – ular sho‘rvani ko‘p soatlar davomida issiq holda saqlaydi.

Bosh oshpaz Vaddoh al-Jabariy oshxonada 20 yildan beri ishlaydi.

Uning qo‘l ostida to‘rtta yordamchisi bor. U bug‘lanib turgan qaynatmani ulkan qozonda aralashtirmoqda. Masalliqlarni xarid qilish, sho‘rva tayyorlash, bino ta’minoti – hammasi xayriya mablag‘lari hisobiga.

Vaddoh al-Jabariy har kuni 50-60 ming kishiga sho‘rva tayyorlaydi. Go‘shtli kunlari 1 ming 200 kilogramm tovuq go‘shti, 5 ming kilogramm mol go‘shti ketadi. Dushanba kuni tovuqli sho‘rva, juma kuni go‘shtli sho‘rva. Men go‘shtsiz kunga tushib qoldim: polba va ziravorlardan tayyorlangan, xushbo‘y va mazali sho‘rva.

“Men sho‘rva uchun go‘sht va boshqa narsalarni xayriya jamg‘armalari orqali emas, balki odamlardan qo‘lma-qo‘l olishni afzal ko‘raman”, – deydi bosh oshpaz.

Uning otasi bu yerda 40 yil ishlagan. Akalari ham shu yerda ter to‘kishgan.

“Ibrohimning sho‘rvasi ming yildan beri tarqatiladi. Joyi o‘zgarib turgan. Iordaniya[60] davrida masjid yonidagi eski oshxona buzib tashlangan. Bu o‘shandan beri uchinchi bino. Umuman olganda, dastlab 40 xonali katta uy bo‘lgan va u yerda odamlar sho‘rva ichishgan”, – deydi Vaddoh.

Yurishni endi o‘rgangan bolalar darchadan kichkina choynakchalarni suqishadi.

“Kichkintoylarga issiq sho‘rva berishni xohlamayman, lekin ularni ota-onalari yuborgan bo‘lsa, nima ham qilardik”, – deb hitob qiladi oshpaz.

Sho‘rvani faqat shaharda emas, qishloqlarda ham tarqatishadi: u yerda boshqa oziqlanish manbasi yo‘q kambag‘allar ko‘p.

“Ushbu an’ana Ibrohim alayhissalom uch yo‘lovchini to‘ydirgani, ular farishta bo‘lib chiqqani haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Shuning uchun hammani ovqatlantiramiz, ular kim bo‘lib chiqishini esa biz hal qilmaymiz”, – deb kuladi oshpaz yordamchisi.

Al-Halil etikdo‘zi

Etikdo‘zlik Xevrondagi an’anaviy kasbdir. Bu yerda 300 ga yaqin ustaxona bo‘lib, 30 ming nafar hunarmand mehnat qiladi.

Hunarmand Samer 40 yoshda. Uning barcha ajdodlari shu yerda yashagan va ko‘p asrlar davomida mahalliy qabristonga dafn qilingan. U Al-Xalilda o‘sgan, bu

[60] 1967-yilgacha G’arbiy Sohil Iordaniya tomonidan boshqarilgan.

yerda maktabni tugatgan va bobolari kabi ko‘p yillar davomida poyabzal tikib, uni sotgan.

“Ettita farzandim bor. Ikki oy ichida bir tiyin ham topolmadim. Ko‘rib turibsiz-ku, shahar bo‘m-bo‘sh. Hech kim yo‘q. Umuman ish yo‘q”, – deydi Samer.

Uning ahvoli achinarli. Ammo u Xevrondan hech qayoqqa ketmoqchi emas: “Ibrohim sho‘rvasi uchun bolalarni yubormaymiz. Yaratganga shukr, tirikmiz! U yerdan sho‘rva olmaymiz, chunki oziq ovqatimiz bor. Qarindoshlarimdan qarz olsam bo‘ladi, o‘ziga to‘q qarindoshim bor. Biz bir-birimizga yordam beramiz. Imkoniyat bor ekan, sabr qilamiz”.

Aksariyat falastinliklardan farqli o‘laroq Samer o‘tgan hafta Quddusda bo‘ldi.

Sabab afsuski quvonarli emas: “Xolam saratonga chalingan, uni kasalxonaga olib bordim. Bemorni kuzatib borish uchun ruxsatnoma oldim, uch kunga berishdi. Bu ruxsatnoma faqat shu shifoxona uchun. Men xolam bilan avtobusda to‘g‘ri shifoxonaga borardim va u yerdan hibsga olinish xavfi ostida hech qaerga chiqa olmasdim. Biz u yerda tunab qololmasdik: qog‘ozda mening qaytadigan vaqtim ham ko‘rsatilgan. Shunday odamlar borki, ular kasalxonada yashashadi, chunki ularning ruhsatnomasida tashqariga chiqish taqiqlangan”.

Samer uni suratga olmaslikni so‘raydi, aks holda matbuot bilan muloqot qilgani uchun unga keyingi safar ruxsat berilmaydi.

Boshi berklik prinsipi

Al-Xalil bo‘ylab sayr har safar yo‘lning devorga taqalishi bilan tugaydi. Bu esa devor ortida ko‘chkindilar borligini anglatadi.

Eng uzun savdo ko‘chasining usti to‘r bilan, ba’zi joylari esa plyonka bilan qoplangan. Savdogarlarning tushuntirishicha, uylarning yuqori qavatlari tortib olingan. Ba’zida ular derazalardan chiqindilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkinchilarning boshiga tashlaydilar, yuvindilarni, iflosliklarni to‘kadilar. Do‘kon egasi yuvindilardan ifloslangan chiroyli falastincha ayollar va erkaklar ko‘ylaklarini ko‘rsatadi.

Yuqori qavatlarga pastdan qarasangiz, ko‘chkindilar ko‘rinmaydi. Darchalar yopiq. Ammo chorrahaga chiqsangiz, tomlardagi blokpostlarni ko‘rishingiz mumkin. Askarlar Isroil bayroqlari ostida quyoshda toblanishmoqda.

“Ko‘chkindilar tuxum, balchiq yoki undan ham yomon narsani otishi mumkin. To‘r tortishdan boshqa iloj yo‘qmi? Politsiyamiz ularni jarimaga tortolmaydi, Isroil armiyasi esa o‘zini ko‘rmaganlikka oladi. Sudlar esa bizning shikoyatlarimizni ko‘rib chiqmaydi”, – deydi savdogar.

Mahalladagi eski masjid yonida Muhammad Shadit o‘tiribdi. U 75 yoshda. Bir vaqtlar bu yerlar shaharning gullab-yashnagan tumani edi – uning yonida tashlandiq bog‘dan to‘r bilan ajratilgan eskirgan munisipal bino joylashgan. Boshqa tomonda yahudiy o‘quv muassasasi qurilmoqda. Isroil tomondagi to‘r yonida chiqindixona bor.

“Mening daromadli do‘konim bor edi, lekin hozir u ishlamayapti”, – deydi qariya. U 12 yil oldin bu tumanni ko‘chkindilar qanday egallab olganini aytib beradi. Falastinliklar haydab chiqarildi, hokimiyat qaroriga e’tiroz bildirish yoki tovon puli olish huquqini bekor qilgan holda barcha do‘konlar harbiy qonun bo‘yicha yopildi.

“Bizning madrasamizni tortib olishdi, endi ular madrasa o‘rnida o‘z ieshivasini[61] qurmoqda”, – Muhammad to‘r ortidagi ko‘p qavatli binoni ko‘rsatadi, u bo‘sh va vayron bo‘layotgan qadimiy ikki qavatli Falastin binolari ustida qad rostlab turardi.

“Shaharning ular egallab olgan qismiga birorta falastinlik kira olmaydi. Hatto Isroilda yashovchi falastinliklar ham u yerga kira olmaydi. Hatto falastinlik parlament a’zolari ham ruxsat so‘rashi kerak, ruxsat berishadimi yoki yo‘qmi u ham noma’lum”, – deydi u.

U meni boshi berk ko‘cha bo‘ylab olib boradi: “Bu yerda ilgari avtobus bekati bo‘lgan, okkupatsiyadan oldin avtobuslar Amanga ham qatnagan. Okkupatsiyadan keyin ham bir amallab yashash mumkin edi. Goldshteyn hujumidan keyin esa hammasi

[61] Ieshiva – yahudiylar uchun diniy ta’lim muassasasi.

o‘zgardi. Hatto Ibrohim masjidida ham azon aytish taqiqlandi”, – deb larzaga tushadi falastinlik.

“2000-yilgacha bu joy sershovqin ko‘cha edi. Endi esa hech kim yo‘q. O‘zingiz ko‘rib turibsiz. Na transport bor, na mehmon. Isroil bu shaharni o‘ldirdi va hammamizning bu yerdan ketishimizni istaydi. Men hech narsadan qo‘rqmayman, yo‘qotadigan narsam yo‘q. Biz falastinliklarning yo‘qotadigan boshqa narsamiz yo‘q”, – deydi qariya.

Ro‘molimni chuqurroq tortib, o‘lik Falastin ko‘chasiga qarab yo‘l olaman. Falastin ayollari: “Bunday borish juda xavfli, ular sizni o‘tkazib yubormaydi!” deyishadi. “Ko‘ramiz”, – deb javob berdim men.

500 metrdan keyin birinchi blokpost, stullarda Isroil askarlari o‘tiribdi. Ular qo‘llarida jurnalist guvohnomasini aylantirib, qaergadir qo‘ng‘iroq qiladi va meni o‘tkazib yuborishadi.

Isroil graffitisi tushirilgan bo‘sh uylar yonidan o‘tib boraman. Ba’zi joylarda uyning ikkinchi qavatidagi falastinlik oilalar o‘z kvartiralarini ushlab turishibdi: derazalar panjarali, ba’zilarida jahon hamjamiyati va BMT ni insoniylikka chaqiruvchi plakatlar osib qo‘yilgan. Podezdlar to‘silgan, ular o‘z kvartiralaridan faqat shaharning Falastin qismiga chiqishlari mumkin.

Ahyon-ahyonda ko‘chkindilar uchrab qoladi. Deyarli hammasi qurollangan. O‘quvchi qizlar o‘tishadi. Hech kim to‘xtamaydi, savollarga javob bermaydi, qadamini tezlatib, fotoob’ektivdan o‘zini pana qilib o‘tib ketadi. Aholi punktidan amerikalik sayyohlar juftligi chiqib kelishmoqda.

O‘ng tomonda ko‘chkindilar egallab olgan uylar. Chap tomondagi tepalikda eski Falastin qabristoni joylashgan. Tepalikning yuqorisida esa Falastin shahri o‘z hayoti bilan yashamoqda.

Qabrlarni ko‘rish uchun liqildoq zinapoyadan ko‘tarilaman, ammo qabristonga o‘tishning iloji yo‘q – hamma yoqda tikanli sim kalavalari.

Yuqori yo‘ldan menga imo-ishora qilib baqirishadi. Nihoyat, falastinlik o‘smirlar mening kimligimni, qaerdan ekanligimni va u yerda bo‘lishim xavfli ekanligini tushunayotganimni bilishimni xohlashlarini anglayman, chunki men ro‘mol o‘raganman va meni musulmon yoki falastinlik deb o‘ylashlari mumkin. Falastinliklar xayoliy miltiqni tasvirlash orqali falastinlik ayollarlarga qanday munosabatda bo‘lishlarini ko‘rsatadilar.

Ammo askarlar katta blokpostdan boshini chiqarib ham qaramaydi. Hamma narsa uyquga cho‘mgan va qandaydir to‘xtab qolganday. Bir do‘koncha ishlab turibdi, undan qurollangan ko‘chkindi chiqadi va oyoqlari ostiga qarab, uyi tomon sudralib ketadi.

Askar yonimdan o‘tib, aholi punktini shahardan ajratib turgan devor tomon yuradi, burchakka o‘tadi va bir daqiqadan so‘ng qaytib chiqadi – bu ularning shunday hojatxonasi.

Ikki soat burun mana shu devor yonida, lekin uning narigi tomonida qariya Muhammad bilan gaplashgan edim, u Isroil bu shaharni o‘ldirgani haqida gapirgan edi. Nimaning evaziga? Falastinliklarni uylaridan haydab chiqarish, ishidan mahrum qilish va eski falastin hovlilarida peshob qilish uchunmi? Falastinliklarning boshiga axlat tashlash uchunmi?

Albatta, ko‘chkindilar bunday deb o‘ylashmaydi. Ular bu yerni Xudoning kalomi bilan o‘zlariga tegishli deb biladilar. Buni unutmaslik uchun har ehtimolga qarshi, falastinliklardan tortib olingan uylariga graffitilar chizishadi, unda bu yer ularniki ekanligini har tomonlama takrorlaydilar.

Uchrashuvning qurib qolgan ramzi

Xevronning narigi chekkasida Muqaddas uchlik rus pravoslav monastiri yashillikka burkanib yotibdi. Darvoza qulflangan, falastinlik qo‘riqchi esa darvozaga yaqinlashib, signal berganimizni sezmaganlikka oladi.

Nihoyat, u kelib, hech kimni o‘tkazolmasligini, chunki tez orada Isroil armiyasi kelishini aytadi. Ketadi, lekin ko‘p o‘tmay yana qaytib kelib, darvozani ochadi va ziyoratni tezroq tugatib chiqishimizni so‘raydi.

Taxminan bir kilometr uzunlikdagi yo‘l daraxtzor orqali monastirga olib boradi. Moskvadan kelgan bir guruh rus ziyoratchilari ruhoniy boshchiligida ibodatxonada ibodat qilishmoqda.

Yosh ruhoniy Dimitriy bu yerda uch yildan beri xizmat qiladi, o‘zi asli Sochidan. Ziyoratga kelgan ruhoniy bilan birgalikda ohista kanon o‘qiydi.

Ruhoniy Avraamiy cherkov rastasidagi ishlar bilan band, u bu yerga oldin 1993-yilda ham tashrif buyurgan. Keyinchalik 1996-yilda monastir Xorijiy pravoslav cherkovidan Rus cherkovi yurisdiksiyasiga o‘tganidan keyin qaytib keldi. 1997 va 2000-yillarda marhum patriarx Aleksiy II monastirga kelganini eslaydi.

Muqaddas zamindagi pravoslavlarga ham qiyin ekan.

“Ruhoniylik vizasini bir yarim yil kutish kerak, uni olish juda qiyin. Ammo u bilan butun mamlakat bo‘ylab sayohat qilish mumkin”, – deydi Avraamiy.

“Bizni aholi punktiga qo‘yishmaydi, sinagogada yuzimizga tupurishadi. Qariyalar oyog‘imiz ostiga tupurib, tikilib qarab turishadi. Bizning tabassum qilganimiz ularga alam qiladi. Yoshlar esa yuzimizga tupuradi...” – deydi u.

Ibrohim masjidida ko‘p marta bo‘lgan, masjid ikkiga bo‘linmasdan oldin ham o‘sha erda ibodat qilgan. Ikkiga bo‘lingandan keyin ham borgan.

Falastinliklar bilan bog‘liq muammolarni eslamaydi: “Avvallari masjidda to‘siqlar yo‘q edi, hamma joyda ibodat qilish, cho‘qinish ham mumkin edi. Musulmonlarga tegishli qismida odamlar hozir ham xushmuomala va mehribon”, – deydi Avraamiy.

“Biz monastirda musulmonlar orasida yashaymiz, bu yerda, ya’ni shaharning biz yashayotgan qismida yahudiylar va nasroniylar yo‘q”, – deb tushuntiradi xizmatchi.

Uning hikoya qilishicha, pastda, patriarxlarning qabrlari joylashgan g‘orlarda ko‘p asrlardan beri hech kim bo‘lmagan. “G‘orlar 1470-yilda yopilgan, ammo

quduqlarga pul va xatlar tashlanadi, u yerda esa pul ham xatlar ham yo‘q. Demak, ularni kimdir yig‘ishtirib olayapti...”, – deb kuladi u.

Uning tushuntirishicha, monastir hududida, rivoyatlarga ko‘ra, Ibrohim uchta yo‘lovchini qabul qilgan o‘sha Mamvriy eman daraxti o‘sgan. Yahudiylar eman daraxti yoniga ibodat qilgani kelishadi. Daraxtning o‘ziga yaqinlashishga ruxsat berilganda, po‘stlog‘iga qog‘oz tiqishardi... Bu qandaydir yangi butparastlik. Yig‘i devori kabi...” – deb hisoblaydi Avraamiy.

“Eman 1996-yilda qurib qolgan, 1997-yilda esa Falastin avtonomiyasi hukumati eman, bog‘ va monastir joylashgan butun hududni chet eldagi Rus pravoslav cherkovidan Moskvadagi patriarxatiga o‘tkazdi. Kuchli daraxt, uni yoqib yuborsangiz ham, baribir undan yangi nihollar o‘sib chiqaveradi”, – deydi ruhoniy.

Mamvriy emani tomon boraman. Balkim mening ko‘zlarim mo‘jizani ko‘rishga noloyiqmi, bilmadim, lekin yangi nihollar yo‘q.

Ibrohimning uch farishta bilan uchrashuvi ramzi qurib qolgan, degan fikrdan qutulish qiyin bo‘ldi.

Daraxt panjara bilan o‘ralgan. Yong‘oq solingan savatlar turibdi, esdalik uchun olish mumkin. Eman daraxtining o‘zi ko‘pdan beri hosil bermay qo‘ygan, ammo nariroqda yosh emanlar o‘sadi, sayyohlar va ziyoratchilar uchun shu emanlardan yong‘oq terib olinadi.

Sirena va tormozlarning chinqirig‘i bilan Isroil harbiy mashinalari eman daraxtiga yaqinlashib, yo‘lni to‘sib, aylana bo‘ylab saf tortadi. Askarlar va ofitserlar eman daraxti fonida suratga tushishadi, kulishadi, ratsiya orqali gaplashishadi.

Ulardan qaysi biri ruscha gapiradi, degan savol bilan boraman, rus tilini biladiganlarni chaqirishadi.

Askar Dima oq sariqdan kelgan. O‘zini yahudiy deb hisoblamaydi. SSSR parchalanganidan keyin oilasi bilan repatritsiya qilingan. Uning onasi nasroniy bo‘lib, yashash uchun Ispaniyaga ketgan, o‘zi esa otasi bilan qolgan, ular Xevron yaqinida yashashadi. U shu yerda xizmat qiladi.

“Biz bu yerda shunchaki ekskursiya qilib yuribmiz. Xizmatdoshlarim orasida dindorlari yo‘q, – deydi Dima. – Bu hech qachon tugamaydi. Bu mojaroning boshlanganiga ikki ming yil bo‘ldi. Hamma muammo ko‘chkindilardan, ular juda mutaassib xalq”.

Armiya ko‘chkindilarni, jumladan, Xevronni himoya qilishini u siyosat deb biladi.

“Siyosat haqida gapirishdan nima foyda?” – kuladi Dima.

Mashinada mening falastinlik qizlarim kelishadi. Armiya askarlari ularni o‘tkazib yuborish uchun orqaga chekinadilar. Bilmadim, agar Rossiyadan kelgan jurnalistlar bo‘lmaganida ular yo‘l berisharmidi? Yoki ularni o‘ldirisharmidi?

Biz monastir panjarasidan tashqariga chiqamiz. Devor yonida esa bir to‘da falastinlik bolachalar Isroil askarlariga otish uchun tosh g‘amlab olishgandi.

SO‘NG SO‘Z

So‘ng so‘zni yozar ekanman, G‘azoda misli ko‘rilmagan qirg‘in bo‘lyapti. Bu qirg‘inni ta’riflash uchun, hozircha menda so‘z yo‘q. G‘azoda birorta G‘arb yoki Sharq jurnalisti yo‘q. Eng yangi tarixda bunaqasini eslay olmayman. Faqat CNN dan Klarissa Vard G‘azoga o‘tib, bir nechta reportajlar qilishga muvaffaq bo‘ldi. Buning uchun Isroil tarafdorlari tomonidan qandaydir fantastik ta’qibga uchradi.

G‘azoda uch oy ichida 118 nafar hamkasbim, falastinlik jurnalistlar o‘ldirildi. Mening hamkasblarim shuncha miqdorda qurbon qilingan boshqa bir hududni bilmayman. Hatto Iroqda ham 350 nafar jurnalistni o‘ldirish uchun olti yil kerak bo‘lgandi.

Falastinliklarni G‘arbiy sohilda ham, Quddusda ham hibsga olishadi va o‘ldirishadi.

Bu kitob qahramonlarining ko‘pchiligi o‘ldirilgan. Ularning uylari. Men aytgan maktablar va shifoxonalar. Universitetlar va ustaxonalar. Yetimxonalar. Hayvonot bog‘i vayron qilingan. Samuniylar oilasining eshaklari va quyonlari o‘ldirilgan.

Odamlarim bilan bog‘lana olmayapman.

Bir narsani aniq bilaman – ular taslim bo‘lishmaydi.

Dunyo uyg‘onganidan, nihoyat falastinliklarning ovozi eshitilganidan hayratdaman: millionlab odamlar ruxsat berilgan va taqiqlangan namoyishlarga chiqmoqda, har kuni jazirama quyosh, qor va yomg‘ir ostida bunday marshlar o‘tkazilmoqda.

Dunyo birinchi marta yirik ommaviy axborot vositalarining diktatiga bo‘ysunmayotgani va inson imkoniyatlari chegarasidagi zulmga qarshilik ko‘rsatayotgan xalq bilan birdam ekanligidan hayratdaman.

Falastinliklar bilan ular qachon va qaerda yaxshi yashagani haqida gaplashish befoyda. Bu huddiki okkupatsiya ostida bo‘lganingiz ma’qulmidi? –degan savolni yaqinlashtiradi.

Falastinliklar yupun yashamoqda. 1948-yilda ular oddiy odam uchun qadrli bo‘lgan hamma narsadan: uy, bog‘, er, qabrlar, bolalik xotiralari, sayohat qilish va yaqinlarini ko‘rish, ketish va qaytish huquqidan mahrum bo‘lishdi.

Muqaddas joylar, buloqlar, qarag‘ay va zaytun bog‘larini saqlab turgan oddiy qishloq aholisidan, falastinliklar musulmonlarning o‘qimishli va ilg‘or jamoatiga aylandi.

Isroil uzoq vaqt davomida, falastinliklar – demokratiya va sivilizatsiya markazidagi terrorchilar ekanligiga dunyoni ishontirishga muvaffaq bo‘ldi.

Bunday argumentatsiyaning ishonchlilik davri yakuniga etmoqda.

Falastinliklar musulmon dunyosi uyg‘onishi uchun tovush berishdi. Va butun dunyoning uyg‘onishi uchun ham.

Falastinliklar o‘z dushmani bilan yakkama-yakka qolishmoqda. Ularga katta siyosat egalaridan hech kim yordamchi emas. Ular o‘zlaridan bir necha barobar katta kuchga qarshi turibdilar. Ular taslim bo‘lishmaydi.

Katta dunyoning har bir odami, Falastin qayg‘usiga hamdard bo‘lishni yoki bu qayg‘uni Falastin boshiga olib kelganlar bilan beg‘am ko‘ngilxushlik qilishni tanlashda – erkindirlar.

MUALLIF HAQIDA

Nadejda Kevorkova – harbiy muxbir, Yaqin Sharqda Misrda, Sudan, Pokiston va Afg‘onistonda, Kavkaz, Uzoq Sharq, AQSH va Yevropada ishlagan.

Antiglobalistik qo‘zg‘olonlar, 2006-yilgi Livan urushi va arab bahori voqealarini yoritgan.

Bir necha bor Falastin, Livan va Suriyada, falastinlik va suriyalik qochqinlar lagerlarida bo‘lgan.

Falastin mavzusi bilan 2000-yildan beri shug‘ullanib keladi. Falastin haqida ikkita kitob yozgan. Ushbu kitob har ikkalasining qayta ishlangan nashridir.

1998-yilda “Nezavisimaya gazeta” ning AQSHdagi muxbiri bo‘lib ishlagan.

2000-yildan “Novaya gazeta”, 2002-yildan “Gazetы”, 2010-yildan - RT.com sharhlovchisi bo‘lgan.

2010-yilda “Ayollik mardligi uchun” mukofotiga nomzod bo‘lgan.

2016-2017-yillarda Dog‘istondagi baland tog‘ maktabida dars berish uchun ketgan.

2016−2021-yillarda “Alif” telekanali uchun “Rus adabiyoti jihodi” hujjatli serialining uch faslini suratga oldi.

2008-yildan beri “Ozod flotiliya” aksiyalarini yoritib kelgan. U flotiliya – 2015 ishtirokchilari bilan xalqaro suvlarida qo‘lga olingan va bir hafta davomida Isroil qamoqxonasida saqlangan.

Uning 2006-yilgi Livan urushi fotosuratlari Moskvada namoyish etilgan.

Gellap instituti mukofoti laureati.

Ikkinchi Falastin xalqaro media forumi mukofoti sovrindori.

Qo‘rqmayotgan, kutmayotgan va so‘ramayotgan xalq.

Falastinda insonning yangi turi yaratilyapti. Ushbu odamlar kundalik turmushida – hayot va o‘lim – bir nuqtaga olib kelingan. Har bir falastinlik, biz uchun oddiy bo‘lib ko‘ringan maishiy ishni ham - o‘lim hamrohligida amalga oshiradi. Ustingda qurollangan va bu qurolni qo‘llagani uchun hech qanday javobgarlikka tortilmaydigan dron va “qirg‘in tizimi” uchib turar ekan, sen o‘limni aynan shu yerda va shu vaqtda mutlaq tan olishing hamda g‘ayriixtiyoriy ravishda unutishing kerak bo‘ladi. Bu paradoksallik esa – o‘limni xususiylashtiradi. Shu sababdan – har bir falastinlik uchun oddiy yoki maishiy deb hisoblanadigan ish – reallikka, mohiyatga va Haqqa bog‘lanadi.

Progress, motivatsiya, to‘y tomosha, kiyim-kechak va iste’mol ma’budalari ta’siridagi ajib yangi dunyo insoni uchun - o‘limni xususiylashtirganlar tabiiy dushmandir.

Balkim shudir, umuminsoniy befarqlikning asosi.

G‘azoda Tunnellar vazirligi bor. Ha ularning hayoti va muqovamati mana shu “qabrlar” orqali o‘tadi. Shuning uchun ham ularni yengib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham qulaylik asosiga qurilgan g‘oyalar ularni o‘zining asosiy dushmani deb biladi.

Kitobni o‘qir ekansiz mana shu fikrlar hayoldan o‘tadi.

Ha, ular hech kimdan qo‘rqmayapti, hech narsa so‘ramayapti va hech narsa kutmayapti.

Aslida har qanday kurashning mohiyati shu.

Hamid Sodiq